75
A-15

# MUSIQA TA'LIMI, TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA O'QITISH ISTIQBOLLARI

## RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMANI MATERIALLARI TO'PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# *“MUSIQA TA’LIMI, TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA O‘QITISH ISTIQBOLLARI”*

mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjuman materiali

2022-yil 25-26-noyabr

# *"ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ"*

материал Республиканской научно-практической конференции по теме

25-26 ноября 2022г.

# *"PROSPECTS OF TEACHING THE SUBJECTS OF MUSIC EDUCATION, FINE ART AND ENGINEERING GRAPHICS USING MODERN PROGRAMS"*

material of the Republican scientific and practical conference on the subject

November 25-26, 2022

**Termiz-2022**

**КБК 75.1(5Ў) А 15**
**УЎК 796(575.1)**

*Mazkur konferensiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi to'g'risida"gi -F-sonli farmoyishi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 14-martdagi "Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda 2022-yilda o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasini tasdiqlash yo'g'risida"gi 97-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkazildi.*

**Mas'ul muharrir:**

**Chori Sadatov**-Termiz davlat pedagogika institutining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi mudiri dotsent.

**Tahrir hay'ati:**

**Qodirov Q.B.**- Pedagogika va san'at fakulteti dekani, dotsent pedagogika fanlari doktori

**Boymetov B.**- Chirchiq davlat pedagogika universiteti tasviriy san'at kafedrasi professori.

**Kamolov I.**- Qarshi davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi professori.

**Samiyev A.**- Pedagogika kafedrasi mudiri PhD

**Norbosheva M.**-Psixologiya kafedrasi mudiri psixologiya fanlari nomzodi dotsent.

**Xurramov U.**- Musiqiy ta'lim kafedrasi mudiri katta o'qituvchi.

**Abdurahimov L.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.b dotsenti.

**Mamatqulov I.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.b dotsenti.

**Toshpo'latov F.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi v.b dotsenti.

**Mo'minov B.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi kata o'qituvchisi.

**Xaitov Z.**- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**Xalimov M.- Toshkent davlat pedagogika universiteti muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti.**

**Turaqulov A.- Termiz davlat universiteti milliy lihos va san'at fakulteti decani PhD.**

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

ISBN: 978-9943-7487-9-8

© Ch.Sadatov va bosh.
© IRFON-PRINT, 2022.

**MUNDARIJA**

| | | |
|---|---|---|
| **Kirish** so'zi. Qobulov Eshbolta Atamuratovich Termiz davlat pedagogika institute rektori tarix fanlari doktori, professor | | |
| **1-SHO'BA. TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDLANISHGA OID NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR.** | | |
| *B.B.Baymetov* | Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda akadyemik va ijodiy ishlarning maqsad va vazifalari. | 8 |
| *I.B.Kamolov* | O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanishida tarixiy tajribaning nazariy jihatlari. | 13 |
| *Султанова Д.Н.* | Психологическое исследование индивидуальных качеств личности у учащихся архитектурно-строительных вузов. | 14 |
| *M.K.Xalimov* | Chizmachilik fanini o'qitisgda talabalarning fazoviy tasavvurini o'stirish elementlari. | 21 |
| *Ch.X. Sadatov* | O'zbek xalq amaliy sa'natida naqqoshlik san'atining ro'li. | 29 |
| *I.Ch.Mamatqulov* | Tasviriy san'atda foydalaniladigan asbob-uskunalar, materiallar, jihozlar va ularni rasm chizishda qo'llash texnologiyasi. | 38 |
| *Ch.X.Sadatov* | Chizmatasvir ishlash metodi. | 47 |
| *Ch.X. Sadatov* | Oddiy natyurmort chizmatasviri. | 51 |
| *S.X.Amonov*<br>*M.O'.Hayitmurodova* | " Yetuk pedagog - jamiyat ustuni ". | 54 |
| *S.X.Amonov*<br>*A.I.Sodiqova* | Pedagogika yo'nalishi talabalarni grafik va diagrammalarni bajarishga o'rgatish. | 59 |
| *I.Ch.Mamatqulov* | Soya- yorug' jihatlarni qalamtasvir fanida asosiy vosita sifatida ahamiyatini o'rganish va geometrik shakillarda yorug'- soya, refleks, hamda bliklarni tus berish usullarida o'rganish. | 71 |
| *B.K.Mo'minov.* | Umumta'lim maktablarida haykaltaroshlikni samarali o'zlashtirishda o'quvchilarning badiiy didi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish. | 76 |



...DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI KUTUBXONASI
Inv.raqami 31659
"19" 09 2023 yil

| | | |
|---|---|---|
| *З.А.Хаитов* | Психологик портрет қаламтасвирини тасвирлашда идрок этишни шакллантириш хусусиятлари. | 80 |
| *S.T.Sobirov* | Ertak va afsonalarga ishlangan illyustratsiyalarning bola tarbiyasidagi o'rni va roli. | 88 |
| *R.T.Ankabayev* | Bo'lajak o'qituvchilar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida. | 93 |
| *З.А.Хаитов* | Психологик портрет тасвирлашда рассом хиссиёти | 95 |
| *З.А.Хаитов* | Портрет жанрида яратилган инсон қиёфасини ўрганиш орқали унинг ҳарактер ҳолатини аниқлаш. | 98 |
| *С.Д.Жумаева* | Акмал Нур ижодий тажрибаси мисолида инглиз тили муҳитида креатив ёндашув. | 102 |
| *З.А.Хаитов* | Ўқувчиларга тасвирий санъат дарсларига индивидуал ёндашувнинг назариядаги аҳволи таҳлили | 112 |
| *З.А.Хаитов* | Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг психологик-педагогик асослари. | 115 |
| *B.K.Mo'minov* | Boshlang'ich sinflarda «tasviriy san'at fanini o'qitish metodlari». | 119 |
| *З.А.Хаитов* | Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув амалиётидаги аҳволнинг тавсифи. | 127 |
| *З.А.Хаитов* | Болаларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини тасвирий санъат асарлари орыали аниқлаш. | 131 |
| *I.Ch.Mamatqulov* | Rangtasvirning qisqacha rivojlanish tarixi | 135 |
| *S.T.Safarova* | O'zbekiston tasviriy san`atining hozirgi kunda tutgan o'rni va ahamiyati | 146 |
| *З.А.Хаитов* | Тасвирий санъатдан ўқувчиларни гуруҳларга ажратиш юзасидан ўтказиладиган психологик-педагогик ташхис | 150 |

| | | |
|---|---|---|
| *S.T.Nabirova* | Rangtasvir mashg'ulotlarida kompozitsiyaning o'rni va amaliy ahamiyati. | **154** |
| *Т.А.Хаитов* | Тасвирий санъат дарсларида педагогик эксперимент. | **157** |
| *Т.А.Хаитов* | Синфлар кесимидаги ўкувчилар ёш хусусиятларининг тасвирий фаолиятдаги фарклари. | **161** |
| *Т.А.Хаитов* | Тасвирий санъат дарсларида ўкувчиларга индивидуал ёндашув технологияси. | **165** |
| *N.B.Raxmonqulov* | Tasviriy san'atda portret janri. | **168** |
| *N.N.Nasimov* | O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashda o'lkashunoslikning tarbiyaviy ahamiyati. | **174** |


**2-SHO'BA. TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDLANISHGA OID NAZARIY VA AMALIY TADQIQOTLAR.**


| | | |
|---|---|---|
| *U.A.Xoliyev* | Ikkinchi tartibli chiziqlarni avvaldan berilgan parametrlar asosida yasash talabalarning konstruktorlik qobiliyatini shakilanterish | **180** |
| *S.Ch.Sadatov* | Qirqim va kesim bajarishda o'quvchilarda tipik xatolarga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini revojlanterish. | **184** |
| *F.U.Toshpulatov* | Qadimiy grix va o'simliksimon (islimiy) naqsh elementlarining geometrik tahlili | **192** |
| *F.U.Toshpulatov* | Oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning hozirgi kundagi holati. | **202** |
| *I.N.Abduraximov* | Chizmachilik darslarini taskil qilish va o'qitish metodlari. | **210** |
| *I.N.Abduraximov*<br>*M.I.Abduraximova* | Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish. o'qituvchining darsga tayyorlanishi. | **217** |
| *Ch.N.Sadatov*<br>*Sh.I.Shoqosimov* | Kompyuter grafikasi fanida talabalarga AutoCAD dasturidan foydalanib o'tkir, o'tmas, to'g'ri burchaklarni chizishni o'rganish. | **224** |
| *Д.М.Мазарова* | Методы использования пакета 3ds max при преподавании проецирования. | **226** |
| *S.I.Mustaramov*<br>*K.I.Mingto'rayeva* | O'quvchilarni geometrik yasashlarni bajarishga o'rgatish | **232** |

| | | |
|---|---|---|
| *L.X.Abduraximov S.Ch.Alimardanova* | Chizmachilik o`qitish metodikasida qo`llaniladigan ilmiy - tadqiqot bosqich va metodlari. ta'limning didaktik prinsiplari. | **239** |
| *G.S.Ergasheva* | Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'tish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish . | **249** |
| *N.N.Jumayeva* | O'quvchilarni qirqim bajarishga hamda chizmani o'qish usullariga o'rgatish metodikasi. | **253** |
| *A.H.Choriyeva* | San'at inson mehnat jarayonining ajralmas qismi sifatida | **260** |
| *S.Sh.Xursandova* | Chizmachilikdan grafik ish bajarishda xatolarga yo'l qo'yishga olib keladigan omlllar,ogohlantiruvchi vazifalardan foydalanishning ahamiyati | **263** |
| **3-SHO'BA. MUSIQA TA'LIMI FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI** | | |
| *У.К.Хурамов* | Ўзбекистонда биринчи халқ чолғулари оркестри ташкил этилишининг омилларига бир назар | **267** |
| *U.M.Ochilov* | "Boburnoma" asarida musiqaga oid voqealar | **271** |
| *О.Ю.Ирназаров* | Ўзбекистон халқ бахшиси Шоберди Болтаев | **279** |
| *M.E.Xo'jageldiyeva* | Musiqa fanlarini o'qitishda musiqa o'qituvchisi uchun kasbiy ko'rsatmalar | **282** |
| *O.B.Xakimov* | Surxondaryo folklor ijrochilik san'atida qo'shiq janri | **288** |
| *B.B.Murtazayev* | Sibelius va MuseScore musiqiy nota muharrir dasturlaridan foydalanishning ahamiyati | **296** |
| *H.Sh.Rakhmatullayev* | Music, man and artificial intelligence | **303** |
| *M.E.Khojageldiyeva* | Content of music culture lessons and elements organizing the music education system | **309** |
| *F.M.Xolmirzayeva* | Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyati | **314** |
| *E.A.Xo'jageldiyev* | An'anaviy xonandalarning katta ashulla ijrochiligi jarayonlariga tayyorlashning jismoniy va ruhiy asoslari | **318** |
| *E.A.Nuraliyev* | Nay cholg'usida ijrochilik malakalarini rivojlantirish metodikasi | **323** |
| *U.O.Ochilov* | Bobur shoh:shoir va adib | **330** |

| | | |
|---|---|---|
| *F.M.Kholmirzayeva* | Children's folklore in uzbekistan | 336 |
| *N.A.Ergashev* | Maktab o'quvchilaridagi turli yosh davrlariga xos xususiyatlar va muammolar | 339 |
| *M.A.Pardayeva* | The role of musical activities in conducting music lessons and their interaction | 347 |
| *M.J.Normurodova* | Musiqa o`qituvchisida vokal ko`nikmalarini shakllantirishning ba`zi muammolari haqida | 352 |
| *N.Xudoyqulova* | «Fortepiano» fanida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishga doir | 359 |
| *S.N.Jorayeva* | Traditions of composition in the performance of traditional singing | 364 |
| *A.N.Nazarov* | Musiqa darslarini samaradorligini oshirishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati | 369 |
| *N.K.Panjiyeva* | "Musiqa madaniyati" fanining mazmuni hamda dars faoliyatlarining o'quvchilar tarbiyasiga o'zaro aloqadorligi | 374 |
| *N.P.Ximmatova* | Musiqa madaniyati darslari maktabda hamda sinfdan tashqari faoliyatlarning tashkil etish mazmuni | 379 |
| **4-SHO'BA. MUSIQA TA'LIMI FANLARINI O'QITISHDA XALQARO AXBOROT BAZALARI (PLATFORMALARI)DAN FOYDALANISH.** | | |
| *B.M.Mashrabaliyeva* | Dutor oilasining yaratilishi tarixi hamda takomillashuv jarayonlari. | 383 |
| *F.M.Bozorova* | O'zbekiston kompozitorlari ijodida fortepiano musiqasi janrlari mazmuni | 387 |
| *N.M.Bozorova* | Bo`lajak musiqa o`qituvchisining o`rgatish jarayoniga pedagogik yondashuvini takomillashtirish masalalari | 394 |
| *M.J.Gadoyeva* | Qashqar rubobini o`rganishning dastlabki ko`nikmalarini shakllantirish metodikalari | 399 |
| *Д.Ў.Эшмуродова* | Чолғу асбоблари орқали болаларда мусиқий ижодкорликни шакллантириш | 406 |
| *X.Sh.Shuhratova* | Chanqovuz ijrosi bilan bog'liq badashlar | 411 |

## YALPI YIG'ILISH

**Qobulov Eshbolta Atamuratovich**
Termiz davlat pedagogika instituti rektori
Tarix fanlari doktori,professor

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 iyundagi Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida: Termiz davlat davlat pedagogika institutida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilmoqda. 2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" axborot tizimida elektron o'quv dasturlar, darsliklar, ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar, taqdimotlar, multimedia ta'lim mahsulotlari, ma'ruzalarning audio va video yozuvlari hamda boshqa kontentlarni joylashtirish ko'zda tutilgan. Pedagogika sohasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirishga oid dolzarb muammolarni aniqlash, ularni keng jamoatchilik ishtirokida, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar orqali muhokama qilish va ilg'or xorijiy tajribalar asosida ularning yechimi bo'yicha tavsiyalar berib borilmoqda. Joriy o'quv-yilidan boshlab Termiz davlat pedagogika institutida Musiqiy ta'lim hamda Tasviriy san'at kafedralari alohida-alohida tashkil etilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Xususan, birinchi tashabbus bo'yicha – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish ko'zda tutilgan.



## BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA AKADYEMIK VA IJODIY ISHLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Botir Boltabayevich Baymetov,** Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tasviriy san'at kafedrasi professori. bbb19532506@gmail.com

**Annotatsiya:** mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlash va talablarga akademik rasm chizish asoslarini o'qitish, shuningdek, akademik rasm chizishning maqsad va vazifalari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, badiiy ijod, qalamtasvir, kasbiy tayyorlash.

**Аннотация:** статья посвящена одной из актуальной теме, подготовке педагогических кадров по изобразительному искусству. В ней расскрывается основы академического рисунка их требования, а также цели и задачи академического рисования.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, художественное творчество, рисунок, профессиональная подготовка.

**Annotation:** the article is devoted to one of the topical issues, the training of teachers in the visual arts. It reveals the basics of academic design of their requirements, as well as the goals and objectives of academic design.

**Key words:** fine arts, artistic creativity, drawing, professional training.

So'nggi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh kilish, xususan, oliy pedagogik ta'limda tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar sifatini oshirish va ta'lim tizimida dunyoning rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanib yuqori malakali, o'z kasbining yetuk mutaxassislarini tayyorlashga katta etibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-

son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosi yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi [1].

"2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga etibor qaratilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud [2].

Bugungi kunda mamlakatimizning oliy pedagogik ta'lim muassasalarining "San'atshunoslik" fakultetlari talabalarini kasbiy tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratirmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda tasviriy san'atning nazariy asoslaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki, kasbiy fanlar blokiga qarashli tasviriy san'at fanlarining aksariyati amaliy mashg'ulotlardan iborat. Bo'lajak mutaxassis pedagog-rassom dars berishda tasviriy san'atning nazariy masalalari borasida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Ushbu muammaoni hal etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur muammoni hal etish uchun quyidagi akademik tasvirlash va ijodiy asar yaratish masalasini ko'rib chiqaylik. Shakllarni akademik tarzda chizishning maqsad va vazifalari ijodiy asar yaratish mohiyatidan farq qiladi. O'quv rasmi naturani o'rganish orqali o'zida muayyan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor ta'lim olish va tahlil qilishga qaratiladi. Mashhur rassom-pedogog D.N. Kardovskiy yozganidek, rasmga maktab etyudi nuqtai nazaridan ham, ijodiy ish, ya'ni badiiy ijod namunasi sifatida ham yondashish mumkin. "Yaqin-yaqingacha ijodiy jarayon rassomning ong ta'siridan holi, boshqarib bo'lmaydigan faoliyati deb e'tirof qilinardi. U san'atga xos "tarqoq", "tartibsiz" tizimdek taassurot qoldirardi. Tasviriy san'at sohasidagi ijodiy qobiliyatlar masalasini pedagogika, psixologiya, fiziologiya, san'atshunoslik kabi fanlar nuqtai nazaridan hal qilish mumkinligi ham uning muammolari ko'lamini yanada chigallashtiradi" [3, 6]. Bo'lajak



tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlash va talablariga akademik rasm chizish asoslarini o'qitish o'zaro bo'yicha bir biriga bog'liq bo'lgan chambarchas bog'langan bir qator vazifalar, xususan: quyidagi masalalarni e'tirof etish lozim:

- badiiy did va ijodkorga xos dunyoqarashni shakllantirish;
- zarur ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va maxsus texnik ko'nikmalarni egallashga intilish,
- talaba iste'dodini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini oshirish singari masalalar ustida izlanish va ularni ijobiy hal qilishni talab etadi.

Psixologlar va fiziologlar idrok, nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning uzviy bog'liqligini isbotlashgan. Bilim olish, amaliy ko'nikmalar orttirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish masalalarini bir-biridan sun'iy ravishda ajratish mumkin emas. Ijodkor ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalar orttirishni uyg'unlikda olib borishi kerak, bu ikki jarayon Shaxsni komillik sari yetaklaydi. Rasm chizish saboqlari oldiga qo'yilgan ta'lim va tahlil vazifalari talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil faoliyat uchun tayyorlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ijodiy tajribaning oshib borishi tasviriy savodxonlik qonunlarini o'rganish va o'zlashtirishga ilhomlantirishi lozim. Bu o'quv ishlarning hamma turlari, jumladan, naturadan rasm chizishga ham daxldor. O'quv rasmini chizishda ijod muammosi idrok va tafakkurni jonlantirish, naturadan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirishdan chekinish, rasmda muayyan ifodaviylikka erishish bilan uzviy bog'liq. Naturaga qarab rasm chizish voqelikni kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, ko'rish xotirasini chiniqtirishga xizmat qilishi va shu orqali ijodiy imkoniyatlar chegarasini kengaytirib, tafakkurni yanada boyitishi kerak.

San'at tabiatidan kelib chiqib, akademik qalamtasvir o'quv-ijodiy faoliyat sifatida ta'riflash maqsadga muvofiqdir. Tabiiyki, "Akademik rasm" kursi o'z oldiga talabalarning ijodiy iqtidorini shakllantirishni vazifa qilib qo'ygan va to'plangan ilmiy bilim hamda amaliy ko'nikmalar salmog'i oshib borgani sayin, uning maqsadlari sarhadi ham kengayib borishi kerak. Chunki talaba qancha ko'p bilsa, rasmning badiiy

yechimini izlash masalalariga shuncha ko'p vaqt ajratadi va o'z faoliyatining ijodiy jihatlariga e'tiborliroq bo'ladi. Akademik rasm va uning nozik xususiyatlari to'g'risidagi nazariy muloqotlar esa amaliy tajriba orttirish jarayoniga o'zgacha joziba bag'ishlaydi.

San'atshunoslik fakultetida olib boriladigan asosiy fan qalamtasvir hisoblanadi. Bu mashg'ulotlar jarayonida vazifalarni naturaga qarab chizishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Naturaga qarab rasm chizish bir-biri bilan uzviy bog'liq ikki vazifani hal qilishga qaratilgan:

- rassom tasavvurida badiiy obrazni to'laqonli shakllantirish;
- uni badiiy ifodalash vositalaridan foydalanib tasvirlash.

Har ikki vazifa ijodiy jarayonning umumiy nazariyasi, badiiy pedagogikaning ko'p asrlik tarixi tamoyillariga hamohangdir. Ba'zan akademik rasm chizish bo'yicha ta'lim berish davrida yuqorida zikr etilgan vazifalar ikkiga bo'linadi. Tarozining bir pallasidan, akademik rasm chizishga o'qitish nazariyasi va uslubiyoti o'rin oladi hamda tasviriy savodxonlik asoslari, badiiy ifodalash usullaridan saboq beriladi. Ikkinchi pallaga esa badiiy idrok, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish vazifalari qo'yiladi.

"Badiiy idrok" - bu sezgi, tasavvur, tahlil kabi hissiy in'ikos hamda borliqdan olingan turli taassurotlarni sintez qilish kabi murakkab jarayonlar bilan bog'liq ruhiy harakatlardir. Natura va tasvirni badiiy idrok etish rasm chizishdagi o'qish-o'rganish va bilish jarayonining eng muhim omili hisoblanadi. Psixologiya nuqtai nazaridan olsak, "idrok ong, miyaning ijodiy jarayoni bo'lib, ob'ektiv reallikni aks ettirishga qaratilgan turli mexanizmlarni belgilangan maqsadga muvofiq keladigan, funksional jihatdan dinamik tizimga birlashtiruvchi omillardan biridir. Uning aynan shu jihati badiiy idrokning faqat insonga xos bilish faoliyatidagi pedagogik ahamiyatini belgilaydi" [4, 34]. Akademik rasm chizishga o'qitish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalasiga o'tishdan avval, "ijod" tushunchasiga oydinlik kiritib olish kerak.



Ijod insonning ijtimoiy ahamiyatga ega, yangi va o'ziga xos moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishga qaratilgan faoliyati. Shaxsning bilim, tajriba, iste'dodni jalb qilingan tafakkur, xotira, tasavvur faol ishtirok etadigan ijodiy jarayonga nisbatan emotsional munosabati ijodkorlikning tarkibiy qismidir. Ijod "shu kungacha ma'lum bo'lmagan, mutlaqo yangi nimanidir dunyoga keltiradigan faoliyat [5, 330]" sifatida ko'proq "san'at" tushunchasiga qiyoslanadi. Ijod – bu inson ongining atrof-muhitni bilish, voqelik va uning muayyan hodisalarini isloh qilishga qaratilgan yaratuvchanligidir. Shu nuqtai nazardan olsak, biz tasviriy faoliyat haqida umumiy mulohaza yuritganda ham, muayyan talabaning u yoki bu darajadagi ijodiy yondashuvi sohasida fikr bildiramiz.

O'quv jarayonini bilish turi yoki shakli sifatida qabul qilsak, ta'lim va ijodning o'zaro mutanosibligi nafaqat oydinlashadi, balki muqarrar tamoyil maqomini oladi. Bilish natijada intellektual tajriba sarhadi kengayadi. Avvallari ijodkorlik deya qadrlangan va baholangan masalalar, faoliyat qoidalarini o'zlashtirish jarayonida odatiy, avtomatik va motorik harakatlarga aylanib qoladi. Tajriba, kasbiy malaka darajasining oshishi "ijodiy faoliyat maydonini" toraytiradi, lekin uning sifat ko'rsatkichlarini yuksaltiradi.

Mohiyatan olganda, o'quv va ijodiy ishlar o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari hamda natijalariga ko'ra farq qiladi. "O'quv ishi uchun anatomiya, konstruksiya, proporsiya, harakat, tus va rang munosabatlari, tuslilik, rang ko'lami, materiallarning ifodalash imkoniyatlari va hokazolarni o'rganish maqsad bo'lishi mumkin. Ijodiy ishda esa yuqorida sanalganlarning barchasi tasvirlash vazifasi sifatida maqsad emas, vosita rolini o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash kerakki, asar yaratishda ifodaviy va ijodiy vazifalarning uslubiy ketma-ketligiga rioya qilish ijodkor iste'dodini sayqallaydi. O'quv dasturlari esa ana shu jihatlarni, ya'ni ta'limning texnik-analitik vazifalarini o'zlashtirishning majburiyligini qat'iy belgilab qo'ygan. Ijodiy vazifalarni muntazam murakkablashtirib borish masalasida esa bu kabi aniq va batafsil tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kundagi badiiy pedagogikaning dolzarb muammaolaridan biridir.

## Adabiyotlar:

1."O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

3.Дроздов А.П. Развитие художественного восприятия у студентов на занятиях учебным рисунком: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. М., 2007. С. 6.

4. Зинченко В.П., Стасевич В.Н. Творчество в учебном рисунке: Учеб. пособие. Ростов н/Д., 1989.

5. Беда Г.В. Основы изобразительной грамоты. Рисунок, живопись, композиция: Учеб. пособие. М., 1986. С. 330.

## O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanishida tarixiy tajribaning nazariy jihatlari

***Kamolov Iftixor Baxtiyorovich***

*P.f.f.d. (PhD) professor.*

*Qarshi davlat universiteti*

*"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi mudiri*

**Annotatsiya.** Maqolada xalq amaliy san'ati go'zal va kundalik hayotda kerak bo'ladigan predmetlar olami emasligi, balki u o'z qiymati bilan vaqt tushunchasiga bo'ysunmaydigan noyob g'oyalar olami ekanligi haqida fikr yuritilgan. Xalq amaliy san'ati shaxs uchun qiymatli bo'lgan borliqni boshqa qiymatlar doirasiga – madaniyat sohasida yaratiladigan, avaylab asraladigan va rivojlantiriladigan, inson uchun fundamental bo'lgan qiymatlar doirasiga o'tkazadi. Ushbu maqolada xalq san'ati

ijodkor va tomoshabinga olamning yaxlit gumanistik tasvirini, uning umumiy-badiiy imkonini ko'rsatib berishi haqida atroflicha tahlil qilib berilgan.

**Tayanch iboralar:** xalq, amaliy, dekorativ, san'at, hunarmand, ijodkor, bezak.

Ijodiyot subyekt tomonidan o'z individual xususiyatlari va ularni kasbiy rivojlantirish yo'llarining anglanishi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish zaruratini idrok etilishi bilan bog'liqdir. Kasbiy motivatsiya va ijodiy qobiliyatlarning o'zaro bog'liqligi muammolarini tadqiq etishimizda psixologiya fani nazariyasining yirik namoyondalari A.N.Leontyev, K.K.Platonov, L.S.Rubenshteyn, B.M.Teplov kabi olimlarning asarlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ular qobiliyatlar nazariyasini ayrim faoliyat turlari talablariga maksimal darajada javob beradigan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari va sifatlari kompleksi tarzida ishlab chiqqanlar. Psixolog va pedagoglarning fundamental tadqikotlari shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatlar faqat muayyan faoliyat turlarida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Aytish joizki, muayyan va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat doirasidan chetda qobiliyatlar mavjud ham bo'lmaydi, rivojlanmaydi ham. Shuning bilan birga, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida nafaqat individning biror bir faoliyat turiga mutanosib xususiy, maxsus qobiliyatlarning shakllanish zarurati, kobiliyatlarga mos bo'lgan shaxsning psixik xususiyatlari va sifatlari shakllanishi yuzaga kelgan, balki umumiy qobiliyatlarning shakllanishi zarurati ham o'z ifodasini topgan. Umumiy bo'lgan qobiliyatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxs inson amaliy faoliyatining har qanday turida ijodiy ishtirok etishga tayyor bo'ladi. Shaxs umumiy qobiliyatlarining majmui ta'lim olish va ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishning zaruriy omillarini ifoda etadi. [2]da ta'kidlanishicha, shaxs – ijodiy qobiliyati yuqori ta'sirchanligi, hissiy-emotsional sezgirligi, obrazli tasavvuri, rivojlangan ijodiy fikrlashi, tiklovchi tafakkuri, sezgisi va intellektning assotsiativ boyligi bilan sifatlanadi. Faqat ijodiy qobiliyatlar, nazariy bilimlarning kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalar bilan uyg'unligi bo'lajak ijodkor ustaning mahorat va kasbga egaligini ta'minlaydi. Uzviylik kasbga egalikning amaliy belgisi deb hisoblanishi lozim. Bu kompetentlik mezonlarning bevosita va bilvosita guruhlari orasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Mazkur mezonlardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

zargarning kasbga egaligi uning ijtimoiy foydali, amalda zarur bo'lgan mutaxassisning mavjud bo'lishini ta'minlaydigan madaniy-axloqiy qiyofasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy-amaliy bilim va ko'nikmalarining yuqori darajadagi ko'rinishidan iborat. Bo'lajak zargarlarda kreativ qobiliyatlarnı shakllantirishni ta'lim muassasalaridagi innovatsion faoliyatdan ajratib bo'lmaydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ta'limdagi innovatsion jarayonlarni ijtimoiy-madaniy reallikning talablariga faol ravishda javob bera oladigan va mavjud an'analarni inkor etmaydigan, shaxsning ta'lim-tarbiyasi, rivojlanishiga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan pedagogik model deb ta'riflaydilar. Innovatsion jarayonlarda nafaqat pedagogik faoliyatni, unga oid vosita va mexanizmlarni tubdan o'zgartirish, yangilash amalga oshiriladi, balki mutaxassisning kasbiy madaniyati rivojiga ta'sir etuvchi pedagogik maqsad va ahamiyatga molik yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar ham yangilanadi. Falsafiy va pedagogik psixologik manbalarning tahlili "bo'lajak zargarning kasbiy madaniyati" tushunchasining mohiyatini, shuningdek, uning asosiy komponentlarini aniqlash imkonini berdi. Bizning fikrimizcha, bo'lajak zargarning kasbiy madaniyati ichki va tashqi komponentlarga asoslangan ikki taraflama tavsifga ega. Ichki komponentlarga badiiy-estetik ong, badiiy-estetik bilimlar, ya'ni, an'anaviy dekorativ amaliy san'at sohasiga oid, bo'lajak ijodkorning shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlovchi omillarning barchasi kiradi. Tashqi ifodalangan komponentlarga biz shaxs kasbiy madaniyatining "tashqi" belgilari sifatida kasbiy bilim, malaka va ko'nikmlarni kiritamiz. Mazkur ko'nikmalar majmuaviy shakllanganlik darajasiga qarab bo'lajak zargarning kasbiy va ijodiy faolligi darajasini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy zargarlik san'ati kasbiy ta'limida an'anaviy dekorativ amaliy san'atga alohida e'tibor bilan qaralishi lozim. [4]da ta'kidlanishicha, "Zamonaviy ta'lim va zargarlikning milliy an'analari orasidagi milliy bog'liqlik pedagogika tanida ijodiy faollikni rivojlantirishning yangi yo'llarini ochishga, yangi metodikalarini yaratishga yo'l ochib beradi". [3]dagi fikrga ko'ra, "Amaliy dekorativ san'at motivlariga asoslangan badiiy faoliyat borliq olamga hissiy munosabatlarning muhim komponenti – ijodiy faoliyat tajribasining shakllanishini taqazo etadi." Ma'lumki turli texnologiyalar va obrazli tizim, masalan, geometrik ornament, o'simliklar ornamenti



va ularning o'zaro uyg'unligi an'anaviy zargarlik san'atiga xosdir. O'tmishdan meros qolgan bezaklar dekoratsiyasi motivlaridan foydalanish, ularni zamonaviy bezaklar yaratishda qo'llash, bu motiv va usullarni yangilash qayta ishlash jarayonida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va o'z xalqi va vatanining tarixiga qiziqish bilan qaraydigan shaxsni shakllantiradi. Shunday qilib O'zbek milliy xalq badiiy hunarmandchiligi insonning o'qimishliligi, bilimdonligi qatlamiga kiruvchi an'anaviy san'at sifatida, nafaqat o'qimishlilik va kreativlikka, balki fuqarolik his-tuyg'ularga, taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi; nafaqat

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq amaliy san'ati chiroyli va kerak bo'ladigan predmetlar olami emas, balki o'z qiymati bilan vaqt tushunchasiga bo'ysunmaydigan noyob g'oyalar olamidir. Shuningdek, u shaxs uchun qiymatli bo'lgan borliqni boshqa qiymatlar doirasiga – madaniyat sohasida yaratiladigan, avaylab asraladigan va rivojlantiriladigan inson uchun fundamental bo'lgan qiymatlar doirasiga o'tkazadi. Xalq san'ati ijodkor va tomoshabinga olamning yaxlit gumanistik tasvirini, uning insoniy badiiy modelini ko'rsatib beradi. Xalq badiiy hunarmandchiligi ijodkorlarning asosiy vazifasi estetikani, ya'ni go'zallik, badiiylik, nafosatni insonlarning liboslari va maishiy turmush tarziga, ularning onggiga kiritishdan va ular bir yo'l bilan xalq badiiy hunarmandchiligida aks etgan estetik qarashlarni bizning kundalik turmushimiz etikasiga, odob-axloq qoidalari, meyorlariga, jamiyatimizning ma'naviy olamiga, bizning madaniyatimizga kiritish hamda singdirib borishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. 28) Vigotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. - M.: Pedagogika, 1987.

2. 61) Kiyashenko N.I., Leyzerov N.L. Teoriya otrajeniya i problemi estetiki. - M.: Iskusstvo, 1983. - 224 s.

3. 75) Lerner I.Y. Didakticheskiye osnovi metodov obucheniya. - M.: Pedagogika, 1991.

4. 83) Maksimovich V.F. Xudojestvennoye obrazovaniye v traditsionnom dekorativno-prikladnom iskusstve. V kn. Istoriya xudojestvennogo obrazovaniya v Rossii. M.: RAO, 2003.




TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI KUTUBXONASI
Inv.raqami 31659
«19» 09 2023 yil

5. Shadiev R. D, Kamolov I. B. Pedagogical model of professional education in jewelry art: basic parameters of the concept. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. Vienna. 2014. № 11–12 г.137-142

**Психологическое исследование индивидуальных качеств личности у учащихся архитектурно-строительных вузов**

**Султанова Д.Н.**
и.о. профессора СамГАСУ
доктор арх. наук
**Сиддикова Г.Х.**
ст. преп.ТАСУ

Групповое обследования учащихся включает методики, выявляющие наличный уровень развития мышления, памяти, внимания. Студенту архитекутурного факультета необходимо овладеть следующими методиками **Группового обследования**:

1. методика исследования распределения внимания и переключения внимания (корректурная проба);
2. методика исследования уровня развития мыслительных операций (закономерностей);
3. методика исследования комбинаторного мышления и пространственных представлений (кубы);
4. методика исследования пространственных представлений (компасы);
5. методика исследования оперативной памяти (шкалы);
6. методика исследования медичнх отношений учащихся;

Слушатели также знакомятся с методиками **Индивидуального обследования:**

1. методика изучения особенностей внимания и оперативной памяти (числа);
2. методика изучения репродуктивного мышления и внимания (переключение);

3. методика изучения объема внимания (поиск чисел);

4. методика изучения функций внимания и оперативно памяти в условиях дефицита времени.

Экспериментально-психологичское обследование проводится с группой в 15-20 чел. в течение 1 половине дня. Длительнось его примерно 2-3 часа с 10 минутным перерывом после каждой методики.

1 методика Группового обследования – позволяет изучать устойчивость внимания при длительной однообразной работе, степень утомлемости (методика Бурдона)

Методика репродуктивного мышления составлен Б.Л.Покровскими И.А.Урганевой. Задача студентов в том, чтобы в кадом из 10 рядов кубов на бланке, найти куб, аналогичный 1-кубу того ряда перевернутый округ оси.

Методика Н.И.Майзель "Компасы" для изучения особенностей представления группы.

6-методика позволяет вывлять лидера коллектива.

Методика изучения особенностей апробирована в конце 40х годов Крепелином.




В процессе проведения психолого-педагогического эксперимента ведёт наблюдение за студентами, давая каждому из них оценку.

Для того нужен секундомер для контроля.

Перед проведением беседы нужно ознакомиться с результатами выполнения учащимися группового обследования.

Установит, легко ли учащийся вступает в беседу, охотно ли отвечает на вопросы. Каков характер ответов полные или лаконичные. Нет ли излишной детализации, понимание юмора, соответствует ли уровень развития интеллекта и знания, полученному образованию и занятиям.

Склонности и влечения (изо искусство, музыка, театр, спорт). Любит ли мастерить что-либо.

Делая выводы, необходимо учитывать совокупность всех данных. Сопоставлять результаты беседы с результатами психологического эксперимента, а также успеваемость студента. Этот способ очень эффективно при выявлении характер учащихся архитектурных и художественных вузов страны

**Сиисок использованных литератур**

1.Белих Я.Я. Психолого-педагогическое исследование индивидуальных качеств личности у учащихся сельскохозяйственных техникумов. М.1972.

2. Султанова Д.Н. В каждом из нас живёт художник/"Тил тараққиётининг лексик ва грамматик муаммолари" респ. илмий-амалий конф. Материаллари. Сам-2011, 8 окт., СамДЧТИ.

3. Султанова Д.Н. Формирование профессионального объемно пространственного мышления у студентов дизайнеров и архитекторов Узбекистана/ Заочная международная научно-практическая конференция «Дизайн-образование XXI век» 7-9 декабря. , 2016. БГИИК, Белгород, 2017. - С. 152-158.

4. Султанова Д.Н. Развитие личности в художественной подготовке по рисунку в архитектурно-строительных вузах Узбекистана/ Международная научно-практическая Интернет-конференция «Развитие личности в образовательном пространстве» 29-30 марта НИУ БелГУ, 2017. – С. 5. Система электронного обучения НИУ «БелГУ», «Пегас».

5. Султанова Д.Н. Таълим самарадорлигини оширишда ахборот технологияларидан фойдаланиш/"Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият" мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман 23-24 июнь, СамДЧТИ, Сам., 2017. – Б. 256-257.

6. Султанова Д.Н. Традиции и инновации в системе специального высшего образования/ Всероссийская интернет-конференция с международным участием «Инновационные педагогические технологии в образовательном пространстве». Посвящается 140-летию создания НИУ «БелГУ» и 40-летию факультета

дошкольного, начального и специального образования. С 25 марта по 7 апреля. Белгород, 2016. -Б. 5-9.

## CHIZMACHILIK FANINI O'QITISGDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI O'STIRISH ELEMENTLARI

*Xalimov Moxir Karimovich-Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti*

**Annotatsiya**

Maqolada chizmachilik fanlarini o'qitisgda talabalarning fazoviy tasavvurini o'stirish elementlari va undan foydalanish metodikasi, xususan chizma geometriya fanida foydalanishga mo'ljallangan fazoviy tasavvur oshirish aparati hamda undan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar yoritilgan.

**Резюме**

В статье описаны элементы развития пространственного воображения учащихся при обучении черчение и методы его использования, в частности, аппарат пространственной образности для использования в науке начертательной геометрии и методические рекомендации по его использованию.

**Resume**

The article describes the elements of the development of students' spatial imagination in teaching graphic sciences and methods of its use, in particular, the apparatus of spatial imagery for use in the science of descriptive geometry and methodological recommendations for its use.

**Kalit so'zlari:** bilim, ko'nikma, malaka, talaba, fazoviy tasavvur, qobiliyat, savodxonlik, tafakkur, fazoviy tasavvur oshirish aparati.

**Ключевые слова:** знания, навыки, умения, школьник, пространственное воображение, способность, грамотность, мышление, пространственное воображение.

**Key words:** knowledge, skills, abilities, student, spatial imagination, ability, literacy, thinking, spatial imagination.

Bugungi kunda ta`lim sifatini oshirish maqsadida pedagoglar turli metodlar, o'qitish vositalaridan foydalanadi, xorijiy adabiyotlar taxlil qilinadi. Xususan, chizma geometriya, chizmachilik yoki muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda ko'pgina xollarda talabalarning fazoviy tasavvur qilishida muammolarga uchraydi. Bu muammolarni hal qilishda ko'p yillik olib borgan kuzatish va tajribalarimiz asosida talabalarning fazoviy tasavvurini shakllantirish va o'stirish apparatini ishlab chiqdik. Bu masalada olimlardan Sh.K.Murodov, I.T.Raxmonov, P.O.Adilov, T.Rixsiboyev, R.Q.Ismatullayev, M.Sh.Isayeva, M.O.Mirdavidov, T.J.Azimov, H.I.Ro'ziyev, Sh.Abduraxmonov va boshqalar o'z ilmiy ishlarida to'xtalganlar yoki o'z qarashlarini ifoda etganlar. Ayniqsa T.Rixsiboyev bu masalada ko'pgina izlanishlar olib borgan. Xususan, biz ham qator izlanishlar natijasi o'laroq talabalar fazoviy tasavvurini oshirishga motivatsiya beruvchi kichik topshiriqlar tuzishga hamda oddiy elementlardan foydalanishga harakat qildik. Bunda biragina tekislikdan va unda yotuvchi biror nuqta yoki kesma yoki uchburchak yoki to'rtburchak yoki aylana yoki egri chiziqlardan iborat. Amaliyotga yoki o'quv adabiyotlarga yaqin bo'lishi uchun bu tekislikni V tekislik deb oldik (1– chizma).




**1- chizma**

Bu talabalarning fazoviy fikrlash qobiliyatlarini bitta proyeksiyalovchi nurda, tekislikda yoki sirtda yotuvchi, ya'ni ko'rinishi bir xil bo'lgan geometrik figuralarni loyihalash-o'ylab topish asosida fazoviy tasavvurini deformatsiyalashga va shakillantirishga qaratilgan bo'lib, buni biz fazoviy tasavvurni oshirish aparati deb nomladik. Bunda ularning fazoviy fikrlash qobiliyatlarini qisqa vaqt ichida faollashtirish, ya'ni shakllantirish va oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Endi fazoviy tasavvurni o'stirish apparatidan foydalanish [ko]'rib chiqaylik. Yuqorida qisman aytib o'tilganidek, fazoviy tasavvurni o'stirish apparatida joylashgan figuralarni ro'parasida bir-biridan farq qiluvchi, lekin proeksiyasi nuqta yoki kesma yoki tekis figuralar yoki egri chiziq bo'lgan, ya'ni ko'rinishi bir xil bo'lgan fazodagi tekis va fazoviy geometrik figuralarni tezkor loyihalash yo'li bilan ko'zlangan maqsad amalga oshiriladi.

Chizma geometriya fanining asoschisi Gospar Monj o‘z davrida «...agar yoshlar chizma geometriya fanining asoslarini nuqtadan boshlab o‘rgansalar, shubhasiz qolgan geometrik figuralarni oson va qulay o‘zlashtiradilar» deb ta’kidlagan edi. Shu bois avval fazoviy tafakkurni o‘stirish apparatida berilgan, ya’ni V tekislikda yotuvchi nuqta yordamida talabalarning qisqa vaqt ichida fazoviy tasavvurini o‘stirishni ko‘rib chiqamiz.

Bu jarayon o‘qitishning interfaol metodlari asosida kechadi. Ya’ni muammoli vaziyat yaratuvchi savol-javob, qizg‘in baxs, munozara, aqliy hujum, tez topish, ijodiy izlanishlarga undash va mustaqil xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kabi zamonaviy o‘qitish metodlari va shakllari qamrab olinadi. Talabalarga 2-chizmadagidek tarqatma material tarqatiladi va ular uni o‘z daftarlariga tikib qo‘yadilar. So‘ngra elektron slaydda 2-chizma ko‘rsatiladi yoki doskada 2-chizmada ko‘rsatilgan proeksiyalash apparati chiziladi va o‘quvchi yoki talabalarga quyidagi savollarni berib, muammoli vaziyat yaratiladi:

*1- savol.* Qanday geometrik figuralarning V tekislikdagi proeksiyasi A" nuqta kabi bo‘ladi yoki u bilan qo‘shilib qoladi?



2- chizma

Bu savol har bir talabani o‘ylashga, fikrlashga, izlanishga vamustaqil xulosa chiqarishga safarbar qiladi.

O‘qituvchi talabalarning javoblarini eshitib ular bilan qizg‘in bahs, munozara, aqliy hujum, tez topish, ijodiy izlanishlarga yo‘naltirib, ularning har birini fikr mulohazalarini eshitadi va umumlashtiradi. Ya’ni A" nuqta undan o‘tuvchi proeksiyalovchi ℓ nurda yotuvchi fazodagi A nuqtaning proeksiyasi bo‘ladi deb, 3-chizmada keltirilgan misolda ko‘rsatilganidek, slaydni namoish etadi yoki doskada chizib ko‘rsatadi.

Talabalar doskada bajarilgan chizmani tarqatma materialga ko‘chiradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi keyingi savolni beradi.



*2- savol.* Proeksiyasi A" nuqta bilan ustma-ust yotadigan A nuqtadan boshqa nuqtalar ham bo‘lishi mumkin-mi? Agar mumkin bo‘lsa, bunday nuqtalar V tekislikka nisbatan qanday joylashadi, deb ikkinchi savolni beradi.

Bir necha daqiqalardan so‘ng talabalarning javoblarini yuqorida keltirilganidek, muammoli vaziyat jarayonida qizg‘in bahs va muhokama qilib, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblarini izohlab, quyidagicha umumlashtiriladi:

«Masalani cheksiz ko‘p yechimi bo‘ladi. Fazodagi bunday nuqtalar proeksiyalovchi ℓ nurda yotgan bo‘lib, A nuqtadan oldinda ($A_1$ nuqta kabi), A nuqtadan bilan V tekislik orasida ($A_2$, $A_3$ nuqtalar kabi), V tekislikda, A" nuqta bilan ustma-ust ($A_4$ nuqta kabi) va V tekislikning orqasida ($A_5$, $A_6$,...va $A_8$ nuqtalar kabi) joylashishlari mumkin, deb o‘qituvchi talabalarning fazoviy tasavvur qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini proeksiyalovchi ℓ nur bo‘ylab deformatsiyalaydi ya’ni shakllantiradi (4-chizma).



3- chizma



4- chizma

Ularning butun e’tiborini proyesiyalovchi ℓ nurda yotuvchi va V tekislikka nisbatan turli vaziyatlarda joylashgan cheksiz ko‘p nuqtalar mavjudligini idrok etib, bunday nuqtalarni o‘z onglarida muhrlanib qolishiga undab etiborlarini jalb qiladi. So‘ngra o‘qituvchi keyingi uchinchi savolni beradi.

*3-savol.* Nuqtadan boshqa geometrik figuralarning V tekislikdagi proeksiyasi A" kabi nuqta bo‘ladimi?

Bu savol har bir talabani yanada chuqurroq o‘ylashga, bor bilimini zo‘riqtiribroq izlanishga va ijobiy xulosa chiqarishga safarbar qiladi. Biroz vaqt o‘tgach o‘qituvchi talabalarning javoblarini eshitib, ular bilan yuqoridagidek qizg‘in baxs, munozara,

aqliy hujum, tez topish, ijodiy izlanishlarga yo'naltirib hamda undab, sinfdagi har bir talabaning fikr mulohazalarini eshitadi va umumlashtiradi. Ya'ni A" nuqta undan o'tuvchi proeksiyalovchi ℓ nurda yotuvchi fazodagi m kesmaning proeksiyasi bo'ladi deb, 5- rasmda keltirilgan misoldan uni ko'rsatadi. 5-chizmadagi tasvir tarqatma material sifatida talabalarga tarqatiladi va uni o'z daftarlariga tikib qo'yish tavsiya etiladi.



5-chizma

***4- savol.*** Proeksiyasi A" va m" nuqta bilan ustma-ust yotadigan to'g'ri chiziq kesmalari ham bo'lishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunday kesmalar V tekislikka nisbatan qanday joylashadi, deb murojaat qiladi.

Yuqoridagidek bir necha daqiqalardan so'ng talabalarning javoblarini yuqorida muammoli vaziyat jarayonida qizg'in bahs va muhokama qilib, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini izohlab, quyidagicha umumlashtiriladi:

Masalani cheksiz ko'p yechimi bo'ladi. Fazodagi bunday kesmalar proeksiyalovchi ℓ nurda yotgan bo'lib, m kesma kabi V dan oldinda, bir uchi V tekislikdan oldinda va ikkinchi uchi uning orasida (n kesma kabi), V tekislikdan orqada (k kesma kabi) joylashishlari mumkin, deb o'qituvchi talabalarning fazoviy tasavvur qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini proeksiyalovchi ℓ nur bo'ylab yana bir bor deformatsiyalaydi (6-chizma). Ularning butun e'tiborini proesiyalovchi ℓ nurda yotuvchi va V tekislikka nisbatan turli vaziyatlarda joylashgan cheksiz ko'p kesmalarlar mavjudligini talabalarga anglatib, bunday kesmalarni xotiralarida saqlab qolishlari uqtiriladi.




6-chizma

Shundan so'ng o'qituvchi 6-chizmadagi n va k kesmalarni talabalarning daftariga ulatilgan ikkinchi tarqatma materialga chizdirib, talabalarning faol ishtiroki asosida quyidagi xulosani chiqarib uning tagiga yozdirib qo'yadi:

Fazoda masalaning shartini qanoatlantiruvchi cheksiz ko'p kesmalar bo'lib, ular fazoviy tasavvurni o'stirish apparatining A" nuqtasidan o'tuvchi proeksiyalovchi ℓ nur bo'ylab proeksiyalar tekisligi V ga nisbatan turli vaziyatlarda joylashgan bo'ladi.

Shunday qilib, biz tavsiya qilgan fazoviy tasavvurni o'stirish apparati va undan foydalanish metodikasi yordamida talabalarning fazoviy tasavvur qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish mumkin ekan. Ular eshitib va yuqorida keltirilgan ko'rgazmali materiallarni ko'rib hamda 4 va 6-chizmalardagi chizmalarni tarqatma materiallarga chizib olib fazoviy tasavvurlarini shakillantirish bilan bir vaqtda uni mustahkamlaydilar.

Talabalar darsda fazoviy tasavvurni o'stirish apparatidan foydalanish jarayonida nafaqat shakllangan bilimlarini mustahkamlaydilar, balki xulosalarni eshitib, keltirilgan ko'rgazmali materiallarni ko'rib, tarqatilgan tarqatma materiallarda chizmalar bajarib o'z fazoviy tasavvurlarini o'stiradilar.

Bunda biz ularning hodisa va voqeliklarni eshitib va ko'rib, ularni anglab yetish, idrok etish va ko'nikma hamda malakaga erishishlari uchun qadim-qadimdan qolgan sharq xalqlarining quyidagi: «Eshitsam tezda unutaman, eshitib ham ko'rsam vaqt o'tishi bilan unitaman; eshitsam, ko'rsam va ishtirok etsam unutmayman» degan naqliga rioya qildik.

Endi uning ikkinchi elementi «Kesma-tekislik» yordamida talabalarning fazoviy tasavvurini kengaytirish va oshirish mumkinligi ko'rib chiqamiz, 7- chizma.




7- chizma.

Buning uchun apparatning dastalbki elementi «nuqta-tekislik» dan foydalanish jarayonida qo'llanilgan kabi maxsus savollar ketma-ket berilib, o'qitishning interfaol metodlari asosida muammoli vaziyat yaratiladi, zamonaviy o'qitish shakllaridan unumli foydalangan holda talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Talabalarga 7-rasmidagidek tarqatma material tarqatiladi ularga quyidagi savollar berilib, muammoli vaziyat yaratiladi:

***1- savol.*** Qanday geometrik figuralar V tekislikka A"B" kesma kabi proeksiyalanadi yoki u bilan qo'shilib qoladi?

Biroz o'ylashga vaqt ajratiladi. Bu savol har bir talabani o'ylashga, izlanishga va ijobiy xulosa chiqarishga jalb qiladi.

Ajratilgan vaqt o'tgach o'qituvchi talabalarning javoblarini eshitib, ular bilan qizg'in bahs, munozara qilib, ijodiy izlanishlarga yo'naltirib, ularning har birini fikr mulohazalarini eshitadi va umumlashtiradi. Ya'ni A"B" kesma undan o'tuvchi proeksiyalovchi nurlar tekisligida yotuvchi fazodagi AB to'g'ri chiziqning proyeksiyasi bo'ladi deb, 8-chizmada keltirilgan misoldan ko'rsatadi. Keyingi ikkinchi savolni beradi.




8-chizma

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, grafika fanlarini o'qitishda yuqoridagi kabi aparatlardan foydalanish talabalarning fazoviy tasavvurini oshishiga, masalalarni ongli ravishda ishlashiga zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. J.Xasanboyev va b. Pedagogika nazariyasi (Didaktika). – T. Fan va texnologiyalar, 2011.

2. E.Ro'ziyev, A.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. – T. "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2010.

3. Рихсибоева Хуршида Миркомиловна, Халимов Мохир Каримович, Рихсибоев Тимур Совершенствование и модернизатсия алгоритмов решения метрических задач в начертательной геометрии. ИССН: 2072-0297 №4 (108) Страницы: 816-819. Молодой ученый Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый" (Казань) https://elibrary.ru/item.asp?id =25620783

4. Мирзалиев Зафар Эралиевич, Халимов Мохир Каримович, Маликов Каним Гофурович, Абдухонов Ботир Хусниддинович. Методика использования нового механизма для построения аксонометрических проекций. Young scientist, ISSN: 2072-0297 International cientific journal. No.8 (142) / 2017 part II, -pp. 1-6 Kazan. https://elibrary.ru/item.asp?id=28395835

5. Мурадов Шмидт Каримович, Халимов Мохир Каримович, Мирзалиев Зафар Эралиевич. Рамазанова Гавхаршод Сайдуллаевна. Определение параметров формы и положения кривых 2-го порядка. Young scientist, ISSN:

2072-0297 International scientific journal, No. 7 (141) / 2017 part II, -pp. 454-457 Kazan. https://elibrary.ru/item.asp?id=28395792

6. Халимов Мохир, Жаббаров Рустам, Абдухонов Ботир, Мансурхўжаев Асқархўжа. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики. Young scientist, ISSN: 2072-0297 International scientific journal, No. 4 (108) / 2016 part II, -pp. 845-856 Kazan. https://elibrary.ru/item.asp?id=25620795

7. Khalimov Mokhir Karimovich. ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS (ISSN – 2767-3278) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 103-116 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 714) OCLC – 1242041055 METADATA IF – 8.145. https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/753

## O'zbek xalq amaliy sa'natida naqqoshlik san'atining ro'li

**Ch.X. Sadatov dotsent**
TerDPI
**Tel/ +998978488228**
**E-mail: chorisadatov61@gmail.com**

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quvchilar naqqoshlik samarali o'zlashtirishda fanlarning o'zaro bog'liqlik darajasidan foydalanish omillari hamda darslarning metodlari, turlari va shakllari haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** Naqsh, xalq amaliy san'ati, bofta, shikifta, bodom guli, shobarg, ganch o'ymakor, nashq elementlari.

Qadimda odamlar yashayotgan maskanlariga, devor-u toshlarga ov jarayonlari, jang-u jadallar, bazmlar, tantanali marosimlarni aks ettirganlar. Jumladan, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa va boshqa obidalar qoldiqlari shundan dalolat beradi. Keyinchalik, ayrim sabablarga ko'ra tirik mavjudotni aks ettirish taqiqlab qo'yildi. Shuning uchun tasviriy san'at o'rnini o'simliksimon, geometrik naqshli bezaklar egalladi.

Rang-barang, o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning o'zaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshiar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota-bobolarimiz inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, uylarini ajoyib naqshnigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, oilaviy osoyishtalik og'ushida bo'lishi, uzoq umr ko'rishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar.

Keksa ustalarimizning aytishlaricha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak bo'lgan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bunyodlikka chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar. Arab imlosi, g'azal, bitiklar, naqshlar, me'moriy obidalar, tasviriy san'atning islimiy-tilsimiy turlari eshitish va ko'rish a'zolarimiz orqali ruhimizga hissiy quvonch olib keladi. Islom madaniyati ijod dasturida fikr va narsalarning shakl yaxlitligi ramziy-tilsimiy mazmun qobig'iga o'ralgan. Naqsh, chodirga o'ralgan ayolga o'xshaydi. Naqsh-haqqoniyatni qo'l bilan ushlab ko'rish emas, go'zallikning mohiyatini anglash, shu go'zallikni dilda tasdiqlash, chodir ortidagi holatga o'zni tayyorlash va unga kirib borish timsolidir...

Mustaqillik yillarida yurtimizda hunarmandchilikning bu turiga jiddiy e'tibor berilib, uning rivojlanishiga, mavjud an'analar zamonaviy unsurlar bilan uyg'unlashtirilib, yangi-yangi shakllar vujudga kelishiga keng imkoniyat yaratildi. Natijada yogoch o'ymakorligi faqat yurtimizda emas, xorijda ham katta shuhrat qozondi. Yog;och o;ymakorligi san'ati ustalati va ularning shogirdlari qadimgi mohir

ustalarning an'analarini davom ettirib kelmoqdalar. Ustalarning mahorati bilan ko'p asrli noyob ananalar zamonaviy qiyofa kasb etmoqda.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bu bir buyuk asar. Nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali orzu-umidlarni, muhabbatni xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari, ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida turibdi. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'at durdonalarini ko'z qorachig'idek asrash va saqlash, qadrlash, ulardan foydalanish hamda tarixini o'rganish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Eneolid va jez davrida yaratilgan jez, oltin, kumush taqinchoqlar sodda shaklda bo‘lib, gulsiz yoki kesma chiziqli halqasimon ramziy naqshlar bilan ishlangan. Miloddan avvalgi 3 ming yillikdan boshlab taqinchoqlar chig'anoq va qimmatbaho toshlardan yasalgan. Feruza va lojuvard, aqiq, nifretdan turli shakldagi munchoq, to'g'nag'ich va boshqa buyumlar tayyorlangan.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'at turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O`zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz. O'lkamiz zamminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha,

Insonning jonga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va ular osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, jilosi va ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga tortki bo‘lganki, bunda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, kandakorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan iboratdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruxiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy, insonparvarlik tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, xaqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning durdonalari butun jahonga dongi ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz korgan muhtasham binolar hozirgi bugungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildiradi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa shakllarni ma'lum tartibda takrorlanishidai xosil qilingan bezakdir. Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizadi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy ma'nalari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli

ravishda avlodlarning chambarchas og'liqligini, an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu to'rini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan bolaga o'tib kelgan. Ana shu daiomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o'yini musiqadagi oxang singari, qo'shiq va ertak kabi «xalq hayotiy tajribasining kata umumlashmasidan» iborat bo'ladi.

Badiiy naqqoshlik ranglarning o'ziga xos kompozistiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'nanaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador iroqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlaini bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning moslangan. Naqsh ko'proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Xozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, mayda yog`och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlik san'ati hozirgi kunda keng tus olmoqda. Matbuot, radio, televideniya, kino orqali kishilar ana shu san'at kamunalari va uning xalq ustalari bilan tanishmoqdalar. Bu san'atkor lar orasida O.Qosimjonov, E.Raufov, Boltayev, S.Norqo'ziyev, A.Azimov, A.Isayev, B.Abdullayev, T.To'xtaho'jayev, J.Xakimov, T.Axmedov, K.Karimov va boshqalar bor. Ularning va ulardan ta'lim olgan shogirdlarniig ishlarini Toshkentdagi amaliy sanat muzeyida, ko'rgazma zallarida, badiiy salonlarda, shuningdsk, turar-joy va jamoat binolarida, masalan, Toshkent Davlat sirki, Toshent temir yo'l vokzali foyesi, metro stanstiyalari, mehmonxonalar, kafelar, restoranlar, choyxonalar, klublar, zavod va fabrikalarning vestibyo'llari, dam



olish xonalarida qurish mumkin. Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to'garaklar tarmog'ini iloji boricha kengaygirish vazifasi.

Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim xizmat malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.

Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilgan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, qo'lolchilik, zargarlik, gilam to'qish, yog'och o'ymakorliklik va xokazolarda xar xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan: o'yib, chizib, chok yordamida zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Ganch o'ymakorlikligida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan xosil qilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Ramziy naqsh murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh marakkab naqshdan biri bo'lib to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan kopburchaklardan iborat bo'ladi. To'zilishi jixatdan to'g'ri chiziq, egri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girixga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz raportlardan tashkil topgan bo'lib, xar bir raport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Yevropada arabeska deb yuritiladi.

Gulli girix o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topadi. Uning elementlariga yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi. Ramziy naqshlar esa kabutar, sher, balik, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, ulardan zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota bobolarimiz inson ruxiyatini juda chuqur va xar taraflama o'rganib o'ylarini ajoyib naqshu-mgorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam, ruxiy osoyishtalik ogushida

bo'lishi, uzoq umr korishini donishmand bobolar asrlar davomida xayotiy tajribalar asosida ilgaganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki boyagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning xar bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmoq kerak.

Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Bexzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jaxonga mashxur olim, shoir va naqqoshlar binolarimizni kishilar xayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezaganlar. Kishilarning go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bolishga undaganlar.

Chunonchi, Samarqandning eski shaxar markazi, ya'ni Registonda savlat to'kib turgan Sherdor madrasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoqlari, baxaybat gumbazlari va chiroyli minoralari, rang barang sirli koshinlari xamda nafis, xashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali qoplamasi kishini xayratga soladi.

Naqsh kompozitsiyalari o'zini ramziy ma'nolari, tabiiy shakl va ranglar go'zalligi bilan xalq amaliy san'ati asarlariga joziba va ko'rk bag'ishlaydi. Naqshlar bino, uy ro'zg'or va boshqa turdagi jixozlarga ishlanshidan qat'iy nazar, o'ziga xos uslub va mazmunga ega bo'ladi.

Naqsh so'zi arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o'simlik, hayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng soda korinishlarida takrorlanib keluvchi tasviri ya'ni bezakdir. O'zbek xalq amaliy san'atining barcha turlari, jumladan naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kabilar uchun naqsh elementlarining chizilishi o'xshash ko'rinsada, bajarilish texnologiyasi va pardozlash usullari turlichadir. Masalan: Ganchkorlik yog'ocli o'ymakorligida naqshlar o'yib, va naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, U misgarlikda zarb bilan, zardo'zlikda qadab va shunga o'xshash usullar yordamida naqsh solinadi. Naqsh o'simliksimon geometrik, murakkab deb ataluvchi turlarga bolinadi:

1) O'simliksimon (islimiy, yuguruvchi) naqshlar asosan gul novda ko'rtak, barg, guncha kabi elementlarning o'zaro ma'lum tartibda bog'lanib tuzilishidir.

O'simliksimon naqshlar yaka (bir) va qo'sh (ikki) bandli novda ko'rinishlarida bo'linadi. Ularga misol qilib: ruta xoshiya, raftor, namoyon, mehrob, turunj, munabbat va sokozo kabi naqsh namunalarini olish mumkin.

2) Girih (handasiy) chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvi - natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi. Girih naqshlari islimiy naqsh turlari singari ma'lum bo'laklardan iborat bo'lib, alohida tuzilishlariga ega.

3) Guli girih (aralash) - murakkab naqshlar, o'simliksimon va geometrik naqsh turlarining o'zaro birikishidan hosil bo`ladi.

hondasiy naqsh kompozitsiyalari, girihlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girihkor, kata ustalar deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli shakllarda qo'llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

Yangi naqsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib beriganlar. Ular xalq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishi, chizilishi, o'yish, tikish usullari va pardoz berishi qoidalarini yaxshi bilganlar Naqqosh ustalar bir vaqtning o'zida bir necha hunar turlarini ham egallab olganlar. Masalan: Toshkentlik pardori usta Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yog'och oymakorligini, Xivalik Abdulla Boltayev naqqoshlik, koshinpazlik misgarlik kabi hunar turlarida ham erkin ijod qila olganlar.

Naqsh kompozitsiyalari mazmunini atlasda rang tuslari va naqsh elementlarining ramziy ma'nolari o'rganib borish zarur. Ramziy sozi arabcha "ishora qilmoq" sozini anglatadi. Naqsh ranglari va elementlarining ramziy ma'nosi: Ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat voqelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir. Naqqoshlik ganchkorlik va yog'och oymakorligini san'atlarida turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy- falsafiy ma'nolari ayniqsa keng ifodalanadi.

Yashil rang - ona tabiat ramzi, ko'k rang - moviy osmon, sariq rang muqqaddaslik, qora rang - matonat, oq rang tozalik, baxt va omad ramzi, barg bahorgi uyg'onish, atirgul - gozallik ramzi, olma muxabbat ramzi, anor ezgulik, tokin sochinlik. Ma'lumki har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlariga asos qilinib, tabiatda uchrovchu o'simlik dunyosi, hayvonot olami va turli geometrik shakllarning eng soda ko'rinishlaridagi "stillashtirilgan" - holatlari olinadi. - Bunda tanlangan shakl ko'rishish

naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo'shishi mumkin bolgan bezak shakliga keltiriladi. Naqshda elementlarning o'zaro birikib borishi, muttanosib bog'lanishlari naqshning butun bir yaxlitligini tashkil.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5. Sadatov CH. Obuchenie risovaniyu obnajennogo mujskogo tela s peredney storonы s karandashnыm risunkom //Obщestvo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – S. 361-365..

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.


## TASVIRIY SAN'ATDA FOYDALANILADIGAN ASBOB-USKUNALAR, MATERIALLAR, JIHOZLAR VA ULARNI RASM CHIZISHDA QO'LLASH TEXNOLOGIYASI.


*TerDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi*

***Kafedrasi kata o'qituvchisi v/b dotsent; Mamatqulov Ilxomjon Chorshanbiyevich***

***Tel/ +998915871069***

*Emall: ilxomjon@terdupi.uz*

***Annotatsiya;*** *Ushbu maqolada san'at, usul, texnologiya, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ijodiy faolligini takomillashtirish usullari, texnologiyalari, muqobil usullar, o'quvchilarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi, bugungi kunning yoshlari qanday usul va texnologiyalarga ega bo'lishi kerakligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *San'at, usul, rasm chizishni, texnologiya, kompozitsita san'at, ko'z bilan chamalash, grafitli qalamlar.* sous, *ko'mir yoki «italyan»*

Rasm chizishni o'rganish uchun, avvalo, qalam bilan ishlashning texnik asoslarini mukammal egallashni talab etadi. Bu o'z navbatida tasvirlash mahoratini shakllantirish, amaliy vazifalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga ham xizmat qiladi. Dastlabki mashg'ulotlar jismoniy mashqlarni eslatadi. Ular aniq harakatlarni amalga oshiradigan, rasm chizish jarayonida uzoq vaqt ishlaydigan kaftning mayda mushaklarini mustahkamlaydi va dinamikani rivojlantiradi. Rasm chizish turli chiziqlar chizish mahoratini shakllantiruvchi va rasm chizish texnikasini egallashda qo'l keluvchi eng oddiy mashqlar bajarishdan boshlanadi. Mashqlarning maqsadi - ko'z bilan chamalash (o'lchash)ni, qog'ozga har qanday yo'nalishda chiziq chizilayotganda, qo'lning erkin va yengil harakatlanishni ta'minlashdan iborat.

Chiziqlar jismni tasvirlashda eng asosiy vosita bo'lib hisoblanib, ular ratsional, qalinligi va egrilik darajasi bo'yicha turli xil bo'lishi kerak. Chiziqni bitta umumiy harakat bilan chizish, qisqa muddat ichida aniq va ma'noli rasm chizish imkonini beradi. Shu maqsadda, tayyorlov xarakteridagi dastlabki rasmlarni chizishda ko'zda chamalab chizishni o'rganish lozim.

Yosh rassom faoliyatidagi asosiy kamchiliklardan biri, bu - qalamni noto'g'ri ushlash. Rassom oddiy daftar o'lchamidan katta bo'lmagan yuzaga rasm chizayotgan vaqtidagina, qog'ozni gorizontal holda joylashtirishi va o'tirib ishlashi mumkin. Faqat

ushbu holatdagina, qalamni yozish vaqtida ushlagandek qo'lda tutish mumkin.

Yoshlarni rasm chizishga o'rgatishda dastlab oddiy qora qalamdan foydalanish lozim. Chunki oddiy qora qalamlar bilan buyum hajmini to'la-to'kis bajarishga o'rgatilgandagina keyingi murakkabroq vazifalarni oson egallashga yordam beradi. Tarkibidagi bo'yoq moddasiga ko'ra, qalamlar grafit, "Ретуш", "Italyan" rangli va boshqa turdagilarga bo'linadi. O'quv mashg'ulotlarida ko'proq grafitli qalamlar ishlatiladi.

Yuqori sifatli grafit qalam qog'oz ustida yengil harakatlanadi va o'rta bosimda sinmaydi. Odatda, uning ustida prizma (qirrali) yoki silindr shaklidagi yog'och qoplam bo'ladi. Yosh rassom uchun prizmasimon qalamlar mos keladi.

Grafitli qalamlar qattiqligiga ko'ra, yumshoq (M), o'rta (TM) va qattiq (T) turlariga bo'linadi. Yanada yumshoqroq yoki yanada qattiqroq qalamlar o'sib boruvchi raqamlar bilan belgilanadi: M, 2M, 3M, 4M va h.k. larga yoki T, 2T, 3T larga ajratiladi. Shuningdek, qalamlarning quyidagi xalqaro belgilari ham mavjud: yumshoq - B, HB - o'rta, H - qattiq.

Rassomlar, odatda, yumshoq qalamdan foydalanadilar: qalam qog'oz yuzasida yengil harakatlantirilganida yaxshi chizadi. Shuningdek, yumshoq qalam yosh rassomlarga ko'plab qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Yumshoq qalamlar osonlikcha sinadi va qisqa vaqtda grifeli o'tmaslashadi, yosh rassom uchun uni o'tkirlash, ko'nikma hosil bo'lgunicha, biroz qiyin kechadi. Amaliy ish tajribasiga ega bo'lmagan yoshlar ushbu qalamlarda shtrix chizganlarida, u juda qalinlashib, qorayib ketadi va u har yerga surkalib qog'ozni xunuklashtirib yuboradi. Bunday hollarda eng yaxshisi TM, M va 2 M qalamlaridan foydalanish kerak.

Grafitli qalamning kamchiliklaridan biri, bu - uning yaltirashi. U butun ish jarayonida bilinib turadi va grafit qattiqroq botirilganda, qog'ozga o'chirg'ichda ketmaydigan iz tushadi. Bundan tashqari, eng yumshoq grafitda ham ton berish xususiyati bo'ladi.

Oddiy grafitli qalamlardan tashqari rassomlar maxsus qalamlardan - "Herpo", "Ретуш", zichlangan va zichlanmagan ko'mir, sangina va sousdan ham foydalanadilar. "Herpo" qalarni qog'ozda to'q qora iz qoldiradi, u yumshoq va nisbatan chidamli; ushbu

qalam yordamida chizilgan suratlar o'z ta'sir kuchiga ega, ammo "Herpo" qalamining ham kamchiliklari mavjud: u o'chirg'ichda juda yomon o'chiriladi, shuning uchun ham bu qalam turi yosh rassomlarga mos kelmaydi. Rassomlar "Ретуш" yoki «Italyan» qalami bilan ishlashni ma'qul ko'rishadi. Ushbu qalam yordamida ko'plab mashhur rassomlar ajoyib san'at asarlarini yaratishgan. U qog'ozga baxmalsimon tus beradi, o'chirg'ich va mato yordamida yaxshi o'chiriladi; uning yordamida bir tusdan ikkinchi tusga juda noziklik va ohistalik bilan o'tish mumkin. Ammo bunday qalamlar bilan ishlash uchun rassomda yuqori bilim va malaka bo'lishi kerak. Qalam juda mo'rt, shuning uchun undan tajribasiz qo'llar foydalansa, tezda yoyilib, sinib ketadi.

Shuningdek, uzunligi taxminan 10 sm bo'lgan, uzun cho'p holatiga keltirilgan ko'mir ham samarali ish quroli hisoblanadi. Ko'mir - ishlash uchun juda qulay material, shuning uchun rassomlar ba'zan uni eng sifatli qalamdan ham afzal ko'rishadi. U bilan juda sifatsiz muqova qog'oziga ham chizish mumkin.

Chunki noto'g'ri chizilgan chiziqlarni o'chirish uchun qog'ozni toza va quruq mato bilan qoqib yuborish kifoya. Ko'mir tayoqchasini qo'lda yengil ushlab, bosmasdan qog'oz bo'ylab yurgizilganida u mayin, bilinar-bilinmas iz qoldiradi; to'q tusni hosil qilish uchun ko'mirni (qattiq bosmasdan) ko'p marta ustma- ust yurgizish tavsiya etiladi. Ingichka chiziqlarni chizish uchun ko'mirni dag'alroq yuzaga yonboshlatib, ishqalash orqali uchli qilish mumkin. Ko'mir, odatda, katta rasmlar ishlanganida, karton yoki matoda yaratiladigan asarlarning dastlabki qoralama va chizgilarini (odatda, rassomlar uni kartina uchun bajarilgan karton, deb ataydilar) chizishda hamda rangtasvir asarlarining boshlang'ich kompozitsiyasini yaratish jarayonida va boshqa hollarda qo'llanadi.

***Ko'mir yoki «Italyan»*** qalami yordamida chizilgan tasvirlarni uzoq saqlash uchun rasm tayyor bo'lganidan so'ng, uni maxsus qorishma - fiksativ yordamida mustahkamlash kerak. Buning uchun, rasm ustiga oddiy shirin suv purkaladi. Sangina uchlangan ko'mir qalamchasiga o'xshab ketadi, ammo rangi qizg'ish-jigarrang bo'ladi. Ushbu ajoyib ish quroli rasmga baxmalga o'xshash chiroyli, qizg'ish-jigarrang tus beradi, o'chirg'ichda nisbatan oson o'chiriladi. Sangina bilan ishlash uchun «Italyan» qalami kabi, ma'lum bilim va mahorat talab etiladi.

***Sous*** - zichlangan qorakuyadan tayyorlangan va maxsus qog'ozga o'ralgan qalin, qisqa qalamchalar. Sous bilan ishlash juda mushkul va faqat mahoratli rassomlargina buning uddasidan chiqa olishadi.

Sous bilan ishlash uchun chidamli va biroz dag'al yuzali qog'oz kerak. Qog'oz qalamning raqami va turiga ko'ra tanlanadi. Grifel qanchalik yumshoq bo'lsa, qog'oz yuzasining fakturasi shunchalik notekis, bo'rtmali bo'lishi kerak. "Ретуш" va "Нерро" qalamlari bilan yarim vatmanda, grafitli qalamlar bilan esa, yarim vatman va qalamchilik qog'ozlarida ishlash qulay. Mashg'ulotlarda chiziladigan rasmlar, odatda, grafitli "Кохинор" (V-3V), "Конструктор" (M-3M) hamda "Ретуш" (1,2 raqamlari) qalamlarida ishlanadi. Xomaki chizgilar nisbatan yumshoq qalamlarda chizilishi mumkin.

Qalam ochilayotganda, avval unga konus shakli beriladi, so'ngra uni qumqog'ozda silliqlanadi. Bu qalamning juda o'tkir uchi bilan qog'ozga ingichka chiziqlar va shtrixlar chizish, yon tomoni bilan qalin va och tus berish imkonini yaratadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, o'ta qisqa yoki noto'g'ri ochilgan qalam bilan ishlash ancha mushkul.

Rasm ustida ishlash jarayonida o'chirg'ichdan (odatda, yumshoq o'chirg'ichdan) ham foydalaniladi. U rangni kuchsizlantirish (ochartirish), ortiqcha chiziqlarni olib tashlash (o'chirish) uchun ishlatiladi. Qattiq o'chirg'ichdan alohida holatlarda, masalan, sanginani o'chirishda foydalaniladi. Oddiy yumshoq o'chirg'ich sifatli bo'lsa, u o'chirish chog'ida qog'oz ustida iz qoldirmasligi kerak. Agar o'chirg'ich qoraytirsa yoki juda qattiq bo'lsa, uni bir-ikki kunga kerosinga solib qo'yish, so'ngra esa, 1-2 soat past olovda qaynatish tavsiya etiladi. U xamirga o'xshash o'ta yumshoq bo'ladi. Bu turdagi o'chirg'ich ortiqcha ko'mir va sous qatlamini olib tashlash uchun juda qulaydir.

*Tush va bo'yoqlar* bilan ishlash uchun turli raqamli pero va mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Rasm chizilayotgan qog'oz yoki boshqa yuza rassom nigohiga (ko'z nuriga) nisbatan perpendikular joylashgan bo'lishi lozim. Bunday holatda rasm borligicha, qisqarmasdan ko'rinadi.

Rasm joylashtirilganida, unga rassomning yoki boshqa jismlarning soyasi tushmasligi kerak. Iloji boricha, chiroqni tepa tarafga, chizuvchining old, chap

tomonga o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Qog'ozga quyosh nurlari tushganda yoki rassomning ko'z oldida chiroq yonib turganida rasm chizish mumkin emas. Ko'z soyada bo'lishi kerak.

Model joylashtirilganida, u rasm chlzuvchining chap, yon tarafida bo'lishi lozim: bu holatda ishlayotgan qo'l modelga qarashga xalal bermaydi (chunki, agar model o'ng tarafda bo'lsa, u to'silib qoladi).

Rasm (tasvir) qog'ozda, kartonda, maxsus qoplama berib ishlov berilgan (gruntovka qilingan) mato va h.k. larda bajarilishi mumkin. Ushbu materiallardan eng qulayi qog'oz. Qog'ozning ko'pgma turlari mavjud. Rasm chizish uchun yaxshi ishlangan, yelimga to'ydirilgan qog'oz turlari - vatman, yarim vatman, qalamchilik qog'ozi qo'l keladi. Ushbu qog'ozlar qalam chiziqlarini o'chirg'ich yordamida ko'p marotaba o'chirishga mo'ljallangan. Yumshoq va yaxshi yelimlanmagan qog'ozlarning ustki qatlarni o'chirg'ich ishlatilganida buziladi va qog'ozning ustki qismi ko'chib ketadi. Rasm qog'ozi zich bo'lish bilan hirgalikda, biroz dag'alroq ham bo'lishi kerak. Bunda qalamni qog'oz ustida yengil yurgizib, yumshoq iz qoldirish mumkin.

Qog'oz sifati uning mustahkamligiga, tashqi tuzilishiga va tusiga (rangiga) qarab belgilanadi. Tuzilishi jihatiga ko'ra, qog'ozlarni *tekis, qavariqli va tukli yuzali* qog'ozlarga ajratish mumkin. Tekis qog'ozlar turiga karton, bo'rlangan qog'ozlar mansub. Qavariq yuzali qog'ozlarga esa, masalan, vatman, yarim

vatman, qalamchilik qog'ozi kiradi; tukli qog'ozlar - kartonning alohida turlariga muqova qog'ozlari kiradi. Shuningdek, qog'ozlarni rangiga ko'ra tanlash ham muhim: qog'oz rangi qanchalik och bo'lsa, unda turli xil ranglarni ifodalash imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Odatda, rasm chizish uchun oq rangdagi qog'oz ishlatiladi, ammo ba'zan unga kulrang va boshqa ranglar uyg'unlashtiriladi. Tusli qog'ozni rangdor qilish va unga tus jihatdan mos keladigan tasvirlar bajarish uchun uning yuzasi enli, yumshoq mayin mo'yqalam yordamida suyultirilgan akvarel, sous, achchiq choy yoki qahva bilan bir xil qatlamda qoplanadi. Rasm chizish uchun eng qulay qog'oz bu yarim vatman hisoblanadi. Yarim vatman bo'lmagan taqdirda esa, kerakli o'lchamdagi albom ishlatish maqsadga muvohq.

O'quv mashg'ulotlari sharoitida qog'oz maxsus tagliklarga qalpoqli mix bilan mahkamlanadi. Rasm chizuvchi va qog'oz o'rtasidagi oraliq masofa taxminan cho'zilgan qo'l uzunligida bo'lishi kerak. Bu rasmni to'laligicha ko'rish, uni tekshirish va asl jism bilan solishtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, rasmni doimiy ravishda 2-3 metr uzoqlikdan tekshirib turish tavsiya etiladi. Agar rasm katta bo'lsa, masofani kattalashtirish kerak. Odatda, molbertda rasm chizilganda, o'tirib ishlanadi; uning oyoqlarini surib, har xil burchakda joylashtirish mumkin. Katta rasmlar ustida turib ishlanadi.

Rasm chizish vaqtida, model to'liq ko'rinib turishi zarur. Rassom va chizilayotgan jism orasidagi masofa, jismning katta o'lchamiga nisbatan 2,5-3 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Ish davomida chalg'imaslik uchun barcha zaruriy asbob va uskunalar ish joyi yaqinida bo'lishi lozim.

Qiya o'rnatilgan taglikda rasm chizilganida, qalamni shunday ushlash kerakki, bosh barmoq uning tepa qismidan bosib tursin, pastki qismini esa, qolgan to'rt barmoq yoki ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan ushlanadi. Ushbu holat juda qulay, chunki u rassomga qo'lini hech qanday qiyinchiliklarsiz uzatib ishlash imkonini beradi. Rasm chizish chog'ida, qalam yuzaga nisbatan o'tkir burchakda joylashishi kerak, shunda u qog'oz bo'ylab yengil harakatlanadi va mayin iz qoldiradi. Qalamni to'g'ri ushlash yana shunisi bilan qulayki, ish davomida qalam muntazam charxlanib boradi va o'tkirligini yo'qotmaydi.

Qalam noto'g'ri ushlanganda, qalam va rasm yuzasi oralig'ida deyarli to'g'ri burchak hosil bo'ladi, bu yerda chizilgan chiziq qo'pol bo'ladi, qalam uchi tez ishdan chiqadi va qog'oz yuzasi qiriladi. Qalam noto'g'ri ushlanganda, shuningdek, barcha chiziqlar qora, juda qalin bo'ladi va bu tasvir saviyasini tushirib yuboradi.

Ish jarayonida rassom chizilayotgan jismni yaxlitligicha ko'rib turishi kerak. Bu o'z vaqtida xatolarni anglab yetish va tuzatish imkonini beradi. Natijada, vazifa to'g'ri bajariladi. Rassom va chizilayotgan rasm o'rtasidagi masofa belgilangan tartibda bo'lishi lozim; rasm chizuvchining qo'li esa, cho'zilgan holatda bo'lishi kerak, chunki bukilgan qo'ldan ko'ra, cho'zilgan qo'l bilan rasm chizish qulayroq. Ammo, qo'l cho'zilganda uni erkin tuta bilish va yuza bo'ylab yengil harakatlantira olish muhim

hisoblanadi. Agar ehtiyoj sezilsa, so'nggi ikki barmoqni rasm yuzasiga tirab ishlash mumkin. Bunda qo'l tagidagi chizilgan rasm surkalib ketmaydi.

Qalam ushlanganida, qo'l erkin harakatlanishi kerak. Ish boshida, uning orqa qismidan ushlanadi. Bu tezkorlik bilan uzun shtrix chiziqlar chizish imkonini beradi, shuningdek, doimiy ravishda rasm yuzasini ko'rib turishga sharoit yaratadi. Rasm chizish jarayoni davom etishi bilan, qalam ushlash uslubi ham o'zgarib boradi. Rasm tugallanayotganida, qalamning ochilgan tarafi barmoqlarga yaqin bo'ladi va ushbu holatda shaklning mayda bo'laklari va aniq shtrixlar bilan bajariladi.

Rasm chizish sirlarini egallash uchun ma'lum tizimdagi mashg'ulotlar talab qilinganligi tufayli, auditoriya sharoitidagi darslardan so'ng, uy vazifasi doimiy tarzda bajarilib borilishi shart. Shu sababli, uy sharoitida ish joyini tayyorlash muhim hisoblanadi.

Qog'ozni mahkamlash uchun 50x70 sm o'lchamga ega bo'lgan to'g'ri burchakli taxta (planshet) kerak. Planshetni mustahkamlash uchun fanerga 2x3 sm o'lchamli yog'och qoqiladi. Planshetga oyoqchalarning o'rnatilishi, planshet yuzasini ish jarayoni uchun zaruriy va qulay bo'lgan burchakda joylashtirish imkonini beradi. Planshet-taxtalikka qog'oz tortish usullari 1-rasm *a)* va *b)* da ko'rsatilgan.



a) b)

1-rasm

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

2. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 138-142.

3. Бахтиер М., Илхомджон М. ГРАФИЧЕСКИЕ ПРОГРАММЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ, А ТАКЖЕ ВОЗМОЖНОСТИ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ AUTOCAD И 3D MAX //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 92-94.

4. Маматкулов И. Ч., Омонова Р. Р. CHIZMACHILIK DARSLARIDA REZBALARNI CHIZMADA TASVIRLASH VA BELGILASHGA OID METODIK TAVSIYALAR: DOI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2021.31. 50.049 Mamatqulov Ilxomjon Chorshanbiyevich TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi, Omonova Rayhon Rahmatillayevna TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 170-176.

5. Chorshanbiyevich M. I. Methods of Organization and Teaching of Drawing Classes in Educational Institutions //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 140-143.

6. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

7. Chorshanbiyevich M. I. Individual Description of Separate Geometric Shapes and Bodies //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 167-169.

8. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.

9. Тошпулатов Ф. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ УЗОРОВ И ИХ ВИДОВ ИЗ ИСКЛЮЧЕНИЯ РИСУНКА И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В АРХИТЕКТУРНЫХ СООРУЖЕНИЯХ //Физико-технологического образование. - 2022. - Ч. 1. - № 1.

10. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.

11. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de.– 2018. – 2018.

12. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – № 4. – C. 487-491.

## Chizmatasvir ishlash metodi

**dotsent *Ch.X. Sadatov***
TerDPI
**Tel/ +998978488228**
**E-mail: chorisadatov61@gmail.com**

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada o'quvchilar chizmatasvirni samarali o'lashtirishda fanlarning o'zaro bog'liqlik darajasidan foydalanish omillari hamda darslarning metodlari, turlari va shakllari haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** chizmatasvir, uch o'lchamlilik, chuqurlik, yaxlitlik, shakllar, kompozitsiya, tus, blik, shtrixlash, nisbatlar, hajm

**Qog'oz yuzasida chuqurlikni sezish.** Chizmatasvir ishlashdan oldin kogoz yuzasini uch o'lchamda tasavvur kilish chizmatasviri ishlangan buyumni uch o'lchamda yaxlit joylashtirilgan holatini ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega.

Chizmatasvir ishlayotganda kogoz yuzasi haqida o'ylamaslik kerak. Qog'oz bo'shlig'ida tasvirning haqiqiy ko'rinishini uch o'lchamda aks ettiraolish haqida fikr yuritish lozim.

Katta chuqurlikka ega bo'lgan chizmatasida birinchi plandan boshlanadi. Chunki oxirgi plan ishlangandan keyin birinchi plan shakllarini starli darajada tasvirlash imkoniyati mavjud buladi. Kogoz tekisligida tasvir chuqurligini xosil qilish yo'llarini izlashdan oldin xona ichini tasvirlash kabi, ya'ni, xonaning to'rt devori napol, ship (potolog)ni esdan chiqarmasdan tasvirlash lozim.

Tasvirda yaxlitlik. Biz bir harakat bilan chizmatasvir quraolmaymiz. Biz g'ishtlar yordamida imorat qurganday asta sekin chiziqlar, nuqtalar va dog'lar yordamida amalga oshiramiz. Qog'oz yuzida qalam xarakatida umumiy g'oyaga bo'ysundirib naturaning yaxlit chizmatasvirini hosil qilamiz. Chizmatasvir ishlash jarayonida naturaning jami qismlariga katta e'tibor berib, xar bir shtrix o'z o'rnida bo'lishini nazorat qilib borish lozim.

Tasvir ishlash chog'ida mayda qismlarini umumiy qismlarga mos ravishda diqqat bilan ishlab yaxlit shakl muhiti yaratish talab etiladi. Aks xolda bitta qismida quyilgan xato boshqa jami qismlariga ta'sir qilib tasvirning yaxlitligini buzilishiga olib keladi.

Guruh qomatlarni chizishda aloxida bir qiyofa yoki qomatni tasvirlash bilan ovora bo'lmasdan jami qomat yoki qiyofalarni bir-biri bilan bog'lab katta qismlarga bo'lib undan keyin mayda qismlarga ishlov beriladi. Guruxlar tekislikda joylashuvi planlarda bo'lganida chiziqlar yordamida chuqurlik muhitini aks ettirshni esdan chiqarmaslik kerak.

Katta chuqurlikka ega bo'lgan chizmatasvirda birinchi plandan boshlanadi. Chunki oxirgi plan ishlangandan keyin birinchi plan shakllarini starli darajada tasvirlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Kog'oz tekisligida tasvir chuqurligini xosil qilish



yo'llarini izlashdan oldin xona ichini tasvirlash kabi, ya'ni, xonaning to'rt devori napol, ship (potolog)ni esdan chiqarmasdan tasvirlash lozim.

Tasvirda yaxlitlik. Biz bir xarakat bilan chizmatasvir quraolmaymiz. Biz g'ishtlar yordamida imorat qurganday asta sekin chiziqlar, nuqtalar va dog'lar yordamida amalga oshiramiz. Kogoz yuzida kalam xarakatida umumiy goyaga bo'ysundirib naturaning yaxlit chizmatasvirini xosil qilamiz. Chizmatasvir ishlash jarayonida naturaning jami qismlariga katta e'tibor berib, xar bir shtrix o'z o'rnida bo'lishini nazorat kilib borish lozim.

Tasvir ishlash chog'ida mayda kismlarini umumiy qismlarga mos ravishda diqqat bilan ishlab yaxlit shakl muhitini yaratish talab etiladi. Aks xolda bitta qismida qo'yilgan xato boshqa jami qismlariga ta'sir qilib tasvirning yaxlitligini buzilishiga olib keladi.

Guruх qomatlarni chizishda aloxida bir qiyofa yoki qomatni tasvirlash bilan ovora bo'lmasdan jami qomat yoki qiyofalarni bir-biri bilan bog'lab katta qismlarga bo'lib undan keyin mayda kismlarga ishlov beriladi. Guruxlar tekislikda joylashuvi planlarda bo'lganida chiziqlar yordamida chuqurlik muxitini aks ettirshni esdan chiqarmaslik kerak.

**Ucho'lchamlilik. Xajem. Shakl**

Xar kanday shakl xajmi uch ulchamda aniqlanadi; uzunligi, eni va balandligi bilan. Uning xajmi deganda yuza chegaralarining uch ulchamligi tushuniladi. Shakl bu tashqi qurish, shaklning tashqi chiziqlari. Uch o'lchamli odam boshining uch ko'rinishdagi chizmatasvirlari. Tasviriy san'at shakl xajmi bilan ish olib boradi. Masalan, kubni tasvirlashda faqat uning ko'ringan tomonidan tashkari, ko'zga ko'rinmagan tomonlarini ham xisobga olmasdan tasvirlash mumkin emas. Kubni to'la idrok qilmasdan uni qurish ham, tasvirlash xam qiyin. Shaklni to'gri tasavvur qilmay uni tasvirlash bir tomonlama bo'lib qoladi. Chizmatasvir ishlashdan oldin shaklni to'la tushunish uchun naturani xamma tomonidan aylanib kuzatish zarur. Boshni fas (old) tomonidan ishlash uchun uni albatta profil tomonidan xam kuzatish lozim. Bosh biroz (3/4) burilgan xolatida quloqni ishlashda uning ko'rinmagan ikkinchi qulogini xam tasavur qilmoq kerak. Burun to'sgan ko'zni ishlashda uni to'la tasavvur qilish, faqat

shtrix chiziqcha bilan belgilab chegaralanmaslik kerak. Tasvirchiga naturani xamma nuqtadan kuzatib va faqat bitta nuqtadan chizishni tavsiya etiladi. Oddiy ishlash qoidalarini egallab, shakllarda chizmatasvir murakkabroq shakllarni tasvirlash tavsiya etiladi. (9 a. b-rasm). Shakl konstuksiyasi yoki kurilishi deganda uning qismlari joylashishda uzaro bogliqligi anglanadi. Konstruksiya tushunchasi xamma shakllarga xos bo'lib, tabiat va inson qo'li bilan yaratilgan oddiy va murakkab shaklar dunyosi kiradi. Rassom atrofidagi shakllarni fakat nursoya. tasodifiy xolatini qurmasligi kerak. Shakl qurilishida uning qonunga muvofik tuzilishini topish lozim. Bu qobiliyat naturadan ishlash jarayonida asta-sekin rivojlantiriladi. Shakllarni o'rganishda tuzilishi murakkabrok naturani tasvirlash rassomni chizmatasvirga ongli ravishda yondoshishini talab kiladi. Ayniqsa inson qomati qurilishi qiziqarli. Uni to'g'ri tasvirlashda plastik anatomiya bilimi katta yordam beradi.

Chizmatasvir dasturida talabani borlikni xaqqoniy tasvirlashni o'rgatish vazifasi qo'yilib, naturani har tomonlama o'rganish metodiga asoslanadi.

Dasturda oddiy geometrik shakllardan murakkab shakllarga (natyurmort, peyzaj, xayvonlar) va eng murakkab odam komatini tasvirlashni o'z ichiga oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5. Sadatov CH. Obuchenie risovaniyu obnajennogo mujskogo tela s peredney storonы s karandashnыm risunkom //Obщestvo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – S. 361-365..

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Astoralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – C. 105.

7. Astoraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – C. 166-168.

8. Astoralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

9. Abduraximov L. QALAMTASVIRNING NAZARIY ASOSLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYa ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – S. 1-5.

## Oddiy natyurmort chizmatasviri

**dotsent *Ch.X. Sadatov***
TerDPI
**Tel/ +998978488228**
**E-mail: chorisadatov61@gmail.com**

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilar naqqoshlik samarali o'zlashurishda fanlarning o'zaro bog'liqlik darajasidan foydalanish omillari hamda darslarning metodlari, turlari va shakllari haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** Naqsh, bofta, shikifta, bodom guli, shobarg, nashq elementlari, chizmatasvir, pastonovka, natyurmort, shakllar, uy anjomlari, kompozitsiya, koralama, rus. Yu.Pimenov.

Oddiy natyurmort uchun ashyo va buyumlari murakkab jarayon. Chunki mavzuli nopor o'rta narsalarni ko'yilmaga joylashtirish va uni yoritish katta e'tiborni talab kiladi.

O'quv vazifalari uchun ko'yilma (postanovka) bulsa xam mavzu acocna yurmort Atrofima narsalar inson mexnatijasida yaratilgan bulib, insonlar bilan boglik. Shakllarni insonlardan ajratishni tasavvur kilib bo'lmaydi. Xar kanday natyurmort shakllar to'plamidan tashkil topgan bulib, insonning narsalarga bulgan munosabati va xis tuygusini aks ettiradi. Yu.I.Pimenovning "Kutish" natyurmortida deraza oldida gushagi olingan oddiy telefon tasvirlangan bo'lib, insonning jushkin olami, xayot faoliyatini tomoshabinga kursat olgan. Bu misolda malakali rassom ijodini kurish mumkin. Ijodiy jarayonida vazifalarni talabalar natyurmorti chegaralanmasligi lozim.

Birinchi natyurmort kuyilmasida murakkab vazifalarni yechish talablari maksadga muvofik emas. Shunday bulsa xam narsalarni natyurmort uchun tanlashda etiborsizlik kilmaslik kerak.



1 a –rasm Yu.Pimenov.
"Kutish" natirmorti.

Buyumlarni natyurmort uchun ashyolar tanlash mavzu bilan uzviy boglik. Buyumlarni tanlashda shakllar xarakteri, kattaligi, rang kuchi, material (ashe) na yuza fakturasi katta rol uynaydi. Kattarok shakl yonlariga marok shakllarni joylashtirilsa natyurmort kizikarli buladi.

Natyurmort postanovkasida shunga axamiyat berish kerakki, u chiroyli va jozibali bulishiga e'tibor karatish lozim. Bir necha variant xosil kilib, xar xil nuktadan karab bittasiga tuxtash kerak. Yeritishda esa shakllar bir- birini tusib kolmasligi lozim.



11b-rasmdagi natyurmort oshxona Stoliga kuyilgan bulib: tukilgan idish savat, loydan yasalgan kuza, ok xaltachada un yoki tuz va ikkita mato drapirovka tuldirilgan. bilan Bittasi fon o'rnida devorga osilgan. ikkinchisi esa stolning chap tomonida dasturxon urnida ko'rsatilgan.

Yoritilishida chirok shunday kuyilganki ... soyasi kuza shaklini yanada anik ko'rinishini ta'minlagan, ok xaltachani ... yoritgan. Natyurmortga mavzu tanlashda, narsalarni saralash, ularni ...ishtirish va natyurmortni yoritish umuman postanovka yoki kompozitsiya deb ... Keyin natyumort chizmatasviri kompozitsiyasi ustida ishlash, ya'ni chizmatasvirni kogozda joylashtirish boskichi boshlanadi. Bu vazifani xal kilish uchun ... bir necha koralama bajariladi. Koralamalardan eng yaxshisini tanlab chizmatasvir uchun kanday format kogoz tanlash va eniga yoki gorizontal, uzunligiga joylashtirish aniklanadi.



11 v - rasm Nartyumort postanovkasi.

Natyurmortga xar xil yuzali buyumlar ko'yilishi mumkin. Masalan, xira yuzali, yaltiroq yuzali va xar xil ashyolardan; ya'ni, mato, metall, loy, chinnidan ishlangan idishlar katnashganda blik (yaltirok joyi) ok rangi shaklidan farkini tus berishda aniklik bilan ishlash lozim. Umuman chizmatasvirda tus berish vazifasi eng muxim jarayon hisoblanadi. Tus berish boskichida eng koramtir shakldan boshlab yengil shirx tuslaridan foydalanib bajarish lozim. Ozgina bulsada xatolikka kuyilsa kutilmaganda xunuk okibatga olib keladi. Ayniksa blik bilan ok rangli adashtirish chizmatasvirni joyini yoki kora shaklni soyalar bilan nisbatlarini buzilishiga olib keladi. Chizmatasvirda tus berishni muvoffakiyatli xal kilish uchun

ko'p mashk kilish kerak. Har natyurmortlar ko'yishda asta-sekin murakkablashtirib borilsa maksadga muvofik bo'ladi. (2 a, b, v-rasm).

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5. Sadatov CH. Obuchenie risovaniyu obnajennogo mujskogo tela s peredney storonы s karandashnыm risunkom //Obщestvo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – S. 361-365..

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8.Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – С. 312-316.

9. Abdurahimov L. QALAMTASVIRNING NAZARIY ASOSLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYa ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – S. 1-5.

## " YETUK PEDAGOG - JAMIYAT USTUNI "

***Amonov Sa'dulla Xolsaitovich Ter DPI***
***Informatika va uni o`qitish metodikasi kafedrasi***
***o'qituvchisi Tel:998996756771***
***Hayitmurodova Mohigul O'rol qizi Ter DPI***
***Texnologik ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi***

***Tel:998881912320***

***Annotatsiya:*** Xalq va jamiyat ustuni bo'lgan pedagoglar darhaqiqatki jamiyatimizning ustuni hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish, savodli qilish va uni dono qilib shakllantirish Pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Oila va jamiyatimizni ma'naviy jihatdan ilmiy salohiyatini oshirishda ayni pedagoglarning roli beqiyosdir. Ta'lim olish jarayonida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Zamonaviy pedagog – "Google" qidiruv tizimida toppish mumkin bo'lmagan foydali bilimlarni berishi kerak agar aksi bo'lsa u vaqtini bekorga sarflaydi. Pedagogika — tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'qitiladigan o'quv predmeti ham Pedagogika deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy Pedagoglar bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviyma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'smlarini belgilab beradi. Agar pedagog o'z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o'ylasa u ko'p narsaga erishadi.

***Kalit so'zlar***: Pedagog, xalq, jamiyat, ong, shaxs, ustoz, bilim, kitob, ma'rifat, madanyat, ta'lim, tarbiya, savod, yaxshi, yomon, xulq, odob.

Biz g'aroyib davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez sur'atlarda, tanib bo'lmas darajada o'zgaryapti. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchi quyidagilarga tayyor bo'lishi kerak: *O'zgarish* - Bu eng qiyini, biroq to'laqonli shaxs sifatida mavjud bo'lish uchun zarur bo'lgan shart. *O'z xatolarini tan olish* - Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O'qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq. *Rivojlanish* - Agar jahon sur'ati bir necha avlodlar davomida o'zgarmagan bo'lsa, hozirda u shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, "Alisa Ko'zgu orti mamlakatida"gi Qora qirolicha aytganidek, o'z joyida qolish uchun "oyoqni qo'lga olib yugurish kerak".O'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar boshqacha ekanini yodda tutishi lozim. Ular internetda yashashmoqda, ularda katta odam madaniyati yo'q. Foyda keltirish va o'z mehnati mahsulidan bahra olish uchun zamonaviy muallim va o'qituvchilar quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati, uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bogliqdir. Shunday ekan, soglom va har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Shunday ekan, o'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, kasbiga tegishli ma'lumoti bor, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni sezishi, o'rganishi va baholay olishi kerak. U pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, pedagog-



olimlarimiz hozirga qadar didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan yangi texnologiyasini ishlab chiqishga e'tiborberishgan. Shu nuqtai nazardan, milliy davlat ijtimoiy buyurtma sifatida yangi pedagogik texnologiyasida «yangi» so'zining g'oyasi ishlanilishi nazariyachi olimlarimiz va o'qituvchilarni bir qadar o'ylantirib keyingi vaqtlarda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini ko'pchilik anglab yetmoqda. Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida XIX-asrning 2- yarmida rivojlandi va fanga kirib keldi. Pedagogika fani differensiyalash jarayonida pedagogika fani tarkibidan alohida ajralib, mustaqil fan bo'lib ajralib chiqdi. Pedagogik texnologiya fani hozirda pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida OTM.larida o'qitilib kelinadi. Pedagogik texnologiya fanining asosiy maqsadi-yosh avlodda mazkur fan orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat va san'at bilan tashkil qila olishdir. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir. Pedagogik texnologiya – texnologiyaga nisbatan tor tushuncha bo'lib-unda faqat ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini mahorat, san'at bilan o'rganish. Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan usul, shakl va uyushmalar yigindisiga asoslangan loyihadir. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir. Shunday ekan, pedagogik texnologiyani qanday yangilash mumkin? E'tiborni yuqorida berilgan pedagogik texnologiyaning tizimiga qarataylik. Bu tizimga uzluk-siz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa pedagogik texnologiyaning bosh bo'g'ini hisoblanib. u pedagogik tizimning qolgan elementlarini, o'z navbatida, yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. ya'ni ta'lim tizimini o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan tola xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida. yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa, deb belgiladi. Demak, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir. " Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad-

ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi" degan yurtboshimizning fikrlaridan ta`lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta`minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin. O'qituvchi davlat buyurtmasiga mos keladigan ta`lim tarbiya maqsadini aniq va ravshan belgilashi kerakki, natijada, ma'lum vaqt ichida unga erishishni ta'minlaydigan didaktik jarayonni tuzish va joriy etish to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'lsin. O'qituvchi pedagogik tizimda belgilangan maqsadga to'g'ri keladigan o'quv tarbiyaviy jarayon mazmunini o'quv usuli bo'yicha chuqur egallashi, muntazam ravishda o'z pedagogik mahoratini ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda mustaqil ravishda kengaytirib borishi zarur. O'qituvchi pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi kerak: bu-birinchidan, jadallashtirish va tabiatan monandlik talabidir. Jadallashtirish didaktik masalalarni ma'lum vaqt doirasida birmuncha tez va yuqori saviyada hal eta oladigan didaktik jarayonni qo'llashni talab etadi. Ta'lim va tarbiyaga bu talabni aniqlab beruvchi omil — talaba (o'quvchi) larning ma'lum faoliyatni o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. Ikkinchidan, o'quvtarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish lozimki, bunda mumkin qadar talabalarning keng doirada tajriba egallashiga imkon tug'diradigan va ularning aqliy malakasini rivojlantira oladigan mexanizm vujudga kelsin. Bu talabni aniqlab beruvchi omillar: talabalarning o'qishga bo'lgan xohishi, o'quv mehnatiga munosabati va sog'lom psixo-fiziologik faoliyati kabilardir. O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalana olishi kerak. O'qitishning tashkiliy shakllari to'g'ri tanlanishi pedagogik tizim elementkinring ma'lum qonuniyat asosida bir-birlari bilan bog'liq ekanligini bildiradi. Bu bog'lanishlardan foydalanish va eng maqbul bo'lgan Tashkiliy shakllar topish-ta'limda rasmiyatchilikni yo'qotishga yo'l ochadi. O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan talabaning ta'lim mazmuni va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar yordamida doimo nazorat qilib borishi lozim. Bu to'g'rida olingan axborotlar esa pedagogik tizimni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkoniyatini beradi yoki tizimdagi qaysi elementning mazmuniga tuzatish kiritish kerak ekanligini aniqlaydi.



**Xulosa:** Men bu maqolam bilan shuni aytmqchimanki: ustozlarning jamiyatdagi o'rni beqiyosdir, ular azal-azaldan podshoga tenglashtirib kelinadi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada didaktik masalalarning o'z yechimlarini topishi-milliy dasturni to'yobga ehiqarishning muhim bosqichidir. Agar pedagog qo'lida bilimga shunoq talabalar, fan maqsadiga mos mazmundagi dastur, darslik va qo'llanmalar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishi mumkin. Shu boisdan, o'qituvchi mahoratiga ko'p narsa bog'liqligi, uning pedagogik tizimda tutgan o'rni haqida batafsil o'rganish zarurati tug'iladi.

**Asosiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar**

1. Sh. M.Mirziyoyev.Erkin va forovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 b.

2. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston", 2017.-104 b.

3. U K.Tolipov, M.Usmanboyeva "Pedagogik texnologiyalarninig tadbiqiy asoslari."O'quv qo'llanma. T.: "Fan" 2006.

4. R Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev " Ta'limda innovatsion texnologiyalar"-T, "Iste'dod". 2008.

5. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning savodxonligini baholash. (Matematika va informatika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.

**Elektron ta'lim resurslari**

1 https://askinfo.uz

2 www.ziyouz.com

3. https://religions.uz

4. https://saviya.uz

## PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARNI GRAFIK VA DIAGRAMMALARNI BAJARISHGA O'RGATISH

***Amonov Sa'dulla Xolsaitovich Ter DPI***
***Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi***
***o'qituvchisi*** Tel:998996756771
***Sodiqova Afifaxon Ismoiljon qizi Ter DPI***
***Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi***
Tel:998914486277

Anotatsiya:Ushbu maqolada pedagogika ta'lim yo'nalishidagi talabalarning grafik va diagrammalardan darslarda unumli foydalanish samaradorligi haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'zlar:Grafik va diagrammalar; chiziqli, ustunli va sektorli grafik va diagrammalar.*

Grafik va diagrammalar fan, texnika, tibbiyot, maorif va turmushda keng qo'llaniladi. Fanda ular yordamida har xil murakkab jarayonlarning kechishi va qonuniyatlari o'rganiladi, tibbiyotda tashxis qo'yishda (kardiogrammalar,...) foydalaniladi, ishlab chiqarish, maorif va shu kabilarda ma'lum bir davr mobaynida biror sohadagi ko'rsatkichlarning o'zgarishlari sodda va tushunarli shaklda ifodalaniladi.

O'quvchilar grafik va diagrammalar bilan matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari, mehnat ta'limi darslarida va shuningdek gazeta hamda jurnallarni mutolaa qilish jarayonlarida tanishganlar. Shuning uchun biz grafik va diagrammalarni o'qish va bajarishni bilishning foydasi va zaruriyati haqida batafsil to'xtalib o'tirmaymiz. Har bir o'qituvchi bunga istalgancha misol keltirishi mumkin. Quyida grafik va diagrammalarning turlari va ularni bajarish metodikalari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Amaldagi o'quv dasturiga asosan umumta'lim maktablari chizmachilik kursida grafik va diagrammalarni o'rganish ko'zda tutilmagan. Lekin pedagogika ta'lim



yo'nalishidagi talabalari zamonaviy shakldagi, kishilarni o'ziga jalb qiladigan ko'rinishli grafik va diagrammalarni bajarishni bilishlari kerak. Grafik va diagrammalar amaliy grafika tarkibiga kiradi, chunki ular ko'pincha ko'rsatkichlarni namoyish qilish, iqtisodiyot, moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy, maorif, tibbiyot kabi sohalardan hodisa va jarayonlarni o'rganish hamda oldindan aytishda qo'llaniladi.

Grafik va diagrammalar shakliga ko'ra chiziqli, ustunli va sektorli (shu jumladan hajmli va uch o'lchamli) ko'rinishda bajarilishi mumkin. O'quvchilarning kundalik turmushlari bilan bog'liq sohalardan misol va toshpiriqlar tanlansa, ular ushbu mavzuni qiziqish bilan o'rganadilar. An'anaviy ko'rinishda bajarilgan grafik va diagrammalarga misollar keltiramiz.

Grafik va diagrammalar axborot uzatishning bir shakli bo'lib, ular o'zining ixchamliligi, mazmunliligi, universalliligi va tushunarliligi bilan ajralib turadi. Ulardan insonlar kundalik turmushida va kasbiy faoliyatlarida foydalanadilar.

*Grafik* (grek. *graphikos* - chizma) biror kattalik (funktsiya)ning ikkinchi kattalik (dalil) o'zgarishiga bog'liq holda, o'zgarishining grafik shakldagi tasviridir.

Inson faoliyatining statistika, hisob-kitob va boshqa sohalarida grafiklar jarayonlarning miqdoriy bog'liqligini yaqqol tasvirlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, rejaning oylar yoki yillar bo'yicha bajarishning borishi grafigi, mamlakat aholi sonining yillar bo'yicha o'sishi grafigi va h.

O'quvchilarni grafik va diagrammalar bajarishga o'rgatishda dastavval ularning shu sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish, grafik va diagrammalar turlari hamda turli texnikada bajarilgan shakllari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish kerak. Buning uchun ularga ushbu mavzu bo'yicha birinchi topshiriq sifatida A3 formatli chizma qog'ozi listiga gazeta va jurnallardan grafik va diagrammalarni qirqib olib, elimlashni va maktab darsliklaridagi grafik va diagrammalardan na'munalar ko'chirib chizishni topshirish mumkin. Keyingi darsda vazifani tekshirish va ular ichidai original echim

topilgan variantlarni o`qituvchi sinfdagi o`quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishi tavsiya etiladi.

Ushbu metodik usul yordamida o`quvchilarning grafik va diagrammalar ularning ishlatilish sohalari, shuningdek ularga bo`lgan zaruriyat to`g`risidagi tasavvurlari kengayadi. Buning natijasida o`quvchilar o`zlari uchun qiziqarli bo`lgan mavzuni mustaqil tanlashga, keyingi bajariladigan individual grafik topshiriqni yuqori saviyada bajarishga harakat qilishadi. Quyida grafik va diagrammalarning matbuotda va o`quv adabiyotlarida eng ko`p uchraydigan turlariga misollar keltiramiz. Ularni bajarish tartiblari o`quvchilarga avvaldan tanish bo`lganligi uchun bu haqda to`xtalmaymiz. Ushbu misollardan chizmachilik o`qituvchisi o`quvchilar uchun individual topshiriqlar variantlarini tuzishda foydalanishi mumkin.

Funksional bog`liqlikning eng oddiy na'munasi sifatida grafiklarni ko`rsatish mumkin.

***1 – misol.*** $u=ax^2$ (parabola) funksiyaning jadvalli va grafik ko`rinishlarini taqqoslang. Ushbu ko`rinishlarning qaysi biri ikkita o`zgaruvchan kattalik - $x$ va $u$ lar o`rtasidagi funksional bog`lanishni yaqqol va lo`nda ifodalaydi? (1-shakl).






1-shakl. $u=ax^2$ (parabola) funksiyaning grafik tasvirlanishi

$u=ax^2$ funksiyaning jadval ko`rinishida berilishi:

*2-jadval*

| X | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| U | 5 | 10 | 30 | 50 | 80 | 110 |

***2-misol.*** Fermer xo`jaligining sentabr oyidan mart oyigacha davrda dizel yoqilg`isi va benzin olish bo`yicha tovar birjasi bilan tuzgan shartnomalarining o`zgarish diagrammasini tuzing (2-shakl).

| Yoqilg`i turi | sentabr | oktabr | noyabr | dekabr | yanvar | fevral | mart |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Benzin, l | 500 | 750 | 550 | 700 | 750 | 900 | 1100 |
| Dizel, l | 500 | 600 | 700 | 900 | 1000 | 1250 | 1350 |




2-shakl. Transport yoqilg`isi iste`molining oylar bo`yicha o`zgarish grafigi

Yaqqollikni ta`minlash maqsadida *ustunli diagrammalar*dan ham foydalanish mumkin. Ularni bajarishda eni bir xil bo`lgan to`g`ri to`rtburchaklardan foydalaniladi. To`g`ri to`rtburchaklarning balandligi solishtiriladigan kattaliklarning son birliklariga mos bo`ladi. To`g`ri to`rtburchaklarning yuzalarini shtrixlab chiqish yoki bo`yash

kerak bo`ladi. To`g`ri to`rtburchaklarning ichiga yoki ustiga ularning son qiymatlari yoziladi. Ustunlar guruhlari orasidagi masofa taxminan bitta ustunning eniga teng qilib olinadi. 3-shaklda maktab o`quvchilarining 4 yillik o`zlashtirish ko`rsatkichlari ustunli diagramma yordamida berilgan.

*Sektorli diagrammalar* odatda yaxlit bir butun tarkibiy qismlarining nisbatlarini tasvirlash maqsadida qo`llaniladi.

Bunday diagrammani qurish uchun aylana fikran 100 ta teng bo`lakka bo`linadi. Maktab o`quvchilarning sutkalik vaqt taqsimotini sektorli diagrammada ifodalang. Bunda oldin o`quvchilar o`rtasida so`rov o`tkazilib, natijalar jadvalga tushib chiqiladi va keyin diagramma chiziladi (134 - shakl).




3-shakl. Maktab o`quvchilarining o`zlashtirish ko`rsatkichlari

***3-misol.*** Sutka davomida har xil mashg`ulotlarga sarflaydigan vaqtingizni hisoblang. Hisoblangan kattaliklarga asosan jadvalni to`ldiring va shu jadvaldan foydalanib sektorli diagramma chizing

(toshpiriqni bajarish na'munasi jadvalda va 4-shaklda keltirilgan).



*Sutka davomida har xil mashg`ulotlarga sarflanadigan vaqt taqsimoti jadvali keltirilgan.*




4-shakl. O`quvchilarning sutkalik vaqt taqsimotining diagrammada tasvirlash usullari.

Bulardan tashqari amalda klassifikatsion va strukturali sxemalar ham amaliyotda keng qo`llaniladi. Klassifikatsion va strukturali sxemalar odatda mahsulot tarkibiga kiruvchi qismlari o`rtasidagi o`zaro bog`lanishni ochib berishga xizmat qiladi. Bu turdagi sxemalardan o`quv adabiyotlarida biror tushunchalar va jarayonlarning mazmunini hamda tuzilishini sodda va tushunarli shaklda ifodalashda keng foydalaniladi.1-shaklda grafik tasvirlarning turlari tasvirlangan strukturali sxemasi, 4-shakl da ta'limning didaktik prinsiplari sxemalari keltirilgan.

***4-misol.*** Quyidagi shaklda xalqaro baland minoralar federatsiyasi a'zolari bo`lgan eng baland minoralarning tasvirlari ko`rsatilgan. Ular balandliklari o`lchamlarining chiziqli diagrammasini yasang (5-shakl).

***5-misol.*** Sektorli diagrammada novvoychilik mahsulotlarining savdosi bo`yicha ma'lumotlar keltirilgan. Sektorli diagramma ma'lumotlaridan foydalanib, berilgan kattaliklar bo`yicha ustunli diagramma chizing. Har bir ustunni 1 - sektor uchun chizib ko`rsatilgan ustunga o`xshatib hajmli ko`rinishda tasvirlang (6-shakl).




5 -shakl. Eng baland minoralar diagrammasi




6-shakl. Tayyorlanadigan novvoychilik mahsulotlarining nishati

Quyida sektorli diagrammadan turli ko`rinishlarda foydalanishga



...keltiramiz ( 7 -shakl).







7 -shakl. Er sayyorasida ximiyaviy elementlarning tarqalishini sek... ...li diagrammada tasvirlash usullari

Grafik va diagrammalar kundalik turmush sohalarida ham keng qo`llanilmoqda. ...larning dam olish joylari, jamoat transportlari, gazeta va jurnallardagi ishlab ...chiqarish sohasi yoki korxonalar faoliyati rivojlanish yoki o`sishini reklama qilishda grafik va diagrammalar maqsadni lo`nda va aniq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Reklama maqsadida tayyorlanadigan grafik va diagrammalar o`quv va ilmiy adabiyotlardagi grafik va diagrammalardan o`zining ta`sirchanligi bilan farqlanadi. O`quv va ilmiy adabiyotlarda keltiriladigan grafik va diagrammalar faqat o`rganilayotgan jarayon yoki qonuniyatdagi kattaliklar o`rtasidagi bog`lanishlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ularda mavzuga aloqasi bo`lmagan, o`quvchining diqqatini chalg`itadigan hech qanday ortiqcha grafik tasvir yoki yozuv bo`lmasligi kerak.

Reklama maqsadlari uchun jamoat joylarida, matbuot va televideniyeda foydalanishga mo`ljallangan grafik va diagrammalarni tayyorlashga birmuncha

boshqacharoq talablar qo`yiladi. Birinchi navbatda ular ko`plagan axborot vositalari orasida o`zining grafik yechimi, ranglar uyg`unligi va bezaklarining originalligi bilan ajralib turib, kishilar e'tiborini o`ziga jalb qilishi kerak. Ikkinchidan, unda uzatilayotgan axborot hajmi (ma'lumot) ortiqcha ko`p bo`lmasdan, sodda va hamma uchun tushunarli bo`lishi zarur.

Ushbu talablarni bajarish uchun avvalambor kishilarni qiziqtiradigan, shu kun uchun dolzarb bo`lgan mavzu tanlanib, o`zaro bog`liq bo`lgan statistik ma'lumotlar olinadi. Olingan ma'lumotlar asosida grafik va diagrammalar bajarilib, orqa fon uchun axborot mazmunini ochib beradigan grafik tasvir (fotomontaj, rasm, chizma,...) bajariladi. 8–10 - shakllarda ommabop mazmunlarda tayyorlangan grafik va diagrammalarga misollar keltirilgan.




8-shakl. Badiiy bezash yordamida bajarilgan sektorli diagrammaga misol



Ta'lim tizimi (umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasbbunar kollejlari,...)da badiiy bezakli grafik va diagrammalardan o`quv kabinetlarini jihozlash, devoriy gazetalardagi maqolalarga grafik ilovalar (rasm, chizma, ...) tayyorlashda foydalanish mumkin.




9-shakl. Badiiy bezash yordamida bajarilgan sektorli diagrammaga misol




**10-shakl. Badiiy bezash yordamida bajarilgan sektorli diagrammaga misol**

Ustunli va sektorli diagrammalar ko`pincha ma'lum bo`lgan biror statistik ma'lumotni ifodalasbda xizmat qiladi.

Bunday diagrammalardan ijtimoiy sohalar bilan bog`liq fanlarni o`rganishda ko`p ishlatiladigan ma'lumotlarni eslab qolish uchun foydalaniladi.

Chiziqli grafiklar odatda o`zgaruvchan kattaliklar orasidagi bog`lanish va qonuniyatlarni ochib berishda qo`llaniladi. Bu grafiklar aniq fanlar (matematika, fizika, ximiya,...)ni o`rganishda muhim o`rin tutishi bilan birgalikda, biror davr mobaynida kattalikning tashqi, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarga bog`liq aniq qonuniyatlarsiz o`zgarishini ifodalashda ham keng qo`llaniladi (mamlakat aholi sonining o`sishi aholining biror mahsulotga bo`lgan talabining ortib yoki kamayib borishi,...).

Klassifikatsion va strukturali sxemalar ko`pincha mahsulot tarkibiga kiruvchi qismlari o`rtasidagi bog`lanishlarni ifodalash, biror jarayonning ketma - ketligini ko`rsatish (ochib berish)da qo`l keladi. Bunday sxemalar tabiiy fanlarni o`rganishda, texnik ijodkorlik va shunga o`xshash sohalarda qo`l keladi. 1-10-sbakllarda mavzuli shakllar bilan badiiy bezalgan grafik va diagrammalardan ta'lim tizimida foydalanishga misollar keltirilgan.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o`tisb kerak-ki, mavzuli chizma va rasm bilan bezalgan grafik va diagrammalardan o`quv plakatlari tayyorlashda foydalanish yaramaydi. Bunda o`quvchining e'tibori dars mazmunini ochib beruvchi asosiy ma'lumotga jalb qilinmasdan, ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo`lgan grafik tasvirga qaratilib, dars samaradorligi pasayadi.

**Asosiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar**

6. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva "Pedagogik texnologiyalarninig tadbiqiy asoslari." O'quv qo'llanma. T.: "Fan" 2006.

7. R.Ishmuxamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev " Ta'limda innovatsion texnologiyalar"-T, "Iste'dod". 2008.

8. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning savodxonligini baholash. (Matematika va informatika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.

9. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.18:07 Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. "Axborot texnologiyalari" Darslik. T.:"O'zbekiston", 2004

10. Yusupova, G., & Saburova, S. (2022). Xalqaro baholash dasturlari ( pisa, timss, pirls) va ularni amalda qo'llay olish. Globallashuv Davr Taraqqiyoti Hamda Ta'lim Texnologiyalari, 1(1), 302–306. Retrieved from

**Elektron ta'lim resurslari**

1. www. pedagog. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. Uz
4. http://icnew.uz
5. http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html
http://www.ctc.msiu.ru/materials/CS_Book/A5_book.tgz

## SOYA- YORUG' JIHATLARNI QALAMTASVIR FANIDA ASOSIY VOSITA SIFATIDA AHAMIYATINI O'RGANISH VA GEOMETRIK SHAKILLARDA YORUG'- SOYA, REFLEKS, HAMDA BLIKLARNI TUS BERISH USULLARIDA O'RGANISH.

***TerDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi Kafedrasi kata o'qituchisi, v/b dotsent; Mamatqulov Ilxomjon Chorshanbiyevich***

***Tel/ +998915871069***

*Email: ilxomjon@terdupi.uz*

***Annotatsiya;*** *Ushbu maqolada Soya yorug' jihatlari qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o'rganish. Geometrik shakillarda yorug' soya, refleks bliklarni tus berish usullarini o'rganish. san'at, usul, texnologiya, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ijodiy faolligini takomillashtirish usullari,*

*texnologiyalari o'quvchilarda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi, bugungi kunning yoshlari qanday usul va texnologiyagalarga ega bo'lishi kerakligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *San'at, Soya yorug', geometrik shakil chizishni, fazoviy perspektiva, kompozitsita, ko'z bilan chamalash, grafitli qalamlar,* sous, *ko'mir yoki «italyan»*

Biz atrofimizdagi jismlar shaklini ularga qay darajada yorug'lik tushgani uchun ko'ramiz. Jismning shakli, xarakteri va materialga yaqinligi, yorug'likning unda aks etishi ham turlicha bo'ladi. Har qanday hajmli jism tekis yoki egri yuzaga ega bo'ladi va yorug'lik tushganida, ularning ko'rinishlari o'zgaradi:

Jism yuzasi yorug'lik manbayiga nisbatan qiyaroq burchakda joylashgan bo'lsa, yuzaning yoritilish darajasi kamroq bo'ladi: bu yuzadan nurlar sirg'alib ketgandek bo'ladi. Tekis va yaltiroq yuza, dag'al yoki xira yuzaga nisbatan yorug'likni o'zida ko'proq aks ettiradi. To'q rangli yuzalar ko'p miqdorda yorug'likni yutib yuborib, oz miqdorda aks ettiradi.

Jismning yoritilganlik darajasini idrok etish jism rangiga, yorug'lik tarqalish miqdoriga, kuzatuvchi va jism oralig'idagi masofaga hamda tabiat hodisalariga (chang-to'zon, havo bulutligi, tuman, shamol) va boshqa omillarga bog'liq.

Jismlarning turli yuzalarida yorug'likning taqsimlanishi ushbu barcha xususiyatlari tasviriy san'atda ***yorug'-soya munosabatlari*** deb yuritiladi. Yorug'lik manbayi buyumdan uzoqlashgani sari, undagi yorug' yuzalar to'qlashadi (2-rasm).

Qirrali yuzalarda yorug'-soya o'zgarishi aniq bo'lsa, qiya yuzalarda esa, masalan, shar, silindr kabi yuzalarda yorug'likdan soyaga o'tish jarayoni sekin, noaniq yuz beradi va ularning ekvatori to'qroq tusda bo'ladi. Och rangli jismlarda to'q rangli jismlarga nisbatan yorug'lik soyasi aniqroq ko'rinadi. Shundan so'ng, tuzilishi to'g'ri geometrik shakllarga yaqin bo'lgan jismlar yoki turli tus va fakturaga ega bo'lgan (metall, oyna, yog'och, mato va h.k.), shakl jihatidan bir-biriga o'xshash tabiiy jismlar chiziladi.



**2-rasm**

Jism rassomdan qanchalik olislashib, kenglik sari ketsa, yorug'-soya kontrasti shunchalik xiralashadi va so'nib boradi. Ushbu hodisa ***fazoviy perspektiva*** deb nomlanadi. Fazo perspektivasi hodisasi va yorug'-soya qonunini har qanday vaziyatda hisobga olish kerak. Masalan, boshni old tarafdan chizish chog'ida burun va ko'z chuqurligining hajmini ko'rsatib berish uchun boshning boshqa qismlariga nisbatan kontrast vositalar (yorug'lik soyasi, shtrixlar va h.k. kontrasti) qo'llaniladi va har bir detal ustida ko'proq ishlanadi. Shtrix yordamida hosil qilinadigan tus yorug'-soya qonuniga - yorug'likning jism tuzilishiga ko'ra yuza bo'ylab taqsimlanishi qonuniga bo'ysunadi.

Yorug'-soya qonuni rasmda shakl bilan birgalikda fazoni, tasvirdagi jismning joylashgan o'rnini hamda tabiiylikni yanada to'liqroq va ravshanroq tasvirlash imkonini beradi.

Rasmdagi jismning yorug'lik tushgan qismi ***yorug'lik*** deb, soyada joylashgan qismi esa, *soya* deb yuritiladi. Yorug'likdan soyaga o'tish ***nimsoya*** deb nomlanadi. Shaxsiy soya, shunday deb nomlash mumkin bolsa, jismning yorug'lik manbayiga qaragan yuzasida hosil bo'ladi. Shaxsiy soyalarning, shuningdek, nisbatan yorug' qismlari - refleksları, ya'ni shaxsiy soyani yorug'lik nurlarining bir qismi bilan yoritilishi holati ham bo'ladi. Jismdan yuzaga yoki boshqa jismga tushayotgan soya *tushuvchi* soya deb nomlanadi.

Yaltiroq yuzaga ega jismlarning (oyna, metall va h.k.) yorug'lik tushgan tarafida jilvani (refleks) - jism yuzasidagi rassom ko'zini qamashtiruvchi, tushayotgan

yorug'likning asosiy qismini aks etuvchi joyni payqash mumkin. Jilva, asosan, egri, botiq, yorug'likni o'zida kuchli qaytarish xususiyatiga ega buyumlarda kuzatiladi. Jilva jism shakli va hajmini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Jilvaning o'rni, turi hamda o'lchamini to'g'ri tanlash jismning cheklangan tasviriy vositalar yordamida ishlangan siluetli suratida ham juda ahamiyatli va u ushbu jismning shakli va hajmini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Aksincha, noto'g'ri chizilgan jilva, butun rasm to'g'ri ishlangan taqdirda ham, shaklni buzadi. 3-rasmda shar hajmiga shakl berish orqali uning yuzasidagi yorug' soya munosabatlarini ko'rishiniz mumkin: 1-yaltiroqlik (blik); 2-yorug'lik; 3-yarim soya; 4-shaxsiy soya; 5-jilva (refleks); 6-tushuvchi soya.

Tasvirdagi jismning hajmligiga erishish uchun yorug' va soya tushuvchi yuzalarning kontrastini mohirlik bilan ishlash zarur. Buning uchun eng yorqin va eng to'q joylarni aniqlash kifoya qilmaydi, shu sababli shaklning hajmini shtrix yoki chiziq bilan belgilab chiqiladi.




3-rasm

**Foydalanilgan adabiyotlar**


13. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

14. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 138-142.

15. Бахтиер М., Илхомджон М. ГРАФИЧЕСКИЕ ПРОГРАММЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ, А ТАКЖЕ ВОЗМОЖНОСТИ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ AUTOCAD И 3D MAX //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 92-94.

16. Маматкулов И. Ч., Омонова Р. Р. CHIZMACHILIK DARSLARIDA REZBALARNI CHIZMADA TASVIRLASH VA BELGILASHGA OID METODIK TAVSIYALAR: DOI: https://doi. org/10.53885/edinres. 2021.31. 50.049 Mamatqulov Ilhomjon Chorshanbiyevich TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi, Omonova Rayhon Rahmatillayevna TerDU, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 170-176.

17. Chorshanbiyevich M. I. Methods of Organization and Teaching of Drawing Classes in Educational Institutions //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 140-143.

18. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

19. Chorshanbiyevich M. I. Individual Description of Separate Geometric Shapes and Bodies //International Journal of Development and Public Policy. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 167-169.

20. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.

21. Тошпулатов Ф. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ УЗОРОВ И ИХ ВИДОВ ИЗ ИСКЛЮЧЕНИЯ РИСУНКА И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В АРХИТЕКТУРНЫХ СООРУЖЕНИЯХ //Физико-технологического образование. - 2022. - Ч. 1. - № 1.

22. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.

23. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de 2018. – 2018.

24. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

**Umum ta'lim maktablarida haykaltaroshlikni samarali o'zlashtirishda o'quvchilarning badiiy didi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.**

***B.K.Mo'minov.***

TerDUPI o`qituvchisi

**Tel/ +998915823992**

E-mail: **muminovba@mail.ru**

**Anotatsiya:** Mazkur maqola Hahkaltaroshlik san`atini o'qitishda poydevor bo'lgan chizmatasvir, muvozanat, nisbat va badiiy bezakni nazariy va amaliy asoslariga bag'ishlangan. Unda haykaltaroshlik san`atining asosiy qonun qoidalarida konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva, kompozitsiya masalalarini o'z ichiga oladi .

***Kalit so`zlar:*** *Estetik tarbiya, badiiy did. fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va borliqni haqqoniy idrok etish, dunyoqarashini sakllantirish, tushunchalarni shakllantirish vositasi.*

Haykaltaroshlik san`ati fanı, badiiy pedagogik ta'lim va estetik tarbiyada bo'lajak musavvir, rassom - pedagoglarni tarbiyalashda asosiy o'quv fanlaridan hisoblanadi. Haykaltaroshlik san`ati, mustaqil o'quv predmeti sifatida borliqni haqqoniy tasvirlash, o'quvchi - talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik did va ehtiyojlarini tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga ega..

O'quvchilarga haykaltaroshlik kompozitsiyalarini ishlash texnologiyasi haqida ma'lumotlar berish, ustoz va shog`ird odobi nazariyasini o'rgatish, oddiy qog`irchoq haykallari va ulardan kompozitsiyalar tuzish, sodda va murakkab uslubda, haykaltaroshlik san'ati ishlarini amalda bajarish; bino ichida va tashqarisidagi, ko`cha va xiyobonlarni badiiy loyihalash hamda badiiy bezashgacha bo'lgan nazariy va amaliy tomonlarini o'rgatishdan iborat.

Maktab o'qituvchisi oldida o'quvchilarning estetik tarbiyasi, badiiy didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga borliqni tasvirlash uchun tasviriy san`at asoslarini chuqur egallash, haqqoniy rasm chizish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifasi turadi. Bu vazifani hal etish faqatgina talabada ko'rib - kuzatib tasvirlash borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish, tasvirlash malakalarini egallash orqali yechiladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi, tasvirlash san'atining nafaqat amaliy bilimlarini, balki, tasviriy san'atning nazariy asoslarini puxta egallashları kerak. Zero, dunyo tan olgan, o'zidan o'lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk musavvir Leonardo da Vinchi "Amaliyotga ilmsiz mehr qo'yadigan kishilar, rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o'xshaydilar, chunki ular qayoqqa ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o'rgan, so'ngra esa shu ilm orqasidan tug'ilgan amaliyotga murojat qil" deb bejiz ta'kidlamagan edi.

Shu sababli biz ushbu maqolada tasvirlashdan oldin, tasviriy san'atning nazariy asoslariga ham e'tiborni qaratdik. Bu asosan rasmda kompozitsion yechim, chiziqli – shakl tuzilishi, nisbatlar, ishni bajarish ketma - ketligi kabi mavzularda o'z aksini topgan.

Ma'lumki, rassom, rassom - pedagog tayyorlash jarayonida bezakli yasalgan geometrik jismlarda, yog`ochdan yasalgan, gipsdan yasalgan, turli-tuman metallardan yasalgan haykalchalar va xilma-xil buymlar kabi o'quv topshiriqlari muhim o'rinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan mavzular bo'lajak haykaltaroshlarning tasviriy san'atning qaysi turida faoliyat ko'rsatmasin, pedagogik faoliyatlarida juda qo'l keladi.

Bu sohani hadisini olgan har bir inson borki, o`z ishining ustasidir. Qilayotgan har bir ishi, san`at asari darajasiga ko`tarilib, butun dunyoda o`zbek san`atini, xalq ustalarini maqomini yuqorilashda o`z hissasini qoshib kelmoqda.

Bu sohani hadisini olgan har bir inson borki, o`z ishining ustasidir. Qilayotgan har bir ishi, san`at asari darajasiga ko`tarilib, butun dunyoda o`zbek san`atini, xalq ustalarini maqomini yuqorilashda o`z hissasini qoshib kelmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib haykaltaroshlikda qo`yiladigan yagona talablarga amal qilish maqsadida har bir o'quvchiga yagona grafik tartib o`rnatilishi maqsadga muvofiq.

Umuman, ko`rilgan masalalarga xulosa qilib hamma didaktik tamoyillar o`zaro bog`liqligini va ulardan birgalikda foydalanish jarayonlarni to'g'ri tashkil etgan holda ta`lim samaradorligini ta`minlashini aytish kerak. Buning natijasida o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalarni egallaydilar, dunyoqarashlari shakllanadi, sezish va his qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Umumta'lim maktablarida ta'limni tashkil qilishning asosiy shakli deb dars tan olingan. Bunda hamma o`quvchilarni jamoa bo`lib ishlashlari bilan birga, individual va kichik guruhdagi ishlari, shuningdek ta`limning boshqa shakllari – amaliy mashg`ulotlari, vazifalari o`z o`rni va ahamiyatiga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Esanov Turkman. Haykaltaroshlik. «Arxitektura» va «Dizayn» ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDAQI, 2011

2. Dekorativnoe Iskusstvo jurnali, №5, 1989.

3. O'zbek milliy entsiklopediyasi. T. 11. – T., 2005.4. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T. "Iqtisod-moliya", 2007.

5. Xasanov R. Tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirish yullari. Toshkent. O'qituvchi. 1984.

6. Abdullaev S.F. Azimov S.S. Avezov Sh.N. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi o'qitish metodikasi. Toshkent. 2020.

7.Baxtiyor M., Ilxomjon M. GRAPHIC PROGRAMS USED IN THE LEARNING PROCESS, AS WELL AS THE CAPABILITIES OF AUTOCAD AND 3D MAX GRAPHICS PROGRAMS //Universum: texnicheskie nauki. – 2021. – №. 11-3 (92). – S. 92-94.

8. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – S. 487-491.

9. Uralovich, Toshpulatov Fakhriddin. "Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies." International Engineering Journal For Research & Development 6 (2021): 3-3.

10.Sadatov CH. Obuchenie risovaniyu obnajennogo mujskogo tela s peredney storoni s karandashnым risunkom //Obществo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – S. 361-365.

11.Abduraximov L. QALAMTASVIRNING NAZARIY ASOSLARI IJTIMOIY FANLARDA INNOVATSIYa ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – S. 1-5.

**Психологик портрет қаламтасвирини тасвирлашда идрок этишни шакллантириш хусусиятлари**

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *Психологик портрет қаламтасвирини тасвирлашда идрок этишни шакллантириш хусусиятлари ҳақида фикр юритилади.*

**Калит сўз:** *Психологик портрет, компоновка, туслаш, яхлит идрок*

Ўзбекистон халқларининг тарихи, қадриятлари, илм-фан, маданият дурдоналарини ҳар томонлама ўрганиш ва таҳлил этиш ғоят муҳимдир. Бугунги кунда мамлакатимизда изчил ислоҳотлар натижасида олий таълим муассасаларида таълимни ташкил этишнинг дастурий-методик таъминоти, тасвирий санъат ўқитувчиларни тайёрлашнинг миллий ва жаҳон таълим тажрибасига асосланган ташкилий-педагогик механизмларини яратиш ва янада такомилаштириш орқали мамлакатимиз интеллектуал ресурслари потенциалини ошириш муҳим аҳамият касб этмокда. "Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш" Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида муҳим ўрин эгаллайди.[1] Ўзбекистоннинг сўнги йилларида таълим соҳасида туб ислоҳотлар содир бўлмокда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз" деган сўзлари муҳим аҳамият касб этади. [19; 22-б.] Мазкур сўзларнинг негизида, ўқитиш методикасини, таълим-тарбия

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. - Т., 2017. — Б. 39.

жараёнида педагогик технологияларни такомиллаштиришни босқичма-босқич татбиқ этиш лозимлигига алоҳида урғу берилди.

Ҳозирги пайтда педагогик технология қонуниятлари асосида педагог олимларимиз дарсларни ташкил этишнинг турли шакл ва методларни ишлаб чиқиш йўналишида муайян тадқиқотларни олиб бормоқдалар. Бизнинг ҳам бу борадаги тадқиқотларимизда умумий ўрта таълим муассасаларининг тасвирий санъат дарсларини индивидуал ёндашув технологияси асосида режалаштириш асос бўлиб хизмат қилди. “Технология” тушунчаси юнонча “Технос” (techne) - маҳорат, санъат ҳамда (Logoc) - тушунча, таълимот сўзларининг бирикмасидан ташкил топган. Алоҳида қайд этиб ўтиш жоизки, айни вақтда таълим технологияси тушунчасини мантиқий - ғоявий жиҳатдан изоҳлаш борасида ягона фикр мавжуд эмас. Хусусан, педагог олим В.П. Беспалько [34] педагогик технологияни “амалиётга тадбиқ қилинадиган муайян педагогик тизим лойиҳаси” дея таърифлайди ҳамда асосий диққатни ўқув - педагогик жараённи олдиндан лойиҳалашга қаратади. Биз қатор адабиётларни ўрганиш жараёнида [34],[60],[127] ўқувчиларга индивидуал ёндашув тушунчасига берилган таърифларни таҳлил қилиб чиқдик, билдирилган фикрларни умумлаштирган ҳолда, “Ўқувчиларга индивидуал ёндашув технологияси – ўқувчиларнинг ривожланиш кўрсатгичи уларнинг қобилиятларига қараб, ўқув йўллари, усуллари, шакллари танлаб олинишига қаратилган педагогик тизим лойиҳасини амалга ошириш” деб таърифладик.

В.Еремеева ва Т.Хризманлар [54; 87-б.] боланинг ўзига хос индивидуаллиги, ўқувчиларга таълим жараёнида индивидуал ёндашув зарурлигини таъкидлаб, ўқитувчиларга баъзи тавсияларни беради:

Ҳеч қачон болани бирон бир нарсага қодир эмаслиги ёки унга тушуниш қобилияти йўқлиги учун ҳақоратомуз сўзлар билан уришманг. Ҳозир у сиздан кам нарсани билади, вақти келиб, ҳеч бўлмаганда баъзи соҳаларда у сиздан кўра кўпроқ нарсани билиб олади.

Ўқувчини тасвирий санъатдан қодир эмаслиги учун айблашдан олдин, қийинчиликларнинг моҳиятини тушунишга ҳаракат қилинг ва муаммонинг ечимини топишга ёрдам беринг. Ўқувчини бошқа ўқувчилар билан солиштирманг, унинг ютуқларини кўра билинг. Биринчи дарсларда ўқувчини муваффақиятсизликлари учун асабийлашманг ва ўқувчини асабийлаштирманг. Қийинчиликларнинг объектив сабабларини топишга ҳаракат қилинг ва келажакка ишонч билан қаранг.

Муайян ўқувчи ёки маълум бир гуруҳ ўқувчилар учун ўқув дастур ва ўқитиш методологиясини унинг қобилиятларини максимал даражада оширишга, уларнинг фикрлаш турларига таянишга йўналтиришга ҳаракат қилинг. Агар ўқувчи билан мулоқотда қийналсангиз, бир-бирингизни яхши тушунмасангиз, бу учун уни айблашга шошилманг. Эҳтимол, сиз ва ўқувчи турли хил темперамент ва характерлардан ташкил топгандирсиз, бу сизларнинг фикрлашингиз, идрок этишингиз, бошқача ҳис қилишингизни англатади, яъни бу нафақат ўқувчида, балки сизга ҳам боғлиқ. Ўқувчини ёмон эмас, фақат бошқача, деб тушуниш керак.

Сиз иложи борича бағрикенг, тушунадиган ва тиришқоқ бўлишингиз, ўқувчини ўзгартмаслигингиз керак, ўзингизда бирор нарсани ўзгартиришга ҳаракат қилишингиз керак. Сиз учун асосийси ўқувчига нимадир ўргатиш учун эмас, балки болани қизиқишни сўндирмасдан ўрганиш истагини уйғотиш, янги ва номаълум нарсаларни ўрганиш учун лаззатланиш ҳисси пайдо бўлишига ишонч ҳосил қилинг.

Ўқувчи хато қилишдан қўрқмаслиги керак. Бирор нарсани ўрганиш учун, хато қилмасликни иложи йўқ. Ўқувчи хато қилишдан қўркиб, ваҳимага тушмаслиги керак. Хатоларсиз бирор нарсани ўрганиш мумкин эмас. “Қочган киши йиқилиб тушади; ётган ҳеч қачон йиқилмайди”. Хатолик қўрқувини ривожлантирмасликка ҳаракат қилинг.

Ўқувчини индивидуалликка бўлган ҳуқуқини, ўзгача бўлиш ҳуқуқини тан олиш. Ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ўрганиш учун маълум вақт ва тизимли кузатувларни талаб қилади. Бунинг учун ўқитувчи ўқувчиларнинг хусусиятларини тавсифлайдиган ва кузатиш натижаларидан қисқача хулосалар чиқарадиган кундаликни юритиши керак.

Албатта тасвирий санъат дарсларида индивидуал ёндашувни амалга оширишда ўқитувчининг роли каттадир. Чунки индивидуал ёндашув омилларидан асосийси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги самимий мулоқат. Бундай "самимий мулоқат"да ўқитувчидан юқори педагогик ва психологик билимдонликни талаб этади. Ўқитувчининг **шахслик фазилатлари** ўқитилаётган тасвирий санъат предметнинг ўзлаштириш сифатини оширади, **ўқувчиларнинг** шу фанни севиши ўқитувчини севиш-севмаслиги билан **боғлиқ** ҳисобланади.

Тасвирий саньатда инсон қиёфасини тасвирлаш жуда қизиқарли, у инсонлар юзи, [illegible]олари, тузилиши, ранги, инсон танаси ҳаракат ҳолатлари, овози, кулиши сабаблардан унинг характерини билишга ўргатади.

Хитойда, Овропада инсон қиёфасини ўқиш санъатини фан сифатида қадимдан то шу кунларгача қўллаб келаяпти. Бу фанни физиогномика[2] номи билан юритади.

Аждодларимиз маънавий меросида ота-боболаримиз бу санъат ва илм бўйича узоқ бош қотириб, одамларнинг қиёфасидаги(портрет) ташқи белгилардан уларнинг хислат ва хусусиятини билиб олиш мумкин, деган хулосага келганлар. Арасту, Афлотун, Луқмони Ҳаким ҳақидаги ҳикоятларда[3] ҳам инсон қиёфасига қараб одамни билиш мумкинлиги айтилган.

---

[2] Хигир Б.Ю. Физиогномика.- М. -С - Петербург: ДИЛЯ, 2000.

[3] Шамсиддин Муҳаммад ибн Амируддин Дунасарай. Одамни билиш илми. Форс-тожик тилидан Б. Омон таржимаси.- Тошкент: Ёзувчи, 1994. - 3 б.

XV асрда яшаб ўтган Камолиддин Хусайин Воиз Кошифий Ўрта Осиё олимлари ичида юзни ўқиш санъати билан шуғулланган ягона мутафаккирдир. Улуғ олимнинг "Ахлоқи муҳсиний" асарида айтилишича тишнинг эгри бўлмоғи макру-ҳийла, хиёнат, тишнинг ораси очиқ ва силлиқлиги эса адолат, тадбиркорлик белгисидир. Юзни гўшти тўла ва ўсуқ бўлмоғи жаҳолат (хуйи) тезлик белгисидир. Сўз айтиш вақтида қўл тебратмоқ зийраклик ва тадбиркорлик белгисидир, дейилган.

Шамсиддин Дунасарийнинг "Одамни билиш илми" рисоласида инсоннинг танаси, аъзолари ҳаракатига, юзининг тузилиши ва рангига, нафас олиши, овози, ҳатто кулишига қараб унинг кимлигини билиш борасида Шарқда йиғилган кузатишлар ўрин олган. У айтади: - Агар одамнинг хулқ-атвори, таъби, назокати, шаклу суратини билсангиз, унинг яхшию ёмонлигини тушуна бошлайсиз. Бу, албатта, ҳаётда катта наф беради, сизни бало-қазолардан асрайди. Бу илмнинг йўлланмаси билан киши ўзининг ушбу нуқсонларидан огоҳ бўлиб, ёмон хислатларидан кутилади. Бошқа кишиларнинг айбларидан хабар топиб, уларнинг зиён-заҳматидан саломат бўлади.

Предметга тушаётган ёруғлик кўплаб градацияларни ўзида жамлайди. Биз идрок этаётган у ёки бу ранг ёруғлиги ёритилганлиги ва шу юзага хос қайтариш коэффицентига боғлиқ. Қайтарилган ранг оқими сифатида кўз тўрпардасига таъсир этади. Ёрқинлик ва ёритилганлик рангтасвирга ўргатиш амалиётида колорит масалаларини ўрганишда маълум қизикиш уйғотади. Айнан бир предмет сояда ва ёруғда унинг ёруғлиги идрокига кўра мутлақо турлича кўринади. Рангтасвирда ёруғликларни аниқлашда билиш муҳимки, табиатда ёрқинликлар диапазони ғоятда катта. Айни пайтда белила қора бўёқдан 20-30 марта ёрқинроқ. Бироқ кўринадиган ёрқинлик таъсир уйғотувчи ёрқинлигига тўғри пропорционал эмас, натижада, идрок объектлар ёрқинлигини чекланган даражада фарқлаш билан чегараланади.

Асосан оқ юзанинг ёрқинлиги этюда пасайиши этюд бажарилаётган устахонадаги ёритишнинг табиат қўйнида қуёш порлаб турган кундаги ёритишга

[illegible] пастроқ экани сабабли рўй беради. Табиатда қора предметлар ёки [illegible] ёруғлик нурларига нисбатан турли бурчакларда жойлашади ва оқ ва рангига кўра ёруғ юзаларга нисбатан турли планда жойлашиши, бу билан қуёш нурлари таъсирига учрамаслиги ва ёритилган оқ юзаларга нисбатан кучли контрастни сақлаб қолиши мумкин.

Бўёқлар палитраси, ёруғлик диапазонида анчагина чекланган бўлиб, шу билан бирга табиат ҳолатларини образли беришда имкониятларнинг катта диапазонини тақдим қилади. Таъкидлаш керакки, рангтасвирда ёруғлик [illegible] барча қатнашчилари ўртасидаги муносабатлар билан аниқланади, шу туфайли ишонарли олинган муносабатларни идрок этишда моделнинг маълум ҳолати ҳақида тасаввур шаклланади. Рассом табиатдаги ёритилганлик [illegible]сини бўёқлар палитраси диапазонига кўчиришни билса, бу малака этюда ёруғликларни абсолют ёрқинлик эмас, балки ёруғликлар ўртасидаги муносабатлар уйғунлиги бўйича идрок этиш имконини беради. Предметлар ёрқинлигини идрок этиш яна шу билан мураккаблашадики, ёруғликни кўриш сезгилари ёрқинликка пропорционал эмас. бу жиҳатдан Вебер-Фехнернинг психофизик қонуни маълум қизиқиш уйғотади, унда айтилишича, ёруғликнинг [illegible] кучига боғлиқ равишда ёруғлик геометрик прогрессия бўйича ортганида кўриш сезгиси интенсивлиги арифметик прогрессия бўйича ортади. Бу қонун фақат ўрта ёрқинликлар учун ҳақиқий саналади. Бундан ташқари, таъкидлаш керакки, у кўриш сезгисининг бир муҳитда таъсир уйғотувчининг ўзига нисбатан нисбатан кам ортиши тенденциясини аниқлайди холос. Натурадан ишлаш амалиётида бу жуда кам учрайди, кўпинча биз атроф фоннинг тон градацияларида катта тафовутларни кузатамиз.

Қаламтасвир малакаларининг асосий кўрсаткичи ифодали тус муносабатларини топиш саналади, бу кўпинча рассомнинг эмоционал ҳолати билан боғлиқ. У тобора жиддий учта компонентни характерлайди: 1) тасвир объектидан эмоционал кечинмалар; 2) тасвир жараёнининг ўзини эмоционал

кечириш; 3) рассомнинг воқелик ҳамда тасвирий фаолият жараёнидаги идроки чоғидаги эмоционал ҳолати.

Бадиий идрок изчил ва аста-секинлик билан шаклланади, у элементар ва содда шакллардан нисбатан мураккаблари томон ривожланади. Е.М.Торшилова ва М.З.Духаревич тадқиқотида бадиий идрок ривожланишининг бир неча даражаси фарқланади: 1-даража – яхлит идрок, унга тасвир ифодалилиги, образлилиги, эмоционалликнинг мавжуд эмаслиги хос. Бу идрокни оддий деб баҳолаш мумкин. 2-даража – тўлақонли тасвирий фаолият учун етарли бўлмаган даража ғоянинг пайдо бўлиши билан тавсифланади. Тасвирда реалистик тенденциялар намоён бўла бошлайди, бироқ линия ва доғни эгаллаш такомиллашган (мукаммал) эмас. дунёга муносабат эстетик бўла боради ва кечинмаларнинг элементар шакллари юзага келади. 3-даража – интуитив эмоционал, бадиий идрок ривожланишининг бу даражасида мавжуд тасвирий ғоя билан бир қаторда энг содда шаклдаги характерлисини акцентлаш (унга урғу бериш) пайдо бўлади, ифода воситалари мукаммал эмас, эстетик кечинмалар шакли элементарлигича қолади. 4-даража тасвирий фаолият учун етарли бўлган бу даража учун реал воқеликдан олинган кечинмаларни, тўпланган тажрибадан фойдаланган ҳолда, ўз ички олами бўйлаб ўтказиш хос. Гарчи ғоянинг ижодий ўзига хослиги кўпинча стихияли намоён бўлади. Воқелик таассурот ва тасаввурлари таҳлили ва синтези асосида идрок яхлитлиги шаклланади. Эстетик кечинмаларнинг янада мураккаб шаклларига эҳтиёж, кўпроқ эмпатия даражасида пайдо бўлади. Ифода воситалари, гарчи улар такомиллашмаган бўлса ҳам, арсенали ортиб боради. 5-даража – интеллектуал - бадиий – бадиий идрок ривожланишининг бу даражаси табиат қонунларини англашга асосланади, ҳаётий тажрибага, тасвирий санъат соҳасида орттирилган билим ва кўникмаларга таянади. Техник тасвирнинг анчагина такомиллашганлиги: линия, доғларни, шаклни, колорит, тасвир муҳитини маконда ташкил этишни эгаллаганлик ва ш.к. кузатилади. Бадиий идрок образлилик, анчагина яхлитлик билан ажралиб туради, тасвирда янги ижодий усулларни излаш тенденцияси

пайдо бўлади. Эстетик баҳо маълум чуқурлик касб этади, бироқ ўзининг адекват ифодасини топмайди. 6-даража – бадиий идрокнинг етарли даражаси – эстетик баҳо билан бўёқдор яхлит эмоционал-образли идрок рўй беради. Ижодий ғоя мос келади.

Қаламтасвирда бадиий идрок муаммоларини ўрганиш тон(тус) тушунчаси билан узвий боғлиқ. Бадиий амалиётда тон кўп ҳолларда берилаётган рангларнинг ёруғлиги билан тавсифланади. Бироқ тон рангтасвирда фақат тор маънода қаралмайди, тасвир юзасида рўёбга чиқарилган тон деганда рассом муносабатларининг бутун бир комплекси тушунилади.

Фойдаланидган адабиётлар

1 Боймётов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2 Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3 Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4 Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5 Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98. http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL

JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – C. 166-168.

# ERTAK VA AFSONALARGA ISHLANGAN ILLYUSTRATSIYALARNING BOLA TARBIYASIDAGI O'RNI VA ROLI.

Sobirov Sarvar Tursunmurotovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at" kafedrasi katta o'qituvchisi. ssobirov337@gmail.com

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta'sir qiladi va ma'naviy hissiyotni uyg'otadi. Ertaklar insonni o'z kuchi, o'z huquqi, o'z ozodligini anglatishi, undagi mardlik va Vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishi bilan ham ma'naviy oziqa berib kelgan. Ertaklarni o'qish va eshitishni ham shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lishni tavsiya qiladilar:

- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar;
- Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar;
- O'rta va katta yoshdagi bolalarga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklar.

Kichkintoy bolalarga tavsiya etilagan ertaklarning hajmi qisqa mazmuni sodda bo'ladi. Avval eslatib o'tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to'g'risida bo'lgani va illyustratsiyalari ko'p bo'lgani ma'qul. Bu davr bolalariga "Chivinboy", "Qizg'anchiq it", "Tuyaqush bilan qoplon", "Maqtanchoq quyon", "Rostgo'y bola", "Arilarning g'azabi", "Tulki bilan turna", "Sholg'om", "Qumursqa", "Kaptar sovg'asi" kabi ertaklarni o'qib berish foydalidir. Bog'cha tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o'rgatish, kichkinaligidanoq unga bir yumush

berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto "ish" deyishga loyiq bo'lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi. Bola bog'chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab bo'lmasligini ma'lum darajada idrok etgani ma'qul. Bog'chada bajarishi kerak bo'lgan yumushlarni bolaning o'zi erkin bilsin, xatolari uchun o'zini javobgar sezsin. Yosh qalb o'zi bajarayotgan ishning natijasini anglasin, fikr yuritishga, to'g'ri ishlashga, g'ayrat qilishga ko'niksin. Ammo bolada bunday malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. To'g'ri tarbiyani juda erta, oiladan, bog'chadan boshlash kerak. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi qilib ketaveradi. Hatto arılar, chumolilar va qushlar ham tinimsiz mehnat qilib, yozdan to'plab qish g'amini yeydilar. Shu o'rinda xuddi inson kabi tinib-tinchlmas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to'qigan „Qumursqa" ertagi o'qib, hikoya qilib berilsa, samarasi yaxshi bo'ladi. Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko'p mehnat qilsa, sog'lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo'lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlari bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg'ir, yer, o't, mol, bo'ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to'g'riso'zlik, halollik, birovlarni aldamaslik kabi g'oyalar ifodalangan va shu g'oyalar asosida ishlangan illyustratsiyalar tashkil etgani ma'qul. Masalan, turkman xalq ertagi "Rostgo'y bola" ni olib ko'raylik. Ertak qahramoni to'g'riso'zligi, kattalarning pand-nasihatlariga quloq solishi bilan yosh kitobxonda yorqin taassurot qoldiradi. Rus xalq ertagi "Sholg'om" bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli. Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi. Ikkinchidan, bola atrofidagilar bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak.

Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikr, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi. Ertakning uchinchi jihati shuki, u maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichkintoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonni ham' boqish, asrash-avaylash lozim ekanligini chuqurroq his qiladilar. Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishga juda qiziqadilar. Hayvonot olamida ham do'stga mehribonchilik, g'amxo'rlik mavjudligi "Arslon bilan it", "Echki, qo'y va bo'rilar" kabi ertaklar orqali beriladi. "Tuyaqush bilan qoplon" ertagida hayvonlar o'rtasida bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi.

Xalqda, o'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umr bo'l, unga yaxshi-yomon kunlarida riyokorlik ko'rsatma, degan gap bor. Birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga boshqa ishonmaydi. Tuyaqush ham shunday bo'ladi. Bir kuni bo'ri uni ushlab oladi. Tuyaqush qancha baqirib-chaqirmasin, qoplon "Do'stim jo'rttaga dodlayapti", deb o'ylaydi va oldiga kelmaydi. Tuyaqush bo'riga yem bo'ladi. Qo'li ochiq, saxiy bo'lish, do'stga sadoqat ko'rsatish bu davrda o'qiladigan ertaklarning asosiy mag'zini tashkil etishi kerak. Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida atrof-olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, nima yomonligini bilishida ertaklarga ishlangan illyustratsiyalar kitobning koo'proq qismini egallashi kerak, aksincha ertakning bayon qismi 3-4 qator bo'lishi lozim. Nega, chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'qishni bilmaydi, bilganlari ham tez va arvon o'qiy olmaydi. Bu esa bolalarda ertakka bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Kitob varog'ining yuqori qismida bayon etilgan 4 qator ertak bayoniga mos holda varoqning asosiy qismida illyustratsiyaning joylashtirilishi bolalarda ertakni tushunishga va qiziqishining ortishiga sabab bo'ladi. Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarda voqealar bola yoshiga monand bo'lishi nazarda tutiladi. Bu davr bolalari maktabga boradigan, o'zlari mustaqil ravishda ozmi-ko'pmi kitoblar



o'qiydigan darajada bo'ladilar. Ularga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarning ko'p qismi ona-Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o'qish haqida bo'lishi talab etiladi. "Zumrad va Qimmat", "Oltin tarvuz", "Dehqon bilan ayiq", "Haqqush" (tojik xalq ertagi), "Danak" (qirg'iz xalq ertagi), "Kuch va topqirlik" (latish xalq ertagi), "Yettinchi yigit", "Bo'ri bilan echki" singari ertaklar kichik maktab yoshidagi bolalar o'qiydigan asarlardir. Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi. Negaki, chin, mukammal tarbiyali bola boshqalarga ozor yetkazmasligi, takabburlik qilmasligi, hech kimga past nazar bilan qaramasligi, rostgo'y bo'lishi lozimligini kichkintoylar avval tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Yaxshi bola o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va muruvvatli, kular yuzli, shirin so'zli, xushmuomala bo'lishi lozimligi ularga ma'lum. Mukammal inson va'dasiga vafo qiladi, omonatga xiyonat qilmaydi. Ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan o'zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Qarindosh-urug'lariga mehribon, mehr-oqibatli bo'ladi. Yomon yo'llardan, yaramas ishlardan, noo'ya harakatlardan o'zini saqlaydi. Mana shularga o'xshash go'zal xislatli bolalarni el suyadi, e'zozlaydi.

Bolalar kitoblariga illyustratsiya (lot. illustratio - yoritish, ko'rgazmali tasvir) ishlash haqida gapirganda, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida aytib o'tish kerak. Bolalar kitoblariga illyustratsiyalar chizishda ularning hali ham o'yinlar, qiziqarli sarguzasht, yorqin dunyoda yashayotganligini xisobga olish kerak.[1]

Bola uchun illyustratsiya eng muhim bilim va axborot elementi bo'lib, u shubhasiz ta'lim qiymatiga ega. Bu orqali bola atrofdagi voqelikni, tabiatni va hayvonot dunyosi, insonlarning turmush tarzi haqida juda ko'p narsalarni o'rganadi. Shuning uchun rassomning bolalar kitoblarini tasvirlashga bo'lgan munosabati alohida, o'ta mas'uliyatli, samimiy va bevosita bo'lishi kerak.

Kitob bilan muloqot bolaning ichki dunyosi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyotni o'qish orqali bola dunyoning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqida tahlil qilishni o'rganadi, axloqiy qadriyatlarni o'zida shakllantirib boradi.

Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo'lib, u asosan kitobning badiiy qiymatini va hissiy ta'sirining xususiyatini belgilaydi.

Illyustratsiyalar-matnni obrazli ochib beruvchi, adabiy asar mazmuni va uslubiga bo'ysunuvchi, shu bilan birga kitobni bezovchi va uning dekorativ tuzilishini boyituvchi tasvirlardir.[2]

Demak, ertak va afsonalar bola kamolotida beqiyos darajada muhim o'rin egallar ekan, ertak va afsonalarning bolalarga yanada tushunarli, qiziqarli, jozibador bo'lishida illyustratsiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki, badiiy ta'lim tarixida o'quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didini shakllantirishda ertak va afsonalarga ishlangan illyustratsiyalar alohida ahamiyat kasb etishi bilan liam nafaqat badiiy-estetik ta'limda, balki umuman ta'limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o'rin tutadi. Zero, bu jarayon bolalarda tasviriy savodxonlik bilan hamohang tarzda ularning dunyoqarashini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga komil inson bo'lib yetishishida xizmat qiladi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Sulaymanov A. , Abdullayev N. "Tasviriy san'at". 7-sinf uchun darslik-2006y.
2. Sobirov S.T. "IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101.
3. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. "Maktabgacha ta'lim muassasalarda applikatsiya mashg'ulotlari". T., 2014.
4. O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. – T.: O'qituvchi, 2013.
5. Sulaymanov A. , Abdullayev N. "Tasviriy san'at". 7-sinf uchun darslik-2006y.
6. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari \ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.
7. Sobirov S.T. "Bolalar ijodiy qobilyatini rivojlantirishda grafik rassomlar hayoti va ijodiy faoliyatini organishning muhimligi". ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР 2-махсус сон. ISSN 2181-9513. 2020 yil. 459-464 b.





8. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. "Developing Students' Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes". International Journal of Social Science Research and Review. http://ijssrr.com editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.
9. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. "Modern Traditions of Working with Illustrations to Fiction (Based on Educational Cluster)".International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. http://ijmmu.com editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369. Volume 9, Issue 6 June, 2022.


## Bo'lajak o'qituvchilar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida

*Ankabayev Raxim Turg'unovich CHDPU «Tasviriy san'at va dizayn» kafedrasi katta o'qituvchisi. +99890 901-93-95*

*Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish, malaka va ko'nikmalar shakllantirish, darsdan tashqari vaqtlarida to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanishga qaratilgan.*

Yurtimizda keyingi yillarda jamiyat bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta'limda tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. Oliy ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentlikka ega bo'lishlari muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni Oliy ta'limda tasviriy san'at yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta'lim muassasalarida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda badiiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'limda tasviriy san'at yo'nalishlarida badiiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida to'garak mashg'ulotlarini ishlanmalarini tashkil qilish

Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo'lib, u asosan kitobning badiiy qiymatini va hissiy ta'sirining xususiyatini belgilaydi.

Illyustratsiyalar-matnni obrazli ochib beruvchi, adabiy asar mazmuni va uslubiga bo'ysunuvchi, shu bilan birga kitobni bezovchi va uning dekorativ tuzilishini boyituvchi tasvirlardir.[2]

Demak, ertak va afsonalar bola kamolotida beqiyos darajada muhim o'rin egallar ekan, ertak va afsonalarning bolalarga yanada tushunarli, qiziqarli, jozibador bo'lishida illyustratsiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki, badiiy ta'lim tarixida o'quvchilarning tasviriy savodxonligi, estetik didim shakllantirishda ertak va afsonalarga ishlangan illyustratsiyalar alohida ahamiyat kasb etishi bilan ham nafaqat badiiy-estetik ta'limda, balki umuman ta'limda, ayniqsa, tarbiyada muhim o'rin tutadi. Zero, bu jarayon bolalarda tasviriy savodxonlik bilan hamohang tarzda ularning dunyoqarashini boyitish, ularda axloqiy ideallarni tarkib toptirishga komil inson bo'lib yetishishida xizmat qiladi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sulaymanov A. , Abdullayev N. "Tasviriy san'at". 7-sinf uchun darslik-2006y.

2. Sobirov S.T. "IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101.

3. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. "Maktabgacha ta'lim muassasalarda applikatsiya mashg'ulotlari". T., 2014.

4. O'zbek xalq ertaklari 3 jildlik. – T.: O'qituvchi, 2013.

5. Sulaymanov A. , Abdullayev N. "Tasviriy san'at". 7-sinf uchun darslik-2006y.

6. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari \ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.

7. Sobirov S.T. "Bolalar ijodiy qobilyatini rivojlantirishda grafik rassomlar hayoti va ijodiy faoliyatini organishning mubimligi". ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР 2-махсус сон. ISSN 2181-9513. 2020 yil. 459-464 b.

8. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. "Developing Students' Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes". International Journal of Social Science Research and Review. http://ijssrr.com editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.

9. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. "Modern Traditions of Working with Illustrations to Fiction (Based on Educational Cluster)".International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. http://ijmmu.comeditor@ijmmu.com ISSN 2364-5369. Volume 9, Issue 6 June, 2022.

**Bo'lajak o'qituvchilar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida**

*Ankabayev Raxim Turg'unovich CHDPU «Tasviriy san'at va dizayn» kafedrasi katta o'qituvchisi. +99890 901-93-95*

*Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish, malaka va ko'nikmalar shakllantirish, darsdan tashqari vaqtlarida to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanishga qaratilgan.*

Yurtimizda keyingi yillarda jamiyat bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta'limda tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. Oliy ta'limda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-ijodiy kompetentlikga ega bo'lishlari muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni Oliy ta'limda tasviriy san'at yo'nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta'lim muassasalarida tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarda badiiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'limda tasviriy san'at yo'nalishlarida badiiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida to'garak mashg'ulotlarini ishlanmalarini tashkil qilish

jarayonini yanada takomiliashtirish maqsadida yangi innovatsion metodlar ishlab chiqilishi lozim.

To'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlarni bo'lajak o'qituvchilar kelajak hayotida ishlatish orqali o'ziga qo'yilgan vazifani yechimini topadilar. Ularning ijodiy ishlari bilan tashkil etilgan ko'rgazma va tanlovlar talabalardagi yutuq va omadsizliklarni to'g'ri qabul qilib, to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi[2].

To'garak mashg'ulotlarida bo'lajak mutaxassisning tegishli tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va badiiy-idodiy kompetentlik malakalar hamda ta'lim jarayonida orttirilgan shaxsiy hamda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ldi. To'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlari xam bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiga tayyorlashda samarali usul ekanligi o'z isbotini topdi.

Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifalariga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarning badiiy-ijodiy kompetentlikini shakllantirish muammolarini hal qilish, shu jumladan: o'quv jarayonida olingan bilimlari mustahkamlash; ilmiy-ijodiy tasavvurni va talabalarning madaniyat darajasini oshirish; ularning ijodiy fikrlashlari hamda bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy izlanishga intilish, innovasiya, rasionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatini amalga oshirish; oqilona tashkil etish va bo'sh vaqtdan unumli foydalanish.

To'garaklarda ijodiy mashg'ulotlar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida estetik didni shakllantirib qolmay, balki ularni ko'rgazmalarga borishi tasviriy sanat, amaliy san'ati asarlari bilan tanishtiradi va yangi asarlar yaratish, ularga zarur ijodiy bilimlarni beradi, badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantiradi va shu bilan birga ularni iqtidori bo'yicha kasblarga yo'naltiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

---

[2] Султанов Х.Э. Талабалрни касбий фаолиятга тайерлашда кургазма ва танловларнинг урни/Педагогика илмий-назарий ва методик журнал//Т.: №!. -2016. Б. -116.

1. Султанов Х.Э, Анкабоев Р. "Ёш мусаввир тўгараги" Услубий қўлланма /Низомий номидаги ТДПУ// Т.:-2017: - Б. 64;

2. Sultanov X.E., Marasulova I.M., Bakhriev I.S., Ankabaev R.T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education / International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475-7192// Vol. 24, Issue 05, 2020: -R. 6586-6591.

3. The role and significance of the landscape genre in the fine arts EPRA International Journal of Research and Development **Volume: 5, Issue:3, March 2020 ISSN: 2455-7838 (Online)** R.T.Ankabaev, I.S.Bakhriev, M.J.Mahmudov, U.T.Hibutaeva

**Психологик портрет тасвирлашда рассом ҳиссиёти**

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *Психологик портрет қаламтасвирини тасвирлашда идрок этишни шакллантириш хусусиятлари хакида фикр юритилади.*

**Калит сўз:** *Психологик портрет, компоновка, туслаш, яхлит идрок*

Ўзбекистон халқларининг тарихи, қадриятлари, илм-фан, маданият дурдоналарини ҳар томонлама ўрганиш ва таҳлил этиш ғоят муҳимдир. Бугунги кунда мамлакатимизда изчилислоҳотлар натижасида олий таълим муассасаларида таълимни ташкил этишнинг дастурий-методик таъминоти, тасвирий санъат ўқитувчиларни тайёрлашнинг миллий ва жаҳон таълим тажрибасига асосланган ташкилий-педагогик механизмларини яратиш ва янада такомилаштириш орқали мамлакатимиз интеллектуал ресурслари потенциалини оширищ муҳим аҳамият касб этмоқда. "Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар

тайёрлаш сиёсатини давом эттириш" Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида муҳим ўрин эгаллайди.[3]

Инсон қиёфасини тасвирлаш жуда қизиқарли, у инсонлар юзи, аъзолари, тузилиши, ранги, инсон танаси ҳаракат ҳолатлари, овози, кулиши кабилардан унинг характерини билишга ўргатади.

Хитойда, Овропада инсон қиёфасини ўқиш санъатини фан сифатида қадимдан то шу кунларгача қўллаб келаяпти. Бу фанни физиогномика[2] номи билан юритади.

Аждодларимиз маънавий меросида ота-боболаримиз бу санъат ва илм бўйича узоқ бош қотириб, одамларнинг қиёфасидаги(портрет) ташқи белгилардан уларнинг хислат ва хусусиятини билиб олиш мумкин, деган хулосага келганлар. Арасту, Афлотун, Луқмони Ҳаким ҳақидаги ҳикоятларда[3] ҳам инсон қиёфасига қараб одамни билиш мумкинлиги айтилган.

Асосан оқ юзанинг ёрқинлиги этюда пасайиши этюд бажарилаётган устахонадаги ёритишнинг табиат қўйнида қуёш порлаб турган кундаги ёритишга қараганда пастроқ экани сабабли рўй беради. Табиатда қора предметлар ёки соялар ёруғлик нурларига нисбатан турли бурчакларда жойлашади ва оқ ва рангига кўра ёруғ юзаларга нисбатан турли планда жойлашиши, бу билан қуёш нурлари таъсирига учрамаслиги ва ёритилган оқ юзаларга нисбатан кучли контрастни сақлаб қолиши мумкин.

Бўёқлар палитраси, ёруғлик диапазонида анчагина чекланган бўлиб, шу билан бирга табиат ҳолатларини образли беришда имкониятларнинг катта диапазонини тақдим қилади. Таъкидлаш керакки, рангтасвирда ёруғлик тасвирнинг барча қатнашчилари ўртасидаги муносабатлар билан аниқланади, шу

---

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.// Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. - Т., 2017. — Б. 39.

[2] Хигир Б.Ю. Физиогномика.- М. -С - Петербург: ДИЛЯ, 2000.

[3] Шамсиддин Муҳаммад ибн Амируддин Дунасарай. Одамни билиш илми. Форс-тожик тилидан Б. Омон таржимаси.- Тошкент: Ёзувчи, 1994. - 3 б.

...фаини ишонарли олинган муносабатларни идрок этишда моделнинг маълум ...олати ҳақида тасаввур шаклланади. Рассом табиатдаги ёритилганлик ...аражасини бўёқлар палитраси диапазонига кўчиришни билса, бу малака этюда ...ёруғликларни абсолют ёрқинлик эмас, балки ёруғликлар ўртасидаги ...муносабатлар уйғунлиги бўйича идрок этиш имконини беради. Предметлар ...ёруғини идрок этиш яна шу билан мураккаблашадики, ёруғликни кўриш ...сезгилари ёрқинликка пропорционал эмас. бу жиҳатдан Вебер-Фехнернинг ...психофизик қонуни маълум қизиқиш уйғотади, унда айтилишича, ёруғликнинг ...манбаи кучига боғлиқ равишда ёруғлик геометрик прогрессия бўйича ортганида ...кўриш сезгиси интенсивлиги арифметик прогрессия бўйича ортади. Бу қонун ...фақат ўрта ёрқинликлар учун ҳақиқий саналади. Бундан ташқари, таъкидлаш ...жоизки, у кўриш сезгисининг бир муҳитда таъсир уйғотувчининг ўзига нисбатан ...нисбатан кам ортиши тенденциясини аниқлайди холос. Натурадан ишлаш ...амалиётида бу жуда кам учрайди, кўпинча биз атроф фоннинг тон ...градацияларида катта тафовутларни кузатамиз.

Қаламтасвир малакаларининг асосий кўрсаткичи ифодали тус ...муносабатларини топиш саналади, бу кўпинча рассомнинг эмоционал ҳолати ...билан боғлиқ. У тобора жиддий учта компонентни характерлайди: 1) тасвир ...объектидан эмоционал кечинмалар; 2) тасвир жараёнининг ўзини эмоционал ...кечириш; 3) рассомнинг воқелик ҳамда тасвирий фаолият жараёнидаги идроки ...олдидаги эмоционал ҳолати.

Қаламтасвирда бадиий идрок муаммоларини ўрганиш тон(тус) тушунчаси ...билан узвий боғлиқ. Бадиий амалиётда тон кўп ҳолларда берилаётган ...ранглларнинг ёруғлиги билан тавсифланади. Бироқ тон рангтасвирда фақат тор ...маънода қаралмайди, тасвир юзасида рўёбга чиқарилган тон деганда рассом ...градацияларининг бутун бир комплекси тушунилади.

## Фойдаланидган адабиётлар

1 Бойметов Б. “Қаламтасвир”. Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2 Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8.Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.

**Портрет жанрида яратилган инсон қиёфасини ўрганиш оркали унинг ҳарактер ҳолатини аниқлаш.**

*ТерДПИ уқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *Портрет жанрида яратилган инсон қиёфасини ўрганиш орқали унинг ҳарактер холатини аниқлаш*

**Калит сўз:** *Психологик портрет, компоновка, туслаш, яхлит идрок*

Мусаввир қаламтасвир портрети устида иш олиб борар экан, у бу жараёнининг бошидан-оҳиригача натура билан юзма-юз ишлайди.

Биламизки қиёфачининг юз ифодаси турли маъноларни акс эттиради. Лекин, шунга қарамай, инсоннинг дунё билан ўзаро муносабатини ва ички оламини тўлиқ ва кўпқиррали тарзда этиб ёритиш имкониятини бермайди.

Қаламтасвирда ишланган портретда моделнинг ички дардлари, ҳаётдаги муваффақиятлари, инсон сифатида қандай эканлигини очиб бериш вазифаси бўлса, рангтасвир портретида бу инсоннинг образини келажак авлод учун қолдириш, жамият оммасига, одамларга яқиндан таништириш мақсади каби ҳам асосий вазифалардан биридир.

Шунинг учун рассом моделнинг муҳим инсон эканлигини, инсонийлик қирраларини янада кўпроқ ва бўрттириброқ кўрсатиб, авлодларга муносиб, улкан эътироф билан намоён этиб беришга уринади. Унинг дунё билан, вақт билан боғлиқлигини, ҳамоҳанглигини очишга ҳаракат қилади.

Портрет санъатида учраб турадиган хусусийликдан умумийликка ўтишнинг учта даражасини белгилаш мумкин: бунда портрети ишланаётган моделнинг суратидаги айнан ўша пайтдаги руҳий ҳолати, унинг шахс сифатидаги феъл-атвори ҳамда жамиятдаги ижтимоий, маънавий ўрни ва у яшаётган давр тўғрисида ҳам маълумот беришидадир.

Қаламтасвирда портрет ўз тузилишига кўра аниқ икки ечимни, яъни моделнинг ички ҳолатини ва маънавий ўзига хос дунёқарашини намоён этади. Бундай портретлар камдан-кам ҳоллардагина тасвирий санъатнинг кенг қамровида вужудга келади.

Рангтасвир портретларида эса аксинча, аниқ ҳолатлар камроқ учраб, тасвирдаги шахснинг ижтимоий тизимидаги ўрни анчагина идеаллаштирилиб бадиий тарзда акс эттирилади.

Лекин барибир, қаламтасвирда ҳам, рангтасвирда ҳам моделнинг маънавий характери портретнинг бош вазифаси бўлиб қолаверади. Вазифалар ечими турлича бўлгани учун натижада образ ҳам ўзаро фарқланади. Кўпинча қаламтасвирда моделнинг елкасигача бўлган тасвири табиий ҳолатда

тасвирланади ва фон эркин танланади. Портретнинг барча хусусиятларини асосан моделнинг юз қиёфаси ифодалайди.

Рангтасвир портретини яратишда эса рассом ўша шахс ва ўша замон тўғрисидаги фикрларини, тасаввурларини ҳам қўшиб ифодалаши керак бўлади. Бу эса тасвирлашда портрет композиция-сини топиб, унга мос равишда муҳит, либос, фон ва турли аксессуарлар танловини ҳам амалга ошириши керак бўлади. Портретнинг қаламтасвир ва рангтасвир ечимида асосан икки масала ҳал этилади: бири – шахснинг индивидуаллиги, ўхшашлиги бўлса, иккинчиси эса образнинг умумлашган, идеаллашган кўринишидир.

Портрет санъатидаги бу иккала ёндашув, иккала ҳолатни тасвирлашнинг бошқа жанрларида ҳам учратиш мумкин. Демак, шундай хулосага келиш мумкин: «қаламтасвир портретнинг биринчи чизиғи, рангтасвир эса уни ривожлантирувчи, мукаммал-лаштирувчи иккинчи чизиғи»дир.

Яна шуни таъкидлаш лозимки, юқорида берилган таъриф ҳамма портретлар учун ҳам мутлоқ бир хил бўлавермайди.

Тасвирий санъатнинг кенг оламида қаламтасвирда ишланган портретларда ҳам унинг муҳити, маълум бир фонда ўша шахснинг дунёдаги ўрнини ифодалаши мумкин. Ва аксинча, рангтасвир портретида ҳам рассом бутун диққатини асосан моделнинг юзига қаратиб, унинг аниқ бир ҳолатига урғу бериши мумкин.

Энди рангтасвир портрети учун мўлжалланган қаламтасвирни ўрганиб чиқамиз. Уни ишлаганда, у портрет этюди учун ёки мустақил рангтасвир портрети учун деб ажратиб бўлмайди.Чунки портретнинг тайёрлов қаламтасвири ва унинг ёрдамида ишланган рангтасвир портрети солиштирилганда, ундаги композиция ечимида умуман фарқ бўлмайди. Лекин рангтасвир портретида хомаки қаламтасвир тўлиқ қайтарилсада, образ яратишда анча-мунча фарқ бўлади.

Турли даврларда ишланган портретларда ҳам умумий хусусиятлар мавжуд эканлигини кузатамиз, чунки тасвирнинг табиийлиги, моделнинг ҳолати ва

бутун диққат унинг юзига қаратилиши одатда портретлар ишлаш русумидаги яқинликни вужудга келтиради.

Шундай қилиб, рангтасвир портретида тасвирлашнинг барча махсус шиблари: моделнинг маълум бир юз ифодаси, гавда туриши ҳолати, қўл ишоралари, кийимлари, атроф-муҳити ва ҳаттоки унинг қандай машғулот билан бандлиги, жамиятдаги ўрни, нуфузи кўрсатилиши талаб этилади.

Бундай талабларнинг барчаси рассом фикрини, у бермоқчи бўлган маънони очиб ёритишда бирдек хизмат қилади.

Маълумки, рангтасвир портретларда моделнинг гавда холати, қўл ишоралари мукаммал ечимга олиб келиниши муҳим хисобланади.

Хулоса шундай, портрет жанри имкониятлари кенг, ранг-баранг ҳамда сониябали. Унда ижодкор мусаввирлар ўз маҳорат, билим ва қобилиятларини чексиз даражада намоён этишлари мумкин. Шу сабабдан бу жанрнинг рангтасвир техникасида бажарилган сара намуналарини тадқиқ этиш, чуқур ва атрофлича таҳлил қилиш изланувчиларни доимо қизиқтириб келади. Портретдаги бадиий образ талқини масаласи тасвирий санъат тарихи ҳамда рассомлик амалиёти учун янги-янги маълумотлар келтириш билан ҳам алоҳида аҳамият касб этади.

Фойдаланидган адабиётлар

1 Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2 Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

# АКМАЛ НУР ИЖОДИЙ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА ИНГЛИЗ ТИЛИ МУҲИТИДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВ

# ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ СРЕДЕ КАК ПРИМЕР ТВОРЧЕСКОГО ОПЫТА АКМАЛА НУРА

# CREATIVE APPROACH IN ENGLISH CLASSES AS AN EXAMPLE OF AKMAL NUR'S CREATIVE EXPERIENCE

**Жумаева Севара Дусмуратовна**

**Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ўкитувчиси,**

**Преподователь Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода,**

**National Institute of Fine Art and Design named after Kamoliddin Bekhzod,**

**Department of Uzbek and foreign languages**

**Senior lecturer**

**pedagogy**

**Tashkent, Uzbekistan**

**jdsevarakhon@gmail.com**

**+998 97 001-88-78**

**Аннотация:** Мақолада бугунги глобаллашув шароитида санъат сохасида таҳсил олаётган олий таълим муассасаси талабаларига инглиз тили ўкитишнинг ўзига хос хусусиятлари, фикрни адресатга узата олиш имкониятлари, талабани тил мухитига туширишда креатив ёндашув масалалари Ўзбекистон халқ рассоми Акмал Нур ижодига назар ташлаган ҳолда педагогик нуктаи назардан аник мисоллар асосида тахлил килинади. Хар бир асарга оптимал методикалар таклиф этилади.

**Аннотация:** В статье в условиях современной глобализации рассматриваются уникальные особенности обучения английскому языку студентов вуза, обучающихся в сфере искусства, возможности донесения мысли до адресата, вопросы творческого подхода при ознакомлении студента с к языковой среде анализируются на конкретных примерах с педагогической точки зрения, рассматривая творчество народного художника Узбекистана Акмаля Нура. Для каждой работы предложены оптимальные методы.

**Annotation:** The article highlights the unique features of teaching English to students of a higher education institution studying in the field of art in the context of today's globalization, the possibilities of conveying the thought to the addressee, the issues of creative approach in introducing the student to the language environment are analyzed based on specific examples from the pedagogical point of view, looking at the work of the People's Artist of Uzbekistan Akmal Nur. Optimal methods are proposed for each work.

**Калит сўзлар:** ижодкорлик, гурухда ишлаш, ижодий ёндашув, рассом талабалар, ижодий муҳит, ижодий фикрлаш, креативлик, ижодий асар

**Ключевые слова:** креативность, работа в команде, творческий подход, студенты-художники, творческая среда, творческое мышление, креативность, творческая работа

**Keywords:** creativity, team work, creative approach, art students, creative environment, creative thinking, creativity, creative work

**Kirish**

Bugungi zamonaviy va tezkor rivojlanib borayotgan dunyo barchaga xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o`rganish talabini qo`ymoqda. Bunda, avvalo, dastlabki e`tibor o`qituvchining dars o`tish mahoratining qay nuqtada ekanligi bilan namoyon bo`ladi. Bu holatda o`qituvchining darsga talabaning bilimlarini hisobga olgan holda yondashuvi muhimdir. Bu, ayniqsa, san`at sohasida ta`lim olayotgan talabalarga ingliz tili fanidan dars beradigan o`qituvchilarga ikki barobar ma`suliyat yuklaydi. Bu soha talabalarida ijodiy imkoniyatlari yuqori bo`lib, ularda til o`rganishda ko`proq nutqiy qashshoqlik ko`zga tashlanadi, sababi ular ijod kishisidir, bu esa ularda ko`proq til muhitida kreativlik asosida yondashish kerakligini ko`rsatadi.

Talaba bilim olishi jarayonida turli omillarga duch keladi. Xar bir dars aslida san`atdir. Shunday ekan, san`atni ichida ijodkorlik muhitini yarata olish darsni yuqori saviyada tashkil etilishidir.Xar qanday vazifaga butun tasavvur dunyosini ishga solib, yondashish kreativlikdir. Ijodkorlikka mashhurlar qanday ta`rif berib o`tganini keltirish fikrimcha, shu o`rinda joizdir:

| | |
|---|---|
| "Tasavvur – ijodning boshlanishi. Siz xohlagan narsani tasavvur qilasiz, o'zingiz xohlagan narsani qilasiz va nihoyat o'zingiz xohlagan narsani yaratasiz." | **Jorj Bernard Shou,** dramaturg va adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori |
| "Ijodkorlik bu xushkayfiyatlik asosidagi aql-zakovatdir." | **Albert Eynshteyn,** ko'p qirrali daho va fizika bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori |
| "Ijod faqat narsalarni bog'laydi. Ijodiy odamlardan qanday qilib biror narsa qilganini so'rasangiz, ular o'zlarini biroz aybdor his qiladilar, chunki ular | **Stiv Jobs,** Apple kompaniyasi asoschisi |

| | |
|---|---|
| ...qilgan ham buni qilmaganlar, faqat ...ni ko'rganlar. Bu ularga bir ...a vaqt o'tgach ayondek tuyuldi». | |
| "Ijodkorlik narsalarga boshqacha qarash uchun kutilgan namunalarni ...zgartirishni o'z ichiga oladi." | **Edvard de Bono**, shifokor, yozuvchi va ixtirochi |

Quyidagi jadvalda siz ijodkorlikka 3 nuqtai nazardan ta'riflar bilan tanishishingiz mumkin.

| | |
|---|---|
| • Tadqiqot bo`yicha ta`rif | Ijodkorlik - bu qiyinchiliklarni, ma'lumotlardagi bo'shliqlar, muammolarini his qilish, kamchiliklar haqida taxmin qilish va bu taxminlarni sinab ko'rish jarayoni. |
| • Badiiy ta'rif | Ijodkorlik "Ijod chuqur qazishga o'xshaydi", "Ijod hidlarni tinglashga o'xshaydi", "Ijodkorlik xatolarni kesib tashlashga o'xshaydi" kabi bir qator ta'sirchan o'xshatishlar orqali idrok etilishi mumkin. |
| • Omon qolish ta`rifi | Agar biror kishi biror muammom o'rganmasa yoki amalda qo'llagan holda yechim topmasa, bu yerda ijodkorlik boshlanadi. |

**Asosiy qism**

Akmal Nur ijodi rang barangdir. Klassik aytganidek, "U har doim bir xil, abadiy yangi". Rassom ijodiy merosi bitmas-tuganmas ma'lumot manbai: badiiy va xayoliy, qimmatli va ramziy. Afsonaviy qushlar obrazi, otlar, baliqlar, g'ildirak, geometrik figuralar, ayol obrazi, tarozi, hayot daraxti, anor mevasi kabi timsollar Akmal Nur ijodiy muhitining asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, Akmal Nur ijodida asosan, tabiat bilan uyg`unlik yetakchilik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ingliz tili darslarida rassomning quyidagi yaratgan asarlarini yetakchi namunalar sifatida qo`llash mumkin va bu fikrimimcha, ikki tomonlama samarali metodika bo`ladi.

« **Ularning bog'i doimo gullab-yashnaydi** » nomli asar (2013. Shaxsiy kolleksiya)



1-rasm

Rassomning ushbu asari bilan ishlashda quyidagi usul optimal yondashuv bo`ladi:

Talabalar ikki guruhga bo`linadi. Vazifa quyidagicha beriladi: Asarda tasvirlangan obyektlarni inglizcha nomlanishini nomi va rangi bilan aytishlari talab qilinadi. Orfagrafik xatoliklar kamligiga ko`ra g`olib jamoa aniqlanadi va o`sha jamoaga yana murakkabroq bo`lgan va ularning kreativ xususiyatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bosh vazifa beriladi. Ushbu vazifa ikki qismda bajariladi. (Ajratilgan vaqt-5 daqiqa).

Navbatda, bevosita shu mavzuni davomi sifatida guruhlarga ishlash uchun ikkinchi topshiriq beriladi. Bu vazifaning o`ziga xosligi, talabalar bunda individual ishlaydilar. Ular xozirgina o`zlashtirgan yangi so`zlaridan foydalanib, o`zlari rasm chizishlari talabi qo`yiladi va vazifaning eng asosiy qismi chizgan rasmlarini ingliz tilida ta`riflab berishlari kerak bo`ladi. (Vazifaga ajratiladigan vaqt: rasm chizish uchun-4, ta`riflab berish uchun-1. Jami -5 daqiqa)

**Vazifaning mukammal bo`lishi uchun:** O`qituvchi ushbu asarda ifodalangan barcha predmetlarning inglizcha aytilishini xar ikki guruhga taqdim etadi. (Talabalar bilmagan yoki orfagrafik xato qilib yozgan so`zlari bo`lishlari mumkin.)

**Olinadigan natija:** Talabalarning guruh bilan ishlash qobiliyatlari shakllanishi bilan birga, ularning ingliz tilidagi so`z boyligi oshadi. Ingliz tilini nafaqatgina bir tomonlama grammatik nuqtai nazardan emas, balki o`z sohalariga ya`ni tasviriy san`atga bog`lab o`rgatilayotgani uchun xam bu usulning samarasi yuqori bo`ladi. Rassomning galdagi san`at asari **«Injiq»** (2004. Shaxsiy kolleksiya )



**2-rasm**

**Vazifa quyidagicha:** Talabalar 2 guruhga b`olinadilar: yigitlar va qizlar. Ushbu asarda aks ettirilgan holat bo`yicha, ijodiy fikrlash asnosida dialog aytib berish talabi qo`yiladi. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi va dialogni xar bir guruh a`zosi birma bir, barchalari auditoriya markaziga chiqqan holda aytib beradilar. (Ajratilgan vaqt: tayyorlanish uchun-5, aytib berish uchun-5, jami-10 daqiqa).

**Olinadigan natija:** Talabalarga aynan o`zlarining yosh fiziologiyasi xususiyati va hozirgi holatlaridan kelib chiqib, vazifa qiziqarli bo`ladi. Ikkinchidan, erkin gapirish imkoniyati ko`proq bo`ladi.

Navbatgdagi asar **«Qush tili»** (2006. Shaxsiy kolleksiya )





**3-rasm**

Bu vazifada talabalardan kreativ yondashuv talab etilishi bilan birga, aktyorlik mahoratiga xam alohida urg`u beriladi. Vazifani bajarishga kirishishdan avval, o`qituvchi turli qushlarning tasvirini auditoriyaning turli qismlariga qo`yib chiqadi (muhit yaratish uchun). Shundan so`ng, talabalar ikki guruhga bo`lingan holda bir birlariga qush tilidan gapirishlari kerak b`oladi. (monolog, savol-javob, ranglarga xam e`tibor qaratishlari talab etiladi). Bunda e`tibor qilinadigan jihat, vazifaga ijodiy yondashish va ijodiy fikrlash. O`qituvchi vazifani bajarish uchun xar ikki guruhga yordamchi so`zlarni taqdim etadi – helping ideas. (Ajratilgan vaqt: tayyorgarlik uchun 10 daqiqa, vazifani bajarish uchun: 25 daqiqa. Jami-35 daqiqa)

**Olinadigan natija:** Fikrlash doiralari kengayadi. Talabalarning bir birlaridan grammatika va yangi so`zlarni o`rganish imkoniyati yaratiladi. Oqituvchi bergan fikrlardan olib, o`z g`oyalarini ifoda etadilar.

Rassomning galdagi ijod mahsuli **«Oilam»** (2005. Shaxsiy kolleksiya)



**4-rasm**

Bu vazifani bajarish talabalar uchun o`zgacha zavq bag`ishlaydi derb to`la ayta olamiz. Sababi, bu go`zal asarning «Mening oilam» deb atalganligining o`zi xar bir inson uchun oilasining qimmati qanchalik yuqori ekanligi xaqida fikr yuritishga undamay qo`ymaydi. Vazifada o`qituvchi talabalarga ikkita savol qo`yadi individual ishlanadi. **Savollar quyidagicha:**

1.Why the family was described in the middle part of an apple, exactly apple, why not other fruit? How do you think, give creative answer as well as support your idea?

(three sentences)

2.How do you describe the ideal family? (two sentences)

Ushbu savollarga javoblarni talabalar yozib berishlari talab etiladi va so`nggida javoblar aralashtiriladi. Talabalar javoblardan bittasini tanlab oladilar va yozilgan ta`rifni o`qib, ta`rif egasi kim ekanligini topishlsblari lozim bo`ladi. Vazifa uchun jami ajratilgan vaqt: 40 daqiqa

**Olinadigan natija:** Vazifani bajarish jarayonida bir birini xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib, ta`rif asosida ishlash talabalar uchun o`zgacha zavqli bo`ladi. Tilni bajonidil o`rganadi va uni qo`llay oladi. Qolaversa, bunday ijodiy muhitda ishlash asnosida, talabalarda mustaqil ishlay olish ko`nikmasi yanada rivojlanadi.

**Xulosa** Dars davomida yaratiladigan ijodiy muhit o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish orqali ta`lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunga ijodiy o'quv elementlari va an'anaviy o'quv mazmunining birlashmasi orqali erishish mumkin. Rassom talabalarga Akmal Nur asarlari bilan ishlash katta zavq beradi. Bu jarayonda agar til o`rganishni kreativlik asosida uyg`unlashtiradigan b`olsak, talabalar ikki hissa samaraga erishadilar. Birinchidan, talaba o`zining bo`lajak sohasi bo`lganligi uchun ham rassom ijodiga katta qiziqish bilan qaraydi. Ikkinchidan, obyektiv qiziqishidan kelib chiqib, bu jarayonni til o`rganishga bog`lab yuborilsa, ular xaqiqiy til muhitiga tushadilar va o`qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni zarurligidan emas, qiziqqanlari uchun mamnuniyat bilan bajaradilar. Aynan ingliz tilini o`rganish jarayoni bo`lajak rassom talabalarning ijodkorligi bilan yanada uyg`unlashib, muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar ro`yhati:

1. Values and symbols of painting by Akmal Nur. 2019
2. https://www.wix.com/wordsmatter/blog/2020/06/what-is-creativity
3. Egan et al., 2017; Orr & Shreeve, 2018.
4. S.D.Jumayeva "The ways of effectively organize of English lessons using Kamoliddin Bekhzod`s miniatures"- Kamoliddin Behzod ijodi jahon olimlari nigohida mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman to`plam. 19.10.2022
5. S.D.Jumayeva "Independent education as a sourse of new knowledge development"- TDPU I A 6-son, 2022

## Ўқувчиларга тасвирий санъат дарсларига индивидуал ёндашувнинг назариядаги аҳволи таҳлили.

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+99899578835

**Аннотатсия:** Ўқувчиларга тасвирий санъат дарсларига индивидуал ёндашувнинг назариядаги аҳволи

**Калит сўз:** *Миниатюра, компоновка, туслаш, яхлит идрок*

Ўзбек халқи ўзининг тасвирий, амалий, меъморчилик санъати билан фахрланса арзийди. Президентимиз Ш.М. Мирзиёев халкимизнинг ана шундай бой тарихий, илмий, маънавий меросини ҳар томонлама ўрганиш, жаҳон афкор оммасига кенг таништириш, ўлкамиз рассом ва хаттотларини дунёга танитиш ва туризм масаласида "Бу масканга ташриф буюрувчилар бир вақтнинг ўзида Камолиддин Беҳзод, Маҳмуд Музаххиб каби мусаввирларнинг бебаҳо меросидан намуналар, улар таваллуд топган ва фаолият кўрсатган тарихий шаҳарлар манзаралари турли ноёб экспонатлар орқали акс эттирилади" деб таъкидлади. [22; 469-б.]. Чунки, Ўзбекистон ҳудудида эрамиздан аввал ҳам тасвирий санъатнинг рангтасвир, ҳайкалторошлик, меъморчилик турлари ниҳоятда ривожланди, уларнинг намуналари Варахша, Афросиёб, Халчаён, Тупроққалъа, Болалик тепа, Айртом, Далварзин тепа, Фаёз тепа, Қўйқирилган қалъа, Ажина тепа, Тешик қалъа ва бошқа бир қатор жойлардан топилган.

Амир Темур ва Темурийлар даврида тасвирий санъат турларидан меъморчилик, миниатюра гуллаб - яшнади. Бу даврда миниатюра ва китоб графикаси шунчалик ривожландики, у нафақат Шарқ, ҳаттоки Европа мамалакатлари санъатига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Натижада, Самарқанд, Бухоро, Ҳирот миниатюра мактаблари билан бир қаторда Бағдод, Табриз, Шероз, Озарбайжон, Ҳинд, Исфахон, Турк миниатюра мактаблари ҳам шаклланди ва ривожланди. Бу даврларда яратилган асарларнинг бадиийлиги ҳозирги замон рассомлари ва ҳайкалтарошларининг асарларидан қолишмайди десак муболаға бўлмайди. Бундай юксак бадиий савиядаги асарларни ўша даврда тўпланган илғор тажриба, тасвирий санъат мактабларисиз яратиш мумкин эмас. Маълумки санъат бир неча авлоднинг кўп йиллар давомида шаклланган анъаналари, **устознинг шогирдга** ўтказган билимлари асосидагина тараққий топади. [35]. Бу

...и умумий бадиий таълим йўналишида бўлмаса ҳам, касбий бадиий таълим ...нида ривожланганлигидан далолат беради.

Ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг асослари янги ёки яқин 100-200 йил ... пайдо бўлган жараён эмас, у кишилик жамияти, аниқроғи, ибтидоий ...мон пайдо бўлган даврдан бошланган, десак тўғрироқ бўлади [147, 8-9]. Чунки ...нинг тараққиёти бевосита катталарнинг ўз тажрибаси ва билимларини ёш ...ни турли йўллар билан ўтказиш жараёнида рўй беради. Бу жараён ўша ...ларда синф-дарс тизимида бўлмаса-да, ҳар қалай кундалик турмушда амалга ...ирилгани ҳаммага маълум. У меҳнат, оила муносабатлари, ов, тарбия ...ларида, ёшларнинг ёши, қобилияти, жинси, қизиқишлари каби ...иятларини ҳисобга олган ҳолда бўлганлиги ҳаммага маълум. Болаларнинг ...усусиятларини ҳисобға олиб уларга ҳунар ўргатганлар, таълим ва тарбия ...мунини белгилаганлар. Таълим-тарбияга бундай ёндашув қадимги Мисрда, ...рта Осиёда эрамиздан аввалги VI-V асрларда, бўлганлиги расмий ...лумотлардан бизга маълум. Ҳатто узоқ қадимда ўқувчиларнинг бадиий ...нарларни ўзлаштириши Қадимги Грецияда, сўнг бир қатор Европа давлатлари ...нинг даврида ўқувчиларга индивидуал ёндашув масаласи педагогларнинг ...ида эътиборини тортди. Чунки у даврларда устознинг ёрдамчи ва шогирди ...лилиги учун, ўқувчи-шогирд устозининг бадиий асарларни яратишдаги ...никаси, услубини ўзига бевосита қабул қилган.

Буни Темурийлар даври миниатюра мактаблари, шу даврларда яшаб, ижод ...ган тасвирий санъат усталари ва улар шогирдларининг фаолиятларида ҳам ...ришимиз мумкин. Ҳиротда шаклланган санъат мактабида Хиротлик Мирак ...кош Камоллидин Беҳзодга устозлик қилгани, унга миниатюра рангтасвири ...ирларини ўргатгани ҳақида маълумотлар бор. Шу мактабнинг давомчиси ...фатида Камолиддин Беҳзод ўнлаб муссавирларга устозлик қилган, дейди профессор Ориф Усмонов ўзининг "Камолиддин Беҳзод ва унинг наққошлик мактаби" номли китобида [128; 32-б]. У ерда Камолиддин Беҳзод ўз атрофига ... истеъдодли ёшларини тўплагани, уларга санъатнинг сир-асрорларини

ўргатгани ва Табризда Султон Муҳаммад, Мир Али, Султон Муҳаммад, Абдулл[illegible] Шерозий, Мирзо Амир, Маҳмуд Музаххиб, Оқо Мирак, Музаффар Али, Султо[illegible] Муҳаммад Нур, Ризо Аббосий, Шомухаммад Нишопурий, Юсуф Мулло[illegible] Мавлоно Ёрий, Ҳасан Бағдодий, Дарвеш Муҳаммад, Мир Саид Али, Қосим Али[illegible] Херавий сингари ўнлаб истеъдодли мусаввирларни тарбиялаганлигини ёзади. Шогирдлари Беҳзоднинг тасвирий санъат услубини давом этириб, миниатюра ва хаттотлик санъати равнақига ҳисса қўшиб, ўзларидан кейин миниатюра мактабларига асос солиб юзлаб мусаввирлар етишиб чиқишига замин яратганалар. XVII-XIX асларда ижод қилган тасвирий санъат усталаридан Муҳаммад Муқим, Аҳмад Калла, Аҳмад Дониш, Мулла Ҳусниддин, Мулла Ортиқ Раҳматий, Иброҳим Даврон каби рассомлар фаолияти устоз-шогирд масаласида эътиборга моликдир. Устоз-шогирд ўртасидаги муносабатларни би[illegible] тарихий манбаларга таяниб ўрганадиган бўлсак, у даврларда тасвирий санъатни ўқитишда рассом - устозларнинг бадиий устахоналарида ўқувчи-шогирдларга таълим-тарбия бериш аниқ белгиланган қонун-қоидалар асосида олиб борилган. Бу жараёнда шогирдларни жамоа бўлиб ўқитиш, улар билан бирга ва якка тартибда ишлаш муҳим ҳисобланган.

**Адабиётлар**


1.Байметов Б. “Қаламтасвир”. Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – C. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – C. 166-168.

8 Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

**Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг психологик-педагогик асослари.**

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашувнинг психологик-педагогик асослари

**Калит сўз:** *психологик-педагогик яхлит идрок, индивидуаллаштириш, дифференциялаштириш*

Халқ таълими тизимига илғор хорижий тажрибани, ўқув-тарбия жараёнига замонавий педагогик технологияларни, шу жумладан таълим беришнинг инновацион усулларини жорий этиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир [12; 2-б.]. Бундай технологиялардан бири кўп йиллардан бери хорижда ўрганиб келинаётган индивидуал ва табақалаштирилган таълим туридир. Таълимда индивидуал ва дефференциал (табақалаштирилган) тушунчалари кўп йиллардан бери жаҳон педагогика фанида ўрганиб келинади ҳамда бу борада бир қанча илмий ва амалий ишлар мавжуд. Ҳатто буюк чех педагоги Ян Амос

Каменскийнинг педагогик системасида “таълим олувчиларнинг *ёши* ва *индивидуал* хусусиятларини ҳисобга олган холда систематик кузатувлар йўли орқали таълим жараёнини қуриш зарур”, дейилган [67; 103-104-б.].

Я.А. Коменский яшаган даврдан эътиборан дидактика замирида мактаб ўқувчиларини нимага ва қандай қилиб ўқитиш ҳакидаги билимларнинг илмий тизими ўрганилиб келинди. Ҳозирги вақтда “дидактика” термини билан биргаликда кенг маънода ўқитиш назарияси, таълим бериш назарияси терминлари ишлатилади. Шу билан бирга педагогика фанида таълим олишни **индивидуаллаштириш ва дифференциялаштириш** каби қўлланадиган терминлари ҳам кўп қўлланилади.

Бу терминларни аксарият ҳолларда амалиётда, айниқса таълим жараёнини ташкил этишда кўпинча турли хил, баъзан жуда ноаниқ маъноларда ишлатилиши кузатилмоқда. Ушбу тушунчанинг мақсад ва воситаларини аниқлаганда энг катта қийинчилик “индивидуаллаштириш” ва “табақалаштириш” каби иккита тушунчаларнинг бири-бири билан аралашганлигидир.

Ҳозирги кунда аксарият ўқитувчиларнинг кўпчилиги индивидуаллаштириш ва табақалаштиришни аралаштириб юборадилар.

Педагогик энциклопедияларда “Индивидуаллаштириш таълим-тарбия жараёнида ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ҳамма турларидан фойдаланган ҳолда уларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш ва ривожлантириш демакдир”, деб таъриф берилган [132; 95-б.]. Шунга қарамасдан, кўпинча педагогик амалиётда синоним сифатида “индивидуаллаштириш” ўрнига “табақалаштириш” атамаларидан фойдаланиб келинмоқда. “Табақалаштириш” атамаси одатда, мактабларни оқимларга ажратиш, баъзан ҳатто махсус мактаблар ва синфлар ташкил этилиши каби торроқ маънода кўриб чиқилади [107; 18-б.]. Ушбу тушунчаларни қўллашнинг турли хил вариантларини хорижий педагогикада ҳам кўришимиз мумкин. АҚШда “индивидуаллаштириш” атамаси одатда ўқувчиларнинг индивидуал

хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ҳар қандай шакл ва усулларни ўз ичига олиши тушунилса [124; 25-б.], франция педагогикасида эса 1930-йилларидан бошлаб индивидуаллаштириш, биринчи навбатда, ўқувчиларнинг индивидуал қобилиятларига мос равишда мустақил ишларни такомиллаштириш тушунилиб келинмоқда. [53; 9-б.] Германияда бўлса “табақалаштириш” тушунчаси остида АҚШ дагидек “индивидуалаштириш” тушунилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, биз ўз олдимизга “индвидуаллаштириш” ва “табақалаштириш” тушунчаларига аниқлик киритишни жоиз, деб билдик. “Индивидуаллаштириш” ва “табақалаштириш” атамаларининг синоним сифатида ишлатилишини, биз ҳам ноўрин деб биламиз, чунки бу таълим концепциясига ноаниқликлар олиб келади.

Таълим мазмунининг асосий таркибий қисмларидан бири бўлган билимлар муҳим ижтимоий қадрият саналади. У индивиднинг ижтимоийлашиши, унинг социум (ижтимоий муҳит)га киришига ёрдам беради. Ўтган асрда таълим мазмунини сиёсийлаштиришга уринишга қаратилган ҳаракатларнинг юзага келганлиги унинг мазмунини белгилашда экстенсив ёндашиш (миқдорий жиҳатини кўпайтириш) етакчи ўрин эгаллади. Натижада таълим мазмуни ўқув фанлари сонининг доимий ортиб бориш ҳисобига кенгайтирилди, таълим жараёнида тайёр билимларни бериш асосида ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларини шакллантиришга эътибор қаратилиб, ўқувчи шахсини ривожлантириш масаласи ўз ечимини топмади.

Бугунги жадал ривожланиб келаётган илмий-техник жараёнда таълим мазмунини белгилайдиган асосий ғоя таълимни инсонпарварлаштиришдир. Бу йўлда таълим мазмунини аниқлашда **шахсга-йўналтирилган ёндашув** асосий ўрнини эгаллай бошлади. Бундай ёндашишни педагог олимларимиздан М.Очилова, Н.Азизхўжаева, Н.Сайидаҳмедов, Ф.Юзликаевларнинг илмий ишларида ўз аксини топди [133; 47-б].

Демак, шахсга йўналтирилган ёндашишга мувофиқ таълим мазмуни моҳиятини аниқлашда асосий қадрият билим эмас, балки **одамнинг ўзи** ҳисобланади. Бундай ёндашув шахснинг таълим олиш, маънавий, маданий ва ҳаётий талаб-эҳтиёжларини қондириш, ривожланаётган шахсга нисбатан **самимий мулоқатида** бўлиши таълим мазмунини эркин танлаш имконини берди. Боланинг шахсиятини ҳар томонлама ривожлантириш, унинг **ўзига хослигини** ҳурмат қилиш, унинг мураккаб маънавий дунёсини тушуниш учун индивидуал ёндашувнинг аҳамияти ҳақида ушбу масала бўйича педагогларнинг илмий ишларида кўришимиз мумкин [122], [111], [35], [72].

Ҳозирги шароитда умумий ўрта таълим мактаблари учун таълим мазмунини ишлаб чиқишда **индивидуаллаштириш тамойиллари** етакчи ўрин тутди.

Адабиётлар


1.Байметов Б. "Қаламтасвир" Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – С. 312-316.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA «TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODLARI»

Termiz Davlat Pedagogika Instituti "tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"kafedrasi o'qituvchsi

**MO'MINOV BAXTIYOR KARAMATOVICH**

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar mukammal bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z tasavvurlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko'rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo'yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o'z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o'qituvchining bolalarga tez yordam ko'rsatishi va kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan

xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v. b.) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu hususiyatlari bolalar tafakkurining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

**Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak avvalo uning quyidagi to'rt turi qayd qilinishi lozim:**

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish-yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash).
4. Kompozitsion faoliyat.

**1. Borliqni idrok etish** mashg'ulotlari 1-4-sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar.

**Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi:**

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.
2. Borliq haqida o'qituvchining suhbati orqali o'rganish.
3. Savol-javob orqali o'rganish.

4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish.

5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish v.b.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim.Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muofiqdir.

**2. Badiiy qurish-yasash** mashg'ulotlarini boshlang'ich sinflarda o'tkazish rejalashtirilgan. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish uchun bolalarga turli-tuman tabiiy va badiiy materiallar zarur bo'lganligi sababli, o'qituvchi bu masalaga o'z e'tiborini ko'proq qaratishi kerak bo'ladi O'qituvchi barcha bolalarni bunday materiallar bilan ta'minlay olmagani taqdirda bu ishga o'quvchilarni jalb etishi zarur bo'ladi. Tabiiy va badiiy, tashlandiq materiallarni to'plash uchun sinfda maxsus joy ajratilgan bo'lishligi, uni bolalar ishtirokida to'lg'izib turilishi kerak bo'ladi.

Qurish - yasash mashg'ulotlariga xos bo'lgan bir muhim jihat shundaki, bunda o'qituvchi va bolalar amaliy ishlarning bir vaqtni o'zida bajaradilar. Ayrim mashg'ulotlarda (ko'pincha 3-4-sinflarda) amaliy ish uchun hamma tayyorgarlik ishlari tugangani va topshiriq barcha bolalar uchun tushunarli bo'lganidan so'ng asosiy ishga o'tiladi.

Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalarni faqat bir xil material yordamida ishlash bilan chegaralab qo'ymasligi lozim. Ular ham tabiiy, ham badiiy, ham tashlandiq materiallar bo'lishligi mumkin.

Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi tabiiy va tashlandiq materiallar yordamida hasharot, qush, hayvon, odam kabilarning shaklini ko'rsatishi muhimdir. Masalan, ildizda ilon, kaltakesak, ilon baliq, yong'oq po'chog'ida toshbaqa kosasi, tuxum po'chog'ida pingvin, jo'xori o'zagida hayvon tanasi shakllarini ko'rish mumkin.

Badiiy qurish-yasash ishlarida o'qituvchi materiallarning xususiyatlari (qattiq yumshoq, mo'rt, og'ir, yengil, yaltiroq, egiluvchan v.b.), ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lishlik haqida ham bolalarga yetarlicha va keng tushunchalar berishi kerak bo'ladi. Turli materiallardan yasalgan narsalarni to'plab, ularni bolalarga tez-tez namoyish etib turish, ularning ijodkorligini faollashtiradi, tabiiy va tashlandiq materiallardan samarali foydalanishga yo'naltiradi.

Mashg'ulotlarning samaradorligi bolalarni uyda, ko'chada, sayohat vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko'plab yig'ish hamda maktabga olib kelishga ham bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqda bolalarga ko'rsatma berishi, yangi bajarilgan orginal qurish-yasash ishlaridan ularga ko'rsatib turishi yaxshi natijalar beradi.

**3.Naturaga qarab tasvirlash** boshlang'ich sinflarda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U bolalarga rasm va haykal ishlashning elementar qonun-qoidalarini o'rgatadi.

**Naturaga qarab tasvirlash ikki qismdan tashkil topadi.**

1. Narsaning o'ziga qarab rasm ishlash.
2. Narsaga qarab haykal ishlash.

**Naturaga qarab rasm ishlash** bolalarning yoshlik xususiyatlarini hisobga olgan narsalarni o'ziga qarab rasmini ishlashni nazarda tutadi.Naturaga qarab rasm ishlash, naturani kuzatish, uning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlarini tahlil qilish, rasmlarni natura bilan solishtirish kabi metodlar asosida olib boriladi. Naturaning o'lchoviga qarab ularni chizish uchun yiriklarini sinfda 2-3 joyga, maydalarini har bir partaga bittadan qo'yib chiqish kerak bo'ladi. Mayda o'lchovdagi naturani, aytaylik bargni natura sifatida hamma joyda bir xil bo'lishi shart emas, ularni bolalarni rasm ishlash layoqatiga qarab har xil murakkablikdagisini qo'ysa bo'ladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda bolalarni bosqichlar asosida rasm ishlashga o'rgatish muhim. Bunda bolalar, birinchi galda rasmni o'lchov jihatidan to'g'ri belgilash, ikkinchidan rasmni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Keyinchalik naturaning tasvirini ishlashga o'tiladi. **Bunda rasm ishlashni ikki xil metodikasi qo'llaniladi:**



1). Naturani yordamchi chiziqlar asosida belgilab olib rasmini ishlash.

2). Naturani bir yo'la bo'laklar shaklining rasmini ishlashdan boshlanib, so'ngra ...ni umumlashtiriladi va bo'yaladi.

Naturaga qarab rasm ishlashda yordamchi chiziqlardan foydalanish bilan bir ...da o'q chiziq, simmetriya o'qidan foydalaniladi. Shunindek, narsalar tasvirini ...onta geometrik shaklga tushirib olib ham ishlanadi. Xususan, ninachi rasmini ...ilganda avval uning qanotlarini to'rtburchak shaklida, soatni aylana shaklida chizib ...inadi, keyinchalik uning tasvirini aniqlashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda rasm ishlash malakalarini hosil qilish ko'proq naturaga ...ab rasm ishlash bo'limiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham bunday ...g'ulotlarda o'quvchilarning o'quv qurollari (qalam, o'chirg'ich, bo'yoq, daftar ...) bilan to'g'ri munosabatda bo'lishga, ularni to'g'ri ishlatishga o'rgatish muhimdir. ...m ishlash malakalarini shakllantirish esa ma'lum tizimda amalga oshirilgani ma'qul. Ayniqsa, to'g'ri-tik, to'g'ri-yotiq, to'g'ri-og'ma, egri kabi chiziqlarni ...izdirish, ularni teng yoki teng bo'lmagan bo'laklarga bo'lishga o'rgatish ma'lum ...ma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, shakllar, bo'yoqlar bilan yuzani ...lam yoki bo'yoq bilan bir tekisda bo'yash yuzasidan bilim va malakalar hosil ...ishda ham shu tartibga rioya qilinadi.

Yana shuni ham qayd qilish lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining hali ...m ishlash layoqatlarining pastligini hisobga olib, ularga ortiqcha, murakkab ...zifalar berib bo'lmaydi. Narsalar rasmini ishlashda ularning hajmini yorug'-soya, ...rspektiva qoidalari asosida tasvirlash ham talab etilmaydi. Shuningdek, ular ...monidan chizilgan rasmga ortiqcha talablar ham qo'yib bo'lmaydi.

Yuqorida qayd qilinganidek, naturaga qarab tasvirlash, **naturaga qarab haykal ishlashni** ham nazarda tutiladi.

Bu mashg'ulotlarning yana o'ziga xos jihatlaridan biri bolalarda plastilin, loy, ... bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, loy (plastilinni) parchalarini o'zaro qo'shish ...qali haykal ishlash, shuningdek, birgina yirik loy bo'lagidan ortiqcha joylarini olib ...lash orqali haykal hosil qilish metodikasini to'g'ri o'zlashtirib olishga ...ratilganligidir. O'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarishda naturani barchaga

to'liq ko'rinishiga erishish muhimdir. Shuningdek, naturani bolalar ishtirokida savol-javob orqali tahlil qilish, u haqda to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan mayda haykalchalar yasashga oid ishlardan namunalar ko'chirtirish, bu san'at turining milliy badiiy an'analarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**4.Kompozitsion faoliyat** mashg'ulotlari boshlang'ich sinflarda rangtasvir kompozitsiyasi, dekorativ kompozitsiya va haykaltaroshlik kompozitsiyasi kabi qismlardan tashkil topadi.

**Rangtasvir kompozitsiyasi** mashg'ulotlarida bolalar ko'proq yil fasllari, bayramlar, ommaviy tomoshalar, qishloq va shahar mehnatkashlarining kundalik mehnati, qush va hayvonlar hayoti kabilarga doir mavzularda rasm ishlaydilar. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini bolalar rasmlarida aks etadigan g'oya, rasm mazmuni, rasm elementlarini qog'oz yuzasida kompozitsion jihatdan to'g'ri savodli qilib tasvirlanishiga qaratishi lozim. Boshlang'ich sinflarda tasvirlanayotgan jarayon yoki narsalarning hajmini yorug'-soya, perspektiva yordamida tasvirlash talab etilmaydi. Perspektiva qoidalariga rioya qilish talab etilmasada, biroq, yaqindagi narsalarni yirikroq, uzoqdagisini kichikroq tasvirlanishi lozim. Rangtasvir kompozitsiyasida tasvirlangan hayvonlar, qushlar, odamlar o'rtasidagi bir-birlari bilan bog'liqlikni, aloqadorlikni ham aks ettirish kerak bo'ladi. Kompozitsiyadagi barcha elementlar o'zaro bog'liqlikda tasvirlanishi shart. Bolalar rangtasvir kompozitsiyasini xarakterli xususiyatlaridan biri, ularning rasmlaridagi soddalik, jo'nlik, dunyoni o'zlaricha idrok etishlari va tasvirlashlari hisoblanadi. Ulardagi bu xususiyatlar bolalar rasmlarida saqlanishi lozim. O'qituvchining bu masaladagi asosiy vazifasi bolalarning ijodiy faolligini oshirishga, rasmdagi g'oyani to'liq ifodalay olishga, rasmni emotsional ta'sirini kuchaytirishga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda **dekorativ kompozitsiya** mashg'ulotlari naqsh ishlash, ertak va hikoyalar asosida illyustratsiyalar ishlash kabilarni nazarda tutadi. Bu borada naqsh ishlash mashg'ulotlari katta o'rinni egallaydi. Ayniqsa, yo'lsimon,



kvadrat, to'rtburchak, aylana shaklidagi naqsh namunalaridan ko'chirib o'rganishga, o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Bunda ko'proq naqsh kompozitsiyasi, rang, elementlarni to'g'ri tasvirlash, ularni ijodiy xarakterda bo'lishligiga, naqsh foni bilan uning elementlarining ranglari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, stilizatsiya masalalari o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi hisoblanadi.

Shuningdek, naqsh gulining nomlarini ham o'quvchilarga ko'rgazmali tarzda tushuntirib borish talab etiladi.

Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar yo'lsimon naqsh namunalaridan ko'chirsalar, keyingisida naqsh sxemalari va elementlari asosida, oxirida butunlay ijodiy naqsh chizadilar. Quyida kvadrat shaklidagi naqsh sxemasi va elementlari ko'rsatilgan.

Dekorativ kompozitsiya mashg'ulotlarida **illyustrativ rasm ishlashga** alohida e'tibor beriladi va u ertak, hikoya, masal, she'r kabi badiiy asarlar asosida amalga oshiriladi. Bunday mashg'ulotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Buning uchun avvalo bolalar yoshiga mos, qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy asar tanlash lozim. Qolaversa, asar mazmunini to'liq bolalar ongiga yetkazish, undagi eng qiziqarli joylarni topish, asar bilan bog'liq yoki unga yaqin illyustratsiyalarni bolalarga namoyish etish, ularni g'oya, mazmun, kompozitsiya, rang jihatidan tahlil qilish kerak bo'ladi.

Illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarida o'qituvchi o'z e'tiborini bolalar rasmlarini ijodiy xarakterda bo'lishiga, asardagi personajlarni obrazli, o'zlariga xos xarakterli holatda tasvirlanishiga, ularni va tevarak-atrofdagi boshqa tasviriy detallarni o'zaro aloqadorlikda tasvirlashlariga qaratishi lozim. Shuningdek, ular kompozitsiya qoidalariga rioya qilish, obraz va voqealarga mos ranglar tanlash, rasmda planlikni e'tibordan qochirmasliklari lozim. Imkoni boricha yaqindagi obraz va narsalarni yiroqroq, uzoqdagilarni kichikroq qilib tasvirlash lozimligini bolalar ongiga yetkazish va uni o'z rasmlariga tadbiq qilishlariga yordam berish muhim.

Illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarining yana bir muhim xususiyati bolalarda fantaziya, obrazli tasavvurlarni o'stirishga qaratilganligidir. Bu sifatlarni rivojlantirishga 3-4-sinflarda ko'proq e'tibor beriladi. Illyuyustrativ rasm ishlash,

asosan ertak, hikoya, masal kabi adabiy asarlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli bolalar asardagi hayvonlarni odamlar qiyofasida tasvirlashlariga ruxsat etiladi. Ular kiyimlar kiygan, odamlar yashaydigan uylarda yashayotgan, ular o'zaro gaplashayotgan va mehnat qilayotgan hollarda tasvirlanishi mumkin. Bu o'z o'rında bolalarni hayajonlantiradi, ijodiy ishlarini faollashtiradi.

Ma'lumki, illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlari odam, hayvon, qush va boshqa murakkab tuzilishdagi narsalarni tasvirlash bilan bog'liq. Ularni o'ziga o'xshatib savodli tasvirlash bolalarga ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuni hisobga olib bu materiallarga doir ko'rgazmali qurollarni (odam, hayvon, qush tasvirlangan) namoyish etish kerak bo'ladi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR


1.ORIPOV B.B., ABDULLAYEV O'.E. HAJMLI PREDMETLAR RASMINI NATURADAN TASVIRLASH DARSLARI O'QITISH METODIKASI MONOGRAFIYA Namangan - 2020

1. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom.-T., 2001.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., ≪Ilm-Ziyo≫,2006.
3. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san'at o`qitish metodikasi. -T., ≪Aloqachi≫, 2007.
4. Boymetov B.B., Abdirasilov S.F. Chizmatasvir. -T., ≪G`afur G`ulom≫, 2004.
5. Nabiyev M.N. Rangshunoslik. T., ≪ O`qituvchi≫, 1995
6. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. -T.: ≪Ilm-Ziyo≫, 2006.
7. Tasviriy sanat darsliklari. 1,2,3,4 - sinflar.
8. Hasanov R.X. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi.≪FAN≫, 2004.


## Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув амалиётидаги аҳволнинг тавсифи.


*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *мазкур мақолада тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув амалиётидаги аҳволнинг тавсифи ва ўқитувчилар маҳорати ҳақида сўз боради*

**Калит сўз:** *индивидуал, график билим педагогик технология*

Бизнинг бош мақсадимиз бўлган маданий ва маърифий йўналишлардаги ислоҳатларни амалга оширишда демократик, фуқаролик жамиятимизнинг таркибий усулларини ислоҳ этувчи эркин шахс тарбияси, унинг мустақил тафаккурини узлуксиз таълимнинг дастлабки босқичларидан шакллантириб бориш фуқаролик жамиятининг асосий талабларидан биридир. Бунга эришишнинг мазмуни эса фақатгина ҳалол меҳнат туфайли, урф-одатларимиз ҳамда қадриятларимизни англаган ҳолда амалга оширилади. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг “Биз фарзандларимизга билим ва касб чўққиларини забт этишлари учун канот беришимиз керак” деган қимматли сўзлари, ўқитувчиларга катта масъулиятни юклайди [68; 265-б.]. Шундай экан, ёшларимиз ўз ҳаётлари давомида илмга чанқоқ, меҳнатни доимий эҳтиёж билиб, яшайдиган комил инсон бўлиб етишсин.

Айнан, умумий ўрта таълим мактаблари тасвирий санъат дарслари доирасида бола дунёқараши, тафаккури ва бадиий эстетик диди шаклланади, ижтимоий тузумга онгли муносабати таркиб топишда кўмак бўлади. Шунингдек, ўқувчиларни график билим ва малакалар билан қуроллантиради. Янгиликка интилишга, яратувчанликка, ижодкорликка ўргатади. Демак, тасвирий санъат дарслари мазмунини чуқур ўзлаштириш учун мустақил тафаккурни шакллантирувчи омил деб қарашимиз лозим. Шу боисдан айтиш мумкинки, бу фан қайси мактабда яхши ўқитилмас экан, бу мактабда етук шахс камол топмайди. Шу ўринда Мамлакатимиз Президенти ҳам Ўзбекистоннинг келажаги учун етук шахс тайёрлаш мақсадида фанларни замон талаби даражасида ўқитиш зарурлигини таъкидлаган. Бунинг учун умумий ўрта таълим сифатини тубдан ошириш [2; 10-б.], ёш авлодга пухта таълим бериш [18; 14-б.] ҳар бир дарс соатларидан унумли фойдаланиш, дарсда самарадорликни ошириш чора-

тадбирларини излаб топиш бугунги ўрта таълим мактабларининг асосий вазифасига айланиб келмоқда [38]. Ушбу нуқтаи назардан ўқув жараёнида ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятини педагогик технология асосида ташкил этиш, нафақат ўқув жараёнининг самарадорлигини ошириш бўлиб қолмай, балки ижтимоий зарурият талабидан келиб чиққан ҳолда демократик, фуқаролик жамиятининг фаол иштирокчисини шакллантирувчи омил бўлиб хизмат қилади. Тасвирий санъат дарсларининг самарадорлигини ошириш, ўқувчиларни шу фанга қизиқтира олиш ҳар бир педагогнинг диққат эътиборида бўлиши лозим.

Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашиш бўйича шарт-шароитлар, дарс технологиялари, ўқитиш дидактикаси, методларини кузатиш, амалиётдаги ҳолатини ўрганиш, тажриба-синов дарсларида кўриб чиқиш ва тегишли илмий хулосалар чиқаришни амалга ошириш мақсадида Сирдарё вилояти Гулистон шаҳридаги 2-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчи Д.Берикбаева), 8-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчи С.Ҳамидова), Гулистон шаҳридаги 9-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчи З.Рашидова), 16-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчи Д.Хазраткулова) Мирзаобод тумани ХТБ га қарашли 1-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчиси Д.Абиева), 3-сонли умумий ўрта таълим мактаби (О.Умматова), 22-сонли умумий ўрта таълим мактаби (укитувчиси М Гаибназарова), 32-сонли умумий ўрта мактаби (ўқитувчиси Ш. Кенжаев) Жиззах вилояти Зомин тумани ХТБга қарашли 34-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчиси Б.Умирзоқов), Самарқанд вилояти Тойлоқ тумани ХТБга қарашли 25-сонли умумий ўрта таълим мактаби (ўқитувчиси Д.Тилобова) танлаб олиниб, уларда 2018-2019, 2019-2020 ўқув йилларида тасвирий санъат ўқув предметида ўқувчиларга индивидуал ёндашув ўрганилиб чиқилди.

Биз тажриба-синов ўтказган мактабларимизда тасвирий санъат ва бошланғич синф ўқитувчиларнинг ўқувчиларга индивидуал ёндашув бўйича олиб бораётган фаолиятини кузатиб бордик. Кузатишларимиз давомида биз нафақат ўқувчиларнинг тасвирий санъат дарсларини ўзлаштириш даражаси,

...ники дарсдан ташқари тўгаракка аъзолиги, жамоат ишларида, вилоят ва ...миналарда 5 ташаббус бўйича ўтказилган тадбирларда, курик-танловларда, ...свирий санъатга оид китобларни мустакил мутолаа қилиши, бадиий кечаларда ...иштирок этиши бадиий ва санъат мактабларида ўқиши, тасвирий санъатдан ...тюдлар ишлашига кизиқиши борлигини ҳам кузатдик.

Кўп синфларда ўқитувчи ва ўқувчилараро муносабатлар дўстона ҳамкорлик ...асида амалга оширилиб борилди. Ўқитувчининг муомаласи, ўқувчиларга ...урмати, ўзини тута билиши, унинг шахси ва маънавий қиёфаси дарс ...амарадорлигининг муҳим омили эканлиги аён бўлди. Ҳатто, ўқитувчининг ...ийинишига, юриш-туришига, нутқига тақлид қилувчилар ҳам учради. Ҳар бир ...қувчи устозининг ҳурматини жойига қўйиб, ўзлари ҳам уларнинг ҳурматига ...лойиқ бўлишга интилиши сезилиб турди. Бу ҳол ўқувчиларнинг мактаб ...дарсларига муносабати яхшилигидан далолат эди.

Айни вақтда, айрим дарсларда ўзларига нисбатан яхши кўрмайдиган ўқитувчиларнинг машғулотлари жараёнида, ўқувчилардаги зерикиш, ...этиборсизлик, лоқайдлик каби ҳолатлар ҳам кузатилди. Бундай ўқувчиларда ўқитувчини, машғулотини тинглашга хоҳиш-истаги йўқлиги сезилиб турди. Ўқувчилар устозни аввало унинг касбий маҳорати, билимдонлиги, эзгу фазилатлари туфайли севиши мумкинлиги равшанлашди.

**Адабиётлар**


1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-кисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN

COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.

## *Болаларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини тасвирий санъат асарлари орқали аниқлаш*

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *мазкур мақолада болаларнинг индивидуал-психологик хусусиятларини тасвирий санъат асарлари орқали аниқлаш ҳақида сўз боради*

**Калит сўз:** *темперамент. тасвирий санъат педагогик технология*

Тасвирий санъат ўқитувчиси, ўқувчиларнинг характери, темпераменти, ҳулқ-атвори, яъни типлари ҳақида маълум тушунчага эга бўлиши керак.

**Характер** (грекча charakter – босиш, зарб қилиш) – инсоннинг фаолияти ва муносабати туфайли шаклланадиган ва намоён бўладиган барқарор индивидуал хусусиятлари йиғиндиси бўлиб, унга хос бўлган ҳулқ-атвор ва ҳаётий ҳолатларга жавоб бериш усулларини белгилайди. Характерда инсон учун хос бўлган,

[illegible] вазиятларда қўлланиладиган, ҳаётий вазифаларни қўйиш ва ечиш усуллари ўз ифодасини топади. Бунда **олий нерв фаолияти ва темпераментлар [illegible] катта ўринни эгаллайди**. Павлов И.П. нерв системасининг асосий 3 та хусусиятини ажратди: куч, кўзғалувчанлик, барқарорлик [104; 75-84-б.]. Олий нерв фаолиятининг муайян хусусиятлар комбинациясининг тури бўлиб, уларнинг ҳар бири темперамент турига боғлиқ:**Куч, мувозанат, инерт. Флегматик.** Уни шошилмаслиги ва хотиржамлигидан фарқ қилиш мумкин. У материални қанчалик яхши билишига қарамай, саволларга дарҳол, жонли қилиб жавоб бермайди. Унга чарчамаслик хосдир: қўшимча ақлий иш бажаришдан чарчамайди ва қанча шуғулланишига тўғри келмасин, чарчаганини кўра олмайсиз. У мантиқан кенг, узундан-узоқ фикрларга интилади: гўё узундан-узоқ гапнинг бошида бошланган фикр качон ва қай тарзда тугашини билган ҳолда сўзларни бир маромда, тутилиб қолишдан кўркмай баён қилади. Расм чизишда ёки ҳайкал ясашда, у тўлқинланмайди ва синфда нима юз берса ҳам дарсда ҳеч [illegible]ланмайди. Қуйи синфларданоқ у математика ва тасвирий санъат билан шуғулланишни яхши кўради. У кўпчилик иштирокчилардан фарқли уларок, бирор-бир қизиқиш ёки ҳаяжонланиш сезмаган ҳолда тасвирий санъат бўйича тадбирларда иштирок этади. У на беҳаловат, на хурсанд бўлмайди, уни кайфияти бузуқ ҳолида ҳам кўриш мумкин эмас.

1. **Куч, мувозанат, ҳаракат. Сангвиник.** Жуда жонли, тиниб-тинчимас ўспирин. Синфда бир дақиқа ҳам жим ўтирмайди, ҳамиша афт-ангорини ўзгартиради, қўлида уни - буни айлантиради, қўлини узатади, қўшниси билан гаплашади. Сакраб-сакраб тез юради, нутқнинг суръати ҳам жуда тез. Жуда таъсирчан ва тез қизиқади. Чизиб келган расмлари тўғрисида қизиқиш ва [illegible] билан гапиради. Шу билан бирга унинг қизиқишлари жуда ҳам турғун ва барқарор эмас: янги ишга қизиқиб киришса-да, унга нисбатан ихлоси дарров сўнади. Юзлари жонли, ҳаракатчан, ифодалидир. Унинг юзларидан кайфияти қандайлигини, предметга ёки кишига нисбатан муносабатини осонгина сезиб олса бўлади. Ўзи учун қизиқарли дарсларда зўр иш қобилиятга эга эканлигини

кўрсатади. “Қизиқарли бўлмаган” дарсларда эса у ўқитувчини деярли эшитмайди, қўшнилари билан гаплашади, эснаб ўтиради. Унинг ҳиссиётлари ва кайфиятлари жуда ҳам ўзгарувчандир. “Икки” баҳо олса йиғлаб юборишга ҳам тайёр, лекин ўзини зўр-базўр тўхтатиб туради. Аммо ярим соат ҳам ўтмайдики, у ёмон баҳо олганини мутлақо унутиб, коридорда қизғин ва хушчақчақ ҳолда елиб-югуради. Тиниб-тинчимаслиги ва жонсараклигига қарамай, уни осонгина тартибга чақириш мумкин: тажрибали ўқитувчиларнинг дарсларида яхши ўтиради ва янги талабга тезда кўникади. Мактабда янги ўқитувчиларга тез кўникади, болалар билан тез тил топишади, кўплари билан дўстлашади, синф фаолларига қўшилади.

2. **Куч, мувозанатсизлик. Холерик.** Синфдошлари орасида ўзининг жўшқинлиги билан ажралиб туради. Ўқитувчининг ҳикоясига қизиқиб кетиб, осонгина қўзғалиш ҳолатига киради ва ўқитувчи ҳикоясини турли хил ҳаяжонланиш билан бўлиб туради. Ўқитувчининг истаган саволига ўйланмасдан жавоб қайтаришга тайёр ва шунинг учун кўпинча пойинтар-сойинтар жавоб беради. Аламидан ва ғазаби қўзғаганидан осонгина жаҳли чиқади ва уришишга отланади. Ўқитувчининг тушунтиришларини жуда диққат билан, ҳеч нарсага чалғимасдан эшитади. Синф ва уй ишларини ҳам худди шундай диққат билан бажаради. Танаффус пайтларида ҳеч қачон жойида ўтирмайди, коридор бўйлаб югуриб юради ёки ким биландир олишаётган бўлади. Қаттиқ, тез гапиради. Тез, катта-катта қилиб ёзади, дастхати бир текис эмас. Юзи жуда ифодали. Ижтимоий топшириқларни бажаришда, шунингдек тасвирий санъат дарсларида қизиқиш ва қатъийлик кўрсатади. Расмларни тез чизади. Тез ўрганади. Унинг қизиқишлари анча доимий ва барқарор. Пайдо бўлаётган қийинчиликлар олдида ўзини йўқотиб қўймайди, аксинча уларни зўр ҳафсала билан бартараф этади.

3. **Заифлик, Меланхолик.** Дарсларда хотиржам, ҳамиша битта ҳолатда ўтиради, қўлида бирон нарсани айлантираётган бўлади, кайфияти жуда ҳам арзимас сабабларга кўра ўзгаради. У ўтакетган даражада ҳиссиётли. Ўқитувчи уни бир партадан иккинчисига ўтказганда, у хафа бўлади, нима учун уни кўчирганлари сабабини узоқ мулоҳаза қилади ва ўша куни барча дарсларда

ıли ғаш ва ғамгин ўтиради. Шу билан бирга унинг ҳис-туйғулари ҳам секин оиади. Тасвирий санъатдан репродукциялар намойиш этилганида у узоқ вақт ıмай, юзлари ҳаракатсиз ўтиради, сўнг аста-секин "эрий бошлайди"-ıмаяди, кула бошлайди, қўшнилари билан суҳбатга аралашади. Тезда ўзини ютиб қўяди. Ўқитувчи унга энг кичик танбеҳ берди дегунча, бола уялиб іди, унинг овози бўғиқ ва секин бўлиб қолади. Туйғуларини ифода этишда ди ҳам вазмин. "Икки" баҳо олса ҳам, юзи бирон даражада ўзгармасдан йига бориб ўтиради, лекин уйида, ота-оналарининг сўзлари бўйича, узоқ вақт ши боса олмайди, ишга киришадиган ҳолатда эмас. Дарсда ишончсизлик ıан, ҳатто дарсга астойдил тайёрланган бўлса ҳам, тутилиб-тутилиб жавоб ıди.

Фойдаланидган адабиётлар

1 Байметов Б. "Қаламтасвир", Дарслик 1-қисм.- Тошкент. Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин B.C. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин B.C. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR ıE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN )MPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS ℩niversum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF UDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT IGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-20. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – C. 166-168.

8. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

## RANGTASVIRNING QISQACHA RIVOJLANISH TARIXI

**Termiz davlat pedagogika instituti**
**"Taviriy sa'nat va muhandislik grafikasi"**
**kafedrasi o'qituvchisi**
**Mamatqulov Ilhomjon Chorshanbayevich**

**Rangtasvir** – tasviriy san`at turlaridan biri bo'lib, unda rang muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvirga qattiq tekislik yuzasiga bo'yoqlar orqali tushirilgan san'at asarlari kiradi.Rangtasvir hayotni jonli, ya'ni borliqni to'liq va ishonarli tarzda tasvirlanishini bildiradi.Rangtasvir amaliy xususiyatlariga ko'ra mahobatli, dastgohli, miniatyura, teatr- dekoratsiyasi, bezakli naqqoshlik kabi turlarga bo'linadi.Ularning har bir turi ishlash texnikasi va badiiy obrazning bajarilish vazifasiga ko'ra o'z xususiyatiga bo'lib holda farqlanadi. Rassomlar asarni tasviriy va plastik vositalar (qalamtasvir va kompozitsiya) yordamida yaratishsa, asosiy ifodaliligini ko'rsatuvchl vosita esa rang hisoblanadi.Rangtasvir inson hissiyotining murakkab hayotini ko'rsatishga, tabiatdagi nozik o'zgarishlarni tasvirlashga, boqiy falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni yaratishga qodir.Rangtasvir tarixi ibtidoiy odamlarning g'orlardagi devor tasvirlaridan boshlanadi.




1.


2.

1. Devoriy rangtasvir. Yaralangan bizon va o'lgan ovchi. Lasko g'orlari, Fransiya. Paleolitning so'nggi davri. 2. Devoriy rangtasvir. Ovchilar guruhi. Valtorta darasi. Ispaniya. Mezolit.


3.


4.

3. Samarqanddagi Afrosiyob devorlaridagi rasmlar. 4. Rafael. Bog'bon go'zali.

Uning rivojlanish taraqqiyotida juda katta ma'naviy boyliklar yig'ilgan. O'rta Osiyodan topilgan devoriy rangtasvirlar miloddan avvalgi VII-V asrlarga oid bo'lib, bu vaqtning o'zida o'sha davr hayoti tasviri aks etgan rangtasvir namunasi ham muqaddas milliy iftixor hisoblanadi. Ranglar shartli va dekorativ tarzda bezatilgan. Uyg'onish davriga kelib, inson rangtasvir asarlarida asosiy qahramon sifatida namoyon bo'ldi. Madonnalarni tasvirlash barkamollikning yuksak ideali hisoblangan. Rassomlar baqqoniy kartinalar yaratishni boshladilar. Rangtasvir texnikasi doim takomillashib bordi. Rangtasvirchilarni rang-barang sujetlar qiziqtira boshladi. Buning natijasida XVII asrda yangi janrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Eng qadimiy janrlardan biri bu portret hisoblangan. Mum rangtasvir texnikasida bajarilgan ajoyib portretlar Fayyum qishloq joyidan topilgan. Ular Qadimgi Misrda

eramizdan oldin I-III asrlarda yaratilgan. Fayyum portretlari aniq hayotiy obrazliligi shaklning hajmli yorug'-soyali tasvirlanishi bilan farqlidir.


5.


6.

5. Oltin tojdagi yigit portreti. 6. N.Feshin. Krotova ayolining portreti.


7.


8.

7. V.Serov. Quyosh nuri tushgan qiz. 8. R.Ahmedov. Ona o'ylari.

F. Rokotov, D. Levitskiy, V. Borovikovskiy, N.Feshin, V. Serov va boshqalar ajoyib rus portretchilari hisoblangan. Buyumlarning o'ziga xos portretlarini, ularning tinch hayotini rassomlar natyurmort orqali tasvirlashgan. Bu janr XVII asrda paydo bo'ldi. Taniqli golland natyurmortchilarining ijodiy asarlarini kuzatganda ularning naqadar jonli va jozibali tasvirlanishiga tasannolar aytasan.





10.

9. Piter Klas. Nahorlik. Gollandiya. 10. N.Oripova. Oq ro'molli natyurmort.



11.



12.

11. K.Koro. Nantedagi ko'prik. 12. Van Gog. Bug'doyzor va kiparislar.

P. Konchalovskiy, I. Mashkov, K. Petrov-Vodkin, M. Saryan va boshqalar ham natyurmort ustalari bo'lgan. Bu o'rinda O'zbekistonda ham portret va natyurmort janrlari bo'yicha rassom-ustalarni eslash joizdir. Bular: S.Kolibanov, N.Kashina, E.Kovalevskaya, Y.Yelizarov va R.Ahmedovdir.

Kartinalardagi tabiat manzaralari tasviri XVII asrda Gollandiyada yaratila boshlandi. Manzara janri nafaqat yilning turli iqlim sharoiti, quyoshli va tunli go'zalligini, balki turli vaqtdagi tabiatning go'zalligi va uning rang-barangligini aks ettiradi. K. Koro, Van Gog, P. Sezannlarning yaratgan manzaralarini bir-biriga taqqoslab ko'rsangiz, ularning har birida haqiqiy tabiatni ko'rasiz, ya'ni har bir ijodkor o'zining his-tuyusi bilan obrazlarni jonli yaratadi. Musavvir doim naturani ko'chirmaydi, balki asarda o'zining ichki kayfiyatini ranglar vositasida tasvirlaydi. Rus tabiatining qo'shiqchisi I. Levitan hisoblansa, O'zbekiston tabiatining ijrochisi O'.

Tansiqboyevdir. Ajoyib rus manzarachi rassomlari F. Vasilyev, V. Polenov, A. Savrasov, I. Shishkin va boshqalar bilan bir qatorda, I. Haydarov, R.Ahmedov, A.Nu A.Mo'minov, .Abdurahmanovlar ham betakror asarlar yarata oldilar.

13.  14. 

13. F.Vasilyev. Ho'l ko'kalamzor. 14. O'.Tansiqboyev. Oqshom pallasi.

Rassom faqat dengiz manzaralarini tasvirlasa, ularni marinachi rassomlar de atashadi, u ham alohida mustaqil janr hisoblanadi. I. Ayvazovskiy yaratgan kartinalar shular jumlasidandir.

Ayrim rassomlar o'zining ijodini hayvon va qushlarning tasviriga bag'ishlab animalistik janrdagi asarlarni yaratadi. Masalan, A.Laptev, V.Vatagin, E.Charushinlarni ko'rsatish mumkin.

O'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, yashab ijod etgan shaxslar rassomlarni tarixiy janrda kartina yaratishga undaydi – bu esa, ko'p figurali kompozitsiya, haqiqiy rang yechimiga ega bo'lgan asarni talab qiladi. V.Surikov, S.Abdullayev, M.Nabiyev va boshqalar ijodi bevosita tarixiy janrga boliqdir.



15. A.Aliqulov. Amir Temur dunyo tarixida. Mahobatli rangtasvir.

16. 

17. 

16. S.Abdullayev. Mezbon. 17. Z.Faxriddinov. Sarbadorlar.

Insonlarning kundalik turmushda bajarayotgan ishlarining kartinalarda tasvirlanishi maishiy janr asari hisoblanadi. Bu mavzuda A.Venetsianov, P.Fedotov, V.Perov, G.Myasoyedov, B.Kustodiyev, shuningdek, Z.Inoomov, R.Ahmedov, M.Abdurahmanov, A.Mirzayev, A.Abdullayev va boshqalar samarali ijod qilganlar.

18. 

19. 

18. M.Nabiyev. Abu Bakr ar-Roziy.    19. O.Tatevosyan. Qariyalar.

20.  21. 

20. Z.Inoomov. Yig'im payti.    21. R.Ahmedov Qo'shiq.

22. 

**22. N.Kashina. Yoz ne'matlari.**

Rassom rangni turlicha qabul qilish mumkin, rang bilan fikrlash va loyihalash ham mumkin. Rangshunoslik asoslari, «rang» bilan «bo'yoq» tushunchalarining farqini o'rganish lozim. Rangtasvirda kerak bo'lgan rangni, palitrada bo'yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Rassom bo'yoqlardan ranglar majmuasini hosil qilib asar yaratadi. Birgina «rang» so'zining o'zi bitta bo'lsa ham, rangtasvir jarayonining ko'pgina sifatini belgilaydi, shuning uchun rang san'at turining asosi hisoblanadi.

Tasavvur qiling, barcha ranglar atrof hayotimizdan yo'qolib ketsa, unda biz faqat [illegible] kul rangni ko'ramiz. Qandaydir ma'yus, bir xillik va odatlanmagan surat hosil bo'ladi. Demak, rang bizning hayotimizda muhim o'rinni egallaydi.

Har bir buyum o'z rangiga ega. Ayrim obyektlarni rang orqali idrok etamiz. Masalan, uchta dumaloq shakl va o'lchami bo'yicha ham bir xil obyektni olamiz. Ularni tegishli ranglarga bo'yab, xohlasangiz zarg'aldoq apelsin, qizil pomidor yoki [illegible] olmaga aylantirish mumkin.



23.

23. V.Serov. Shaftoli bilan qiz. Fragmentlar.

Rang orqali mevalarning pishganini yoki kuzning kirib kelishini bilish mumkin, chunki yashil rangdagi daraxtlar sarg'ayib, qizaradi. Keyin havo olisdagi o'rmon yoki tollarni turlicha rangda ko'rsatadi, u esa kenglikda turgan joyni aniqlashda yordam beradi. Kunning turli vaqtida yorug'lik rangiga bog'liq holda osmon, yer va suvning rangdorligi o'zgaradi.



**24. Uchta dumaloq obyekt.**

Tong yorishgan yoki qosh qoraygan paytda yashil rang ancha yorqin tuyuladi. Qorong'i tushishi bilan qizil, siyoh ranglar to'qlashadi, yashil, ko'k ranglar esa ocharadi.

Dunyoning barcha go'zalligini, shakl va material, kenglik va yorug'likni ranglarning turli-tumanligi orqali ko'ramiz.

Har doim yilning turli fasllaridagi jonli tabiatning rang-barangligi bizlarni o'zgacha quvontiradi. Har bir yil fasllariga taa'lluqli bo'yoqlarning aralashgan palitrasi mavjud. Sizlar o'z tanlovingizni bahorgi nozik va yozgi tiniq bo'yoqlari, yorqin kuzgi va qishki xiralashgan tuslariga qaratishingiz mumkin. Albatta, ijodiy ishlarda ranglarning monandlik prinsiplariga asoslarning, o'shanda bajarilgan suratlar haqiqatdan ham jozibali chiqadi.





25 26

25-26 rasm. Yorug'lik rangiga boliq holda osmon, yer va suv rangdorligining o'zgarishi.

**Yoz.** Yozgi bo'yoqlar tiniq, ravshan va jozibalidir. Palitrasi o'tsimon yashil, qizil(alvon), malina rangi, ko'k, to'q-sariq va zarg'aldoq ranglardan iborat. Har bir asosiy ranglarga turli murakkab nozik rang turlaridan jozibali gammasi tuziladi.



27. Yil fasllari.

**Bahor.** Bahor tabiati nozik, juda ham yorqin bo'lmagan ranglardan hosil bo'ladi. Shuning uchun bahorgi palitra yumshoq pastel tuslaridan: kremli, pushti rang, o'rik rangi, havorang, och-sariq va oxradan iborat bo'ladi. Kontrast uchun – yashil o't rangi, to'q nori-qizil va xiralashgan jigarranglar qatnashadi.

**Kuz.** Kuzgi palitrani iliq, asosiy tusli bo'yoqlar tashkil qiladi, go'yoki yorulik nurini tarqatayotgandek. Ko'k va zaraldoq, sariq va siyohrang, qizil va sariq kontrast ranglardan tuzilgan kompozitsiya, shuningdek, to'q qizil – jigarrang, to'q qizil va siyohranglar och oxra tuslari bilan aralashmasida ham yorqin, ko'rinarli va samarali bo'ladi. Asosiy ranglar gammasini ignabargning yashil rangi to'ldirishi mumkin.

**Qish.** Qish palitrasi uchun och havo rang, siyohrang, muzning yaltiragan ko'kimtir tusi, oq va qora ranglarning kontrastidagi ranglar tashkil etadi. Odatda, kompozitsiyalar toza, ochiq-oydin, aniq, lo'nda-ixcham bo'ladi. Qishning romantik

ko'rinishlari neytral, nozik kulranglar bilan muvaffaqiyatli birikuv orqali noan ranglarni yaratishga yordam beradi.

Yaponiyada, masalan, «Kabuki ranglari» – qarag'ay ignasining to'q yashil rangi, tolarning jigarrangi, sakuraning pushti rangi hisoblanadi – arb ranglari bilan solishtirganda yorqin emasdek tuyuladi. Biroq bir-biri bilan aralashtirilganda Yaponiyaning o'ziga xos boy jozibali ranglari hosil bo'ladi, arbning standartiga ko'ra bu ranglar hamohang emas (uyg'unlashmaydi).

Ranglar insonni nafaqat xursand qiladi, ayrim holda azablantirishi (achchiqlanish), tashvish solishi (vahima), qo'msashi (soinish) yoki xafalik (qayg'u) keltirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, rang emotsional ta'sir etadi.



28



29

28. Kabuki teatrining aktrisasi. Gravyura. 29. Yapon manzarasi.

Ayrim ranglar asab sistemasini tinchlantirsa, boshqalari, aksincha, g'azablantiradi. Tinchlantiruvchi ranglarga yashil, havorang, ko'k kirsa, qirmizi, qizil, zarg'aldoq, sariq ranglar to'lqinlantiruvchi hisoblanadi.

Odamlar qadimdan ranglarga alohida ahamiyat berishgan. O'rta asrlarda qirmizi ranglar – kuch, qudrat, qadr-qimmatni; lojuvard(havorang) rang esa – go'zallik, uluvorlik, muloyimlikni; qora-qizil rang bilan aralashmasi – o'lim va h.k.ni bildirgan.

Marosim va to'y-shodiyonalikdagi ranglar katta ahamiyatga ega. Masalan, qizil rang – tantanavorlik, ulug'vorlikni; qora esa – kulfat, o'lim, qayuni; oq esa – tozalik, aybsizlikni; yashil esa – umidvorlikni va shu kabilarni anglatgan. Qizii shundaki, turli xalqlarda bir xil rang turli ramziy ahamiyatga egadir. Masalan, Xitoyda va ayrim Osiyo



...Afrika mamlakatlarida oq rang motam rangi hisoblanadi. Slavyan xalqlari esa ...larga oq kiyim kiydirishgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Abdullayev N. "San'at tarixi". -T.:, "San'at", 2001-y.
2. Egamov A. "Rangtasvir". -T.: "San'at", 2003-y.
3. Qanoatov T. "Rangtasvir". -T.: "San'at", 2003-y.
4. Mirqobilov A. "Rangtasvir". -T.: "San'at", 2003-y.
5. Abdirasilov S. "Tasviriy san'at atamalari". -T.: "San'at", 2003-y.
6. Hoymetov B. va boshqalar. "Chizmatasvir". -T.: "G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2004-y.
7. Egamov A. "Rangtasvir". -T.:, "San'at", 2004-y.
8. Egamov A. "Kompozitsiya asoslari". T.: "San'at", 2005-y.
9. Abdirasilov S. va boshqalar. "Rangtasvir". -T.: "O'zbekiston", 2006-y.
10. Munov O. "Rangtasvir". -T.: "Sharq", 2007-y.
11. Oripova N. "Moybo'yoqda portret ishlash". -T.: "San'at", 2010-y.
12. Bulatov S. "Rangshunoslik". -T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2009-y.


## O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATINING HOZIRGI KUNDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

***Safarova Saodat Tursunbayevna*** *(TerDU "Milliy libos va san'at" fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi)*

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, ijod, mustaqillik, talim, ma'naviyat.

**Annatatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Tasviriy san'atining hozirgi kunda tutgan o'rni va ahamiyati rivojlanish tamoyillari haqida bayon etilgan.

"Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" O'zbekiston Respublikasi prizidenti SH.Mirziyoyev

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab barcha

sohalarda, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish borasida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san'atning ahamiyatiga katta e'tibor qaratildi.

San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri — tasviriy san'atdir. San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi. Rassom biror shaxs rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatish bilan chegaralanmaydi, balki tasvir orqali, avvalo, o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. U dastlab g'oyaga mos mavzu tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lda izlanadi, naturani kuzatib eskizlar chizadi hamda etyudlar yaratadi.

Tasviriy san'atda predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda tasvirni aniq ishlash juda muhim. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamni boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Pedagogika kollejlarida ta'lim oluvchi talabalarning tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rang sezishi va tasavvurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaratgan asarlar go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi. Ma'lumki, tasviriy san'at nazariyasini chuqur tushunish va bilish talaba-yoshlarning tasviriy san'at sohasida amaliy ishlashlari uchun zamin tayyorlaydi. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi, - deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa, rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi»[2. 8.]



Yoshlarni baddiy jihatdan barkamol bo'lib vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyaga etkazishda tasviriy san'atning o'rni beqoyosdir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar mamlakatimizni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Vatanimizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san''ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atni o'qitish borasida ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilarga ham yetkaza olishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televidenie, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomchilik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni halqning ehtiyojlari, zamon talablari asosida kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur. Bunda esa albatta san'at xususan tasviriy san'atga kuchli e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki sport san'at bu davlatni shon shuhratini nufuzini ko'tarib dunyoga tez tanita olish uchun asosiy yo'llardan biridir.

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki barcha fanlar tizimi doirasida, shuningdek, umum ta'lim maktablarining barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim.

Xususan, tasviriy san'atnı o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkaning boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat. Tasviriy san'atdan yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabalarning har tomonlama mahoratli rassom-pedagoglar darajasiga erishuvini ta'minlashni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Albatta, bu borada tasviriy san'atning barcha tur mashg'ulotlari qatori "Tasviriy san'at" darslariningining ham alohida ahamiyati bor.

O'qituvchilarning umum ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslarida o'tiladigan mashg'ulotlarni hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha pedagogik texnologiyalar asosida o'tishi yangi metidik uslublarini ishlab chiqishi, va uni amaliy mashg'ulotni bajarishda yanada mustahkamlanishi ayniqsa hozirgi kunda yurtboshimiz Shavkat mirziyoyev tomonidan qaratilgan yuksak e'tiborning nechog'lik to'g'ri ekanini isbotlab ijobiy natija bermoqda. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Ayniqsa, tarixiy janrdagi san'at asarlarini tomosha qilganda o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsalar, kishilar hayoti, mehnat va jang qurollari, ularning kiyimlari, urf-odatlari bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar.

San'at asarlaridagi xunuk voqealar, harakatlarni ko'rish orqali ulardan jirkanadilar. Ta'lim va tarbiya mamlakat samaradorligi hamda raqobatdoshligining omillarining muhim omillaridandir.

Ishonchimiz komilki, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar O'zbekistonning eng ilg'or mamlakatlar qatorida joy olishiga zamin yaratadi. Shunday ekan biz ijodkorlar ayniqsa yosh ijodkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli mazmunli va albatta maqsadda foydalanishimiz lozimdir. Yurtimizda yaratilgan shunday imkoniyatlardan har bir kishi unumli foydalanib ijobiy natija bilan javob qaytaraolsa yurtimiz san'ati yanada yuksalaveradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**


1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." - Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
2. N.Tolipov "Rangtasvir asoslari". Toshkent-2002
3. San'at jurnali., 2010, Toshkent "Niso poligraf" nashr. 3 son.


## Тасвирий санъатдан ўкувчиларни гурухларга ажратиш юзасидан ўтказиладиган психологик-педагогик ташхис


*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352



**Аннотатсия:** *Тасвирий санъатдан ўқувчиларни гуруҳларга ажратиш юзасидан ўтказиладиган психологик-педагогик ташхис ҳақида сўз боради*



**Калит сўз:** *идрок, диққат, хотира, тафаккур, хаёл*


Бугунги кунда умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятлари ва ақлий ривожланишини билиш, қобилиятини аниқлаш, шунингдек таълим жараёнида "Муваффақият қозониш" холатини ҳосил қилишда замонавий психодиагностик методларидан фойдаланиш долзарб масалалардан биридир. Бола шахсининг гуруҳли ва жамоавий муҳитда шаклланишида ўқув жараёнида вужудга келадиган муносабатлар, индивидуал ёндашувни амалга ошириш учун тасвирий санъат ўқитувчиси учун бундай билим ва кўникмалар мутлақо зарурдир. Албатта, психодиагностик ёрдамни мактаб психологидан ҳам олиш мумкин, лекин олиб борилгаи тадқиқотларимиздан шу

ҳолатлар маълум бўлдики, мактаб психологлари томонидан олиб борилга[illegible] ташхислаш методларида тасвирий санъат юзасидан болаларни[illegible] қобилиятларини аниқлашда етарлича ташхислаш ишлари олиб борилмаг[illegible]. Шунинг учун педагогик жараённи психологик баҳолашда тасвирий санъат фа[illegible] ўқитувчиси олиб борса самара натижаси юқорироқ бўлади.

Маълумки, индивидуал ёндашув деганда синф ўқувчиларини ўқу[illegible] имкониятларига кўра ва учдан ортиқ гуруҳларга ажратган ҳолда таълим бери[illegible] услублари мажмуаси тушунилади. "Табақалаштирилган таълимнинг ўзига х[illegible] мураккаб муаммоларидан бири педагогик-психологик ташхис масаласиди[illegible]. Дарҳақиқат, айнан психологик-педагогик ташхисни тўғри амалга ошири[illegible] орқалигина синф ўқувчиларини уларнинг имкониятларига кўра тўғ[illegible] тақсимлаш, гуруҳларга ажратиш мумкин ва бу табақалаштирилган таълимни[illegible] деярли энг асосий, энг оғир ва муаммоларга бой томонини ташкил қилади" де[illegible] таъкидлайди доц. К.Б. Қодиров [143; 3-б.].

Умуман, тасвирий санъатдан таълим жараёнида педагогик ва психологи[illegible] ташхиснинг кенг кўламда жорий этилиши тасвирий санъат таълим[illegible] самарадорлигини оширишда катта аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчининг ўзлаштири[illegible] даражасини кузатиш, ўзлаштириш динамикасини назорат қилишда жуд[illegible] фойдали эканлиги сир эмас.

Таъкидлаш жоизки, индивидуал таълимда педагогик ва психологик ташхи[illegible] амалиёти узвий боғлиқ ҳолда, яхлит равишда, биргаликда олиб бориши зару[illegible] акс ҳолда ташхис натижаларида номутаносибликлар, зиддиятли ҳолатла[illegible] тушунмовчиликлар вужудга келиши мумкин. Ёшларнинг қизиқиш ва майллари[illegible] хиссий ва иродавий хислатлари, характери, мижозий хусусиятлари, били[illegible] жараёнлари [идрок, диққат, хотира, тафаккур, хаёл, нутқни тадқиқ этиш[illegible] қаратилган юзлаб психодиогностик (*Психодиагностика* (грекча psyche – руҳ [illegible] diagnostikos – билишга кодир) – психологик фан соҳаси бўлиб, шахсни[illegible] индивидуал – психик хусусиятларини ўлчаш ва аниқлаш усулларини ишла[illegible] чиқади) методикаларни санаб ўтиш қийин эмас [97; 4-б.].

Мактаб ўқувчилари ўқув фаолиятининг муваффақияти уларнинг имкониятларига, лаёқатларига, қизиқиш ва майлларига, хиссий оламига, шахсий хислатларига, характер хусусиятлари ва мижозларига, билиш фаолиятларига, шу жумладан диққат, хотира, тафаккур, хаёл жараёнларига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Бироқ биз психологик хусусиятларнинг ҳар бирини алоҳида тадқиқ қилишга ёки ташхис этишга уринадиган бўлсак, ўқувчининг ўқув фаолиятига катта зиён етказган ҳолда сурункали, зерикарли бир психологик жараёнга айлантириб қўйишимиз мумкин. Қолаверса, пировард натижада бундай ашаддий «ташхисбозликдан» на ўқувчилар ва на ўқитувчилар манфаат кўрмайдилар, балки бу таълим жараёнига халақит бериб, ўқитувчи ва ўқувчи вақтини ўқув предметларини ўзлаштириш билан эмас, ташхис натижалари билан банд бўлиб қолиши мумкин.

Тасвирий санъатда педагогик-психологик ташхиснинг тутган муҳим ўрни шундаки, ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусияти ҳисобга олинган ҳолда, унинг билим, эхтиёжига мос таълим мазмунини даражама-даража тақдим этиб борилади. Демак, педагогик-психологик ташхис ишларини амалга ошириш муаммоларини ҳал этишдан аввал нимани ташхис қилиш, нимани аниқлаш, ўқувчилар нимани билишлари ва бажара олишлари кераклигини, таълим самарадорликни миқдор ва сифат жиҳатдан объектив ўлчаш учун қандай мезонларга таяниш лозимлигини илмий асосда ҳал этиш муҳимдир [25; 6-б.].

Тасвирий санъат дарсларида ўқув имкониятларига кўра ўқувчиларни гуруҳларга ажратиш учун ана шундай маънодаги психологик ташхисни амалга оширишга, бутун бошли психологик тестлар ва ҳоказоларни ишга солишга тўсиқ бўлиётган нарса, фақатгина уларнинг кўп вақт олиши, мутахассисдан куч, билим ва маҳорат талаб этиши эмас, албатта. Асосий сабаб шундаки, бундай мураккаб, мукаммаллаштирилган ташхисдан олинган маълумотлар шунчалик чигаллашиб кетадики (агар шу соҳанинг йирик, юқори малакали мутахасиси бўлмаса) уларни умумлаштириб бирон бир жўяли хулосага келиш имконияти бўлмай қолиши мумкин. Оддий мисол: ҳар қандай ўқувчининг ўз диққатини жамлай олиши, ўқув

ҳолатлар маълум бўлдики, мактаб психологлари томонидан олиб борилган ташхислаш методларида тасвирий санъат юзасидан болаларнинг қобилиятларини аниқлашда етарлича ташхислаш ишлари олиб борилмаган. Шунинг учун педагогик жараённи психологик баҳолашда тасвирий санъат фани ўқитувчиси олиб борса самара натижаси юқорироқ бўлади.

Маълумки, индивидуал ёндашув деганда синф ўқувчиларини ўқув имкониятларига кўра ва учдан ортиқ гуруҳларга ажратган ҳолда таълим бериш услублари мажмуаси тушунилади. "Табақалаштирилган таълимнинг ўзига хос мураккаб муаммоларидан бири педагогик-психологик ташхис масаласидир. Дарҳақиқат, айнан психологик-педагогик ташхисни тўғри амалга ошириш орқалигина синф ўқувчиларини уларнинг имкониятларига кўра тўғри тақсимлаш, гуруҳларга ажратиш мумкин ва бу табақалаштирилган таълимнинг деярли энг асосий, энг оғир ва муаммоларга бой томонини ташкил қилади" деб таъкидлайди доц. К.Б. Қодиров [143; 3-б.].

Умуман, тасвирий санъатдан таълим жараёнида педагогик ва психологик ташхиснинг кенг кўламда жорий этилиши тасвирий санъат таълими самарадорлигини оширишда катта аҳамиятга эга бўлиб, ўқувчининг ўзлаштириш даражасини кузатиш, ўзлаштириш динамикасини назорат қилишда жуда фойдали эканлиги сир эмас.

Таъкидлаш жоизки, индивидуал таълимда педагогик ва психологик ташхис амалиёти узвий боғлиқ ҳолда, яхлит равишда, биргаликда олиб борилиши зарур, акс ҳолда ташхис натижаларида номутаносибликлар, зиддиятли ҳолатлар, тушунмовчиликлар вужудга келиши мумкин. Ёшларнинг қизиқиш ва майллари, хиссий ва иродавий хислатлари, характери, мижозий хусусиятлари, билиш жараёнлари [идрок, диққат, хотира, тафаккур, хаёл, нутқни тадқиқ этишга қаратилган юзлаб психодиогностик (*Психодиагностика* (грекча psyche – руҳ ва diagnostikos – билишга қодир) – психологик фан соҳаси бўлиб, шахснинг индивидуал – психик хусусиятларини ўлчаш ва аниқлаш усулларини ишлаб чиқади) методикаларни санаб ўтиш қийин эмас [97; 4-б.].

Мактаб ўқувчилари ўқув фаолиятининг муваффақияти уларнинг қобилиятларига, лаёқатларига, қизиқиш ва майлларига, хиссий оламига, иродавий хислатларига, характер хусусиятлари ва мижозларига, билиш фаолиятларига, шу жумладан диққат, хотира, тафаккур, хаёл жараёнларига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади. Бироқ биз психологик хусусиятларнинг ҳар бирини алоҳида тадқиқ қилишга ёки ташхис этишга уринадиган бўлсак, ўқувчининг ўқув фаолиятига катта зиён етказган ҳолда сурункали, зерикарли бир психологик жараёнга айлантириб қўйишимиз мумкин. Қолаверса, пировард натижада бундай ашаддий «ташхисбозликдан» на ўқувчилар ва на ўқитувчилар манфаат кўрадилар, балки бу таълим жараёнига халақит бериб, ўқитувчи ва ўқувчи вақтни ўқув предметларини ўзлаштириш билан эмас, ташхис натижалари билан банд бўлиб қолиши мумкин.

Тасвирий санъатда педагогик-психологик ташхиснинг тутган муҳим ўрни шундаки, ҳар бир ўқувчининг индивидуал хусусияти ҳисобга олинган ҳолда, уларнинг билим, эҳтиёжига мос таълим мазмунини даражама-даража тақдим этиб борилади. Демак, педагогик-психологик ташхис ишларини амалга ошириш муаммоларини ҳал этишдан аввал нимани ташхис қилиш, нимани аниқлаш, ўқувчилар нимани билишлари ва бажара олишлари кераклигини, таълим билимдонликни миқдор ва сифат жиҳатдан объектив ўлчаш учун қандай мезонларга қўлланишини лозимлигини илмий асосда ҳал этиш муҳимдир [25; 6-б.].

Тасвирий санъат дарсларида ўқув имкониятларига кўра ўқувчиларни гуруҳларга ажратиш учун ана шундай маънодаги психологик ташхисни амалга оширишга, бутун бошли психологик тестлар ва ҳоказоларни ишга солишга тўсиқ бўлаётган нарса, фақатгина уларнинг кўп вақт олиши, мутахассисдан куч, билим ва маҳорат талаб этиши эмас, албатта. Асосий сабаб шундаки, бундай мураккаб, чуқурлаштирилган ташхисдан олинган маълумотлар шунчалик чигаллашиб кетадики (агар шу соҳанинг йирик, юқори малакали мутахасиси бўлмаса) уларни умумлаштириб бирон бир жўяли хулосага келиш имконияти бўлмай қолиши мумкин. Оддий мисол: ҳар қандай ўқувчининг ўз диққатини жамлай олиши, ўқув

материалларини эсда сақлай олиши, расм чизиши ёки бирон буюм ясашни яхши кўриши, фикрлаш қобилияти кўп жиҳатдан унинг эҳтиёжларига, мотивацион оламига, яъни хоҳиш-истакларига, ақлий ривожланиш, оиласидаги маънавий маърифий моддий муҳит каби кўплаб омилларга боғлиқ бўлади. Демак, пировард натижада ўқувчининг психологик (ички) хусусиятларидан кўра унинг тасвирий санъат предметини қай даражада ўзлаштиришини кузатиш ёки атрофдагиларидан сўраб билиш орқали ўқув фаолиятига бўлган муносабатлари ва ўқув имкониятлари ҳақида умумлаштирилган тарзда, етарлича ишончли даражада эга бўлиши мумкин.

Фойдаланидган адабиётлар


1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION. 2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL

...URNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: ...7-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 05. – C. 166-168.

8 Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception ...rmation in the Description of the Image //American Journal of Social and ...umanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 312-316.

## RANGTASVIR MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI.

*Safarova Saodat Tursunbayevna (TerDU "Milliy libos va san'at" fakulteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi)*

**Kalit so'zlar:** Ritm, kompozitsiya, tasviriy san'at, moybo'yoq, partiret, gavda, ...anel, tempera, guash, issiq va sovuq ranglar.

**Anatatsiya:** Maqolada rangtasvir mashg'ulotlarida kompozitsiyaning o'rni va ...aliy ahamiyati ,(inson portreti misolida) fikr yuritilgan. Kompozitsiyaning qonun ...dalari, usullari ritmi va mavzuli kompozitsiyani markaziy qismini tasvirlash haqida ...lumot berilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning rangtasvir fani bo'yicha bilimlarini ...nada chuqurroq o'zlashtirishlarida o'qitishning ilg'or va zamonaviy ...nologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarini ...tbiq qilish muhimdir. Etuk o'zbek va xorijiy tasviriy san'at bo'yicha usta ...somlarning jahon miqyosida tan olingan san'at asarlari namunalari, hamda metodik ...ihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan ...ydalangan holda mashg'ulotlar tashkil etish; postanovkalarni tashkil etishda ...ydalanish, Buyuk san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga ...ishlangan kino lentalari, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng ...ydalanish ayniqsa ijobiy natija beradi. Talabalar «Rangtasvir. Kompozitsiya» o'quv ...ini o'zlashtirish jarayonida rangtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni; dastgohli, ...numental, dekorativ rangtasvirning farqlanuvchi tomonlari, realistik rangtasvir ...nunlari, kompozitsiya asoslari, issiq va sovuq ranglar, kolorit, ritm, tus, yorug'lik,

rang dog'i, umumiy tus va rang bo'yog'i, turli tasvirlash materiallari xususiyatlari, ran uyg'unligi qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanish yo'llari, ran gammasi, motiv, xissiylik, yaxlit ko'rish, rangtasvir ishlash metodlari; suyultirgichla mato, gruntlar, suyuq ishlov berish,

surtma; rangtasvir ashyolari; akvarel, tempera, guash va moybo'yoqlar to'g'risid ko'nikmalarga ega bo'lmog'i kerak. Bunday ko'nikmalarga ega bo'lgan talabala rangtasvir mashg'ulotlarini a'lo darajada bajarib o'z asarlariga kompozitsion yechim topo olishadi,



Iqtidorli rassomlar tabiatdan kompozitsiya yechimlarini his etish, sezish, fikrlash ko'rish orqali topishlari mumkin. Lekin kompozitsiyani rivojlantirishustida izlanish qidirish, nazariya va amaliyot ustida ishlash, uni amalda tatbiq etish, albatta ko'p mexnat talab etadi. Kompozitsiya asrlar mobaynida shakllangan qonunlar va qoidalar asosida quriladi. Uning qonun qoidalari va usullari o'zaro bog'liq bo'lib, kompozitsiya ustida ishlash jarayonida unga hamma holatdagi harakatlar ta'sir etadi

Ushbu maqolada biz Odam gavdasini rangtasvirda ishlash xususiyatlari va bosqichlarini ko'rib chiqamiz. Bundan maqsad Talabalarda inson to'liq gavdasini

...li fonda ishlashda inson xarakteri, ruhiyatini moybo'yoqda ifodalashni o'rganish, ...ini bosqichma–bosqich ishlash, o'z ishining oxirgi natijasini oldindan ko'ra olish ko'nikmalarini shakllantirish rangtasvirning asosi ekanligi anglash.

...bosqich bo'yicha amaliy ish jarayoni Akademik yo'nalishdagi portretni ishlashning ... qonun-qoidalari bor. Qiyofachini holst yuzasida to'g'ri joylashtirishga, nisbatlarni ...lashga., konstruktiv qurilishiga ahamiyat beriladi. Bunda qiyofachi holst yuzasida ...kichik ham katta ham joylashishi kerak emas bu komponovka qonun qoidasiga mutloq ...to'g'ri kelmaydi.

...bosqichda amaliy ish jarayoni 1-bosqich muvofaqqiyatli amalga oshirilgandan so'ng ...davom etadi. Bu bosqichda qiyofachini rangda ishlash bosqichiga o'tiladi, orqa fon ...rang' soyalar ajratib olinadi.

...bosqichda inson partiretining gavda qismiga o'tiladi. Bu bosqichda rang ...munosabatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu bosqichdan keyin esa 4-bosqichga o'tiladi va ishlangan ishga sinchkovlik bilan yondashilib hammasi boshdan ...ilib ranglar ajratilgan holda hamda umumiylikni saqlagan holda mayda ...detallargacha ahamiyat beriladi va shundan kiyingina ish yakunlanadi. Biz yuqorida ...keltirganimiz qisqacha malumotdir. Bu malumotlarni amalda qo'llash uchun har bir ...talaba o'z ustida muntazam ishlab borishi lozim. Shundagina kutilgan natijaga ...erishish mumkin bo'ladi.

## ADABIYOTLAR:


1. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. (kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun qo'llanma) T., «Bilim», 2005.
2. Boymetov B., Abdirasilov S. "Chizmatasvir", T., G.Gulom nashriyoti, 2004.


## Тасвирий санъат дарсларида педагогик эксперимент


*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+99899578835[?]

**Аннотатсия:** *мазкур мақолада тасвирий санъат дарсларида педагогик экспериментҳақида сўз боради*

**Калит сўз:** *идрок, диққат, хотира, тафаккур, хаёл*

Педагогик психологияда кенг кўламда педагогик эксперимент қўлланилади. Бу табиий шароитда ўтказилдиган эксперимент бўлиб, унда таълимий ва тарбиявий томонлар ҳисобга олинади. Эксперимент орқали тадқиқотчи ўқувчиларга у ёки бу методнинг қулайлигини ўрганиб чиқади. [60; 23-б.]

Ташҳиснинг бу турларидан барча синфларда бир хил фойдаланиб бўлмайди. Бошланғич синф ўқувчиларининг ёш хусусиятлари, билим ва малакалари савиясининг пастлигини ҳисобга олиб, 1-2 синфларда тест синовлари, 1-4 синфларда ёзма мустақил ишлар (иншо, реферат, кроссворд, чайнворд, викторина) ўтказиш тавсия этилмайди.

Болаларнинг тасвирлаш қобилиятларини аниқлашда бир қатор мезонлар қўлланилади. Тасвирий фаолиятнинг ҳар бир турида алоҳида баҳо мезонлари ишлатилади. Хусусан:

1. Борликни идрок этиш. 2. Бадиий қуриш–ясаш ишлари. 3. Натурадан ишланган расмлар. 4. Натурага қараб ишланган ҳайкаллар. 5. Рангтасвир композициялари. 6. Декоратив композициялар. 7. Ҳайкалтарошлик композициялари. 8. Санъатшунослик асослари.

Ушбу тажрибада биз асосан ўқувчиларнинг билиш (когнитив) жараёнларини ўрганамиз, психодиагностик методлардан бири сифатида **мавзу асосида расм ишлаш** танлаб олинди. Буюк устозимиз, тасвирий санъатни ўқитиш методикаси асосчиларидан бири педагог-рассом П.П.Чистяков айтганларидек, "Расм чизиш - борлиқни ўрганиш ва билишдир [137; 437-б.]

Ташхислашда баҳолаш беш баллик тизимида олиб борилади. Ҳар бир бола учун баҳолашда барча мезон кўрсатгичлари бўйича баллар жамланади. Боланинг олиши мумкин бўлган энг юқори баллар сони 50, пастки 8 балл. Жамланган баллар асосида болаларнинг бадиий тафаккури ва қобилиятлари

…ланиш даражалари кўрсатилади. Бунинг учун бир қатор кетма-кетликлар …нинди, яъни болалар томонидан топилган энг кўп сонли қатори ва энг кам …нинг қаторлари аниқланади. Кетма-кетлик қаторини мезонлар бўйича ҳам …ишимиз мумкин. Қаторларини шартли равишда уч қисмга бўлиш мумкин. …ший қилиб агар синфда 25 та болага ташхис қўйилган бўлса, унда ҳар бир …да 7-8 та болалар бўлиши мумкин, шу билан бирга гуруҳлаганда кескин …лар ҳам бўлиши мумкин.

Тўпланган баллари бўйича бу кичик гуруҳлар юқори, ўрта ва паст …жаси бўйича фарқланади. Кейинги ташхислашда ўқитувчининг мақсадли …рида ўқувчиларнинг қобилият даражаси ошгани сари юқори ва ўрта

гуруҳларда ўқувчиларнинг сони ошиши сезилади.

**2.1-жадвал**

| Ўқувчининг ФИШ | расмнинг қоғоз юзасида жойлашуви | ишнинг мустақил | расм мазмунининг | бажарилган | расм | нарса ва | ишда перспектива қонунларига риоя | расмда ранглар | қалам ва мўйқалам | ишнинг тоза ва |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

Жорий ташхис учун ўқитувчи биринчи мезон билан чекланиши мумкин. …қорликнинг ривожланганлигини аниқлаш учун айланаларни чизиб …нинг ташхисида Комарова методидан ҳам фойдаланиш мумкин [10-илова], […, 125-б.].

Болаларнинг олган баллари асосида жадвал тузишимиз мумкин. Фаолият …тлари таҳлилида ўнта кўрсатгичлар асосида тузилади.

Юқорида қайд қилинган мезонлар асосида ўқитувчи ўқувчиларни …хислаш орқали уларнинг ўқув имкониятларини аниқлайди (2.1-жадвалга …нг). Ўқувчилардаги ўқув имкониятларни уч тоифага бўлиш мумкин: 1. …ори даража. 2. Ўрта даража. 3. Қуйи даражада ўзлаштирувчи.

**Ўқув имкониятлари юқори даражада** бўлган ўқувчилар ҳар қан[illegible] шароитда авваллари ўзлари ўзлаштирган билимларни керакли пайтда намо[illegible] этадилар. Зарурат туғилганда улардан янги материалларни ўзлаштири[illegible] фойдалана оладилар. Хусусан, улар муҳим белгиларни ажратиш[illegible] умумлаштиришда янги тушунчаларни ажратиб кўрсатишда, янги билимлар[illegible] ўзлаштиришда намоён бўлади.

**Ўқув имкониятлари ўрта даражада** бўлган ўқувчиларни кўпчи[illegible] холларда янги материаллар таҳлилида билим заҳираларининг етишмасли[illegible] кузатилади, янги материалларни ўзлаштириш оғирлик билан кечади.

**Ўқув имкониятилари паст даражада** бўлган ўқувчиларда амалд[illegible] билимлар жамғармаси етарли даражада бўлсада, улар янги материаллар[illegible] таҳлил қила олмайдилар, тушунча ва қонуниятларни ошкор қила олмайдилар

Ўқувчиларнинг ўқув имкониятларини аниклашда ўкитувчига си[illegible] журналларига киритилган баҳолар ёрдам беради. Ўқувчилардаги ўқу[illegible] имкониятларини аниқроқ белгилаш учун уларнинг ўқув фаолиятларини куза[illegible] туриш, улар орасида ташхис ўтказиб туриш керак бўлади. Улар **рангтасв[illegible] композиция** машғулотлари бўлиб болалар томонидан ўқув материаллари[illegible] қанчалик ўзлаштириб кетаётганлигини билдиради.

Шу билан бирга тасвирий санъатни ўқитиш методикасида мустақ[illegible] ишлашнинг **уч ҳил даражаси** қайд қилинади. Улар юқори, ўрта ва па[illegible] даражалардир.

**Мустақил ишлашнинг юқори даражаси** билим ва даражалари билим [illegible] малакаларнинг шаклланганлиги ўқувчиларда, ўзини-ўзи назорат қилиш турли[illegible] ўқув жараёнларини эркин такомиллаштириш қобилияти каби мустаҳкам малакалар мавжудлиги билан белгиланади.

Адабиётлар

1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм - Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

1 Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

1 Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

3 Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

4 Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

6 Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7 Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

## *Синфлар кесимидаги ўқувчилар ёш хусусиятларининг тасвирий фаолиятдаги фарқлари*

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

kaitovzafar94@mail

+998995788

**Аннотатсия:** *мазкур мақолада Синфлар кесимидаги ўқувчилар хусусиятларининг тасвирий фаолиятдаги фарқлари* ҳақида сўз боради

**Калит сўз:** *тасвирий фаолият, хотира, ўлчаш*

Давлат таълим стандарти ва ўқув дастуридаги ўқувчиларни компетенцияларига қўйиладиган талабларда ўқувчилар шахси ва қизиқишл устуворлигидан келиб чиқиб, уларнинг ёш хусусиятларига мос равишда та компетенцияларини шакллантириш, лозимлиги белгилаб қўйилган [11; 3 б.] Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг ёшлик даврида олинадиган билимл хусусида "Болаларни ёшлигидан маънан ва жисмонан етук шахс этиб тарбияли мақсадида мактабларни бадиий адабиётлар билан таъминлаш, айниқ бошланғич синфларда мусиқа, тасвирий санъат ва жисмоний тарби машғулотларига янги мазмун бериш муҳимдир" деган сўзлари бежиз эмас [17, б.].

*Тасвирий санъат ўқитувчилари долзарб вазифаларидан бири - бу болалар ўқув жараёнини ташкил этишда болаларнинг ёши ва индивид хусусиятларини билиши, уларни тасвирий фаолиятдаги фаркларнинг нам бўлишини аниқлаш ва ўлчаш қобилиятидир.*

Ўқувчиларни ўқитишда уларнинг ақлий заковатини ҳисобга олиш ҳ муҳимдир. Бу сифатларини ҳам **уч даражага** бўлиш мумкин:

1. *Ақли заковати юқори даражада* шаклланган ўқувчил бошқалардан материалларни эркин таҳлил қилишлари, муҳим жиҳатлар ажрата олишлари, тез умумлаштира олишлари ва мавҳум (абстракт) фикр юри олишлари, янги тушунчаларни тез англаб олишлари билан фарқланадил Юқори даражада ақлий заковати шаклланган ўқувчилар ниҳоятда мурак тузилишдаги материалларни таҳлил қилишда қийинчиликларни ҳис этадилар.

2. *Ўртача ақлий заковатли ўқувчилар* ўқув материалларини ҳам уларнинг муҳим сифатларининг таҳлилида кийналадилар. Бироқ, улар ўқитув ёрдамида топшириқларни бажара оладилар.

3. *Ақли заковати паст ўқивувчилар* ўқув материаллари таҳлилида ...ишни, умумлаштириш, мавҳумлаштиришнинг муҳим сифатларини ажрата ...олмайдилар.

Топшириқларни бажаришда ўқувчиларнинг мустақил фикрлаши катта ...аҳамият касб этади. Мустақил фикрлаш жараёнида топшириқларни бажаришда ...қийинчиликларни мустақил равишда ҳал этишлари, қўйилган вазифаларига ...жавоб топа олишлари билан белгиланади. Улар ўқувчилар фаолиятида турлича ...ифодаланади. Айрим ўқувчилар вазифаларни бажаришда турли йўларни ...излайдилар, муаммонинг ечимини асослашга ҳаракат қиладилар. Бошқалар ...қийинчилик сезишлари биланоқ дарров ўқитувчига, ўртоқларига мурожаат ...қиладилар. Яна бошқа тоифадаги ўқувчилар қийинчиликка дуч келишлари билан ...ишим бўлиб қўя қоладилар ва ўйлашдан тўхтайдилар.

*Мактаб ёши ўқувчиларда ҳар қандай ўтиш даври сингари, яширин ...имкониятларга бой даврдир. Бу даврда болаларга ўз вақтида ривожланиши учун ...зарур бўлган тасвирий санъатдан билим ва кўникмалар берилиши зарурдир. ...индивидуал психологик хусусиятлар мактаб ёшидаги ўқувчиларда ...шаклланади ва ривожланади. Ҳозирги кунда психология фани шу муаммо ...жиҳатидан кенг қамровга эга бўлган, тасвирий санъат ўқитувчиси учун ўқувчилар ...билан ишлашда зарур бўлган билимларга, бой материалларга эгадир. Тасвирий ...санъатдан боланинг психологик тузилиши диққатни, характерни, қобилиятини, ...темпераментини, когнитив жараёнлар ва ҳиссиётлар жараёнининг ...хусусиятларини муккамал билиш зарурдир. (1.1-§ га қаранг).*

***Кичик мактаб ёши даври (7-8 ёш)*** *боланинг ҳаётидаги муҳим давр бўлиб ...мактабга қабул қилиниши билан белгиланади. Мактабга кирган бола автоматик ...равишда одамлар ўртасидаги муносабатлар тизимида янги ўрин эгаллайди, у ...таълим фаолияти билан боғлиқ доимий мажбуриятларга эга бўла бошлайди.* Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тасвирий фаолияти қатъий равишда ...дастурга мувофиқлаштирилгандир. Биринчидан, ўқувчилар тасвирлаш ...техникасини эгаллашларини, тасвирий санъатнинг элементар асосларидан анча

катта ҳажмда билимни ортиришлари керак. Иккинчидан, боланинг би[...] даражаси ва билиш қизиқишлари кенгаяди ҳамда ривожланади [64].

***1-синф ўқувчилари** Н.Ростовцев [108; 65-б.] фикрича бу ёшдаги бол[...] аввал схематик тасвирлар, алоҳида объектлар, сўнг асосан хотирадан "ҳаёл[...] композициялар ишлайдилар. Болалар объектларнинг асосий ранги ва шакл[...] етказишга, ўлчамлари бўйича таққослашга, улар чизган расмлари "чирой[...] бўлишига ҳаракат қилишади. Масалан, уйнинг томи турли хил ранглар би[...] бўялган бўлади ёки қизни ёрқин либосдаги рангларда чизишадилар. Одам[...] тасвирлашда эса бу ёш учун энг қийин объектлардан биридир. Инсон шак[...] расмларда одатда бош, оёқ, қўл, танани жуда умумлаштирилган ҳолат[...] тасвирлайди. Тана овал ёки учбурчак шаклида чизилиб, оёқлари учбурчакни[...] бурчакларидан пастга, қўллар елкага эмас, тананинг ўртасига боғланган бўла[...] Агар бола отда чавандозни ён тарафдан чизган бўлса, у ҳолда одамнинг икки[...] оёғи ва икки кўзи профилда тасвирланади. Нисбатлар бузилган. Бу ёшд[...] болалар расмларида кўрганини эмас, балки билган нарсаларини чизадилар. Ўқ[...] йилининг бошида биринчи синф ўқувчилари барча предметларни бит[...] горизонтал чизиқ бўйича чизишади. Бундан ташқари, одам ва уйлар олди[...] (фронтал) суратда, машина ва ҳайвонлар эса ёндан (профил) чизилади [11 ва 1[...] илова].*

Адабиётлар

1.Байметов Б. "Қаламтасвир". Дарслик 1-қисм.- Тошкент, Мусиқа 2006

2.Халилов Р. Рисунок.Тошкент «Навруз» 2013.

3.Кузин В.С. Психология. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5.Лабунская Г.В. Изобразительное творчество детей. - М.: Просвещение, 1965. - С. 207.

Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

5. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION- 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: ...1630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8. Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.

## Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув технологияси.

*ТерДПИ ўқитувчиси Хаитов Зуфар Асроралиевич*

xaitovzufar94@mail.ru

+998995788352

**Аннотатсия:** *мазкур мақолада тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларга индивидуал ёндашув технологияси* ҳақида сўз боради

**Калит сўз:** *тасвирий фаолият, шахслик фазилатлари*

Ўзбекистоннинг сўнги йилларида таълим соҳасида туб ислоҳотлар содир бўлмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз" деган сўзлари муҳим аҳамият касб этади. [19, 22-б.] Мазкур сўзларнинг негизида, ўқитиш методикасини, таълим-тарбия жараёнида педагогик технологияларни такомиллаштиришни босқичма-босқич татбиқ этиш лозимлигига алоҳида урғу берилди.

Naylarning diametri 20-30 mm va uzunligi 450-520 mm bo'ladi. Nay cholg'usining kanalida havo ustuni paydo qilish uchun yuqori tomondan uchi tiqin bilan berkitiladi. Shu joyda puflanadigan asosiy teshik mavjud. Uning qatorida esa yana 6 ta teshik bo'lib, ularga ikkala qo'lning tegishli barmoqlari qulay biriktirilgan bo'ladi. Bu teshiklar barmoqlar bilan to'la yoki yarim berkitish va puflash kuchini o'zgartirish natijasida 2,5 oktava diapazonidagi tovushqatorni tashkil etadi. Cholg'uning boshqa tomoni va uchida yana 2 yoki 3 ta qo'shimcha teshiklar bo'lishi mumkin, ular tovush tozaligi va muvozanatini saqlash uchun yordam beradi. Ansambl va orkestrlarda ijro oldidan sozandalar asosan nayga qarab boshqa cholg'ularni sozlab oladilar. Naychilar jamoalarda etakchi sozandalar hisoblanadilar.

Nay cho'lgusida asarni ijro etishda ruhiy –aktiv yondoshishni tarbiyalash jarayonida har qanday vosita va yo'llar bilan erishish mumkin. Ya'ni musiqiy asarga bog'liq omillarga yondoshish, o'quvchi qobilyatining imkoniyatlari va pedagogik: tushuntirish, taqqoslash, ijro namunasi va mashqlar. Har mashg'ulotda o'quvchi e'tiborini asarning mazmuni, ijro asoslari va o'z ruhiy xolatiga yo'naltirish zarur. O'quvchi har bir harakat va shtrixlarni yodlabgina olmay, balki tushunib qalban ijro

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Barchamizga kuyqo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg'ular bo'lmagan musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni Vatanda topish qiyin, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati bo'lib, ijrochilik san'ati bilan chambarchas bog'langan. Ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan cholg'u asboblari ham takomillashib, ularning ko'rinishi o'zgarib boradi. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asbobiarining rivojlanish jarayonining ushbu chambarchas o'zaro munosabati ularni jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini olg'a suradi. Har bir cholg'u asbobi o'z ma'nosiga, o'z tembriga va boshqa farqli xususiyatlariga ega

Nay, qo'shnay cholg'ulari milliy cholg'ularimiz orasida eng qadimiylaridan hisoblanadi. Ular puflab chalinadigan cholg'ular toifasiga kiradi, Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda qadimdan keng tarqalgan. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida, o'ziga xos xususityalarini, tovush tusini saqlab qoldi. Tuzilishida o'zgarmagan holda nay, surnay, karnay, bo'lamon va boshqa puflab chalinadigan musiqa asboblari an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Nay cholg'usi nafaqat O'zbekiston va Tojikistonda, balki Buryat Mangoliya Respublikasi, Xitoyda ham keng tarqalgan. Bu cholg'u turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan: O'zbekiston va Tojikitonda nay, Buryat Mangoliyada ***limba***, Xitoyda ***li*** deb yuritiladi.

Nay musiqa asbobi yakka cholg'u, ansambl va orkestrlarda chalinadi. Ovoz hajmi kengligidan, xalq kuylarida, maqomlarda, ansamblda ko'proq yetakchi vazifasini bajaradi. Tuzilishiga ko'ra barmoqlar bilan berkitiladigan olti teshikchali diotonik tovushqatorga ega bo'lib, umumiy ovoz hajmi birinchi oktava ***lya*** dan to'rtinchi oktava ***re*** gacha. Notalar skripka kalitida yoziladi. Barmoqlar bilan teshikchalarni to'la yoki yarim berkitish, yarim yoki butun tonlikni tashkil

...i Turlicha puflash yo'li bilan esa, baland-past tovushlar chiqaziladi. Nayni ...flaydigan teshigi va barmoqlar bilan yopadigan birinchi teshikcha o'rtasida yana bir ...shikcha bo'lib, bunga yupqa qog'oz yopishtiriladi (bu asosan Xitoyda qo'llaniladi). ...u qolib tovushni to'lqinlantirib chiqarishga yordam beradi. Nayning ikkinchi uchida ...muy ochiq turadigan to'rtta teshikcha (ikkisi ikki yonda va qolgan ikkisi ort ...monda) ayrim pardalardagi tovushlarni yumshatib berish uchun xizmat qiladi. ...ning umumiy uzunligi 500-600 mm bo'lib, yog'ochdan, g'arovdan, qamish va ...dan yasaladi. Shunga ko'ra ***«Yog'och nay»***, ***«Mis nay»***, ***«G'arov nay»*** deb ataladi. ...ngi yillarda nayni kichraytirilib ishlangan turi qo'llanila boshladikim, bu kichik ... ***«Nay pikkola»*** deb ataladi. Nayning ovozi juda yoqimli. Bu asbob ikki holatda, ...m o'tirib va tik turgan holatda ijro etiladi. Nay fortepianoning yoki chang ...obining ***lya*** notasiga sozlanadi.

Naylarning diametri 20-30 mm va uzunligi 450-520 mm ...ladi. Nay cholg'usining kanalida havo ustuni paydo qilish uchun yuqori ...mondan uchi tiqin bilan berkitiladi. Shu joyda puflanadigan asosiy teshik mavjud. ...ning qatorida esa yana 6 ta teshik bo'lib, ularga ikkala qo'lning tegishli barmoqlari ...ilay biriktirilgan bo'ladi. Bu teshiklar barmoqlar bilan to'la yoki yarim berkitish ...a puflash kuchini o'zgartirish natijasida 2,5 oktava diapazonidagi tovushqatorni ...hkil etadi. Cholg'uning boshqa tomoni va uchida yana 2 yoki 3 ta qo'shimcha ...shiklar bo'lishi mumkin, ular tovush tozaligi va muvozanatini saqlash uchun ...ordam beradi. Ansambl va orkestrlarda ijro oldidan sozandalar asosan nayga qarab ...oshqa cholg'ularni sozlab oladilar. Naychilar jamoalarda etakchi sozandalar ...isoblanadilar.

Nay cho'lgusida asarni ijro etishda ruhiy –aktiv yondoshishni tarbiyalash ...rayonida har qanday vosita va yo'llar bilan erishish mumkin. Ya'ni musiqiy asarga ...bog'liq omillarga yondoshish, o'quvchi qobilyatining imkoniyatlari va pedagogik: ...ushuntirish, taqqoslash, ijro namunasi va mashqlar. Har mashg'ulotda o'quvchi ...tiborini asarning mazmuni, ijro asoslari va o'z ruhiy xolatiga yo'naltirish zarur. O'quvchi har bir harakat va shtrixlarni yodlabgina olmay, balki tushunib qalban ijro

etishiga erishish lozim. O'quvchida badiiy musiqiy fikrlash sekin - astalik bilan mashqlarni murakkablashtirish orqali rivojlantirib boriladi.

Nay cholg'usi musiqiy ijrochilik texnikasida quyidagi omillar ishtirok etadi:

1. Nafas - aniqrog'i nafas chiqarish, gohi me'yorida, gohi sekin - asta kuchaytirib yo asta-sekin kamaytirish, yoki yana boshqa asar ijrosining talabiga muvofiq nafas chiqarish.

2. Lab - yuz mushaklarining harakati, ya'ni chiqarilayotgan tovush balandligi va nafas bilan moslashish.

3. Barmoqlar harakati.

4. Til harakati - shtrixlar xarakterini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan omillar bilan ishlash va rivojlantirishda har bir ijrochilik vositasidan foydalanish erkin va tabiiy bo'lishiga erishish lozim. O'quvchining musiqiyligi va mahorati bilan barobar pedagog uning musiqiy qobilyatlarini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur. Har bir mutaxassislik mashg'ulotlari musiqiy tinglash, ritmni his qilish va musiqiy xotira tarbiyasidan tashkil topishi kerak.

Cholg'u asbobining aniq sozlanmasligi har qanday mayda intonatsion noaniqliklarga nisbatan yuqori sezgi va ayrim yuqori tovushlarni lab harakatining zo'riqishi orqali to'g'rilashni talab qiladi. Nay cholg'usining tovush qatori o'ziga xos rangbarang tembridadir. Tovush tembr xususiyatlarini sezish musiqiy mutaxassislik mashg'ulotlarida tovush tembriga e'tiborni yo'naltirish bilan erishiladi va rivojlantiriladi. Mayda intonatsion noaniqliklarni sezish bilan barobar tembrni his qilish nay cholg'usi ijrosida katta o'rin tutadi. Intonatsiya va cholg'u tembrini xis qilish sifati ijrochilarda bir xil emas. Tovush tembriga o'ta sezgir ijrochi o'z ustida qattiq ishlashi orqali intonatsion soflik bilan bir qatorda tembr sifatining yaxshilanishiga erishadi. O'ziga talabchan bo'lmagan ijrochi ayrim tovushlarning sifatsizligi va to'la bo'lmagan tembrga o'rganib qoladi. Nay cholg'usi ijrochisi uchun tovush eshitish (tovush ajratish) qobilyati kifoya. Lekin o'ta yuqori tovush sezish (taqqoslash ajratish) qobilyati sohibi bo'lgan ijrochilarning imkoniyatlari ancha katta.



Musiqiy eshitish qobilyatini rivojlantirish mumkin. Vaholangki, mashqlar …lamida oddiy eshitish qobilyatini rivojlantirib, o'ta yuqori sezgi darajasiga yetkazish mumkin. Nay cholg'usida ayrim tovush bo'yoqlarini aniqlash va eslab qolish tembri rang-barangligi bilan yengillashadi. Shuning uchun nay ijrochisi o'z cholg'usida o'ta yuqori tovushlarni tasavvur qilish va topish qobilyatini kuchaytirib o'zlashtirib ishlari bir qancha oson kechadi.

Shuni aytib o'tish joizki, ko'pchilik cholg'uchilarda musiqa asboblarini qo'llariga olishlari bilan berilgan tovush balandligini tasavvur qilish qobilyati xosil bo'ladi. Bu ko'rinishlar tovush tasavvuri va harakat sezgilarining uzviy bog'lanishi asosida xosil bo'ladi. Eshitish qobilyatini aktiv va tez rivojlantirish uchun sistematik tinglash va ijro paytida intonatsiya sofligi, eshitilayotgan musiqiy asarning tonalligi, lad funktsiyalari va eshitib aniqlash uchun akkordlar mashqi doimiy bo'lishi talab qilinadi. Musiqiy eshitish qobilyatni rivojlantirishda kuylash (solfedjio) dan foydalanish musiqiy maktablar intizomida zarur omillar qatori o'rin olgan. Shuningdek musiqa maktablarida kuylash (solfedjio) xajmi jihatidan to'liq deb bo'lmaydi. Musiqiy eshitish doimiy murakkablashtirib boriladigan mashqlarni uzluksiz o'qish orqali rivojlantiriladi. Bu bilan bir qatorda tanish asarlardan tashkil topgan mashq fragmentlarini avval bir ovozli keyin ikki ovozli yozish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Barcha mashg'ulotlarda kamerton yoki aniq ovoz balandligiga ega cholg'u asbob yordamidan foydalanib nayning lad zaminini tekshirib turish darkor.

Musiqiy tovush balandligini aniqlashga doimiy e'tibor va mashqlar eshitishni mukammallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda mashqlarning quyidagi tartibini ko'zlash zarur:

- avvalo cholg'uchi e'tiborini o'z cholg'usining tovush xarakteri va tembriga jalb qilish;

- yonida ijrochi borida o'z cholg'usining tovushini tanib ajratishi;

- foydalanish uchun qo'lida tutgan hali labiga olib bormagan cholg'usining turli tovush balandliklarini tasavvur qilish;

- cholg'usiz ayrim tovushlarni tasavvur qilish.

Qachonki o'quvchi o'z cholg'usidagi barcha tovushlarni bexato tanib [illegible] qobilyatiga ega bo'lsa uning e'tiborini musiqiy asardagi tonallikka qaratish;

- shuningdek, fortepiano va boshqa cholg'u asboblaridagi ayrim [illegible] balandliklarini aniq anglashga da'vat etish mumkin.

Albatta, eshitish qobilyatini rivojlantirish yuqoridagi masbqlar [illegible] cheklanib qolmaydi. Har bir pedagog va o'quvchi bu mashqlarni rang-baranglashtirish va ko'paytirish orqali ish bo'lib o'tadigan jaroyonga moslashtira olishi [illegible] Mutaxassislik cholg'usi o'qituvchisi eshitish qobilyatini rivojlantirish uchun [illegible] mashg'ulotlar o'tkazish uchun vaqtga ega bo'lmasada, har qalay uning ko'rsatmalari o'quvchi muvaffaqiyatlariga doimiy qiziqish bildirishi va vaqti-vaqti bilan [illegible] turish bu maqsadga erishishda salmoqli o'rin egallaydi.

Musiqiy qobilyatning yana bir asosiy omillaridan bo'lgan ritmni sezish-his [illegible] qobilyatini ham bilim berishning birinchi qadamlaridanoq tarbiyalab [illegible] Boshlovchi o'quvchilar bilan shug'illanish jarayonida doimo pedagog ritmik [illegible] erishish yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladi. O'kuvchi musiqiy cho'zimlar farqini arifmetik tushuntirish orqali yaxshi tushunadi, lekin shu paytda ijro [illegible] xatoliklarga yo'l qo'yib, mashqlar ritmi buziladi. Musiqiy cho'zimlar [illegible] tushunishning o'zi ritmik ijroni ta'minlovchi omil bo'la olmaydi. Balki bu qobilyatni rivojlantirish uchun vaqt va pedagog kuzatuvida mashqlar talab qilinadi.

Ritmik ijro faqat praktik mashg'ulotlar orqaligina yo'lga qo'yiladi va hech [illegible] tushuntirish mashqlar o'rnini bosa olmaydi. Takt bo'laklarini sanash [illegible] chiqarish vositasi sifatida o'rgatishning avvalgi bosqichidagina qo'l kelishini [illegible] olish kerak. Musiqiy ritm mexanik aniqlik va o'lcham harakatidan yiroq [illegible] mumkin. Ko'pincha u o'zgaruvchan, egiluvchan va rang-barang bo'lishi mumkin. [illegible] avtorining ko'rsatmalari qat'iy deb bo'lmaydi. Ijodkorning nota yozuvlari [illegible] kuyning fikrini ochib berishda ozmi-ko'p darajada yordam beruvchi [illegible] Shuning uchun birgina asarni har qaysi ijrochi ijrosi bir –biridan farqli bo'lib, [illegible] metro-ritmga ham ta'sir etganligiga guvoh bo'lamiz. Nay cholg'usiga ko'pincha mohirona xarakterdagi asarlar yuklanadi. Ritmik aniqliksiz ijro etilgan [illegible] ko'rimsiz va ma'nosiz bo'lib, mohirona (virtuoz) ijro tasavvuri yo'qoladi. [illegible]

...ga erishish uchun avvalo o'quvchlda ichki metro-ritmik pulsni his qilish ...iyatini rivojlantirish darkor. Pulsatsiyani qay darajada o'tkir va aniq his qilinsa shu ...i ritmik ijro barkamol va yuqori bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


16. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi Dutar National Instruments and ...formance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY ...RNALI

17. M Xo'jageldiyeva "Music as a Scinece and its peculiarities" International ...urnal of Innovative Analyeses and Emerging Technology

18. M.Khojageldiyeva "THE IMPORTANCE OF APPLICATION OF ...ODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL ...OCESS" "Экономика и социум" №4(95) 2022

19. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash Qizi "THE HISTORY OF THE ORIGIN OF ...OP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC" IJTIMOIY FANLARDA INNOV

20. ASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI


**BOBURSHOH:SHOIR VA ADIB**


Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi



**Annotatsiya:** Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milliy qiyofasini aniq ...lgilovchi ulug' shohlari, buyuk olimlari,yirik adib va shoirlari bo'ladi. Insoniyatning ...adiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlari safida Zahiriddin Muhammad ...obur ham o'z o'rniga ega. Kishilik tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va ...zilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi.



**Kalit so'zlar:** mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, faqih,tilshunos, ...n'atshunos, etnograf.



**Аннотация:** У каждого народа есть великие цари, великие ученые, ...икие писатели и поэты, которые четко определяют его историко-культурный

и национальный облик. Захируддин Мухаммад Бабур также занимает свое место в рядах таких великих детей человечества, которые принадлежат вечности. В истории человечества очень мало людей с исключительными личными возможностями, талантами и качествами, подобными Бабурче.

**Ключевые слова:** поэт-классик, теоретик, литературовед, правовед, лингвист, искусствовед,этнограф.

**Abstract:** Every nation has great kings, great scientists, great writers and poets who clearly define its historical, cultural and national image. Zahiruddin Muhammad Babur also has his place in the ranks of such great children of mankind who belong to eternity. In the history of humanity, there are very few people with exceptional personal capabilities, talents and qualities like Baburcha.

**Keywords:** classical poet, theoretician, literary critic, jurist, linguist, art critic, ethnographer.

Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi. Bobur boburiylar jahontarixida eng uzoq yillar(332 yil) hukmronlik qilgan sulola bo'lib chiqar...

U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamini va zafarlarning ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. U singari ulug' himmatli va oliy maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblab,Samarqandga intildi. U yerda Shayboniyxondan yengilib, Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettirdi:muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog'-rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javohirla'l Nehru o'zining «Hindistonning ochilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar»



asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni bayon etgan:

«Bobur — dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. Mard va tadbirkor odam bo'lgan.

Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'atni va, ayniqsa,adabiyotni sevardi».

Bugun Hindistonning Panipat shahriga borgan kishi Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan tarixiy muzaffarona jangi xotiralarini shaharning ochiq osmoni ostidagi muzeyda ko'rarkan, ulug' hind xalqining Boburga nisbatan hurmat-ehtiromi kuchliligiga amin bo'ladi.Yoki Bangladesh poytaxti Dakka shahrini kezgan kishi «La'lbog'-qal'a» tarixiy muzeyiga borib Bobur va boburiylarga bag'ishlangan xonalarni kezarkan, Bobur va uning avlodlariga tegishli kiyimlar, uyro'zg'or buyumlari, harbiy qurol-aslahalar, Ustod Aliquli quygan toshotar to'plar, miltiqlar — tufaklar,sovut, qilich-qalqonlar, dubulg'a, bejimlarini(o'q va qilich zarbasidan himoya qiluvchi yopinchiqlar),o'sha davr odamlarini o'z zamonlari liboslarida tomosha qilgan kishi Hindiston va Bangladesh xalqlarining Bobur va boburiylarga bo'lgan hurmatlarini yorqin tasavvur eta oladi.

Bu moziygohda bo'lgan adib Qamchibek Kenja «Andijondan Dakkagacha» nomli safarnomasida hayajonini yashira olmay yozadi: «Hindiston va Pokiston safarlarida ko'p moziygohlarda, jumladan,Haydaroboddagi mashhur Solarjang, Dehlidagi milliy muzeylarda bo'lgan edik. Lekin Sharq olamining olis bir chetida faqat va faqat boburiylar hayoti, ularning podsholik faoliyatiga oid yagona, maxsus muzeyni ko'ramiz deb sira o'ylamovdik».

Hindiston va Bangladeshda Bobur va boburiylar saltanati shunchalik ulug'lanishidan Bobur va vorislarining podsholiklari bu yurtlarda xayrli chuqur iz qoldirganligi ma'lum bo'ladi.

«Boburnoma»ning kotibi Boburning ulug' podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etgan:«Va maholdurkim, ul podshohi qobilning yaxshilig'larini aytgan bilan va bitigan bilan tugangay. Lekin mujammal bukim, sekkiz sifati asil aning zotig'a mutassil edi: birisi bukim, najhati baland edi;ikkimchisi, himmati arjumand edi;

uchimchisi, viloyat olmog‘; to‘rtumchisi, viloyat saxlamog‘;beshumchisi,a'murluq; oltimchisi, rafohiyat niyati Tengri taolo bandalarig‘a; yettimchisi, cherikni ko‘nglini qo‘lg‘a olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq».

(Matn tabdili: «U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va ... bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi buki, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: bukim — iqboli baland edi;ikkinchisi — himmati yuksak edi; uchinchisi — viloyat olmoq; to‘rtinchisi — viloyat saqlamoq;beshinchisi — ma’murlik; oltinchisi — Olloh bandalariga farovonlik niyati; yettinchisi — lashkar ko‘nglini qo‘lga olmoq; sakkizinchisi — adolat qilmoq».)

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSh sharqshunos tarixchi olimlari diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: «Bobur ... atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga ... fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan».

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlik yillari haqida ... yozgan«Boburnoma»ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni ... podshohlariga qiyosan shunday baholaydi:

«Saxovati va mardligi, iste`dodi, ilm-fan, san’atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi».

Bobur shuhratda daho Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so‘z san’atkori, shoir va adibdir. Badiiy mahorat bobida biror o‘zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi. She’riyat uchun xos bo‘lgan bir necha zamonaviy nuktapardozlik(yangi fikrlar ayta olish mahorati), jozibali badiiy san’atlardan me’yorida ustalik bilan foydalanish sehrgarligi va ehtiros jo‘shib turgan ... tuyg‘ular talqini boburona samimiy she’riyat fazilatlaridir. Buning ustiga ... mumtoz she’riyatga dadil kiritgan tarjimaihollik xususiyati ham Bobur she’riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg‘ulariga jon bag‘ishlaydi. U ona shahri, Vatani sog‘inchlarini she’rda ifodalar ekan, Hindiston shahanshohi beixtiyor o‘zining andijonlik g‘aribligiga kitobxon e’tiborini tortadi:



Ne yerda bo‘lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G‘aribingg‘a tarahhum aylagilkim, andijoniydur.

Shoirona yurtsevarlik, vatanfidoyilik Bobur shaxsida shunchalik tantana qiladiki, buyuk imperator Bobur endi Andijondan yiroqlikni, garchi bu martaba Hindiston taxti bo‘lsa ham, qismatdagi yuz qarolig‘, deb hisobiaydi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishmki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!

She’r ta’sirchanligini ta’minlagan fikriy kashfiyot: tolesizlik, jonga balo ...lik, xato qilishlik,yuzi qarolik — bularning hammasi o‘z yurtidan bosh olib ...da, g‘ariblikni bo‘yinga olishdadir.

Kechagina Bobur o‘zining Kobulga tashrifi vaqtinchalik ekani, ...lik(muqim) emasligiga iqror bo‘lgan edi:

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen.
«Kobulda iqomat qildi Bobur» dersiz,
Andoq demangizki, muqim ermasmen.

Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik ko‘ptomonlama va ta’sirchan ifodalay olmagan bo‘lsa kerak.

Bobur g‘azallarining asosiy mavzusi oshiqona ehtiroslar, mushtoqliklar, ...dvorishlar, iztiroblaru kuyib-yonishlardir.

Oshiqning mahbubaga iltijosi talqinida tazod usulida yigit yuzining kuzgi yaproqdek sarg‘ishu,suluvning lola yuzi qirmiziligiga diqqat tortilgani ta’sirchan:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim!

Oshiqona munosabatlarning Bobur topgan ajabtovur ziddiyatiga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q:oshiqning mahbubasi ayrilig‘iga sabr qilishi juda mushkul. ...moq uchrashuvda — visolda ham ularningchiqishmoqliklari bundan-da mushkulroq:

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dog'i bisyor mushkuldur. Chunki:

Mizojing noziku sen — tund, men — bir beadab telba,
Senga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur!

She'rda nur va soyalar jilvasi, ya'ni ma'no jihatidan qarama-qarshi so'zlarni qo'llash ta'sirchanlikni ta'minlovchi omillardan bo'lib, buni tazod(zidlov) san'ati deyiladi. Odatda, baytda bir-biriga zid ma'noli ikki so'z ushbu san'atning misollarini ko'rsatkichi bo'ladi.

Bobur tazod san'atidan foydalanishda mahorat ko'rsatib, zid ma'noli ikki so'zni emas, to'rt so'zni emas, olti so'zni bir baytda qarama-qarshi ma'nolarda qo'llay oladi:

Netgaymen ul rafiq bilakim, qilur base,
Mehru vafo — raqibg'a, javru jafo — menga.

Baytdagi o'zaro zid ma'noli tazod ko'rsatkichlarini tizib ko'raylik:

rafiq — raqib;
mehr — javr;
vafo — jafo.

Oshiqqa jafokor, raqibga lutf-marhamatli ofatijon mahbubaning fe'l-atvori ana shunday zidlov usulida bir baytdayoq oydinlashadi.

«Boburnoma»ning oxirgi varag'idagi kotib ilovalariga e'tibor berilsa, Boburning yana bir necha kitoblar yozgani haqida ma'lumot olish mumkin (...tabdili): «U podshohning musiqa ilmidan ham xabari bor edi»; «U podshohning aruz va qofiyaga doir ham risolalari bor».

Musiqaga oid ayrim kitoblarda Boburning «Musiqa sirlari» nomli risolasi tilga olinadi. Afsuski, bu asarni izlash hozircha ijobiy natija bermayapti.

Boburning qofiya ilmiga oid risolasining nomi ham noma'lum, o'zi ham hanuz topilgan emas.Boburning harbiy sarkarda sifatida bir umr katta-kichik jang-jadallarda bo'lgani ma'lum. Uning harbiy san'at sirlariga juda qiziqqanini «Boburnoma»ni o'qigan kishi bilib oladi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Harb ishi» nomli risolasi haqida ham ma'lumotlar bor, ammo asarning o'zi hozircha topilmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

8. Abdurashid Abdug'afurov. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
9. Ochilov.U.M. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali buyuk Akbarshohning yoshligi.2022;
10. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
11. O'zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
12. Axmedov B., Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennie pamyatniki), T., 1985;
13. Boburnoma, T., 1960;

## CHILDREN'S FOLKLORE IN UZBEKISTAN

Kholmirzayeva is the daughter of Feruza Mamaraim
Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda bolalar folklor san'ati mazmuni, bolalar ma'naviy olamini shakillantirishda folklore san'atining o'rni haqida so'z borgan

**Kalit so'zlar:** bolalar folklori, ertak, alla, folklor o'yinlari, mehnat va marosim qo'shiqlari,

**Аннотация:** В данной статье говорится о содержании детского фольклорного творчества в Узбекистане, роли фольклорного творчества в формировании детского духовного мира

**Ключевые слова:** детский фольклор, сказка, алла, фольклорные игры, трудовые и обрядовые песни,

**Abstract:** This article talks about the content of children's folklore art in Uzbekistan, the role of folklore art in shaping children's spiritual world.

**Key words:** children's folklore, fairy tale, alla, folklore games, labor and ritual songs,

The games, fun, imaginations, interests, words of children who grow up listening to folklore works... These are factors that enrich children's spiritual world. If adults can understand this special world of children and evaluate it correctly, they will do a great job for the future of children. As we can see in fairy tales, riddles, proverbs, love for people, animals, nature, the first feelings of friendship and companionship, the first

feeling of gratitude for goodness, a thirst for everything - all these should enrich the child's spiritual world, expand his imagination and imagination.

Every person, according to folklore, should have acquired approximately the following abilities during the happiest and most carefree childhood years. That is, while playing and having fun, he understands: what is good and what is bad, the world of things, the world of animals, the world of people. Moreover, knowing the world is not just a superficial observation: yesterday he did not know what rain was, but today he saw it in the morning, and at the same time he knew that there would be storms in the world, and that sparrows would crouch and curl up in the cold. took These were the discoveries of the morning, and in the afternoon he also saw for the first time that if he scared the mouse, its feathers would rustle and its eyes would glow green. In fact, pay attention to children's games and drawings, and listen to what they say. Then you will notice how bright and unbelievably miraculous they can see the world. Due to their sensitivity, they can catch some interesting parts of even scary stories, and they can important aspects of everyday events that adults do not notice.

Children's folklore is a unique branch of folk art, which has become an integrated system of games, songs and musical poetic genres, resulting from the interaction between the world of children and the world of adults. Nevertheless, for a long time no attention was paid to collecting, publishing and studying the scientific and aesthetic value of Uzbek children's folklore samples. Although this work was started at the end of the first quarter of the 20th century, it did not become a continuous process.

Children's folklore - examples of oral creativity. Usually created by children or adults for them. A component of the folklore genre. Uzbek Children's Folklore includes alla, fairy tales, pastimes, quick sayings, riddles, children's game songs, caressing teasing and others. Children's Folklore is adapted to a child's listening, telling, playing and singing. Collections of Children's Folklore in Uzbekistan began to be published in 1932. Alla, toys and caresses created by adults are kneaded with the love of mothers and they express the dreams of the baby and the environment in which the child lives. "Toytoy", "Bordibordi" and other toys are used to hold, sit, walk, jump, play and rub the child. Many children's songs are related to the seasons. Children sing such songs in

...chechak", "Oftob Chiktsi Olamga", "Chittigul", "Laylak Keldi, Yaz Baldi", ...ng", "Swallow" on the rooftops, in the fields, on the village streets. They are ...ated with seasons and natural phenomena such as the arrival of spring, rain, the ...n warming the world, the first smallpox, the first snow. "It's a flower in this garden", ...uv Baragan", "Chamandagul", "White rice, blue rice" and other songs are sung ...different periods. They reflect the labor processes related to hunting, farming, animal ...husbandry, craft and art, as well as the behavior of adults. Both games and songs help children to develop mentally and physically, and give them pleasure. Games are a complex type of children's folklore, in which elements of drama and music are mixed. Young children start the games with a date game such as "Choriy Chambar" and "...kalakam", and older children start with a riddle called "Bird's Head". Games are widely used in kindergartens and schools. Children's folklore helps the young generation to grow up with good qualities such as being disciplined, brave, determined, ready to overcome difficulties and help their friends. Some of its examples are included in school textbooks and textbooks.

Adults always thought of their children and were engaged in work and creativity. This process took the form of a deepening of their obligation to care about the child and its fate, and caused the creation of many songs. The responsibility of taking care of the baby was especially big.

Mothers have taken on this complex responsibility: in return for their sharp intelligence, entrepreneurship, incomparable human kindness, they themselves sometimes understand and sometimes do not understand, "by raising children, they have raised the future history of the country, and therefore the history of the world." In this way, the song helped them: they put their children to sleep with a song, cuddled them while they were crying, caressed them, and even performed rituals related to the baby with the song. In this way, allas, sayings, tricks, caresses, amusements and ...pulsions appeared. Caressing was their leitmotif. Therefore, it is reasonable to generalize and characterize these examples of folk oral poetry in the style of caressing poetry.

obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni pedogogik-psixologik tarbiyalash shuningdek asosiy fazifalardan biri bolalar psixologiyasidir. Bu tarmoq bolaning tug'ilishidan boshlab maktab yoshigacha bo'lgan davrda psixik jihatdan rivojlanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasini o'rganishning hozirgi kundagi ahamiyati juda katta. CHunki bolalar psixik taraqqiyoti o'ziga xos qonuniyatlarga asoslangandir. SHuningdek, bolalar asosan o'yin faoliyati jarayonida psixik jihatdan rivojlanadi. Bir narsa ham e'tiborga loyiqki, kichik yoshdagi bolalarning shaxsiy xususiyatlari, insoniy fazilatlari hali tarkib topmagan bo'ladi. Buning natijasida ular idrok qilayotgan narsalarning mazmunini o'zlaricha tahlil qilib, to'g'ri tushuna olmaydilar. Umumiy psixologiyadan ajralib chiqqan yirik hajmdagi mustaqil sohalardan biri pedagogik-psixologiyadir. Musiqa psixologiyasi ham muxim jihatlar bilan ijrochi psixologik xolatini o'rginishga jalb etadi.

Bolalar ijrochiligi — kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish va hokazo masalalari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi maktabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. SHuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur.

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni



olish va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Musiqiy bilimlami o'zlashtirish deganda biz musiqaga oid bo'lgan barcha bilimlarni o'zlashtirishni tushunamiz. Xususan:

1) Musiqa savodi (musiqa nazariyasining boshlang'ich bilimlari);

2) Musiqa tinglash va tahlil qilish;

3) Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash;

4) Musiqiy ijodkorlik (musiqaga mos harakatlar qilish, bolalar cholg'u cholg'ularida chalib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish).

Musiqa darsining asosiy xususiyati shundaki, musiqa ta'liminingto'rt faoliyati uzluksiz jarayon bo'lishi bilan birga, ularnibir-biri bilanuzviy aloqada, o'zaro bog'liq holda olib borish kerak. Ushbu jarayonlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, ularni ijodiy shaxs bo'lib etishishlariga zamin yaratadi.

Darsning mohiyati, mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda darsdagi biror bir faoliyat birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Musiqa darsining tuzilishi asosan, musiqiy ijrochilikni tashkil etadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, birgina ashula aytish uchun nota yozuvi, dinamikasi, shtrixlarini bilish zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda jamoatchilik, do'stlik, birdamlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonda butun sinf jamoa bo'lib, «bir yoqadan bosh chiqarib» faol ishtirok etadilar. SHu tufayli musiqiy qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar faol vayaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarga ergashadilar.

Birinchi sinf o'quvchilariga xos xususiyatlar quyidagilar:

1) To'liq shakllanmaganlik, organizmining nozikligi; bir xil holatda turish, bir xil faoliyat bajarish jarayonida, o'qituvchining ohangsiz nutqi,darslarning bir qolipda o'tilishidan tez charchab qolishlari; diqqatlariningtarqoqligi;

2) aqliy faoliyat jarayonida yo'naltirilganlik, tizimlilikmalakalarining etishmasligi; yorqin xotira;

3) erkin diqqatlarining ko'lami torligi (shuning uchun dars jarayomdatez-tez faoliyatlarni o'zgartirib turish kerak);

4) Aniq va yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishlari;

5) o'yinga moyillik: eng murakkab materiallar ham o'yin orqali engilo'zlashtiriladi. O'yin o'quvchilarning tasavvurlari, diqqati, xotirasi hamdaijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiradi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, birinchi sinf o'quvchilarining bilim darajalari bir xil bo'lmaydi. Ayrim bolalar bemalol musiqani boshidanoxirigacha tinglay oladi, qo'shiqlarni sof intonatsiyada kuylaydi, ayrimbolalar esa aksincha tignlash va to'g'ri kuylash haqida tasavvurga ham egabo'lmaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgunlariga qadar, musiqato'garaklariga qatnashgan va maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyaolgan bo'ladilar. Ayrim bolalar musiqiy muhitda tarbiyalangan bo'lsalar,ba'zilari umuman musiqadan bexabar bo'ladilar. SHu nuqtai nazardanqaraydigan bo'lsak, birinchi sinf o'quvchilari har xil xususiyatlarga egabo'ladilar. Shunga qaramay, biz ularning ayrim umumiy qiyofalarini sanab o'tamiz.

1. Musiqani idrok etish borasida ular qo'shiq, marsh va raqs janrlariniidrok eta oladilar. Birinchi sinf o'quvchilari tinglaydigan kuy va qo'shiqlarhajmi jihatidan kichik va yorqin bo'lmog'i hamda tinglashdan avval o'qituvchiuning ifodaviyligi, musiqiy obrazlari, ma'no va mazmuni haqidatushunchalar berishi kerak.

2. Kuylash borasida, birinchi sinf o'quvchilari avvalgi ( maktabgachabo'lgan davrga) musiqiy tayyorgarliklariga bog'liq. Tayyorgarligi bo'lmaganbolalarning ovoz diapazoni 2-3 tovushdan, tayyorgarligi bor bolalarda biroktavagacha ovoz diapazoni rivojlangan bo'lishi mumkin. O'qituvchi kuylashjarayonida bolalarning ovoz apparati to'liq shakllanmagan, nozik, ovozpaychalari ingichka bo'ladi. SHuning uchun kuylashda baqirmasdan yumshoq ovozdakuylash kerak. Bu davrda bolalalarning (7 yoshli) ovoz diapazoni re-lya birinchioktavagacha bo'lgan tovushlarni qamrab boradi



...kin dars jarayonida budiapazon ayrim holllarda birinchi oktavaning si va ikkinchi oktavaning do vare tovushlarigacha ko'tarilishi mumkin. Biroq o'quvchilar birinchi oktava dotovushi va undan quyiroq tovushlarni kuylay olmaydilar. Chunki ularningovozlari tabiatdan jarangdor va yorqindir.

3. Ijodiy yondashish borasida birinchi sinf o'quvchilariningimkoniyatlari kengdir. Ular bemalol har xil ijodiy topshiriqlarni bajaraoladilar. Ular biror so'zga melodik va ritmik badihalar qilishlari mumkin.

Ular musiqiy cholg'u asboblarida yoki sahnaviy ko'rishnishlarda, tanish bo'lganqo'shiqlarni harakatlar va pantomimalar bilan ko'rsatib bera oladilar.

Birinchi sinflarda musiqa savodi jarayonini hamma o'qituvchilar har xil mavzularni o'rgatishdan boshlaydi. Kimdir tovushlar harakatidan, kimdir tovushlar balandligi, uzunligi va boshqalardan boshlaydi. Ayrim o'qituvchilar musiqa savodi jarayonini musiqiy registrlarni o'rgatishdan boshlaydi.

Qanday mavzudan boshlashidan qati' nazar o'qituvchi musiqa savodini boshqa faoliyatlar bilan uzviy bog'lashi kerak. Kuylashda tovushlar harakati, balandligi, cho'zimi haqida tushuntirsa, tinglashda ritm, metr, dinamika,o'lchov va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Bolalarga tovushlar harakatini qo'l yordamida tushuntirish ham yaxshi natija beradi. Ularga beshtabarmoqlarimizni nota chiziqlariga qiyoslab notalar joylashuvini o'rgatish mumkin. Birinchi sinf o'quvchilarining musiqa darsliklarida kerakli mavzularni o'zlashtirish uchun barcha ma'lumotlar, ko'rgazmalar keltirilgan bo'lib, ularni bolalar o'qituvchilari yordamida bemalol o'zlashtiradilar.

Muhimi birinchi sinf o'quvchilari "yuqori"ga va "pastga" harakatlanish tushunchalarini to'liq o'zlashtirishlari lozim. Buni amalga oshirishga"zinapoya» yordam beradi. O'quvchilar zinapoya yordamida tovushlarni pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bemalol kuylay oladilar. O'quv dasturiga ko'ra birinchi sinf o'quvchilari tovushlar nomi, uzunligi, balandligi, ritmi, metrtushunchalarini, nota yozuvi haqida tushunchalarni egallashlari kerak

Demak, birinchi sinf o'quvchilari bilan Musiqa madaniyati darslarini ol[ib] borishda ularning yosh-psixologik xususiyatlariga, idroklari, xotira vashu[n]... fiziologik xususiyatlariga ahamiyat berish oldinga qo'yilganmaqsadga er[ishish]... muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

2-sinf o'quvchilarining ko'pgina umumiy jihatlari – idroki, fantaziyasi, xotira... qiziqishlari bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida sezilarli farq bor. Birinchidan, 2-sinf o'quvchisi 1-sinf o'quvchisiga nisbatan, darsda o'zini qanday tutish, dars... intizomi, kun tartibiga moslashganlik jihatidan ancha tajribaliroq bo'ladi. 1-sinf o'quvchisida iroda etarlicha shakllangan bo'lmasada, 1-sinf o'quvchilariga nisbatan ular birmuncha qiyinchiliklarni enga oladi. 2-sinf o'quvchisi o'qish va yozish malakalarini egallagan bo'ladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy bilimlarni ham ko'... kengaytirishga yordam beradi. Bularning barchasi o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi... ularning 1-sinfda olgan bilimlariga asoslanadi.

Tashkillashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan, qiziqarli darslaro'quvchilarni birgalikda musiqa tinglashga, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishga, jamoa bo'lib kuylashga, bir-birini tinglashga o'rgatgan bo'ladi.

Odatda 2-sinf o'quvchilari xuddi 1-sinf o'quvchilaridek, o'ta qiziquvchan bo'lmaydilar. Biroq, o'qituvchi ularning qiziqishlarini so'ndirmaslikka harakat qilmog'i kerak. Buning uchun o'qituvchi musiqiy qobiliyati bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan ham e'tiborliroq bo'lmog'm lozim va kelajakda ularning qobiliyat... o'quvchilarga biriktirib ularga ham alohida vazifadar berishi kerak. O'qish jarayoni... o'qituvchi darsdagi vazifalarni osondan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab ol... borishi kerak.

Boshlang'ich sinflardagi musiqa darslari umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarga badiiy ta'lim va estetik tarbiya berish tizimining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Birinchi va ikkinichi sinflarning orasida unchalik farq bo'lmasada, lekin ikkinchi sinf bolalari tajribali o'quvchi, maktab qoidalariga ko'nikma hosil bo'lgan diqqati mustahkamlashgan o'quvchi hisoblanadi.



Musiqa madaniyat darslarida dars faoliyatlarini tez-tez almashtirib turish, ularni ...musiqaga qiziqishlarini yanada oshiradi. Ikkinchi sinfda ovoz apparatining nozikligi, ...rtligi va ovoz pardalari to'la shakllanmaganligi sababli ovozlari faltset ko'rinishida ...ngraydi. Ovoz diapazoni do1-re2 gacha bo'ladi. O'quvchilarda birinchi sinfda olgan ...bilimlari ikkinchi sinfda yanada mustahkamlanib, chuqurlashib boradi. Ular marsh ...musiqalari, tantanavor xarakterdagi musiqalar haqida ta'savurga ega bo'lib, bu ...musiqalarni janri, turlari haqida bilimga ega bo'ladilar. SHu tarzda qo'shiq va raqs janri ...ham o'rgatiladi.

2-sinf bolalari ovoz apparatining fiziologik xususiyatlari, ya'ni nozikligi, ...rtligi ovoz pardalarining to'la shakllanmaganligi bilan ham birinchi sinf ...bolalaridan kam farq qiladilar. 2-sinf o'quvchilarining musiqiy qobiliyatlarining ...rivojlanishi birinchi sinfda berilgan darslaring sifat va mohiyatiga bog'liq. 1-sinfda ...o'quvchilar bilan o'tilgan samarali, qiziqarli tashkillashtirilgan darslar o'quvchilarda ...musiqa tinglash, qo'shiq haqida o'zinig taassurotlarini ifodalash, xor jamoasi bilan ...qo'shiq kuylash malakalarini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


...Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi Dutar National Instruments and Performance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI

...M Xo'jageldiyeva "Music as a Scinece and its peculiarities" International Journal of Innovative Analyeses and Emerging Technology

...M.Khojageldiyeva "THE IMPORTANCE OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS" "Экономика и социум" №4(95) 2022

5. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash Qizi "THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC" IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI

# THE ROLE OF MUSICAL ACTIVITIES IN CONDUCTING MUSI[C] LESSONS AND THEIR INTERACTION

Pardayeva Mohiniso Abdull[...]
TerDPI Music education and a[...]
2nd stage gradua[te]

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari [...] madaniyati darslari va uni tashkil etuvchi dars faoliyatlarning mazmuni hamd[a] [...] aloqadorligi haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zi:** *Musiqa madaniyati darslari, musiqiy faoliyatlar, jamo[a] [...] kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash.*

*Аннотация: В данной статье говорится о содержании и в[заим]... уроков музыкальной культуры общеобразовательных школ и соста[вляющих] их уроков.*

*Ключевые слова: уроки музыкальной культуры, муз[ыкальная] деятельность, групповое пение, музыкальная грамотность, [слушание] музыки.*

*Abstract: This article talks about the content and interrelationship [of] [...] culture lessons of general secondary schools and the lesson activities that [make] up.*

*Key words: Music culture lessons, musical activities, group singing, [...] literacy, listening to music.*

Scholars of the past have always emphasized the incomparable impor[tance of] music, its divinity, and its connection with spirituality in the formation of a pe[rson] a person. Alisher Navoi, the genius of Uzbek poetry, expresses wonderful tho[ughts] about this in one of his prose works: "A singer who increases happiness, a mu[sician] who spreads sadness, emotional people and people of pain sacrifice their lives fo[r] [...] of these. As they sing with a gentle melody, what wonder if the listeners' hea[rts] [...] sacrificed to the tune? After all, the soul is strengthened by a good melody, and th[e] soul is nourished by a good voice.

Music serves to form the spiritual, artistic and moral culture of the y[oung] generation, to implement the upbringing of national pride, patriotism, sophisti[cation] and creativity, to expand the worldview, to develop independence and initiativ[e].

Music culture lessons serve to form the spiritual, artistic and moral cultu[re of] students, to implement the education of national pride and patriotism, to dev[elop] creative skills, sophistication and artistic taste, to expand the range of though[t] [...]

... independence and initiative. Music culture lessons serve as a unique and ...able resource for educating the new generation.

Education is such an aspect of upbringing that it includes the system of scientific ...l cultural values accumulated by mankind. Education comes in many ways. ...ching is the process of mastering certain aspects of the socio-historical experience ... mankind under the guidance of a specially trained person (under the guidance of a ...her, tutor, professor, instructor) and fulfilling its educational, educational and ...elopmental functions in a coherent unity.

1. D. Kadirov "Traditional singing" Study guide. "Economy-Finance" publishing house. Tashkent-2007

2. I. Rajabov "Fundamentals of status" Study guide Tashkent 1992

3. I. Rajabov "Maqomlar" "Sanat" publishing house. Tashkent 2006

4. Yu.Rajabiy "Uzbek folk music" Vol. I, Tashkent city, Art literature publishing house, 1958 -B 10-14.

5. I. Karimov's work "High spirituality - invincible power", Tashkent city, "Spirituality" publishing house, 2008 -B 60-63; 70-72.

6. O'. Rasulov "Traditional singing teaching methodology" Tashkent city, published by the National Library of Uzbekistan named after A. Navoi. 2006 -B 25-30

7. O. Matèqubov "Maqamot" Tashkent city, "Music" publishing house, 2004.

## MUSIQA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Nazarov Abduvosid Norboyevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:*** *Maqolada umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish va ayniqsa natijadorlikka erishishda kompyuter texnalogiyalari va dasturlarining ahamiyatlari hamda ulardan dars jarayonida qay tarzda foydalanish haqida amaliy tavsiyalar berilgan.*

also those who cover the acts.From the beginning, it was stated in the musical [illegible] that the owners of this profession also have their place in the creation of folk music.

In particular, the words "lahnpardoz" and "nagmapardoz" mentioned in the works of A. Navoi. Various traditions of composition have matured over centuries on the basis of master-disciple traditions. It can be recognized that the traditions of [illegible] the works with different words or, on the contrary, adapting the instrumental lines to the vocal lines, the interpretation of the vocal lines in the performance of the instruments have become the practice of performance and the tradition of teachers. It is inevitable that each period was at the level of its time and stages of development of compositional creativity. The most important thing is that the specific components of compositional activity are performance. If composition is a factor that creates performance criteria, composition is of particular importance as a provider of performance criteria. If the performance process consists of musicianship and singing, then the whole world of instruments serves as a mediator. The composition itself is the fruit of these processes, that is, the process of development of the world of performance and instruments. This process has been formed within the framework of each people, nation and nation and has been developed on the basis of national values. It is known that Uzbek compositional creativity has developed and developed in different periods. The comprehensiveness and scope of the composition, imbued with simple and complex aspects, embody unique national traditions.

By the 20th century, creative styles based on forms of a new direction appeared in Uzbek compositional art, not traditional status art, but close to it, but in a different direction. However, there is no end to the traditional style. It is necessary to admit that in the creative work of some composers, there are few examples of mature works typical of status paths. Most of the representatives who carried out their compositional work were able to interpret the traditions of this field m harmony with the spirit of the time and create unique works.

**References.**

1. D. Kadirov "Traditional singing" Study guide. "Economy-Finance" publishing house. Tashkent-2007

2. I. Rajabov "Fundamentals of status" Study guide Tashkent 1992

3. I. Rajabov "Maqomlar" "Sanat" publishing house. Tashkent 2006

4. Yu.Rajabiy "Uzbek folk music" Vol. I, Tashkent city, Art literature publishing house, 1958 -B 10-14.

5. I. Karimov's work "High spirituality - invincible power", Tashkent city, "Spirituality" publishing house, 2008 -B 60-63; 70-72.

6. O'. Rasulov "Traditional singing teaching methodology" Tashkent city, published by the National Library of Uzbekistan named after A. Navoi. 2006 -B 25-30

7. O. Matèqubov "Maqamot" Tashkent city, "Music" publishing house, 2004.

## MUSIQA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Nazarov Abduvosid Norboyevich

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish va ayniqsa natijadorlikka erishishda kompyuter texnalogiyalari va dasturlarining ahamiyatlari hamda ulardan dars jarayonida qay tarzda foydalanish haqida amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *"Musiqa madaniyati" darslari, Estetik tarbiya, kompyuter texnologiyalari, kompyuter multemedia tizimi ko'rgazmali material, tovush va animatsiyalar, Musiqiy proigrivatellar, Karaoke kuylash dasturlari, Musiqiy konstruktorlar.*

***Аннотация:*** *В статье даны практические рекомендации по повышению качества и эффективности уроков музыки в общеобразовательных школах и особенно о значении компьютерных технологий и программ в достижении результатов, а также способах их использования в ходе урока.*

***Ключевые слова:*** *уроки «Музыкальная культура», Эстетическое воспитание, компьютерные технологии, визуальный материал компьютерной мультимедийной системы, звук и анимация, Музыкальные проигрыватели, Караоке-певческие программы, Музыкальные конструкторы.*

***Abstract:*** *The article gives practical recommendations on improving the quality and efficiency of music lessons in secondary schools, and especially on the importance of computer technologies and programs in achieving results, as well as how to use them in the course of the lesson.*

***Key words:*** *"Music culture" lessons, Aesthetic education, computer technologies computer multimedia system visual material, sound and animations, Music players Karaoke singing programs, Musical constructors.*

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng so'ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston respublikasida keyingi yillarda muhim ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar ruy berdi. Xususan ta'lim to'g'risida qonun qabul qilinib, to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv fanlari, shu jumladan musiqa darslari bo'yicha bir yangi o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu holatlar milliy musiqa ustivorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan dasturlarda ham o'z aksini topdi.

Estetik tarbiya - hissiyotining shakllanishi va rivoji, go'zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan go'zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir. XXI asr musiqa pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biri – bu o'quvchilarni kompyuter – axborot texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Ularni o'zlashtirish birinchidan: professional kompozitor va ijrochilar tayyorlashda; ikkinchidan: yordamchi o'quv materiali manbasi (ma'lumotnoma, tahrirlovchi, ta'lim beruvchi, ovoz ijro qiluvchi va h.k) sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Kompyuterlarning paydo bo'lishi "Musiqa" "Tasviriy san'at" kabi badiiy estetik fanlar turkumini o'qitishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrda zamonaviy kompyuter texnologiyalari ushbu fanlarni sifatli va samarali o'qitishda ancha oldingi o'rinlarda turadi. Xorijiy va MDH davlatlari maktablarida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, badiiy estetik fanlarni, shu jumladan "Musiqa" fanini o'qitishga ham kompyuter texnologiyalarini jalb qilishning imkoniyatlari juda katta bo'lib, u har xil metodikalar orasida keng istiqbolga egadir. Musiqa darslarida informatsion texnologiyalarni qo'llash, bolalar faolligi va dars samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimi yangi kompyuter texnologiyalari sohasida jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Har xil fanlar sohasini kompyuterlashtirish o'quvchilarning bilim olishlari uchun asosiy yo'nalishga aylandi. Aynan kompyuter tizimlari fan o'qituvchisiga, o'quvchilarda estetik tarbiya va ta'limni na faqat dars jarayoni, balki darsdan tashqari paytlarda ham olib borish imkonini yaratadi. Kompyuterlarning paydo bo'lishi "Musiqa", "Tasviriy san'at" kabi badiiy estetik fanlar turkumini o'qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrda zamonaviy kompyuter texnologiyalari ushbu fanlarni sifatli va samarali o'qitishda ancha oldingi o'rinlarda turadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, badiiy estetik turkum fanlarini, shu jumladan "Musiqa" fanini o'qitishga ham kompyuter texnologiyalarni jalb qilishning imkoniyatlari juda katta bo'lib, u har xil metodikalar orasida keng istiqbolga egadir.

Musiqa darslarida kompyuter texnologiyalarin qo'llash, bolalarni faollashtiradi, ularni ijodiy yaratuvchanlikka undaydi. Ushbu holatda o'qituvchi shaxsi, obro'si va

Bu talablarni amalga oshirish uchun esa o'qituvchidan hech bo'lmaganda judı oddiy kompyuter dasturlarini o'zlashtirish talab qilinadi. Bu esa o'z – o'zidan o'qituvchining o'z ustida doimo ishlashini, o'rganish - izlanishini talab qiladi. Hozirgi davrda komp'yuterda musiqa bilan ish olib borish bo'yicha ko'pgina dasturlar mavjuddir. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlargabo'lish mumkin:

1.Musiqiy proigriyatellar;

2.Karaoke kuylash dasturlari;

3.Musiqiy konstruktorlar;

4.Musiqiy qomusnomalar;

5.Ta'lim beruvchi dasturlar;

Shuningdek nota muharir Sibelius-1, 2, 3, 4, dasturlarni ham ko'rsatish mumkin Agar siz musiqa darsida qo'shiq o'rgatayotgan bo'lsangiz Vokal jam yoki Kar Maker dasturlaridan foydalanishingiz mumkin. Bu dasturlar bir tamoil, ya'ni, "minus"ni ijro qilish va ekranga qo'shiq matnini chiqarishga asoslangandir. Musiqa o'qituvchilari o'zlarining bilimlarini oshirish yoki qo'shimcha ma'lumotlar olish maqsadida rus tilidagi komp'yuter saytlari orqali "Krill va Mefodeyning ommaviy musiqa ensiklopediyasi" ni olishlarii mumkin. Unda deyarli barcha zamonaviy guruhlar, ijrochilar, musiqiy albomlar haqida ma'lumotlar berilgan. Musiqa madaniyati darslarida yana o'sha saytlardan olingan "Musiqa durdonalari" dasturidan foydalanish mumkin. Unda barcha kompozitorlar hayoti va ijodi, musiqaning barcha yo'nalishlari, klassik musiqalarning yaratilish tarixi, ularning sharhi, video va audio parchalari mavjuddir.

"Musiqa asboblari tarixi" va "Elektron pianino" bo'limlari bir – birini to'ldiradi. Nota matnlarini yaratish va tahrirlash uchun Final kabi dasturlar ham mavjud bo'lib, ulardan musiqa yaratish, aranjirovkalash va musiqa asarlarini cholg'ulashtirishda ham foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Jumaniyozova "Musiqa darslarida komp'yuter texnologiyalarini qo'llash, pedagogik madaniyatni shakllantirish vositasidir" mavzusidagi BMI. Urganch 2010yil
2. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.
3. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o'quv – uslubiy majmuasi. – SamDU, 2011 – yil.
4. Mutaxasislik fanlarini o'qitish metodikasi. – O'quv – uslubiy majmua. SamDU, 2011 – yil.

## "MUSIQA MADANIYATI" FANINING MAZMUNI HAMDA DARS FAOLIYATLARINING O'QUVCHILAR TARBIYASIGA O'ZARO ALOQADORLIGI.

Panjiyeva Nilufar Kamol qizi

nilupan42@gmail.com

+998995573057 Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'lim mutaxassisligi 2-kurs magistranti

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quvchilarga "Musiqa madaniyati" fanini tarbiyasiga musiqiy idrokni va didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Musiqiy idrok etish go'zallikni fahmlashdan ko'proq doirani qamrab oladi, go'zallikni fahmlash esa, o'z navbatida musiqiy idrok etishning turlaridan biridir.*

***Tayanch iboralar:*** *Vatan, o'qituvchi, metod, ta'lim-tarbiya, fan, idrok, san'at, odob-axloq, musiqa, barkamol, vokal, jamoa.*

***Annotation:*** *In this article, the education of the subject of "Musical culture" is taught to the students, the education of musical perception and taste, the development of musical abilities always interacts with mental and moral education. Musical perception encompasses more than the perception of beauty, which in turn is a type of musical perception.*

***Basic phrases:*** *Homeland, teacher, method, education, science, perception, art, manners, music, good, vocal, team.*

***Аннотация:*** *В данной статье учащемуся преподается предмет «Музыкальная культура», воспитание музыкального восприятия и вкуса, развитие музыкальных способностей всегда взаимодействует с умственным и нравственным воспитанием. Музыкальное восприятие включает в себя больше,*

*чем восприятие красоты, которое, в свою очередь, является разновидностью музыкального восприятия.*

***Основные фразы:*** *Родина, учитель, метод, образование, науки восприятие, искусство, манеры, музыка, добро, вокал, команда.*

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining ob'ektiv qonunlari to'g'risidagi bilimlaming yakunidan, jamlanishidan, ishonarli va umumlashgan bilimlar tizimidan iborat bo'ladi. Har qanday fanning ajralib turishi va me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'zida xususiy tushunishning mavjudligi muqarrar shart bo'lib hisoblanadi.

Tarbiya, ta'lim va o'qitish fan sifatidagi pedagogikaning asosiy tushunchalaridir. Tarbiya ijtimoiy munosabatning shunday bir turiki, unda shaxsni yo'naltirilgan holda shakllantirish maqsadida bir xil toifadagi kishilar boshqa birovlarga ta'sir o'tkazadi. Ta'lim - tarbiyaning shunday bir jihatiki, u insoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ta'lim turli yo'llar orqali olinadi. O'qitish insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarining maxsus tayyorlangan shaxs rahbarligida (o'qituvchi, tarbiyachi, professor,) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayon, ma'rifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir. Musiqiy tarbiya metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kirib, unda alohida o'rin egallaydi.

Musiqaviy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog'liq holda qaraladi. Musiqaviy-estetik tarbiya-musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa darsi muhim o'rin tutadi, lekin alohida o'rin tutmaydi. Musiqiy tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his-tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Musiqiy tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv-tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashilkil etilishi tushiniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga va ona Vatanni

doimo sevishga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Musiqadagi go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqa ijodida va idrokida intelektual asosni qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik kerak. Musiqani tinglashda u yoki bu holatlarni his etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz va fikr yuritamiz. Musiqiy idrokni va didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va axloqiy tarbiya bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Musiqiy idrok etish go'zallikni fahmlashdan ko'proq doirani qamrab oladi, go'zallikni fahmlash esa, o'z navbatida musiqiy idrok etishning turlaridan biridir. Hamma go'zal narsalarni musiqiy idrok etish mumkin, lekin hamma musiqiy idrok etilgan narsalar go'zal bo'lavermaydi. Go'zallikda voqelikning ijobiy tomonlari o'z ifodasini topadi. Hayotiy voqea va hodisalarni musiqiy idrok etishimizda turli ruhiy kayfiyatlarga tushsak, go'zallikni fahm etganimizda esa, faqat rohatlanamiz. Shuningdek, haqiqiy musiqiy didga ega bo'lish mazkur shaxsning muhim fazilatlaridan biridir. Chunki didda u yoki bu kishining ruhiy olami namoyon bo'ladi.

Demak, sog'lom did uchun kurashish shaxsning insoniy fazilati uchun kurashish demakdir. Musiqiy didi barkamol bo'lgan o'quvchi faqat san'at durdonalarini tushinadigan bolagina emas, u hayot go'zalliklarini qaysi shakldatabiatdami, odobdami, mehnatdami yoki atrofdagi buyumlardami, nimalarda ko'rinmasin uni qadrlaydigan bo'ladi. U barcha g'oyaviy va axloqiy tubanlikka zarba berishga tayyor turadi.

O'quvchilarni estetik ruhda tartbiyalashda, ularning badiiy didini o'stirishda adabiyot va san'atning roli nihoyatda katta. Chunki bolalarda axloq me'yorlarini shakilantirishda, hayotga faol munosatatda bo'lish kabi xususiyatlarni kuchaytirishda musiqa san'atining imkoniyatlari juda keng. San'at o'quvchilarda yuksak inosniylik tuyg'ularini ortirishi bilan birga, ularning ma'naviy yuksalishiga ham samarali ta'sir etadi.

Hozirgi zamon musiqa darsi musiqaviy tabiya va ta'limning o'ziga xos vazifalari bilan bir qatorda o'z oldiga quyidagi vazifalami ham qo'ymog'i kerak. Maktabda musiqaviy tarbiya tizimi ko'pgina elementlardan tashkil topadi, bular: musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya, vokal va xor studiyalari hamda to'garaklari, vokal va cholg'u ansambllari, musiqa maktablari va hokazo. Bu tizimda ommaviy axborot tizimi juda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vositalaming hammasi musiqaviy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilaming musiqa sohasidagi qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi. Maktabda musiqa darsi estetik tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, u ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqaviy-ijodiy qobiliyatlami rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilaming badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan va ba'zan bir-biriga singib ketgan bo'ladi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy-nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to'playdilar, ularda ayni vaqtning o'zida taxlil qilish malakalari shakllanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmik, tovushlar uyg'unligi, tembr) rivojlanadi. Xor bo'lib qo'shiq aytish, bolalar musiqa asboblarini chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o'quvchilarni o'quv mashg'ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo'yadi. Musiqa fanining vazifasi-bolalami go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o'rgatishdan iboratdir.

Bunga biron-bir asami o'zlashtirib va tushunib olish asosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asoslarini, uning rivojlanish



qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin. Biroq darsda o'quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushinish atrofdagi hayotni to'la to'kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki pirovardida san'at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o'quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa darsi ham barcha fanlar qatori o'z oldiga qo'ygan vazifalami hal qilmog'i kerak va bu vazifalami qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal qilsa, maktab o'quvchilariga musiqaviy ta'lim berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Qodirov R.Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. – Toshkent, "G'. G'ulom." Nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti, 1997-yil.
2. Rajabova D. Fortepiano mashg'ulotlari. – Toshkent, O'qituvchi, 1994-yil.
3. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent, "San'at" – 2001-yil.
4. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.


## MUSIQA MADANIYATI DARSLARI MAKTABDA HAMDA SINFDAN TASHQARI FAOLIYATLARNING TASHKIL ETISH MAZMUNI.


Ximmatova Nargiza Pardayevna

ximmatovanargiza9@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'lim mutaxassisligi 2-kurs magistranti



***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'quvchilarga "Musiqa madaniyati" fanini darsda o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish, ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Bu musiqa pedagogikasining maktab o'quvchilarini professional musiqa faoliyati.*



***Tayanch iboralar:*** *maktab, o'qituvchi, jamoa, fan, dars, gurux, bilim, ko'nikma, malaka, estetika, dastur, metod, odob-axloq, idrok, ta'lim-tarbiya.*

***Annotation:*** *In this article, it is necessary to educate, teach, develop and educate students in the subject of "Musical culture" in the lesson together and interactively. This is a professional music activity for schoolchildren of music pedagogy.*

***Key words:*** *school, teacher, team, science, lesson, group, knowledge, skill, skill aesthetics, program, method, manners, perception, education.*

***Аннотация:*** *В данной статье необходимо воспитывать, учить, развивать и воспитывать учащихся по предмету «Музыкальная культура» на уроке совместно и интерактивно. Это профессиональная музыкальная деятельность школьников музыкальной педагогики.*

***Ключевые слова:*** *школа, учитель, коллектив, наука, урок, группа, знание, умение, умение, эстетика, программа, метод, манеры, восприятие, воспитание.*

Dars-maktabdagi o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruxi-sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilarning hiror maqsadga qaratilgan, izchillik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalanish vazifalari hal etiladi.

Musiqa darsida o'quvchi bilan o'qituvchinig o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqa darsida istisnosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab-quvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi. Har bir musiqa darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitishi, ularning ong-bilim doiralarini kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirishi kerak. O'quvchilar darsdan-darsga go'yo pog'onadan pog'onaga qadam qo'yganidek bilishning cheki yo'q narvondan olg'a intilib boradilar. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi, ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi. Musiqa darsi musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi, go'zallikka dahldorlik tuyg'usini,



kompozitor yoki xalq musiqa asariga jo qilgan axloqiy-estetik mazmundan huzurlanish qobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir-biri bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi.

Ayni vaqtda dars o'zining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi bilan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularda ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni, shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirib katta tarbiyaviy qimmatga ega bo'lishi zarur. Darsda o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish, ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Bu musiqa pedagogikasining g'oyat muhim tamoyillaridan biridir. Maktab o'quvchilarini professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq musiqani tushinish, uni idrok qilish va undan ta'sirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatining g'oyat xilma-xil shakllarida musiqaviy-estetik faoliyatning asosiy bilimlariga, ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i lozim. Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Musiqa darsi ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlarga ta'sir o'tkazadi: o'quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik, irodaviy fazilatlarini, mehnatga munosabatini shakllantiradi.

2. Dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushintirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasi berishdan iborat bo'ladi. Musiqaviy faoliyat turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi va bir-birini to'ldirishi kerak.

3. Dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi: u tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy tushinish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarining puxta va ongli tarzda o'zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko'nikmalaming shakllanishiga imkon beradi.

4. Dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar tizimidagi bo'g'inlarni qamrab oladi. Ilgari qanaqa asar o'rganilganini va maktab o'quvchilari mazkur darsdan keyin nimalami o'rganishlari zarurligini hamisha yodda tutish shart. Faqatgina yodda tutisb va bilish emas, balki musiqa faoliyatlari davomida keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan ba'zi asarlami oldindan tanishtirib ketish yo'lini vujudga keltirish kerak.

5. Musiqa darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish chog'ida yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy psixologik-pedagogik va metodik yondoshish hisobga olinadi.

O'qituvchi, shuningdek, maktabdagi aniq vaziyatni: musiqa darsiga doir jihozlarni, texnikaviy vositalami, mahalliy uslublar va tabiiy shart-sharoitlami va bosbqa narsalarni hisobga oladi. Musiqa darsi ta'lim berishdan tashqari, tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ular o'quv materialining mazmuni bilan ham, shuningdek, maktab o'quvchilari shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi. Tarbiyaviy vazifalar shaxsning axloqiy, irodaviy, intelektual, emotsional fazilallarini shaklJantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dars o'quvchilami tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi. O 'z navbatida darsning tarbiyaviy vazifalari musiqa o'quv ishini tashkil etishga va lining metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan, shaxsning fazilatlari sifatida mustaqillik va bilim faoliyatini shakllantirish darsda ijodkorlik va topshiriqlarga, mustaqil ravishda ishlashning har xil turlariga ko'proq e'tibor berilishini taqazo etadi. Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy - ijrochilik vazifalari ham qo'yiladi. Bu birinchi navbatda maktabda musiqadan ta'lim berishni faol shakli bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytishga taalluqlidir. Juda chuqur xalq an'analariga ega bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq



aytish faqat musiqa qobiliyatlarini emas, balki xarakter sifatini, dunyoqarashni, badiiy didni, estetik tuyg'uni ham rivojlantiradi.

Jamoa bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan ishlaming xilma-xil shakllarini: qo'shiq ijro etishni, musiqa savodini, musiqani idrok qilishni, musiqa asboblarida chalishni, vokal ijodkorlikni o'zida birlashtiradi. Hozirgi musiqa darsi ishning xilma-xil shakllari va axborotga boyligi bilangina emas, balki texnikaviy jihatidan qurollanganligi bilan ham ajralib turadi. O'quv jarayonining mustahkam asosga ega bo'lishi haqida hozirgi vaqtda qo'yilayotgan talablarga muvofiq musiqaviyestetik tarbiyaning to'laqonli bo'lishi uchun musiqa xonasida ovozni yozib oluvchi va qayta eshittiruvchi magnitafon, nota to'plamlari, musiqaga oid kitoblar, ko'rgazmali qurollar, kompozitorlaming portretlari, proyektsiya apparatlari, tarqatma materiallar, musiqa asboblari turkumi bo'lmog'i kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. G.M.Sharipova. «Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish uchun metodik qo'llanma». -T.: RTM nashriyoti, 2001 yil.
2. P.Qodirov. «Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash». - T.: « 0 'qituvchi» nashriyoti, 1997 y.
3. X. Boymirzayev va boshqalar. «Musiqa o'rganish metodikasi». - T.: « 0 'qituvchi» nashriyoti, 1995 yil.
4. G. Sharipova «Musiqa va uni o'qitish metodikasi». - T. «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2011 y.
5. G. Shariova «Musiqa metodikasi». - T.: « 0 'zbekiston faylasuflar» nashriyoti, 2012 yEstetik tarbiya asoslari. Qushbayev N. A. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti .


## DUTOR OILASINING YARATILISHI TARIXI HAMDA TAKOMILLASHUV JARAYONLARI.


Mashrabaliyeva Barno Mashrabaliyevna

mashrabaliyevab@gmail.com

Termiz davlat pedagogika insuti[illegible]

Musiqa ta'lim mutaxassisligi 2-kurs magistra[illegible]

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayon[illegible] o'zbek xalq cholg'u asboblaridan dutor cholg'usining turlari, uning shakllan[illegible] jarayoni va ularni tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

***Tayanch iboralar:*** *Cholg'u asboblari, ta'lim-tarbiya, dutor, do'mbira, qobu[illegible] oktava, tarix, ovoz, jo'rnavoz, registr, jo'rnavoz, sharq madaniyati.*

***Annotation:*** *This article provides information about the types of Uzbek folk musical instruments, dutor, the process of their formation and their education[illegible] significance.*

***Basic phrases:*** *Musical instruments, education, dutor, dombira, qabuz, octa[illegible] history, voice, zhornavoz, register, oriental culture.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация о вид[illegible] узбекских народных музыкальных инструментов, дутор, процессе и[illegible] формирования и их воспитательном значении.*

***Основные фразы:*** *Музыкальные инструменты, образование, дутор, домбира, кабуз, октава, история, голос, жорнавоз, регистр, восточн[illegible] культура.*

Dutor juda qadimiy musiqa asbobi, uning paydo bo'lish tarixiga kels[illegible] eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha so'z bo'lib ikki tor deg[illegible] ma'noni bildiradi. Dutor asr-asrlardan o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotg[illegible] milliy musiqa cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqini[illegible] cholg'usi bo'lmay, balki uni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ha[illegible] o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi.

Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo'llanilayotg[illegible] dutor-alt deb ataladi. Bu cholg'u kichik oktava lya va mi notalarga sozlanadi. Dutor[illegible] o'xshash cholg'uni, qozoqlarda «Do'mbira», qirg'izlarda «Qo'buz» deb atashadi.



Dutorning yasalishi

Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadim o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dutor dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'llari ijro etilardi) bog'langan va bu dutorlarni xalq dutorlari deyilgan.

Dutor yasalishi jihatdan ikki qismdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismini «Bug'iz» deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasalishi mumkin. «O'yma dutor» Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qobirg'ali dutor ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi. Dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mm ni tashkil etadi.

1936-37 yillarda Toshkentda o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog'och pardali, kapron torli yangi dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali o'qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda. Dutor haqida gap borganda, albatta, uning mohir ijrochilarini eslab o'tish joizdir.

Mashhur dutorchilar: H.A.Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiylar dutor cholganlarida kishilar og'ir sukunatga cho'mib, olam-olam ma'noli hissiyotlar ummoniga botar ekan. Ulardan keyin esa Shokir Sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To'xtamurod Rasulov va boshqalar. Hozirda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G'ulom Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov, Mirsodiq Ergashev, Ro'zibibi Hojiyeva, Malika Ziyayeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar.

Dutor prima

Dutor prima dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog'i tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o'rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastasini o'yib

xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlar kvarta bo'yicha [illegible] oktavadagi mi va lya ga sozlanadi. Notalar skripka kalitida, eshitilishiga [illegible] oktava yuqorida yoziladi. Xajmi kichik oktavadagi mi-lya dan [illegible] oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi do ga qadar. Dutorlar oilasiga [illegible] cholg'u asbobi eng baland tovushga ega bo'lib, skripka kalitida yoziladi. Ikki [illegible] ipak toridan iborat ushbu cholg'u asbobi kvarta oralig'ida sozlanadi. [illegible] jihatidan rubob prima g'ijjak asbobiga o'xshab ijro etiladi. Masalan [illegible] bidratma, stakatto va hokazolar.

Dutor primani sozlanishi birinchi tor (pastki tor) mi va ikkinchi tor [illegible] tor) lya tovushlaridir. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi [illegible] oktavadagi mi tovushidan uchinchi oktava lya tovushiga qadar. Dutor [illegible] orkestrda solo chalish va jo'rnavozlik vazifasini bajaradi.

### Dutor sekunda

Yangi ishlangan dutorlar oilasiga kiruvchi ushbu dutor-sekunda cholg'usi [illegible] jihatidan o'rtacha registrda. Uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib [illegible] oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dutor primadan bir oz kattaroq qilib [illegible] ya'ni dutorlarning kosasi bir xil bo'lib, dastasinnng uzunligi har xil bo'ladi. [illegible] va dutor-kontrabas cholg'u asboblarini kosasi katta bo'ladi. Dutor [illegible] cholg'usining birinchi tori kichik oktava lya tovushiga, ikkinchi tori [illegible] oktava re tovushiga sozlanadi. Umumiy ovoz hajmi kichik oktavadagi lya [illegible] ikkinchi oktavadagi re tovushigacha.

### Dutor-bas

Dutor-bas maxsus sinfi Toshkent Davlat konservatoriyasida 1948 yil [illegible] bo'lib, A.Nazarov ushbu sinfni tugatib, hozirgi kunda 1960 yildan buyon ushbu [illegible] dars berib kelmokda. Dutor-bas iqtisosligi bo'yicha ijrochilarni tayyorlash [illegible] tarbiyalashda dosent A.K.Nazarovning xizmatlari kattadir. Dutor-bas asbobi [illegible] xalq cholg'u ansambli tarkibida bas tovushini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu asbobni sozanda o'tirgan holda ijro etadi.



Dutor bas-dutorning katta qilib ishlangan turi. Dutor basning to'rtta tori bo'lib, [illegible] kvinta bo'yicha sozlanadi. To'rtinchi tor katta oktavadagi do, uchinchi tor katta oktavadagi sol, ikkinchi tor kichik oktavadagi re va birinchi tor kichik oktavadagi lya tovushlariga sozlanadi. Lya tori ichakdan qilingan bo'lib, qolganlari [illegible]dir. Notalar eshitilishi bo'yicha, bas kalitida yoziladi. Ovoz hajmi katta oktavadagi do dan birinchi oktavadagi sol ga qadar.

### Dutor-kontrabas

Dutor kontrabasning kosasi katta-katta "Qobirg'alar" dan iborat bo'lib, dutor [illegible] ancha kattaroq qilib ishlangan. Dastasi dutor bas asbobidan uzunroq bo'ladi, [illegible] temir metaldan ishlangan bo'lib, qattiq, tortib turish vazifasini bajaradi. Dutor [illegible] dutorning torlari juda qalin bo'lib, orkestrda o'zining yo'g'on bas tovushi bilan, [illegible] registr tembrini mustahkamlaydi. Dutor kontrabasning kosasiga maxsus [illegible] olingan tayoqcha o'rnatilib, o'tirgan holda ijro etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Y. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.
2. T. Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. –T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1981-yil.
3. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. –T.: 2009-yil.
4. O. Fayziev. Musiqa o'qitish metodikasi Toshkent 1997 yil.
5. G. A. Gudkova, A. B. Vasileva Ashula darslari metodikasi Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1993 yil.
6. Y. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.

# O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIDA FORTEPIANO MUSIQASI JANRLARI MAZMUNI

*Bozorova Feruza Musurmonkulovna*
*Termiz davlat pedagogika instituti*
*2-kurs magistranti*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada ayrim kompozitorlarning ijod mahsulining tahliliy namunalari haqida bahs yuritiladi

**Kalit so`zlar:** fantaziyalar, bastakor, musiqiy ifoda, sheriy mazmun, M. Bafoev, badiiy did. **Аннотация.** В данной статье рассматриваются аналитические примеры творчества некоторых композиторов

**Ключевые слова:** фантазии, композитор, музыкальная выразительность, поэтическое содержание, М. Бафоев, художественный вкус.

**Annotation.** This article discusses analytical examples of the work of some composers **Key words:** fantasies, composer, musical expression, poetic content, M. Bafoev, artistic taste.

O'zbekiston kompozitorlari ijodida fortepiano musiqasi janrlari mazmuni doiralarining kengayishi va chuqurlashishi natijasida katta erkin shakldagi bir harakatli asarlar – fantaziyalar, balladalar, she'rlar paydo bo'ldi. Umuman olganda, ular ushbu janrning jahon miqyosidagi rivojlanishi bilan hamohang bo'lsa-da, ayni paytda yorqin milliy o'ziga xoslik belgilariga ega.

Erkin shakldagi asarlar muammoli tushuncha, to'liq tasavvur , tasvirlarni umumlashtirish, ijodiy muammolarni hal qilishda yorqin individuallashtirish bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bastakorlar dasturlashtirilgan bo'lishga moyil bo'lib , bu asarlarning majoziy mazmunini konkretlashtirishga hissa qo'shadi va romantik boshlanishning, romantik an'analarning rivojlanishining rolidan dalolat beradi. Bir harakatli kompozitsiyalar, qoida tariqasida, o'ziga xos milliy tasvirga, folklorning erkin amalga oshirilishiga va professional texnikani keng o'zlashtirishga, zamonaviy stilistik an'analarga yaqinlashishga ega. Bu milliy an'analar bilan chuqur aloqalarni ochib beruvchi yirik bir harakatli asarlarning murakkab va xilma-xil shakllarining mavjudligiga sabab bo'ladi.



Katta shakldagi bir harakatli asarlarga qiziqish ayniqsa XX asrning 90-yillari va 21-asrning boshlarida zamonaviy musiqiy san'at sharoitida an'analarni eksperiment, ijodiy sindirish imkoniyati sifatida kuchaydi.ifodalovchi vositalar. Shu ma'noda, X.Rahimovning "Yovuz odam" fantaziyasi juda qiziq va namoyondir.

Kompozitsiyaning mazmuni, dramaturgiyasi va musiqiy ifoda vositalariga o'zbek professional madaniyati an'analari ta'sir ko'rsatadi. Fantaziya o'ziga xos badiiy echimlarni, rang-barang tembr kombinatsiyalarini, pianino tovush ranglarini izlash bilan o'ziga jalb qiladi.

"Yovuz" - o'ta temperamentli, raqsga o'ynoqi, hissiyotlarni uyg`otuvchi asar. Bastakor unda masqaraboz san'atining hayotbaxsh an'analarini o'ziga xos tarzda aks ettiradi . Chunki X.Rahimov ijodi mashhur G'afur qissasi motivlaridan ilhomlangan.G'ulomning "Yovuz" asari ijrochi o'zbek mumtozning ushbu asariga murojaat qilib, bolalikdan bizga ma'lum bo'lgan hikoya obrazlarini xotirasida yangilashi kerak.

Asarning spektakl rejasi haqida fikr yuritar ekanmiz, albatta, hikoya qahramoni G'afur obraziga e'tibor qaratish lozim.G'ulom - quvnoq, o'ynoqi jinni, hazillari va oldindan aytib bo'lmaydigan nayranglari bilan to'xtatib bo'lmaydigan. Asar mohiyatiga ko'ra, hikoya qahramoni bilan bog'liq bitta musiqiy obrazning rivojlanishiga asoslangan. Bastakor yaramas odam obrazini ochish uchun qiziqarli tembr, registr, tekstura usullarini topadi. X.Rahimov dastlab xalq musiqa san'atining xususiyatlarini hayotga tatbiq etgan holda cholg'u folklorining dualizmi bilan bog'liq bo'lgan zarbli-ohangdorlikning o'ziga xos usullaridan foydalanib, o'zining fortepiano yozuviga moslashuvchanlik beradi.

Ikki oktavali unison), zich to'yingan akkordlar , tremolo, akkord-interval zanjirlari bilan taqqoslash usullari ayniqsa qiziq . Raqsga yaroqlilik fantaziyada tokkatoness bilan sintezlanadi . Perkussiya bilan mashq qilish texnikasi o'ziga xos zarblilik hissini qoldiradi - rang-baranglik, zarbaning sonoristik talqinini beradi.

Musiqaning energetik dinamik, qiyinlik tabiati asarning birinchi o'lchovidan darhol o'ng va chap qo'llardagi keskin dissonant kichik soniyalarning ovozi bilan aniqlanadi.

Bundan tashqari, o'ng qo'lning bir qismidagi soniya uzun, chap qo'lda esa qisqa va keskin eshitiladi. Sekuntlar ovozi kuchli va kuchli barmoqlar bilan chiqarilishi kerak. 6-o'lchovda xarakterli ritmik formulani tayyorlaydigan 3-o'lchovda ikkinchi motivning turli xil takrorlanishini samarali ijro etish uchun siz 2-o'lchovdagi pauzalarni albatta tinglashingiz kerak . Ushbu ritmik formula 15-o'lchovda namoyon bo'lgan asarning asosiy mavzusining ritmik ramkasini oldindan ko'radi.

Ijrochi uchun 11-14-bandlardagi kirishning yana bir juda samarali bo'limiga e'tibor berish muhimdir. X.Rahimov bu yerda tovush fazosida yaqin joylashgan klasterlar kabi tremolo tovush birikmalaridan foydalanishga asoslangan qiziqarli sonoristik usuldan foydalanadi. Tremolo ajralmas akustik butunlikka birlashadi. bu vaqtning o'zida tovush diapazoni oktavadan oshmaydi. Ushbu bo'limda odatiy ritmik noaniqlik va mo'l-ko'l pedallar bilan romantik musiqaning bilak vibratosidan farq qiladigan barmoq vibratosidan foydalanish tavsiya etiladi. Tremolo dinamikasi kuchayadi, kuchayadi. ikkinchi klasterda ff 13-o'lchovda maksimal darajaga etadi, faqat yuqori ovoz tovushini - birinchi oktavaning "fa" tovushini qoldiradi. Shovqin rejasida tovushlarni yaqin tartibga solishning ishlatiladigan akkordlari ishlamay qolishiga , rejimning individual bosqichlari orasidagi funktsional farqlarni yo'q qilishga yordam beradi. Tegishli ohang momenti yuqoridagi "F" yassi ovozi va bu tovushning 13 14 o'lchovli tovushi yordamida keskin ta'kidlanadi, shundan so'ng mos yozuvlar ohang yarim ohangni yuqoriga ko'taradi va asosiy mavzu tabiiy F minorda yangraydi. ikki oktavali gorizontal proyeksiya.

Kuchli dadil, impulsiv, u chidab bo'lmas tokkato harakatida rivojlanadi. Mavzuning tovushi faol, ritmik jihatdan aniq, xarakter jihatidan doira tembriga yaqinlashishi kerak.

X.Rahimov buyumning o'rta kesimida materialning intensiv tekstura o'zgarishi ya'ni akkord vertikalini siqish va registr maydonini kengaytirishdan foydalanadi. Faol garmonik rivojlanish, chorak kvint va ikkinchi komplekslardan foydalanish cheksiz keng registr diapazonida joylashgan hajmli tovush timsolining uyg'unligini yaratadi. Bu, albatta, pianinochining katta hajmdagi asbob-uskunalarni yaxshi bilishini, o'yinda apparatining mushak erkinligiga ega bo'lishini talab qiladi.



Faol vosita mahorati sohasi ijrochini pianinoning zarba xususiyatlarini puxta egallashga majbur qiladi. Yuqori balandlikdagi tovush omili rangli, zarba-shovqin elementi ta'sirida kuchayadi. Beat musiqaning ritmik konturini, uning tematik mazmunini, tonal-garmonik va tembr tuzilishini belgilaydi. X.Rahimov qo'llagan variatsiya usuli asosiy tasvirni turli yorug'lik sharoitlarida ko'rsatish imkonini beradi: o'zgarmas mavzu teksturasi bo'yicha har xil bo'lgan va har xil uyg'unlashuvni qabul qiluvchi taqdimot turlari bilan birlashtiriladi.

Fantaziyadagi musiqiy rivojlanish dinamik to'lqinlar orqali amalga oshiriladi, bu har safar yorqin avjiga va nihoyat, 77-bardan boshlab butun asarning umumiy kulminatsion zonasiga olib keladi. Bu tovushning keng diapazoni, tovush ranglarining quvariqligi va tembrlarning ta'sirini talab qiladi.

Keng tarqalgan tekstura, uning ikkita yuqori sathi pedal bilan ushlab turiladi. 79-80 o'lchovlarda musiqiy matndagi ko'rsatkichga muvofiq ikki o'lchov uchun uzun pedalni ushlab turish maqsadga muvofiqdir.

Fantaziya ustida ishlashda musiqaning yorqin milliy xususiyatga ega ritmik tomoni alohida e'tiborni talab qiladi. Ritmik atmosferaning timsoli tematizmning ritmik va melodik ekspressiv imkoniyatlarini chuqur ochib berishga yordam beradi . Ritm mexanizatsiyalashtirilmasligi kerak, u jonli, impulsiv va o'ynoqi bo'lishi kerak.

Fantasy "Mischievous" - kontsert nuqtai nazaridan ajoyib va g'alaba qozongan asar. Uni talqin qilishda yuqori badiiy natijaga erishish uchun dinamik ishlash rejasini bir butun sifatida diqqat bilan ko'rib chiqish kerak. Asar hissiy o'sish chizig'i bo'ylab , spektakl kompozitsiyasining yakuniy bosqichida bo'lgan avjiga qadar qurilgan.

Rolni o'ynagan va sof sonoristik ma'noga ega bo'lgan kirish va xulosaning o'rni juda katta. Fantaziyaning so'nggi uchta o'lchovini iloji boricha yorqin, samarali va dramatik tarzda ijro etish, kompozitsiyaning optimistik kontseptsiyasini yana bir bor tasdiqlash muhimdir.

M. Bafoevning . "Hofizga bag'ishlash"nomli asari.

Bu asar bir harakatli katta erkin kompozitsiyaning asl namunasidir. Asar pianistik nuqtai nazardan qiziq, chunki u birinchi navbatda impressionistik pianizm chizig'ini davom ettiradi va rivojlantiradi. Intonatsion go'zallik, yumshoqlik va

plastika, ritmik konstruktsiyaning moslashuvchanligi, improvizatsiya , musiqiy tafakkurning qat'iy mantig'i bilan qo'shilib, kompozitorga o'z niyatida muvaffaqiyatli yordam berdi, kompozitsiya texnikasidagi kuchli mahorat musiqa materialini yoritish va uning imkoniyatlarini ochish imkonini berdi.

Sharqning buyuk shoiri – Hofiz obrazi bilan bog'liq , shuning uchun ham musiqaning umumiy emotsional tuzilishida poetik tamoyil ustunlik qiladi. Bu o'rinda ikki ijodkor – M.Bafoyevning o'zi va Hofizning ma'naviy muloqoti haqida gapirish mumkin .

M.Bafoyev " Hofizga bag'ishlov "da impressionizm an'analarini ijodiy rivojlantiradi. Impressionistik texnika yordamida bastakor she'riy obrazning sirli ramziy muhitini o'zida mujassam etadi, go'zal bilan muloqotda bo'lgan har bir kishini qamrab oluvchi keskin psixologik bolatni yetkazadi. Tekstura va garmonik texnikaning barcha vositalari landshaftning rangi va yorqinligini etkazishga qaratilgan. Asarda tembr katta ekspressiv ma'noga ega.

Asarning jonli she'riy mazmuni uning rivojlanishiga rahbarlik qiladi, pauzalarni belgilaydi, tafsilotlarni ilhomlantiradi, nisbatlarni muvozanatlashtiradi. Ijrochi nafaqat M.Bafoyev musiqasi , balki hofiz she'riyati ham turtki bo'lgan, nafis va nafis, boy she'riy tasavvurga ega bo'lishi, asarning badiiy mazmunini idrok etishi uchun unga sho'ng'ib ketishi kerak.

A. Hoshimov, U.Gajjibekovning " Quyosh botishi" mavzusidagi fantaziyasi kontsert rejasining batafsil kompozitsiyasidir. Fantaziya 2001 yilda yaratilgan bo'lib U.G'ajibekovning " Sansise " romansining O'zbekistonda birinchi ijrochisi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi yetakchi professori M.N.Rizaevaga bag'ishlangan bo'lib, bastakorni ushbu romans mavzusida fortepiano asarini yozishga taklif qilgan. . Ushbu go'zal kompozitsiya pianinochiga pianino resurslarining eng boy tovushlarini namoyish qilish uchun keng imkoniyat yaratadi. Asarda Uzeyir G'ajibekovning " Sansise " romansi musiqasiga jo'r bo'lishidan kelib chiqqan chuqur poetik g'oya mujassam . Bu holat asarda ulug' shoir Nizomiy obrazi va uning ijodi bilan bog'liq ma'lum dastur mavjudligini belgilaydi .



U.Gajibekovning "Sansise" fantaziyasi romansining strofik tuzilishiga yaqin, yaxlit, ixcham shaklga ega . List pianizm an'analarini ijodiy rivojlantirgan kompozitor hayot va muhabbat go'zalligini tarannum etuvchi yorqin kompozitsiya yaratdi. A.Hoshimov ijodi , eng avvalo, romantik ruhiyatgaga boy hissiyot palitrasi, his-tuyg'ular namoyon bo'lishining lirik ifodasi bilan o'ziga tortadi. Bu tom ma'noda ehtirosli lirik chiqishlar bilan ochiladigan, shoir sevgisining to'kilishi, to'kilishi bilan ochilgan asarning dastlabki satrlaridayoq seziladi .

Kirishning bajarilishi pianinoning tovush ranglarining yorqinligini, mukammal erkinlikni, nafas olishning bo'sh va kengligini, fresk uslubini talab qiladi. Kirish qismida vaqt belgisi yo'q, shuning uchun pianinochiga metr-ritmik rejada to'liq erkinlik beriladi. Muqaddima materialining ritmik tashkil etilishining o'lchagichidagi asosiy mezon san'atkorning badiiy didini his etishi va ijro etilayotgan musiqa uslubini anglashi hisoblanadi. Kirish bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan elementlarni taqqoslash asosida qurilgan: qo'ng'iroq akkordlari, resitativ-deklamaativ undovlar, virtuoz parchalar, lamento intonatsiyalari . Muqaddimani bajarayotganda lirik obrazning poetik kayfiyatini, yuksak ma'naviyatini his qilish kerak. Kirishni yakunlovchi tushuvchi ibora maxsus kirishni talab qiladi. Uning turli registrlarda uch marta takrorlanishi: birinchi navbatda yuqorida, keyin o'rtada va pastki qismida turli xil tembrli yoritishda o'ynash, asta-sekin ranglarni qalinlashtirish va tempni sekinlashtirish kerak.

**Adabiyotlar.**


1. Гизекинг В. Мысли художника. «Советская музыка», 1970. № 7.

2. Polatxanova N. Uzbekiston kompozitorlarining fortepiano asarlarida metro-ritm xususiyatlari. T., 2013.

3. А. Л.Островский Спутник музыканта изд: "Музыка" Петербург. 1969 400-стр.

4. Л. Михеева Музыкальный словарв рассказах. М: 1968 174-стр.

4. I. A. Akbarov Musiqa lo'g'ati T., G' G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1987 445-bet.

# BO`LAJAK MUSIQA O`QITUVCHISINING O`RGATISH JARAYONIGA PEDAGOGIK YONDASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

*Bozorova Nurya Musurmonqulovna*
*Termiz pedagogika institute*
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa fani o`qituvchisining shaxsiy rivojlanishi, pedagogik xususiyatlarini baholash hamda tahlil qilish haqida bahs hamda munozara qilinadi

**Kalit so'zlar:** shaxsiy rivojlanish, musiqa san'ati, pedagogik mahorat, badiiy vositalar, ijodkorlik, ma'naviy, qo'shiq, kuy, uslub, vosita.

## KIRISH

Bugungi kunda o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini musiqa fanini o'qitish jarayonida ularni malakalarini puxta egallash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu jarayonda asosiy rolni musiqa o'qituvchisi o'ynaydi. Uning faoliyatiga katta e'tibor berish zarur. Musiqiy ta'limning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki bugun musiqa o'qituvchilari egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviy-axloqiy sifatlar, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishning omili sifatida amalga oshirilmoqda. XXI asrda axborot kommunikatsiya ko'lamining keskin o'sishi, insonlarda ma'naviy ehtiyojning o'sishi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini yangi darajaga ko'tardi. Chunki, nafaqat ta'lim mazmuniga, balki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, o'quvchilarni madaniyatini o'stirish, uning yo'llari shakllariga ham talab oshmoqda.



## ADABIYOTLAR SHARHI

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan.

Buyuk pedagog A.Avloniy shunday degan edilar "Tarbiya qiluvchilar tabib kabidirlar, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi".

Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson boiishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi" !. deb takitlaganlar o'z asarlarida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.[5]

Musiqa o'qituvchisi ajoyib sozanda bo'lishi zarur. Uning faoliyatining muvaffaqiyatliligini musiqa asbobida a'lo darajada chala olishi, ovoz, nozik eshitish qobiliyati, nota savodxonligi, ifodali o'qish kabi xislatlarini aniqlab beradi. Bu masalada D.B.Kobalevskiy shunday deb yozgan edi. "Musiqa o'qituvchisi bilish" zarur bo'lgan barcha bilimlar ichida uning musiqa asbobida chala olishini aloxida takidlash zarur.[2]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa va ashula san'atlari yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maksadliligi va izchisligi bilan tavsiflanadi. Xozirgi zamon sharoitida bo'lajak musiqa o'qituchilarini shaxs sifatida shakllanishlari, ijtimoiy munosabatlarini rivojlanishi bilan bu jarayonda sodir bo'ladi. Shaxsni tarbiyalash jarayoni rejalashtirilgan mazmun va mohiyat evaziga amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy ta'limning barcha institutlarini ta'lim-tarbiya funksiyalarining koordinatsiya asosida optimal boshqarishga imkoniyat beradi. Ular orasidagi maktab, oila, mexnat jamolarini o'zaro xarakatlari, o'ziga xos ijtimoiy

axamiyatga ega bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli korxonalarga tayanganligidir. Ta'lim mazmunida pedagogik va musiqiy tayyorgarlik elementlarini kesishuvi yotadi. Zamonaviy ilmiy-texnika rivojlanishining asosiy xususiyati, fan va texnika yutuqlarini inson foliyatini barcha soxalariga joriy etishdan iboratdir. "Texnika" – so'zining ma'nosi bugungi kunda kengaydi, yengi u oddiy qurol vositalari bilan chegaralanib qolmay, o'z ichiga ma'lum bir ilmiy-texnik bilimlarni xam qamrab oladi. Shu sababli, bu bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kasbiy va texnik tayyorgarligi bugungi kunda quyidagilarni ta'minlashi zarur:

-birinchidan, yetarlicha yuqori darajadagi kasbiy bilim va malakalar bu bilimlar nafaqat ijro amaliyotida shuningdek, ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashda imkon berishi kerak;

-ikkinchidan – avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarli ishlashi olishi uchun shaxsda individual xususiyatlar va dunyoqarashni shakllantirish zarur. [3]

Umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning estetik tarbiyalash yechimini topishda musiqa madaniyati darslari katta imkoniyatlarga egadir.

## NATIJALAR

Asosiy vazifalardan biri –maktabning o'quv-tarbiya faoliyatini yangi sifat boskichiga ko'tarish, uni jamoalar bilan o'zaro ta'sirini kuchaytirishdan iboratdir. Buning natijasida o'quvchilar o'quv jarayonida tanlagan ma'lum bir kasbini tanlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Bu vazifa maktablarni yuqori malakali musiqa madaniyati o'qituvchilari bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimi bir-biriga bog'liq-turg'un birlik, butunlik, integral xususiyatga ega bo'lgan qonunlarga asoslanadi.

Musiqa o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida o'quv dasturlari bilan asosan uyg'un birlikni xosil qilib, maktabga yo'naltirilgan turli fanlar bilimlarning majmuasiga tayanadi. Ayrim o'quv rejalari mantiqiy

-tuzilishida quyidagi aloqa turlari katta axamiyat kasb etadilar;

-turli o'quv fanlarida ko'rib chiqiladigan obektlar orasida;



-turli o'quv fanlarda tushuntiriladigan turli obuktlar nazariya qonunlari orqali;

-talabalarni amaliy xarakatlari va tadqiqot uslublar orqali;

-ayrim fanlar qonunlarini umumiy falsafiy tushunchalarga birlashtirish orqali.

Darsda mexanik yozuv yordamisiz qiynalish mumkin, ayniqsa sinfda xor, orkestr yoki opera saxnasi yangrashi kerak bo'lsa bunday jarayonida musiqa asbobi jonli ijro o'rniga ishlatilmay, o'qituvchi ijrosiga yordamchi sifatida qo'llanilishi kerak. Bu quyidagi uch nuqtai nazardan o'ta zarur:

-birinchidan – jonli ijro hamma vaqt sinfda hayajonli muxatni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;

-ikkinchidan – jonli ijro vaqtida o'qituvchi kerakli vaqtda hamisha to'xtashi, zarur deb hisoblangan parchalarni takrorlashi mumkin, boshlanish vaqtida qaytish imkoniyati bo'ladi va hakazo;

-uchinchidan, musiqa asbobida chala oluvchi uning ustiga yaxshi kuylovchi musiqa o'qituvchisi, o'z o'quvchilari uchun yaxshi kuylovchi musiqa o'qituvchisi, o'z o'quvchilari uchun yaxshi namuna bo'lib, amaliyotda musiqani o'zi ijro eta olishi qanday zarur va qiziqarli ekanligini ko'rsatadi.

Musiqa asbobida chala olish, ovozga, dirijorlik mahoratiga ega bo'lish, bular musiqa o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan bilimlarni to'liq ro'yxati emas. Umumta'lim va pedagogik-psixologik mazmundagi fanlar asosida yig'ilgan musiqiy tarbiya uslubiyotiga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Lekin, bu faqatgina mahoratga katta pedagogik mehnat evaziga yig'ilgan tajribaga, izlanish va o'zo'zini doimo manfatlaridan voz kechish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Xozirgi kunda musiqa o'qituvchisi kasbi ilmiy tadqiqot mavzusiga aylanib borayapti. Pedagogik tadqiqotlar olib borilib, o'qituvchi faoliyatiga qo'yilgan talabalarni yorituvchi makolalar chop etilayapti.

Psixologiya va pedagogikaning zamonaviy tadqiqotlariga tayangan holda musiqa o'qituvchisini asosiy faoliyat turi quyidagicha hisoblanishi aniqlandi:

-tadqiqotchilik (musiqa asarlari va san'atning boshqa turdagi asarlari; hamkasblar tajribasi, o'qituvchilar va o'zining ishini taxlil qilish; o'z ishida qo'llash maqsadida ilmiy va uslubiy adabiyotni o'rganish);

-kinstruktivlik (darslar, darsdan tashqari musiqa mashg'ulotlar) tuzilishi;

-loyihalish (o'qituvchilarning ma'naviy-estetik tarbiyasiga qaratilgan o'quv tarbiyaviy vazifalarni taqsimlash va rivojlantirish, o'qituvchilarning bilimlarini egallashlari, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllanishi, ularni musiqiy va ijodiy rivojlanishi);

-kommunikativlik (o'quvchilar bilan ishonch va xurmat asosida o'zaro munosabatlar o'rgatish; o'quvchilar orasida obru-e'tiborga ega bo'lish); tashkilotchilik (o'quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga yechish).

So'zsiz, bularning hammasi bir biri bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarni musiqiy tarbiyasi vazifalarini yechishga yunaltirilgan. Dars jarayonida ma'lum bir bilimlarning ishtirok etmasligi pedagogik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa o'z navbatida kutilayotgan natijalarni bermasligi mumkin. Ushbu bilimlar to'g'risida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Musiqa o'qituvchisi ma'lum darajada tadqiqot ishlari olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib, aytish kerakki darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish musiqa madaniyati o'qituvchidan hamisha ijodiy yondoshishni bilimlarini, professional tajribani faol namoyon etishni talab etadi. Musiqa darsi o'qituvchi ijodi natijasi sifatida o'quvchilarning ichki dunyosig g'oyaviy – xissiy kuch sifatida ta'sir etib ularda musiqaga qiziqishni, u bilan muamila qilishiga extiyoj to'g'diradi, o'quvchilarda kompyuterlarni o'rganishda texnik fikrlashga, tadqiqotchi nuqtai nazaridan yondashishga asoslanadi. Bizning pedagogik oliy o'quv yurtida ish tajribamiz shuni ko'rsatadiki, dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnolgiyalar orqali ashula va musiqa mashg'ulotlarini o'tkazilishida talabalarni eshitish qobiliyatini yaxshilaydi musiqiy bilimni shakllantiradi, kompyuter savodxonligini va tushunish odatlarini tarbiyalaydi, musiqani o'rganish jarayonini taxlil qilishni o'rgatadi, Musiqiy jarayonni takomillashtirish yollarini izlash, ya'ni chin dildan, topkirlik bilan ishlashga o'ynaydi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda, ular ega bo'lgan bilim va ko'nikmalar birgalikda maqsadli tizimini tashkil etgan, ilmiy g'oyalar, qonunlar, tushunchalar, ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarining pedagogik faoliyatda qo'llanilsagina



muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Uzviy tamolyiligiga rioya qilish birinchi navbatda o'quv rejalari, dastur va darsliklarini kayta ko'rib chiqib tuzish uchun ham zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Mirziyoev Sh M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlashyurt tarakkiyoti va xalk farovonligining garovi. T,, Uzbekiston''2017-48b.

2.Baubekova G.D., Xalikova G.T. Innovatsionnыe texnologii optimizatsii uchebnogo protsessa. V kn.: Obrazovanie: opыt, problem, prespektivы. Uchebnoe posobie. T.: "YaNGI ASR AVLODI", 2001. – s. 67-99.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori G'G'Ta'lim taraqqiyoti jurnali., 2004--. 5-son.

4.O'zbekiston Respublikasi XTVning "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 149sonli buyrug'i G'G' "Ma'rifat" gazetasi. – T.:2006 yil, iyun.

5. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", - T.: "Ma'naviyat nashriyoti", 2008-yil.

## QASHQAR RUBOBINI O'RGANISHNING DASTLABKI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKALARI

*Gadoyeva Muborak Jumaqulovna*
*Termiz davlat pedagogika institute*
*2-kurs magistranti*
*muborakgadoyeva@gmail.com*

**Annotatsiya.**Musiqa san'ati tushunchasida birinchi tasavvur etiladigani bu kuy, ya'ni ohangdir. Inson turli ifoda vositalari bilan o`z fikrlarini bayon etib, dilidagi his-tuyg`usi va mulohazasini boshqalarga yetkazuvchidir. Musiqa, kuyning yangrashi, albatta, musiqiy cholg`ular yordamida amalga oshiriladi. Ana shunday cholg`ulardan biri bu qashqar rubobidir. Rubob tarixi uzoq o`tmishlarga borib taqaladi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, san'at, mahorat, ijrochilik, uslub, tajriba, rubob, qashqar rubobi.

Rubob qadimiy cholg`ulardan biri bo`lib, shu kunga qadar xalqimiz qo`lidan tushmay kelmoqda va ijro etish san'ati takomillashib bormoqda. Bu jarayonni yanada rivojlantirish uchun kelajakda yetuk mutaxassislarni tayyorlashda, cholg`u ijrochiligida musiqiy ta'limning uzviyligi, o`quvchi-yosh o`quvchilarga o`rgatishda, nazariy va amaliy bilimlarini egaliashlari zarurligi, qashqar rubobini o`rganish chap qo`l barmoqlarini to`g`ri qo`yish ko`nikmasini shakllantirish, va mustahkamlash, pozitsiyalar almashinuvi, shtrixlarni puxta egallashi, cholg`u grifida notaning joylashini topa olishi, notani o`qish va tordan-torga o`tish kabi murakkab jarayonni diqqat bilan udallashlar zarur bo`ladi.[18]

Qashqar rubobida ijro mahorati, ijrochilik san'atining ko`pgina kopleks masalalarini o`z ichiga oladi.

Chap va o`ng qo`llardagi turli harakatlar hamda uslublarning shakllanish jarayoni ancha murakkabdir. Shuning uchun qashqar rubobida ijro etish texnikasi ustida ishlaganda har bir qo`lni alohida-alohida, ikkala qo`lni birga ma'lum maqsad va vazifaga bo`ysundirishga etishish lozim.

Ushbu maqola qashqar rubobining boshlang`ich dars berish jarayonidagi ta'lim muammolari, musiqiy savodxonlik ta'lim asoslarini nazariy va amaliy masalalari yoritilgan bo`lib, muallifning ko`p yillik pedagogik tajribasi samarasidir.

Qashqar rubobida chalishni o`rgatishni dastlabki vazifasi bo`lib, qoida tariqasida, nimalarga diqqatni jamlash kerakli bo`lgan bir qator tarkibiy qismlarni o`z ichiga oladi, Bunga quyidagilar kiradi: Eshitish qobiliyatini rivojlantirish, Rubobda ovoz chiqarish usullari va uslublarini shakllantirish, musiqiy savodxonlik asoslarini o`rganish va boshqalar.

Lekin har doim o`quvchilarda uchratib turiladigan kamchiliklardan biri bu Qashqar rubobni to`g`ri tutish (pastanovkasi), qanday qilib ovoz chiqarish kerakligini to`g`ri o`rganish kerak. Shu munosabat bilan, Qashqar rubobini chalishda sozlashni, o`zlashtirish davrini bir qator elementlarga ajratish kerak, ular ustida alohida mashq qilish kerak.

[18] F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent. 2004.

Shunday qilib, biz mashqni "belgilangan maqsadga erishish uchun o`quvchiga taklif qilingan topshiriq" deb atashimiz mumkin.

Birinchi darslarda o`quvchi uchun mashqlarni o`qituvchi belgilaydi. Bulachevskiy va Fominlar "Qisqacha musiqiy lug`ati"da mashqqa quyidagi ta'rifni berishadi: "Ijrochining texnik tayyorgarligi uchun mo`ljallangan turli xil ohanglar variattsiyalar va parchalar". Bizning mavzumizda biz mashg`ulotning dastlabki bos qichlarida bir-biridan farq qiladigan vazifani qo`ydik.

Shu munosabat bilan Qashqar rubobini chalishni o`rganishning dastlabki bosqichlarida o`quvchi duch keladigan asosiy elementlarni aniqlash zaruriyati tug`ildi.

Masalan: Agar o`quvchi Ruboh chalishda mediatorni qanday to`g`ri tutish va undan qanday foydalanish bo`yicha mashqlarni bajarmasa, biz "Tremopo shtrixi-dagi davomiyligi davomida doimiy notalar cho`zimini ijro eta olmaymiz."

Simlardagi zarblarni qo`lning sekin harakatlaridan boshlab, so`ng ularni asta-sekin tez harakatlarga keltiring. Yana bir holat, agar o`quvchi asbobni olib, uni chaladigan holatlarda ular o`zlarining kuzatuvlaridan foydalangan holda qo`lga olishadi. Ammo, u qo`llarini professional tarzda qo`yib, asbobga yo`naltirilgan xolatni berishi bilanoiq, o`quvchini yelkalari va qo`l mushaklari bunday xarakatda ishlatilmagan yelkalarning, qo`llarning mushaklari charchashi tabiiy xol.

Shuni yodda tutish kerakki, o`qituvchi o`quvchining tayyorgarligini hisobga olgan holda mashqlarni izlashi kerak.

Qashqar rubobini o`rganishdagi dastlabki darslar davomida, ko`p yillik nazariy va amaliy izlanishlar, tajribaga tayanib rubob chalishni shakllantirishga ishtirok etadigan uchta muhim tarkibiy qismni ko`rib chiqish tavsiya etiladi:

1. Qashqar rubobining holati (pastanovka)
2. Ovoz chiqarishda vositachining roli. (mediator)
3. Chap va o`ng qo`l texnikasini rivojlantirish.[19]

Bularni ko`rib chiqib, shaxsiy amaliy va pedagogik tajribaga asoslangan holda mashqlarni tavsiya etamiz. Qashqar rubobida pastanovka (rubobni to`g`ri ushlash),

---

[19] Feoktist Nikiforovich Vasilyev. Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi. Toshkent, 1978.

chalish holatiga siz quyidagilarni bajarishingiz kerak: Ijroni to`g`ri, erkin bajarish uchun, oyoqlaringizni yelkangizning kengligida qo`ying. Yelkalar pastga, bo`shashgan bo`lishi kerak.

Aqliy ravishda, asbobsiz, cha qo`lni tirsak qo`shimchasiga bukilgan holda ko`taring, shunda qo`l yelka darajasida bo`ladi. Bunday holda, chap qo`lning barmoqlari yarim doira shaklida egilgan bo`lishi kerak. Rubobning dasta qismi bosh barmog`ining yaqinida, ya„ni ostida bo`lib, dastadan uzoqda bo`lmasligi taklif qilinadi.

Tirsakni qo`shimchasida bukilgan o`ng qo`l ijrochining tanasiga bosilmasligi va taxminan 10 sm masofada yoki musht bo`lishi kerak. [20]

Bunday holda rubob tanasini ya'ni dastani ushlab turganda uning uchta aloqa nuqtasi borligini tahlil qilish kerak – tirsak, yelka bo`g`imlari va ko`krakning pastki qismiga bosilgan holda bo`lishi kerak.

Rubob bilan keyinchalik, ushbu mashqni takrorlashda, Rubobning dastasidagi chap qo`lning holatiga e'tibor berish kerak. Bu mashq o`quvchining jismoniy imkoniyatlari bilan bog`liq bo`lishi kerak, albatta.

Bu barcha tayyorgarlik harakatlarini biz Qashqar rubobida chalishning shakllanishdagi dastlabki nashqlari deb atashimiz mumkin bo`ladi. Rubobni to`g`ri tutishning ushbu mahoratini rivojlantirishda o`quvchi-o`quvchining mushak charchoqlarini pasaytirish muhimdir. Shuning uchun, agar ushbu mashq bir necha marta takrorlanmasa, unda rubob chalishning dastlabki darslari qisqa muddatli bo`lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib dars jarayonida mashq vaqtini shunday taqsimlash kerakki, dam olish daqiqalari ham bo`lsin.

Ijro jarayoni mahoratini ongli ravishda shakllantirish avvalombor, mediator bilan ishlash vazifasini to`g`ri bilish, rubobda tovush chiqarish sifatiga ta'sir qiluvchi bir qator omillarni tahlil qilish kerak.

[20] F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, 2004.



Bunga quyidagilar kiradi: sifat, mediator nimadan yasalganligi, shakli, tovushni rubob simini qayerdan chiqarilishi, mediatorni to`g`ri tutilishi, harakat tezligining rivojlanishi, uni qaysi burchagidan tovush chiqarishni bilish kiradi.

Mediatordan foydalanishning dastlabki mashqlarini ko`rib chiqamiz (bu yerda, albatta, mediator barcha kerakli talablarga javob berishi nazarda tutamiz).



Mediatorni to`g`ri ushlash uchun o`ng qo`lning bosh barmoqning birinchi bo`g`ini oralig`ida ushlab turish kerak. Shunda mediatorni turish holati shunday bo`lishi kerakki, xuddi go`yo ko`rsatkich barmog`ining ikkinchi bo`g`inni davomi bo`lishi shart.





*O'ng qol 2-rasm O'ng qo'l rubob bilan 3-rasm*

Mediatorni to`g`ri ishlatish uchun siz quyidagi mashqlarni bajarishingiz kerak (2-3 rasmlarga qarang). Yuqorida yozilganidek, mediatorni o`ng qo`lga olib,qolgan

barcha barmoqlar, yarim aylana shaklida egilgan holatda, ularni bir-biriga yaqinlashtiringki, shunda barmoqlar o`rtasida bo`sh joy qolmasin.

Plektor asboblarida, xususan, rubobda kontelina, ohangdor tovushni shakllantirish uchun tremolo texnikasi bilan chalish orqali amalga oshiriladi.

Qashqar rubobida o`ziga xos tartibga ko`ra, mediator bilan pastga chalish osonroq va bundan tashqari tovushlarni sifati, kuchli eshitilish jihatidan mediator bilan pastdan yuqoriga berilgan zarbadan biroz farq qiladi. Tremoloda chalish tex-nikasini ishlab chiqishda o`quvchi o`quvchilarga rubob torlariga sekin chalib, so`ngra asta-asta tezlashtirishdan boshlashni tavsiya beramiz.

O`quvchi ham rubob dastasini to`liq o`zlashtirmagan bo`lsada tremolo texnikasini ochiq simlarda mashq qilishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda barcha torlarni bir xil qiyinchiliklar bilan chalish mumkin emasligi tajribada kuzatilmoqda.

Bu birinchi sim – *lya* da chalish oson, ikkinchi – *mi* da biroz qiyinroq, uchinchida esa qiyinroq.

Bu uchchala simlarning har xil tarangligi va ularni joylashishi bilan bog`liq. Bunday holda, o`ng qo`l tovush chiqarishda qo`lning holatini o`zgartirish mumkin. Birinchi qatorda tremolo boshlash tavsiya etiladi:

Birinchi – *lya* simida. Masalan:



Ikkinchi – *mi* simida. Masalan:



Uchinchi – *si* simida. Masalan:



Tremoloning bir tekis tovushini hosil qilishda juda muhim lahza bu tovushning boshlanishi yoki tovushni rivojlanib va uni tarqalib tugatish paytidir. Ko`pincha, ushbu



omil ustidan ijrochi nazorati mavjud bo`lmaganda, asossiz aktsentlar mavjud bo`ladi.



Bunday holda, albatta, mashq jarayonida aktsentga yo`l qo`ymaslik uchun mediatorni yuqoriga ko`tarish bilan simdan uzish kerak.

Qashqar rubobida ijro etish ko`nikmalarini rivojlantirish, ovoz chiqarishda ...nchining o`rni bo`yicha biz rubobni chalish jarayonida chap va o`ng qo`llarning ... ta'siri masalasiga mantiqiy yondashamiz.

Bu yerda o`quvchining ongi chap va o`ng qo`lining barmoqlari texnikasining muvofiqlashtirilgan harakatlarini rivojlantirishga faol yo`naltirilganligiga e,,tibor qaratish lozim. Odatda, o`quvchi barmoqlarini rubob simiga qo`yish vazifasi bilan ... kelganda, u barmoqlarini asbobning parda (ladiga yaqin) pog`onasiga, barmoq ...ini joylashishiga ishonch hosil qila boshlaydi. Shu bilan birga, o`ng qo`l bilan rubob simiga zarbalar e'tiborga olinmay qoladi. Demak, ko`pincha o`ng qo`l bilan zarbalar rubob simidan o`tib ketgani kuzatiladi.

Dastlab, o`quvchi uchun bu vazifani bajarish qiyin, u ko`rish qobiliyatiga murojaat qilishni boshlaydi. Biroq, bir muncha vaqt o`tadi va o`quvchi bir vaqtning ...da kerakli ovozni ko`rishni boshlaydi. Ushbu jarayon avtomatlashtirish holatga keladi.

Ijro jarayonidagi mahorat rivojlanib, oshib borishi harakatlarni estetik tomonlariga rioya qilish kerak, barmoqlar asbobning dasra qismidan baland ko`tarmasdan va mediatorning zarbasidan chap qo`l rubob simlaridan uzoqlashmasligi kerak.

Bunday nazoratning ma`nosi mutlaqo aniq va u ratsional harakatlardan saqlanish, balki ularni maqsadga muvofiq ravishda tuzatishdan iborat. Bunday holda quyidagi mashqlarni tavsiya etish mumkin:




Ammo zarblar kombinatsiyasi o`quvchini o`ng qo`lning ratsional harakatlariga rioya qilishga majbur qiladi. Amalda biz ishonamiz; chap qo`lning birinchi va ikkinchi barmoqlari uchinchi hamda to`rtinchi barmoqlarga qaraganda ko`proq rivojlangan ekanligini ko`rish mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, qashqar rubobini chalishdagi boshlang'ich darslarni o`rganishimiz va uning kamchiliklarini o`rganib chiqishimiz mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Katta musiqa kitobidan. Toshkent, 1975
2. Feoktist Nikiforovich Vasilyev. Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi. Toshkent, 1978.
3. Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, 2004.
4. www.ziyonet.uz
5. www.arxiv.uz

## Чолғу асбоблари орқали боллаларда мусиқий ижодкорликни шакллантириш.

**Эшмуродова Дурдона Ўктамовна**
**Термиз Педагогика институти**
**Мусиқа таълим ва санъат 2-босқич магистранти**

***Аннотация:*** *Мақолада мактабгача таълим ёшдаги болаларга мусиқа орқали тарбия беришнинг ўзига хос усуллари, бу жараёнда ўзбек миллий чолғу*

*...бобларининг аҳамияти ҳақида сўз боради. Мактабгача ёшдаги болаларда ...сиқий идрокни шакллантириш осон эканлиги, чунки бу ёшда болалар ...птувчан бўлиши ҳақида урғу берилган.*

***Калит сўзлар:*** *Мусиқа, мактабгача, эшитиш, идрок, чолғу, ривожлантириш, динамика, ритм, рақс, куй, болалар, тарбиячи, педагог, ...сиқий асар, қўшиқ, вақт, жўровоз ва ҳоказо.*

Мактабгача ёш мусиқий фаолиятда индивидуал ижодий намоёнликларни ...онга ошириш учун энг макбул давр саналади. Бу мактабгача ёшла ривожланаётган организм атроф оламдаги объектларнинг товуш ...рактеристикаларига нисбатан сенситив экани, мусқий образларга эмоционал ...муносабатда бўлиши билан изоҳланади. Мусиқа болаларнинг бутун сенсов ...ои ривожланишига сенсибил таъсир кўрсатади, сезги органларининг қабул ...лишувчанлигини оширади, бу эса болаларни “тадқиқотчилик ҳаракатлари”га ...ундайди. Бу ҳаракатлар мусиқий-ритмик ҳаракатлар шаклида бўлиб, фаол эшитиш-мотор характерига эга бўлади (Б.М.Теплов) ва ўз мантиқи билан ...ралиб туради, ички зиддиятлар ва уларнинг ечимлари билан уйғотилади (Н.Н.Поддъяков). мусиқа келтириб чиқарган ҳисларни мусиқий-ритмий ...ўйнуларда гавдалантириш мусиқани эшитиш мусиқий ҳаракатнинг вақтдаги ...боришини у ёки бу даражада аниқ ифодалайдиган бевосита ҳаракатга оид реакциялар билан кечишида (Б.М.Теплов, К.В.Тарасова) намоён бўлади.Мусиқий-ритмик ҳаракат ҳамма вакт мндивидуал ва ўзи учун аҳамиятли, мустақил ҳамда боланинг ижрочилик ва продуктив ижодга иродавий тайёрлигини ифодалайди.

Шу билан бирга, мактабгача таълим муассасаларида мусиқий тарбия ва таълим таҳлили унинг натижавийлигига салбий таъсир кўрсатувчи қатор педагогик ҳодисаларни аниқлаш имконини берди. Қатор йиллар мобайнида мусиқий тарбияда чекланган репертуар асосида асосий хонандалик ва мусиқий-ритмик кўникма ва малаларга ўргатиш ҳамда турли байрам тадбирларига

тайёргарлик устуворлик қилди. Бу тенденция жамиятнинг шахсни ижодий ривожлантиришга талаблари билан бу талабни анъанавий дидактик тизим доирасида амалга оширишнинг имкони йўқлиги ўртасидаги зиддиятни кескинлашритиб юборди. МТМ да бутун мусиқий фаолиятнинг "дидактик йўналтирилганлиги" болаларнинг индивидуаллиги ва ижодкорлигини тормозланишига олиб келди.

Бола яхлит бир феномен сифатида ривожланиши тўғрисидаги фикрга эътироз билдириш қийин. Маълум соат ёки йиллар давомида муайян психик жараён ривожланиши рўй беришини тасаввур қилиш мумкин эмас. Мактабгача муассаса педагогик жараёнида, масалан, эрталаб фақат жисмоний, кечки вақт эса фақат ақлий ривожлантириш амалга оширилиши ҳақидаги фикр янада бемаъни кўринади.

Хонандалик фаолиятининг ритмий фаолиятга нисбатан устуворлиги ҳақидаги масала ҳам мунозарали. Мусиқа санъатининг тикланиш тарихи таҳлили ишонарли тарзда кўрсатиб берадики, инсонлар жамияти ривожланишида объектив сабаблар (маросимлар, дин ва ш.к.) туфайли ритмларган ҳаракат фаолияти бирламчи ривожланган. Ҳаракатларни мусиқий безаш куйлашга ўтиш, яъни у иккиламчи бўлган. Қадимги Мисрда "куйлаш" атамаси "қўллари билан мусиқа чалиш" ни ифодалаган (Э.Далькроа, И.Т.Александрова, С.С.Веверинцев ва бошқ.). боланинг турли ҳаракатларга эҳтиёжи халқ педагогикаси методларига ўз таъсирини ўтказган (чайқаш, ҳаракатли ўйинлар ва ш.к.). бу каби ҳолатлар мусиқий фаолиятнинг мусиқий-ритмик ҳаракатлар каби йўналишига муносабатни ўзгартиришнинг долзарблигини асослаш имконини беради.

Мактабгача ёшдаги болани мусиқий ривожлантириш тизимида мусиқий образларни идрок қилиш ва репродуктив қайта яратиш катта ўрин тутади. Мусиқий-ритмик фаолият интерпретация (талқин) фаолияти сифатида мусиқий тарбияда устувор ўрин тутмайди. Шу билагн бирга айнан шу фаолият мусиқий образларни идрок этиш натижаларини моддийлаштиради, мусиқий асар (куплет, хиргойи, нақарот, мусиқий фраза, оҳанг ва ш.к.), мусиқий образлар ("тойчоқ",

"тулпор" "қўғирчоқ" ва бошқ.), рақс ҳаракатлари ""арқонча", "қайиқча", "коалик" ва ш.к.) структурасини ижодий англаш имконини яратади. Мусиқий-ритмикфаолиятда улар боланинг индивидуал нигоҳи (қараши) га мувофиқ тарзда бойитилади ва ривожлантирилади. Мазкур фаолият жараёнида туғилган болаларча ўйлаб топиш ва фантазия боланинг эҳтиёжига айланади ва исталга бошқа фаолиятга кўчади.

Болаларни мусиқий ривожлантиришнинг мавжуд тизими тушунарлилик (қулайлик) тамойилига, мактабгача ёшдаги боланинг шаклланиб улгурган ижрочилик ва ритмик малакаларига асосланади. Мусиқий фаолиятнинг репродуктив иарзда қурилиши айнан шу билан белгиланади. Шу билан бирга, психологияда (В.С.Виготский, Л.Б.Эльконин, В.В.Давидов ва бошқ.) ривожланишнинг "бугунги" даражасига йўналганлик шахснинг ижодий йўналганлигини тарбиялаш учун тормоз экани ҳақидаги қоида ўз исботини топиб улгурган. Боланинг ижодий имкониятларини кашф қилиш учун оптимал шароит таълимни "ривожланишнинг экин зонаси"га йўналтирилганида шакллантирилади. Шу муносабат билан, мусиқа санъатини уни идрок қилиш ва унинг таъсирини ҳисобга олган ҳолда билиш жараёнини қуриш тамойилларини танлаш долзарблик касб этади.

Маълумки, мусиқий образ асосини реал оламнинг жарангли образи ташкил қилади. Шу сабабли боланинг мусиқий ривожланиши учун атроф оламдаги жаранг сочувчи образларда реал тақдим қилинган (масалан, эшик ғирчиллайди, мушук миёвлайди каби), асосини сенсор эталонлар (жаранг баландлиги, давомийлиги, кучи, тембри) тизими ташкил этадиган бой бадиий тажрибанинг мавжулиги жуда муҳим. Қолаверса, мусқий фаолият жараёни асосан сунъийй ҳосил қилинган образлар асосига қуриладики, буларнинг товуш ва ритмик аналоги атроф оламда мавжуд эмас (қўғирчоқлар ашула айтади, қуёнлар рақсга тушади каби). Мусиқий-сенсор тажрибанинг йўқлиги педагогни мусиқий фаолиятни репетиторлик ва тренинг фаолияти тарзида йўлга қўйишга ундайди. Бу каби нуқтаи назар мусиқий фаолият мазмунини атроф оламнинг реал жарангини идрок этиш ҳисобига кенгайтиришнинг долзарблигини кучайтиради.

Мусиқа санъати билан таништиришнинг мазмунида мактабгача ёшдаги бола учун тушунарли бўлган яна кўплаб, мусиқанинг инсон ҳаётидаги аҳамияти, турли мусиқий ҳодисалар, айрим мусиқа чолғу асбобларининг яратилиш тарихига оид маълумотлар киртилмай қоляпти.

Платоннинг кетидан ижоднинг фалсафий моҳиятини таҳлил қилиш билан Аристотелб шуғулланди, у ижод деганда санъат асарини яратиш жараёнини тушунар эди. Фалсафа нуктаи назаридан ё ижодкорнинг ўзига боғлик бўлмаган ҳолда, тахлид қилиш йўли билан ташқи асарни яратишга (8; Т3), ёки инсоннинг психологик тажрибасини ташкил этиш фаолиятига йўналтирилган инсоннинг инстинктив- интуитив амалий фаолиятидир (Ж.П.Сартр, С.Кьер кегар). Бир-биридан фарқ қилишига қарамай кўпчилик файласуфлар ижоднинг учта асосий ташкил этувчиларини алоҳида ажратишади: инсоннинг тажрибаси, «диний беҳослик» (интуиция) ва санъат асарини яратиш бўйича амалий фаолият. Ижодда тафаккур механизмлари, файласуфларнинг фикрига кўра, айланади: онг ва ижодни таққослаб бўлмайди, қарама-қаршидир.Катта мактабгача ёшдаги болалар шахсининг ижодий йўналганлигини тарбиялаш атроф оламни идрок этишнинг умумий қонуниятлари, фалсафа фанида кашф қилинган ва санъат оламини идрок қилишга дахлдор бўлган:воқелик ҳақидаги ахборотларни идрок қилиш, ижтимоий фаолиятнинг турли соҳалари билан ўзаро ҳамкорлик бўйича қадриятли йўналганликлар тизими асосида қаралади.

Мусиқа санъати жамият ҳаётининг бир қисми бўлиб, унинг таъсирини ўзида ҳис қилади, шу сабабли у билан ўзаро таъсир нафақат таклиф қилинган тайёр образларни идрок қилиш, такрорлаш балки яратиш фаолияти, хонандалик ва ритмик-мусиқий образларни яратишда ҳам ўз ифодасини топади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. И.А.Каримов «Юксак маънавият-енгилмас куч»
2. И.А.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бусағасида»
3. Жондор Тўленов «Қадриятлар фалсафаси»
4. Сайфулло Турсунов «Сурхондарё вилояти топонимлари»
5. Исо Жабборов «Ўзбеклар»

6. Гулжаҳон Мардонова «Нур тўла уй»
7. Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейининг ноёб экспонатлари тавсифлари асосида маълумотлар йиғилди.

## CHANQOVUZ IJROSI BILAN BOG'LIQ BADASHLAR

Shuhratova Xusnora Shuhrat qizi
TerDPI Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada chanqovuz ijrosiga oid badashlarda xatakilar kuy bilan birga ohang ham chiqarganlari, chanqovuz nolasi va ona allasi, chanovuzda moyillik boshlanishi va qo'zi ma'rashi nolasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: chanqovuz nolasi, moyillik, ona allasi

Аннотация: В статье о исполнении на чанковузе в бадашах, хатаки вмести с мелодией рассказов создовали созвучия чанковуза и материнскую песню баюкающую ребёнка, начинающую характерную чанковузу и напоминающую блеяние ягнёнка.

Ключевые слова: Звуки чанковуза, характерная, материнская песня

Abstract: In the article, in the badashes related to the performance of the chanqovuz, the khatakis made a melody along with the melody, the lament of the chanqovuz and a lullaby, the beginning of possibility in the chanqovuz and the lament of the lamb.

Key words: lament of the chanqovuz, possibility, lullaby

Chanqavoz nolasi - badashning bu turida faqat chanqovuz ishtirok etadi. Uni chalish uslubi boshqa joylardagidan farq qilgan. Turkiy urug'larda faqat o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i bilan chanqovuz chalgan bo'lsa, xatikilar o'ng qo'l ko'rsatgich barmog'iga qo'shimcha chap qo'l barmog'i xamida nomsiz barmoqni ham ishlatganlar

Boshqa ko'chmanchilar chanqovuzda faqat kuy chiqarishgan bo'lsa, xatakilar kuy bilan birga ohang ham chiqarganlar. Chanqovuz badashlarida avval qo'shiq aytilgan, so'ngra esa, chanqovuz chalingan. Ammo, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, chanqovuzda ham bijdonba-bijdonbij ohangi bor. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Chanqovuz nolasi va ona allasi- bunda ona allani chanqovuz jo'rligida aytadi. Chanqovuz nolasi ona allasiga hamohang bo'lmog'i kerak. Chanqovuzda chalingan ona allasi bolani tinchlantirib, uning to'yib uxlashiga sabab bo'lgan. Chanqovuz bilan aytiladigan ona allasi boshqa allalardan farq qiladi.

Alla desam yotarmu,
Alla, jonim, alla.
Par yostiqqa botarmu,
Alla, jonim, alla.

Dikir-dikir yursin shul,
Alla, jonim, alla.
Shunga tikan urmasin,
Alla, jonim, alla.

Ko'zi holli bandani,
Alla, jonim, alla.
Shunga ko'zi tegmasin.
Alla, jonim, alla.

Suv boriga soydinim,
Alla, jonim, alla.
El ichida oydinim,
Alla, jonim, alla.



Osmondagi yulduzim,
Alla, jonim, alla.
Qo'lda tillo uzugim,
Alla, jonim, alla.

Ko'zi xumor suzugim,
Alla, jonim, alla.
Osmon bo'lib saralangan,
Yigitlarning sardori,
Alla, jonim, alla.

Elimizning posboni bo'lgin bolam,
Alla, jonim, alla.
O'z yurtingni qo'riqchisi, bo'lgin bolam
Alla, jonim, alla.

Jon dilim paxlavonim,
Alla, jonim alla.
Otasining quvvati,
Alla,jonim, alla.

**Chanovuzda moyillik boshlanishi va qo'zi ma'rashi nolasi** -erta bahor, ayniqsa, Navro'z kunlarida momolar kuylashgan. Bundan ko'zlangan maqsad- o'g'illari balog'at yoshiga yetayotgan cho'ponlarga o'z farzandlarini uyli-joyli qilib naslini davom ettirishi, bunda o'z mahallasi qizlarini begona qilmasligi lozimligi eslatiladi.

Chanqovuzda moyillik nima? Degan savol tug'ulishi tabiiy holdir. Ta'kidlash joizki, aprel oylarida ovulga ko'chib chiqishadi. Shunda ertalab qo'ylarni sog'ib olish kerak. Onalar qo'llariga kadi olib o'gil, qizlari bilan qo'ylarni sog'ishga chiqadilar. Qiz

va yigitlar qo'zilarni ushlab turadilar. Onalar qo'ylarini sog'averadilar. Shunda yigit va qizlar qo'zilarni bo'yidan maxkam ushlab 10 metr uzoqlikdan bir-birovlari bilan qora uyning orasidan ko'zlari bilan uzoqdan gaplashadilar. Chunki yaqindan turib gaplashish iloji yo'q edida. Yigit qizga ko'zi bilan ishora qilib gapirmoqda. Qiz ham yigitga qarab ko'zi bilan ishora qilib yigitning savollariga javob bermoqda.

Yigit dedi:
Qo'y keladi qo'zi bilan,
Hay, yor-yor, aylanay!
Bir-birining izi bilan
Hay, yor-yor, aylanay!

Qo'zilarni izini ko'r,
Hay, yor-yor, aylanay!
Hamsoyani qizini ko'r,
Yor-yor, aylanay!

Qora uydan aylanib,
Hay, yor-yor, aylanay!
Soyasiga boylanib,
Yor-yor, aylanay!

Ko'rib qoldim, qaddi-qomat bo'ylaringiz,
Hay, yor-yor, aylanay!
Anordayin yuzlaringiz,
Yor-yor, aylanay!

Oh! Chakkangizga hol bo'layin,
Hay, yor-yor, aylanay!
Meni o'zi ko'rdingizmi

Yor-yor, aylanay!

Izimdan qarab qoldingizmi
Hay, yor-yor, aylanay!

aytdi:

Qalpog'ingiz po'pagini.
Ko'rib qoldim-ku, yor-yor aylanay.
Belbog'ingiz sochig'ini,
Ko'rib qoldim-ku, hay yor-yor aylanay.

Katta-katta qadam, tashlab,
Men tomonga yurganingiz,
Ko'rib qoldim-ku,
Yor-yor aylanay.

Adirlarni lolasini,
Terib olsam hay yor-yor aylanay!
Siz tomonga men ham,
Borib qolsam yor-yor aylanay,

To'ningizni yoqasiga,
Munchoqli popuk bo'lsam.
Hay yor-yor aylanay
Qaychingizga dasta bo'lib,

Chin yurakdan xizmat qilsam,
Yor-yor aylanay.
Otingizning uzangisi,
Uzun ekan, hay yor-yor aylanay.

Meni ko'rganingiz,

Tuzuk ekan, hay yor-yor aylanay.

Sizni ko'rib izingizga qarab qoldim,

Yor-yor aylanay.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. A. Xolmirzayev. Badash sanatining Navroziy navolari. Manaviyat gulshani" gazetasi, 2014-yil 28 mart №7 (468)
2. A. Xolmirzayev. "Navro'ziy navolar". O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2014-yil 21 mart
3. A. Qo'ng'irotova "Hayot bu orzulardan iborat emas" "Surxon- Nashr". Termiz 2019
4. I. Umarov, H. Rahmonov, E. Hudoyberdiyev Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (Xatakilar urugi misolida). Toshkent, 2014, 220-236-betlar.
5. I. Umarov Badash: tarix va anana. Surxon-Nashr 2018
6. S. Tursunov, T. Pardayev, H. Tursunova, B. Murtozoyev. Ozbekistonda baxshichilik sanatining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. Toshkent,2015, 234-247-betlar.

## Qaydlar uchun

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

***“MUSIQA TA’LIMI, TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA O‘QITISH ISTIQBOLLARI”***

mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjuman materiali

2022-yil 25-26-noyabr

Terishga 15.11.2022-yilda berildi. Bosishga 14.12.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Hajmi 25,75 bosma taboq. Buyurtma №30. Times New Roman garniturasi. Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 412 bet.

“IRFON-PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Termiz shahri, “A.Navoiy” ko'chasi, 40-uy.





ISBN:978-9943-7487-9-8
9 789943 748798